



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT ShARQShUNOSLIK INSTITUTI**

## **ARXELOGIYA ASOSLARI**

**fanidan**

## **O'QUV - USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi:

100000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi:

120000 – Gumanitar ta'lim

Ta'lim yo'nalishi:

5120300 – Tarix (mamlakatlar va  
mintaqalar bo'yicha)

Toshkent – 2013

Mazkur O'quv-uslubiy majmua namunaviy dastur va ta'lif yo'naliishing o'quv rejasi asosida ishlab chiqilgan va "Xorijiy mamlakatlar tarixi" kafedrasining \_\_\_\_\_ 20\_\_\_\_ yildagi \_\_\_\_\_ - sonli majlisida, "Jahon siyosati va tarix" fakulteti ilmiy-uslubiy kengashining \_\_\_\_\_ 20\_\_\_\_ yildagi \_\_\_\_\_ - sonli majlisida muhokama qilingan.

T u z u v ch i:

**Z.M.Qodirov, «Xorijiy mamlakatlar tarixi»  
kafedrasi katta o'qituvchisi**

T a q r i z ch i l a r:

**t.f.d. R.X.Sulaymonov, O'zMU «Arxeologiya»  
kafedrasi professori  
t.f.d. Karimova N.E. TDShI «Jahon siyosati»  
kafedrasi professori**

"Arxeologiya asoslari" fanining o'quv-uslubiy majmuasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti O'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (\_\_\_\_\_ 2011 yildagi \_\_\_\_ - sonli bayonnomma)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi  
*N05A120304-2.1.1*  
2011yil \_\_\_



O'zbekiston Respublikasi Oliy va  
o'rta maxsus ta'lif vazirining  
2011 yil "14" noyabr dagi  
buyrug'i bilan  
tasdiqlangan

*Lag'ob.*

**ARXEOLOGIYA ASOSLARI**  
fanining

**O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar soha
Ta'lif sohasi	120000 - Gumanitar fanlar
Ta'lif yo'nalishi:	5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha)

**Toshkent – 2011**

Fanning o'quv dasturi Oliy va o'rtal maxsus kasb-hunar ta'lifi o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvoqilahtiruvchi Kengashning 201 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi «\_\_\_» son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik institutida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:** Qodirov Z.M. – “Xorijiy mamlakatlar tarixi” kafedrasini katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:** Zokirov Sh.Sh. – Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti “Tarix” kafedrasini katta o'qituvchisi

Xojiyeva M.D.– Toshkent Davlat Sharqshunoslik Institutu “Xorijiy mamlakatlar tarixi” kafedrasini dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Ilmiy-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (201 yil \_\_\_\_\_ dagi «\_\_\_»sonli bayonnomasi).

## **Kirish**

Ushbu dastur arxeologiya fanining nazariy va amaliy asoslari, arxeologik davrlashtirishning asosiy tamoyillari, arxeologiya fani tarixi, arxeologik kashfiyotlar tarixi, mintaqadagi eng muhim arxeologik majmular (ibrido manzilgohlar, ilk urbanistik yodgorliklar, antik davr va o'rta asrlar arxeologik ob'ektlari), ularning o'rganilish tarixi, tarixiy talqini, moddiy madaniyat majmularining tarixiy-madaniy mohiyati tasviriy san'at obidalari(hajmli, rang-bo'yoq va b.), ma'naviy-mafkuraviy funksiyaga ega yodgorliklarning tarixiy talqini, turmush madaniyati bilan bog'liq maishiy-moddiy yodgorliklarni talqin etish masalalarini kamrab oladi.

## **O'quv fanining maqsadi va vazifalari**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda arxeologiya fanining nazariy va amaliy asoslari, arxeologik davrlashtirishning asosiy tamoyillari, arxeologiya fani tarixi, arxeologik kashfiyotlar tarixi xaqida ko'nikma va malaka shakllantirish.

Fanning vazifasi - talabalarga mintaqadagi eng muhim arxeologik majmular (ibrido manzilgohlar, ilk urbanistik yodgorliklar, antik davr va o'rta asrlar arxeologik ob'ektlari), ularning o'rganilish tarixi, tarixiy talqini, moddiy madaniyat majmularining tarixiy-madaniy mohiyati tasviriy san'at obidalari (hajmli, rang-bo'yoq va b.), ma'naviy-mafkuraviy funksiyaga ega yodgorliklarning tarixiy talqini, turmush madaniyati bilan bog'liq maishiy-moddiy yodgorliklarni talqin etishga o'rgatishdan iborat.

## **Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar**

"Arxeologiya" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- qadimiyl davrlar va o'rta asrlar tarixi bo'yicha moddiy-arxeologik tadqiqotlarning ahamiyati va o'rni; jahon xalqlarining moddiy madaniyati; dunyo xalqlarining qadimgi va o'rta asr madaniyati va san'ati tarixi; qadimdan to hozirgi kungacha jahon tarixini **bilishi kerak**;

- Arxeologiya asoslari, dala ishlari metodikasi: izlash, topografiyasi, rekognostsirovka, qazish ishlari texnologiyasi, kamerallishlov va ashyoviy yodgorliklarning talqini; arxeologik topilmalar (ibrido odamlar manzilgohlari, moddiy-ashyoviy buyumlar, mehnat qurollari, zebiziyat buyumlari va boshqalar) asosida insoniyatning turmush tarzi, xo'jalik usullari, madaniyma'naviy munosabatlari tarixi xaqida bilim va **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

- qadimgi Sharq va G'arb xalqlari tarixiga oid arxeologik yodgorliklar bo'yicha ashyolar, ma'lumotlar, faktlarni talqin eta bilish; jahon xalqlari tarixini tarixnavislik va bibliografik nuqtai nazardan tahlil qilish; o'rganilayotgan mintaqqa xalqlari tilida so'zlashish, o'sha xalq nutq etiketi qoidalariga rioya qilish, shu tildagi yozma matnlarni, mamlakatshunoslik va xalq hayotiga oid xorijiy adabiyotni yordamchi vositalarsiz o'qish va tarjima qilish **malakalariga ega bo'lishi kerak**.

## **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'likligi va uslubiy jixatdan uzviy ketma-ketligi**

Arxeologiya fani asosiy ixtisoslik fani xisoblanib, 1 semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalshtirilgan umumkasbiy (umumiyl tarix, o'rganilayotgan mintaqqa (mamlakat) tarixi, o'rganilayotgan mintaqqa (mamlakat) manbashunosligi, o'rganilayotgan mintaqqa (mamlakat) ijtimoiy-siyosiy oqimlari va madaniyati, o'rganilayotgan mintaqqa (mamlakat) etnografiyasi va ixtisoslik (yordamchi tarixiy fanlar), antropologiya va lingvistika, etnografiy fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

## **Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni**

Arxeologiya - tarix fanining bir qismini tashkil etib, jamiyat tarixining qadimgi davrini o'rganadi. Arxeologik qazilmalar natijasida quyidagi manbalar: madaniy qatlamlar, qadimgi

qazilmalar, qadimgi manzilgohlar aniqlanadi. Arxeologiya fani xronologiya va davriylashtirish vazifalarini bajaradi, ashyoviy dalillarni o‘rganadi, ularning turlarini aniqlab, taqsimlaydi. Arxeologik qazilmalar asosida qadimgi sivilizatsiya uchog‘lari aniqlanib, o‘rganilayotgan mamlakatlar tarixi yanada boyitiladi. Shuning uchun arxeologiya tarix fanining ajralmas bo‘g‘inidir.

### **Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning arxeologiya fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasiyoning texnologiyalarni tadbiq qilish muhim yaxamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqtma materiallar, elektron materiallar va qazilma materiallaridan foydalilanadi. Ma’ruza va amaliy darslarida mos ravishdagi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalilanadi.

### **Asosiy qism**

#### **Tosh asri**

Paleolit. Yer tarixi. Kaynazoy erasi. Eng qadimgi odamlar yashagan hududlar. Ularning tashqi ko‘rinishi. Arxeologik davrlash. Olduvay davri, mehnat qurollari. Ilk paleolit. Ashel davri. Ashel davri arxeologik yodgorliklari. Muzlik davri. Mehnatning dastlabki bo‘linishi. Matriarxat tuzumi.

O‘rta paleolit - must‘e davri. Toshga ishlov berish. Muste davri manzilgohlari. Xo‘jalik turlari. Diniy tasavvurlarning shakllanishi. Urug‘chilik jamoasining vujudga kelishi. So‘nggi paleolit. Xozirgi qiyofadagi odamning shakllanishi. Qabilalarning ko‘chishi. Tasviriy san‘at. Dastlabki ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar.

Mezolit. Davriylashtirish masalasi. Mezolitik mehnat qurollari. Mikrolitlar. Tabiiy - jug‘rofiy o‘zgarishlar. Golotsen davrining boshlanishi. Ov qilish usullarining takomillashuvi. Urug‘ jamoaning yemirilishi va qabilalarning paydo bo‘lishi. Dehqonchilik va chorvachilikning paydo bo‘lishi. Mezolit davri san‘ati.

Neolit. Neolit davri, ishlab chiqarish xo‘jaligiga o‘tish. Turar joylar, mehnat qurollari. Kulolchilik. To‘qimachilik, “Neolit inqilobi” davri. Sug‘orish dehqonchiligi. Joytun dehqonchilik madaniyati. Kaltaminor madaniyati.

Kavkaz neoliti. Xo‘jalik turlari. Qishloqlar. Qrim neoliti. Turar joylar. Mariupol qabristoni. Narva madaniyati. Ural neoliti. Baykal bo‘yi neoliti.

Eneolit. Metalni paydo bo‘lishi tarixi. Metallurgiyaning yoyilishi. Eneolit davri chegaralari. Mehnat qurollari. Mehnatning dastlabki yirik ijtimoiy taqsimoti. Patriarxal tuzum.

### **Yevroosiyo hududida dehqonchilikning uch markazi**

Nomozgoxtepa kompleksi. Kavkazorti eneolitik yodgorliklari. Kultepa manzilgoxi. Nalchikda topilgan qo‘rg‘on va qabrlar. Tripole dehqonchilik madaniyati va uning davrlari. Sopol idishlar, qabrlar, dafn etish marosimlari.

Markaziy Osiyo va Kavkazning bronza asri (Jez davri). Iqlim sharoiti. Bronzaning kashf etilishi. hududlarning iqtisodiy jihatdan notejis rivojlanishi. Markaziy Osiyoda bronza asri. Nomozgox - Oltintepa manzilgoxi. Nomozgox - Zikkurat yodgorligi.

Kavkazda bronza asri. Kuro - Araks madaniyati. Maykop madaniyati. Shimoliy Kavkaz madaniyati. Triolet madaniyati. Qo‘rg‘onlar. Koban madaniyati. Kolxida madaniyati.

Temir asri. Urartu davlati madaniyati. Temirni kashf etilishi masalasi. Ilk temir buyumlari va ularning tarqalishi. Urartu davlati, ijtimoiy - siyosiy tuzum. Yuksalish va zaiflashib borish davri. Erebuni shaxri. Teyshebani qal‘asi. Urartu dehqonchilik davlati. Temir ustaxonalari. Urartu davlati qulashining sabablari.

### **Skiflar va sarmatlar**

Kimmeriyliklar va ularning harbiy faoliyati. Qabrlar, qurollar, keramika. Kimmeriyliklarning yo‘q bo‘lib ketishi tarixi.

Skiflar madaniyati, qabilalarning ikki turi. Skiflarning turmush tarzi, shaharlari, chorvachilik xo‘jaligi. Qo‘rg‘onlar va katakombalar.

Chartomliq qo‘rg‘oni. Tolstaya magila (Qalin qabr) qo‘rg‘oni. Soloxa va Kul - oba qo‘rg‘onlari. Skiflarning tasviriy san’ati va madaniyati. Skiflarda davlatchilikning vujudga kelishi. Skiflarning kelgusi taqdiri.

Sarmatlar, ularning ijtimoiy tuzumi, turar joylari. Sarmat podshoxlarining qabrlari va qo‘rg‘onlari. Keramika va harbiy quollar. Sarmatlarning tarqalib ketishi sabablari.

### **Markaziy Osiyoning quldorlik davlatlari**

Markaziy Osiyo qadimgi tarixining davrlari. Tagisken qo‘rg‘onlari. Yoztepa yodgorligi. Ilk quldorlik davlatlar va shaharlar. Qadimgi Baqtriya, Sug‘diyona va Marg‘iyona. Afrosiyob, Qiziltepa, Jonbosqal'a.

Markaziy Osiyo Axamoniylar davrida. Dirlarning turli - tumanligi. Grek - Baqtriya davlati. Xolchayon, Zartepa. Saroy inshootlari. Parfiya davlati. Kushon podsholigi. Dalvarzin va Termez shaharlari. Ayrtom ibodatxonasi. Tuproqqa'l'a saroyi. Afrosiyob shahri. Kushon davri madaniyati. Marv shahri.

Markaziy Osiyoning feodal davlatlari. Markaziy Osiyo ilk va rivojlangan feodalizm davrida. Qadimgi Samarqand saroyi. Panjikent shahri qazilmalari. Qadimgi Varaxsha saroyi. Markaziy Osiyo Arab xalifaligi tarkibida. Tasviriy san’at. Somoniylar maqbarasi. Markaziy Osiyo shaharlari. Sug‘orish inshootlari. Kumush tangalar (dirxem). Minorai - Kalon. Buxoro xovuzlari.

Xorazm davlati va Urganch shaxri. O‘rta Osiyo shaharlari mo‘g‘ullar bosqini davrida Samarqand Amir Temur davrida. Go‘ri Amir maqbarasi, Shohi Zinda kompleksi. Movarounnaxr Mirzo Ulug‘bek davrida. Ulug‘bek rasadxonasi.

### **Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg‘ulotlarning taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Tosh asri. Paleolit.
2. Mezolit.
3. Neolit.
4. Eneolit.
5. Markaziy Osiyo va Kavkazning bronza asri (jez davri).
6. Temir asri.
7. Urartu davlati madaniyati.
8. Skiflar va sarmatlar.
9. Markaziy Osiyoda quldorlik davlatlari.
10. Markaziy Osiyoning feodal davlatlari

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma’ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy tajribalar o‘tqazish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali quollar tayerlash va boshqalar tavsiya etiladi.

### **Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar**

“Arxeologiya” fani bo‘yicha laboratoriya ishlari ko‘zda tutilmagan.

### **Kurs loyixasini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar**

“Arxeologiya” fani bo‘yicha kurs ishlari ko‘zda tutilmagan

## **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talabaga mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan xolda quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish.
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish
- maxsus adabiyot bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishslash
- yangi ashylarni, jarayonlar va texnologiyalarni o‘rganish
- talabalarning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarnini bajarish bilin bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish
- faol va muamolli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari
- masofaviy (distansion) ta’lim

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Arxeologiya fanining vazifalari
2. Sanalashtirish usullari
3. Paleontologiya va paleobotanika ma’lumotlari
4. O‘rta paleolit - must’e davriga oid materiallari
5. Nomozgoxtepa kompleksi
6. Kavkazorti eneolitik yodgorliklari
7. Markaziy Osiyoning feodal davlatlari
8. Tasviriy san’at. Somoniylar maqbarasi.
9. Markaziy Osiyo shaharlari. Sug‘orish inshootlari. Kumush tangalar (dirxam).

## **Dasturning informasiy-uzlubiy ta’moti**

Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

- Paleolit, Mezolit, Neolit, Eneolit, paleontologiya va paleobotanika ma’lumotlari bo‘limiga tegishli ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan.

- Yevroosiyo hududida dehqonchilikning uch markazi, Kavkazorti eneolitik yodgorliklari mavzularida o‘tqaziladigan amaliy mashg‘ulotlarida aqliy xujum, guruxli fikrlash pedagogik texnologiyalaridan.

- Skiflar va sarmatlar, Markaziy Osiyoning quldorlik va feodal davlatlari mavzularida o‘tqaziladigan tajriba mashg‘ulotlarida kichik guruxlar musobaqlari, guruxli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo‘llash nazarda tutiladi.

## **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar**

1. Avdusin D.A. Osnovi arxeologii. M, Vissaya shkola. 1989.
2. Alekseyev V.P. Pershis A.I. Istorya pervobitnogo ob‘yestva. M, Vissaya shkola. 1990
3. Kabirov J. Sa’dullaev A.S. O‘rta Osiyo arxeologiyasi. T. Fan. 1992
4. Xadjiyev M.D. Osnovi arxeologii. T. 2000.
5. Boynazarov F. Qadimgi dune tarixi. Darslik. T., 2004

## **Qo‘srimcha adabiyotlar**

1. Xodjaev T.K. Istoricheskaya antropologiya. T, Fan. 1990
2. Xidoyatov G.A. Mening jonajon tarixim. T, O‘qituvchi. 1992
3. O‘zbekiston xalqlari tarixi. 1 -2 tom. T, Fan. 1993
4. Umumi tarix. Qadimgi davr. T., ToshDShI, 2010.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**"XORIJUY MAMLAKATLAR TARIXI" kafedrasi**

“Tasdiqlayman” \_\_\_\_\_  
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor  
v.v.b. S.M.Umarova

Ishchi dastur Institut O‘UK majlisining  
2012 yil № \_\_\_\_\_ - sonli  
bayonnomasi bilan tasdiqlandi.

**ARXEEOLOGIYA ASOSLARI**  
fanidan  
ishchi o‘quv dasturi

Ta’lim yo‘nalishi: 5120300 Tarix (mintaqalar va mamlakatlar bo‘yicha)

Kurs 1  
Semestr 1  
Ma’ruza 18  
Amaliy mashg‘ulotlar 20  
Jami 38  
Mustaqil ta’lim (xar bir talabaga 0,25 soat)  
Reyting (xar bir talabaga 0,5 soat)

**Toshkent - 2012**

Ishchi dastur namunaviy dastur va ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tuzilgan.

Tuzuvchi: **Katta o‘qit. Qodirov Z.M.**

Ishchi dastur kafedra majlisida muhokama qilingan. \_\_\_\_\_ 2012 yildagi № \_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi.

Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ **Yu.A.Ismoilova**

Ishchi dastur fakultet O‘UK majlisida muhokama qilingan va tasdiqqa tavsiya etilgan. 2012 yil № \_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi.

Fakultet O‘UK raisi: \_\_\_\_\_

xafta	Darslarning o‘quv mavzulari	Darsning shakli	soat	Adabiyotlar	Auditoriy a-dan tashqari bajariladi-gan mustaqil ish mavzulari	Nazorat shakllari	Mak. ball mavzu uchun	Mutaqil ish uchun ball	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	
<b>I – SEMESTR</b>									
1.	<b>Arxeologiya faniga kirish:</b> (Arxeologiya fan sifatida. Arxeologiyaning ijtimoiy fanlar sohasida tutgan o’rni. Arxeologiyaning fan sifatida shakllanish va rivojlanish tarixi. Arxeologik manbalar va ularning madaniytarixiy jarayonlarni o’rganishdagi ahamiyati. Arxeologik tadqiqot usullari. Madaniy qatlamlari. Xronologiya va davrlashtirish. Arxeologiya fanining yordamchi tarmoqlari.)	Ma’ruza	2	1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008. 2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. – T., 1998. 3. Kabirov J., Sagdullayev A. O’rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990. 4. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989. 5. Методика полевых археологических исследований. – М., Наука, 1983. 6. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-Т.: 2011. 7. Мартинов А.И. Шер Я.А. Методы археологического исследования. – М.: 2002. 8.Мартинов А.И. Археология. М., 2006.					
2.	<b>Paleolit davri arxeologiyasi:</b> (Paleolit davri va uning bosqichlari: olduvay, ashel, mustye va so’nggi paleolit. Insoniyat shakllangan hudud. Paleolit davri madaniyatlari bosqichlari. Osiyo, Yevropa va Afrikaning paleolit davriga oid asosiy yodgorliklari tavsifi. O’rta Osiyoning paleolit davri tavsifi. Asosiy arxeologik yodgorliklari. Insoniyatning Amerika mintaqasiga tarqalishi. Paleolit davri moddiy madaniyat. Mehnat qurollari. Tosh qurollariga ishlov berish texnikasi. O’zlashtiruvchi xo’jalik xususiyatlari (ovchilik va termachilik).	Ma’ruza	2	1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008. 2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. – T., 1998. 3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999. 4. Kabirov J., Sagdullayev A. O’rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990. 5. Sagdullayev A. Qadimgi O’rta Osiyo tarixi. – Т., 2004. 6. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989. 7. Археология Зарубежной Азии. - М., «Высшая школа», 1986. 8. Григорьев Г.П. Начало верхнего палеолита и происхождение Хомо Сапиенс. – Л., 1968. 9. Джохансон Д., Иди М. Люси. Истоки рода человеческого. – М., Мир,					

	Ibtidoiy tasviriy san'at. G'oyaviy qarashlar. Sun'iy turar joylarning paydo bo'lishi.)			1984. 10. Древние цивилизации. – М., Мысль, 1989. 11. Исламов У.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Т., 1986.				
3.	<b>Paleolit davri moddiy madaniyati:</b> (Paleolit davrining o'rganilish tarixi. Paleolit davrini arxeologik davrlashtirish. Yevropadagi ilk paleolit davri arxeologik yodgorliklari. Antropogenez jarayoni. Afrikada paleolit davrining o'rganilishi. Olduvay madaniyati. Kavkazning paleolit davri yodgorliklari. O'rta Osiyoning ilk paleolit davri yodgorliklari. O'rta Osiyo mustye davri xususiyatlari. So'nggi paleolit davri xo'jalik xususiyatlari. Antropologik topilmalar.)	Seminar	2	12. Каменный век на территории СССР.–М.,Наука,1970. 13. Палеолит СССР. Ранний палеолит Азиатской части СССР. Поздний палеолит Азиатской части СССР /Археология СССР. Отв. ред. П.И. Борисовский. – М., 1984. 14. Первые люди. – М., Мир, 1978. 15. Природа и древний человек. – М., Мысль, 1981. 16. Технология производства в эпоху палеолита. – Л., 1983. 17. Мартинов А.И. Шер Я.А. Методы археологического исследования. – М.: 2002. 18. Мартинов А.И. Археология. М., 2006. 19. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-Т.: 2011	<b>Arxeologiyaning fan sifatida rivojlanish tarixi</b>	Ogzaki so'rov	3	3
4.	<b>Mezolit davri arxeologiyasi:</b> (Mezolit davri tavsifi. Yovvoyi hayvonlarni xonakilashtirish. O'zlashtiruvchi xo'jalik shaklining rivojlanishi va uning ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining shakllanishidagi ahamiyati. Moddiy madaniyat. Mikrolitlar. Mezolit davri lokal madaniyatlarining shakllanishi. Old Osiyoning mezolit davri xususiyatlari Nutufiy madaniyati. Shimoliy Hindistonning mezolit davri xususiyatlari. O'rta Osiyoning mezolit davri madaniyatlari: Sharqiy Kaspiybo'yи, Qo'shilish, Obishir, Machay va boshqalar. Lokal madaniyatlarning xo'jalik va moddiy madaniyati. Tasviriy san'at. G'oyaviy qarashlar.)	Ma'ruba	2	1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т., 2008. 2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Т., 1998. 3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – Т., 1999. 4. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – Т., 1990. 5. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Т., 2004. 6. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989. 7. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. Что такое археология. – М., 1966. 8. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. В поисках исчезнувших цивилизаций. М., Наука, 1966. 9. Археологи рассказывают. Таджикгосиздат. – Сталинабад, 1959. 10. Древние цивилизации. – М., Мысль, 1989. 11. Исламов У.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Т., 1986.				

5.	<b>Mezolit davri arxeologiyasi:</b> (Mezolit davrining o'rganilish darajasi, xronologiyasi va davrlashtirish. Mezolit davri mehnat qurollari. Mikrolitlar. Tabiiy – geografik o'zgarishlar. Golotsen davrining boshlanishi. Ov qilish usullarining takomillashuvi. Yevropa hududining mezolit davri moddiy madaniyati. Rossiya va Kavkaz hududida mezolit. O'rta Osiyoning mezolit davri yodgorliklari. Mezolit davri san'ati.)	Seminar	2	12. Каменный век на территории СССР. – М., Наука, 1970. 13. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973. 14. Мезолит СССР. Мезолит Средней Азии и Казахстана (Г.Ф.Коробкова). Под общ. ред. акад. Б.А. Рыбакова. 4.2. Гл. 16. – М., 1983. 15. Исламов У.И. Обиширская культура. – Т., 1980. 16. Исламов У.И. Пещера Мачай. – Т., 1975. 17. Мартинов А.И. Археология. М., 2006. 18. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-Т.: 2011	<b>Antropogenez jarayoni</b>	Ogzaki so'rov	3	3
6.	<b>Neolit davri arxeologiyasi:</b> (Neolit davri tavsifi. Neolit inqilobi. Yevroosiyoning janubiy viloyatlarda ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining qaror topishi. Yaqin Sharqda ilk dehqonchilik. Ierixon madaniyati. Kichik Osiyo markazlari: Cheyunyu tepesi va Chatal Xyuyuk. Kulolchilik-ning paydo bo'lishi. Jarmo madaniyati va Zagros madaniy birligi. Misdan buyumlar tay-yorlash. Tosh qurollar. O'rta Osiyoda ishlab chiqaruvchi xo'jalik shaklining paydo bo'lishi. Jebel va Joytun madaniyatlar. Ilk dehqonchilik manzilgohlari va qurilish. Tosh qurollar. Hunarmandchilik. Tasviriy san'at, haykalchalar. O'rta Osiyoning neolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalik shaklidagi madaniyatlar tavsifi (Kaltaminor va Hisor). Neolit davri ijtimoiy munosabatlari. Yevroсиyo dashtlaridagi neolit davri	Ma'reza	2	1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т., 2008. 2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Т., 1998. 3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – Т., 1999. 4. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 1999. 5. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – Т., 1990. 6. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Т., 2004. 7. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989. 8. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. Что такое археология. – М., 1966. 9. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. В поисках исчезнувших цивилизаций. М., Наука, 1966. 10. Археологи рассказывают. Таджикгосиздат. – Сталинабад, 1959. 11. Виноградов Л.В. Неолитические памятники Хорезма. – М., 1968. 12. Древние цивилизации. – М., Мысль, 1989. 13. Каменный век на территории СССР. – М., Наука, 1970. 14. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.				

	o'zlashtiruvchi xo'jalik shaklidagi qabilalar madaniyatlari tavsifi. Ixtisoslashgan ovchilik, termachilik va baliqchilik. Moddiy madaniyat. Shimoliy Belujistonda ilk dehqonchilik madaniyati (Mergar). Hind vodiysining qadimgi dehqonlar tomonidan o'zlashtirilishi. Xitoyning neolit davri Yanshao va Lyushan madaniyatlari tavsifi.)			15. Коробкова Г.Ф. Орудия труда и хозяйство неолитических племен Средней Азии. – Л., 1969. 16. Массон В.М. Первые цивилизации. – Л., 1961.				
7.	<b>Neolit davri arxeologiyasi:</b> (Neolit davri xususiyatlari va xronologiyasi. Yevropa va Rossiya hududidagi neolit davri yodgorliklari. O'rta Osiyoning neolit davri madaniyatlari (Joytun, Kaltaminor, Sazag'on va Hisor madaniyatlari).)	Seminar	2	17. Массон В.М. Поселение Джейтун // МИА. – Л., 1971. - № 180. 18. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – Т., 1986. 19. Мартинов А.И. Археология. М., 2006. 20. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-Т.: 2011	<b>Neolit davri madaniyat -lari</b>	Ogzaki so'rov	3	3
8.	<b>Eneolit davri arxeologiyasi:</b> (Eneolit davri tavsifi. Dastlabki metall - misga ishlov berishning boshlanishi insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti burilishidagi omil sifatida. Mesopotamiyada shahar-davlatlarning shakllanishi. Eron eneolit davrida (Sialk va Suza kompleksi) Afg'oniston eneolit davrida (Mundigak). O'rta Osiyoning eneolit davri madaniyatlari (Anov-Nomozgoh, Sarazm). Manzilgohlar, qurilish va me'morchilik. Hunarmandchilik taraqqiyoti (kulolchilik va metall). Haykalchalar. Kavkaz ortonning eneolit davri madaniyatlari. Karpatoldi (Moldova, Ruminiya va G'arbiy Ukraina) hududida Tripole madaniyati va uning bosqichlari. Manzilgohlar va uy-	Ma'ruba	2	1. Karimov IA. Yuksak ma'naviyat – yengilmaskuch–T, 2008. 2. Karimov IA. Tarixiy xotirasiz keljijk yo'q –T, 1998. 3. Annayev T, Tilovov B, Xudoberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T, 1999. 4. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 1999. 5. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993. 6. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990. 7. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004. 8. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989. 9. Исаков А.И. Саразм. – Душанбе, 1991. 10. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973. 11. Массон В.М. Первые цивилизации. – Л., 1961. 12. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.-Л., Наука, 1964. 13. Массон В.М. Страна тысячи городов. – М., Наука, 1966.				

	joylar. Dehqonchilik va chovachilik. Kulolchilik. Tosh qurollar. Metallarga ishlov berishning rivojlanishi. Tasviriy san'at. G'oyaviy qarashlarning namoyon bo'lishi. Eneolit davri janubiy va shimoliy hududlari qabilalari madaniy-iqtisodiy taraqqiyotining notejisligi. Yevroosiyo dashtlarida Maykop, Drevneyam va Afanasev madaniyatlari.)							
9.	<b>Eneolit davri arxeologiyasi:</b> (Eneolit davri xronologiyasi, tavsifi va o'rganilishi. Eneolit madaniyatining rivojlanish bosqichlari. Dehqonchilik manzilgohlarining xususiyatlari. Eneolit davrida qurilish va me'morchilik. Kulolchilikning mukammallashuvi. Eneolit davri san'ati. Sopol idishlar, qabrlar, dafn etish marosimlari.)	Seminar	2	14. Сарианиди В.И., Кошеленко Г.А. За барханами – прошлое. – М., 1966. 15. Сарианиди В.И. Тайны исчезнувшего искусства Каракумов. – М., Наука, 1967. 16. Сарианиди В.И. Древности страны Маргуша. – Ашхабад, 1990. 17. Энеолит СССР. Энеолит Средней Азии. – М., 1982. 18. Мартинов А.И. Археология. М., 2006. 19. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-Т.: 2011	<b>Janubiy Turkmanistonning eneolit davri yodgorliklari</b>	Ogzaki so'rov	<b>2</b>	
10	<b>Bronza davri arxeologiyasi:</b> (Bronza davri tavsifi. Bronza davri tarixiy-madaniy jarayonlari. Mesopotamiyada shahar-davlatlar taraqqiyoti va ularning xususiyati. Kritdag'i mil. av. III-II ming yilliklarga oid Minoy va Miken madaniyatlari. Eron bronza davrida. Asosiy arxeologik yodgorliklari (Sialka IV kompleksi, Tepai Hisor, Shahri Soxta) va ularning tavsifi. O'rta Osiyoning bronza davri tarixiy-madaniy jarayonlari. O'rta Osiyoning bronza davri madaniy markaz-lari (Kopetdog'oldi, Murg'ob, Surxon va O'rta Zarafshon vohalari) protoshahar tipidagi manzilgohlari	Ma'ruza	2	1. Karimov IA. Yüksak ma'naviyat – yengilmaskuch–T, 2008. 2. Karimov IA. Tarixiy xotirasiz keljik yo'q–T, 1998. 3. Annayev T, Tilovov B, Xudoyberdiyev Sh Boysun arxeologik yodgorliklari –T, 1999. 4. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – T., 1997. 5. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. – T., 1990. 6. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 1999. 7. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993. 8. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990. 9. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004. 10. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osiyoning shaharlari tarixi. – T., 2006. 11. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989. 12. Аскarov А. Древнеземледельческая	<b>TEST (1-ON)</b>	<b>11 9</b>	<b>2 6</b>	

	(Oltindепа, Sarazm, Janubiy Gonur, To'g'aloq, Sopollitepa, Jarqo'ton). Shimoliy Afg'onistonda Dashli madaniyat. Hindiston bronza davrida (Moxenjadaro va Xarappa madaniyatlar). Sho'rto'g'ay. Ixtisoslashgan ishlab chiqarish. Tasviriy san'at. Yozuv yodgorliklari. Yevrosiyo dashtlarida Kotakomba, Yog'ochband, Andronova va Karasuk madaniyatlar. Bronza davrida Uralbo'yи hududlarida sivilizatsiyaning shakllani-shi Arkaim manzilgohi va Sintashta mozori. Xo'jalik va moddiy madaniyat. Metallarga ishlov berish taraqqiyoti. Ijtimoiy tabaqlanish va davlatchilik masalalari.)			культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Т., 1977.				
11	<b>Bronza davri arxeologiyasi:</b> (Bronza davriga tavsif. Yevropa va Kavkaz hududlarida bronza davri. Rossiya hududidagi bronza davri madaniyat (afanasev va andronovo madaniyatlar). Janubiy Turkmaniston hududida bronza davri (Nomozgoh IV, Nomozgoh V, Nomozgoh VI). Ilk shahar madaniyati shakllanishi jarayonlarining kuchayishi. Turar joylar, istehkomlar, ibodatxonalarining qurilish xususiyati. Janubiy O'zbekiston va Tojikiston hududlarida bronza davri. Sopolli madaniyati, uning bosqichlari (sopolli, jarqo'ton va mullali). Zamombobo, Tozabog'yop, Qayroqqum, Chust madaniyatlar.)	Seminar	2	13. Аскаров А. Сапалитепа. – Т., 1975. 14. Аскаров А., Абдуллаев Б. Джаркутан. – Т., 1983. 15. Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии. – Самарканд, 1993. 16. Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. – Л., 1968. 17. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973. 18. Сарианиди В.И. Древности страны Маргуша. – Ашхабад, 1990. 19. Мартинов А.И. Археология. М., 2006. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-T.: 2011	<b>O'rta Osiyo hududida ilk shahar va davlatchilik madaniyatining shakllani-shi</b>	Og'zaki so'rov	2	3

12.	<p><b>Temir davri arxeologiyasi:</b> (Ilk temir davri tarixiy-madaniy jarayonlari. Etnomadaniy migratsiyalar. Eron, Kav-kazorti va O'rta Osiyo hududlarida qadimgi davlatlarning shakllanishi. Shaharlar. O'rta Osiyoning temir davri tavsifi. O'troq dehqonchilik markazlari va ularning xususiyatlari. Qadimgi shahar shaklidagi manzilgohlar (Yozdepa, Afrosiyob, Ko'ktepa, Uzunqir, Yer-ko'rg'on, Qiziltepa, Dalvarzintepa, Ko'zaliqir, Gyaurqal'a va boshqalar) Qurilish va me'morchilik. Mil. av. I ming yillikning birinchi yarmiga oid Skiflar madaniyati. Kamensk shahar xarobasi. Qozog'istonda Tosmoli madaniyati. Orolbo'yini saklarining moddiy madaniyati.)</p>	Ma'ruza	2	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Karimov IA. Yuksak ma'naviyat – yengilmaskuch – T., 2008.</li> <li>2. Karimov IA. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q – T., 1998.</li> <li>3. Annayev T., Tilovov B., Xudoberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari – T., 1999.</li> <li>4. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – T., 1997.</li> <li>5. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. – T., 1990.</li> <li>6. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 1999.</li> <li>7. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993.</li> <li>8. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.</li> <li>9. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004.</li> <li>10. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osiyoning shaharlari tarixi. – T., 2006.</li> <li>11. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. – T., 2008.</li> <li>12. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.</li> <li>13. Археология Приаралья. – Т., Фан, 1984.</li> <li>14. Афрасиаб. Вып. 1. – Т., Фан, 1969.</li> <li>15. Афрасиаб. Вып. 2. – Т., Фан, 1974.</li> <li>16. Воробьёва М.Г. Дингильдже – усадьба середины I тысячелетия до н.э. в древнем Хорезме. – М., Наука, 1973.</li> <li>17. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Средняя Азия в раннем железном веке. Средняя Азия в античную эпоху // Археология СССР с древнейших времен до средневековья. Отв. ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985.</li> </ol>				
13.	<p><b>Temir davri arxeologiyasi:</b> (Temir davrinining umumiy tavsifi. Urartu davlati madaniyati. Skif va sarmat qabilalari madaniyati. Rossiya hududida ilk temir davri . Turkmaniston hududida so'nggi bronza va ilk temir davri madaniyatlarining rivojlanishi (Dahiston, Kopetdog', Yoztepa va Murg'ob vohalari).</p>	seminar	2	<ol style="list-style-type: none"> <li>18. Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра / Отв. ред. Ю.Ф. Буряков. – Т., 1990.</li> <li>19. Древний Мерв // Тр. ЮТАКЭ. Т.XIX. – Ашхабад, 1989.</li> <li>20. Древняя и средневековая культура Чача. – Т., 1979.</li> <li>21. Заднепетровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – М., 1962.</li> </ol>	Skif va sarmat qabilalari madaniyati	Og'zaki so'rov	2	3

	Shimoliy Baqtriyaning ilk temir davri yodgorliklari. So'g'd ilk temir davrida.			22. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Т., 2002. 23. Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган. – Т., Фан, 1984. 24. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973. 25. Мокрынин В.П. По следам прошлого. – Фрунзе, Кыргызстан, 1986. 26. На среднеазиатских трассах Великого Шелкового пути. – Т., Фан, 1990. 27. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана V в. до н.э. - VI в. н.э. – Самарканд-Ташкент, 2000. 28. Мартинов А.И. Археология. М., 2006. 29. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-T.: 2011			
14.	<b>Antik davri arxeologiyasi:</b> (Antik davri ijtimoiy-siyosiy munosabatlari. O'rta Osiyoning antik davri davlatlari. Madaniytarixiy viloyatlarning yirik shahar markazlari. Dalvarzintepa, Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Gyaurqal'a, Niso, Tuproqqa'l'a, Qozoqliyotgan, va boshqalar). Sirdaryo hav-zasi o'troq dehqonlari va chorvador qabilalari, Qanqa va O'tror. Sharq ellinizmi va shahar-sozlik, me'morchilik va moddiy madaniyatda namoyon bo'lishi. Chirikrabot va Babush-mulla madaniyatlari. Antik davrida Farg'ona. Qurilish va me'morchilik. Ixtisoslashgan ishlab chiqarish (kulolchilik, metallar ishlab chiqarishi, to'qimachilik, zargarlik). San'at (haykaltaroshlik, haykalchalar va rang-tasvir). Torevtika. Antik davri	Ma'ruza	2	1. Karimov I.A.Yuksakma'nviyat-yengilmaskuch- T., 2008. 2. Karimov I.A.Taixiyxotirasizkelajk yo'q- T., 1998. 3. Annayev T, Tilovov B, Xudoberdiyev Sh. Boysunarxeologik yodgorliklari- T., 1999. 4. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – T., 1997. 5. Buryakov Yu.F. Toshkent vohasining qadimgi karvon yo'llari. – T., Fan, 1978. 6. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993. 7. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990. 8. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004. 9. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osiyoning shaharlari tarixi. – T., 2006. 10. Eshov B.J. So'g'diyona tarixidan lavhalar (Mil. avv. VII-IV asrlar). - T., Universitet, 2002. 11. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. – T., 2008. 12. Pidayev Sh. Sirli Kushonlar sultanati. – T., 1990. 13. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989. 14. Археология Приаралья. – Т., Фан, 1984. 15. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Т., Фан, 1979.			

	madaniyatining ahamiyati.)			16. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Средняя Азия в раннем железном веке. Средняя Азия в античную эпоху // Археология СССР с древнейших времен до средневековья. Отв. ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985. 17. Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра / Отв. ред. Ю.Ф. Буряков. – Т., 1990.				
15.	<b>Antik davr arxeologiyasi:</b> (Antik dawr hajda umuniy malumot Shimoliy Qora dengiz bo'yidagi antik davr davlatlari. Kavkaz hududidagi antik davlatlar Sibir hududidagi antik davr madaniyati. O'rta Osiyodagi tarixiy vaziyat. Antik davrda shahar soni va hajmining o'sishi, xalqaro savdo va hunarmandchilikning rivojlanishi. Antik davr shaharsozligi. Parfiya, Marg'iyona, Xorazm, Baqtriya, So'g'dda qurilrsh va me'morchilik. Haykaltaroshlik san'atining shakllanishi va o'sishi. Me'morchilik va san'atda ellen hamda budda an'analarining paydo bo'lishi.)	Seminar	2	18. Древняя и средневековая культура Чача. – Т., 1979. 19. Заднепетровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – М., 1962. 20. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самарканского Согда. – Т., 2002. 21. Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган. – Т., Фан, 1984. 22. Исамиддинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. – Т., 2000. 23. Кара-тепе – Буддийский пещерный монастырь в Старом Термезе. – М., 1964. 24. Кой-Крылган-кала - памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н.э. - IV н.э. / Отв. ред. СП. Толстов, Б.И. Вайнберг. – М., 1967. 25. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.-Л., 1964. 26. На среднеазиатских трассах Великого Шелкового пути. – Т., Фан, 1990. 27. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – Т. 1989. 28. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1989. 29. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана V в. до н.э. - VI в. н.э. – Самарканд-Ташкент, 2000. 30. Филанович М.И. Ташкент. Зарождение и развитие города и городской культуры. – Т., 1983. 31. Мартинов А.И. Археология. М., 2006. 32. N.A.Egamberdiyeva.	<b>Antik davrda Parfiya, Marg'iyona, Xorazm, Baqtriya, So'g'dda shahar soni va hajmining o'sishi, xalqaro savdo va hunarmandchilikning rivojlanishi</b>	Og'zaki so'rov	2	3

					Arxeologiya.-T.: 2011				
16.	<b>Ilk o'rta asrlar davri arxeologiyasi:</b> (Ilk o'rta asrlar davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari. Yer egaligi munosabatlarining qaror topishi. Yirik feodal davlatlari (Hazar va Turk hoqonliklari). O'rta Osiyo ilk o'rta asrlar davrida.)	Ma'ruza	2	1. Karimov IA.Yuksakma'naviyat-yengilmaslakuch.-T, 2008. 2. Karimov IA.Taixiy xotirasizkelajak yo'q-T, 1998. 3. Annayev T, Tilovov B, Xudoyberdiyev Sh.Boysunarcheologik yodgorliklari.-T, 1999. 4. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – T., 1997. 5. Buryakov Yu.F. Toshkent vohasining qadimgi karvon yo'llari. – T., Fan, 1978. 6. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993. 7. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Т., 1975. 8. Аннаев Т.Д. Раннесредневековые поселения Северного Тохаристана. – Т., Фан, 1988. 9. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Б. Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973. 10. Живопись древнего Панджикента / Отв. ред. А.Ю. Якубовский и М.М. Дьяконов. – М., 1954.					
17.	<b>Ilk o'rta asrlar davri arxeologiyasi:</b> (Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoning ijtimoiy-siyosiylari va madaniy taraqqiyoti. Ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligi. San'atning yuksalishi.)	Seminar	2	11. Кабанов С.К. Культура сельских поселений Южного Согда III-VI вв. – Т., 1981. 12. Кабанов С.К. В оазисах и степях Кеша и Нахшеба. – Т., Узбекистан, 1988. 13. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – Т. 1989. 14. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1989. 15. Фрейман А.А. Описание публикации и исследование документов с горы Муг. – М., 1962. 16. Мартинов А.И. Археология. М., 2006. 17. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-T.: 2011	Og'zaki so'rov	2			
18.	<b>Rivojlangan o'rta asrlar davri arxeologiyasi:</b> (O'rta Osiyoda kichik feodal davlatlarning qaror topishi. Dehqonchilik markazlari. Yirik shaharlar (Marv, Buxoro, Samarqand, Panjikent, va boshqalar) va	Seminar	2	1. Karimov IA.Yuksakma'naviyat-yengilmaslakuch.-T, 2008. 2. Karimov IA.Taixiy xotirasizkelajak yo'q-T, 1998. 3. Annayev T, Tilovov B, Xudoyberdiyev Sh.Boysunarcheologik yodgorliklari.-T, 1999. 4. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – T., 1997. 5. Buryakov Yu.F. Toshkent	Og'zaki so'rov	2			

	manzilgohlar. Qurilish va me'morchilik. Hunarmandchilik turlari (kulolchilik, metallga ishlov berish, to'qimachilik, zargarlik). Haykaltaroshlik, haykalchalar va rang-tasvir. Miniatyura san'ati. Rivojlangan va so'nggi o'rta asrlar moddiy madaniyati xususiyatlari. Qadimgi va o'rta asrlar davri tarixini o'rganishda arxeologiya fanining ahamiyati.)			vohasining qadimgi karvon yo'llari. – T., Fan, 1978. 6. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993. 7. O'zbekiston tarixi. – T., 1997. 8. Temur va temuriylar sultanati. – T., 1994. 9. Shahrisabz. Ming yillar merosi. – T., 2002. 10. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Б. Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973. 11. Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XII вв. – Т., 1984. 12. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – Т. 1989. 13. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1989. 14. Мартинов А.И. Археология. М., 2006. 15. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-T.: 2011				
19.	<b>So'nggi o'rta asrlar davri arxeologik yodgorliklari:</b> (Qurilish va me'morchilik. Hunarmandchilik turlari (kulolchilik, metallga ishlov berish, to'qimachilik, zargarlik). Haykaltaroshlik, haykalchalar va rang-tasvir. Miniatyura san'ati. So'nggi o'rta asrlar moddiy madaniyati xususiyatlari.)	Seminar	2	1. Karimov IA. Yuksak ma'naviyat – yengilmaskuch.–T, 2008. 2. Karimov IA.Taixiy xotirasiz kelajak yo'q –T, 1998. 3. Annayev T, Tilovov B, Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T, 1999. 4. Nasriddinov Q. Qarshi qal'asi. – Qarshi, "Nasaf", 2005. 5. O'zbekiston tarixi. – Т., 1997. 6. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – Т. 1989. 7. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1989. 8. Мартинов А.И. Археология. М., 2006. 9. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-T.: 2011	<b>Yevropa va Rossiya-ning o'rta asrlarga oid tarixiy yodgorliklari</b>	Og'zaki so'rov	<b>1</b>	
					<b>TEST (2-ON)</b>	<b>11</b>	<b>9</b>	<b>9</b>
					<b>Yakuniy nazorat</b>	<b>Yozma ish</b>	<b>30</b>	
					<b>Auditoriya ishi</b>		<b>70</b>	
					<b>Mustaqil ish</b>			<b>30</b>
					<b>Jami</b>	<b>100</b>		

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT ShARQShUNOSLIK INSTITUTI

JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI

“XORIJUY MAMLAKATLAR TARIXI”

KAFEDRASI

# ARXELOGIYA ASOSLARI

FANIDAN

## MA'RUZA MATNI

Tuzuvchi: kata o'qituvchi Z.M.Qodirov

TOSHKENT - 2012

## Muqaddima

Tarixni yoritishda va o'rganishda arxeologlar olib borgan tadqiqot ishlarining ahamiyati juda kattadir. So'nggi yillar ichida jahonning, jumladan O'rta Osiyoning turli hududlarida ko'plab arxeologik kashfiyotlar qilinib, muhim ma'lumotlar to'plandi. Olimlar tomonidan topib tekshirilgan bu yangi ashyolar eng qadimgi va o'rta asrlar tarixi haqidagi bilimlarni kengaytiradi. Mazkur manba va ashyolar jahon tarixining qadimgi davr siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlari haqida to'laroq tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi.

Jahonda ibridoiy odamlar tarqalishi jarayonidan boshlab, xalqlarning tarixida turli xil murakkab voqealar sodir bo'lgan. Ular ibridoiy to'da davri, ibridoiy xo'jaliklari va mehnat qurollari, urug'chilik tuzumining vujudga kelishi, xo'jalikning ishlab chiqarish shakllariga o'tilishi, binokorlik va hunarmandchilikning rivojlanishi, ishlab chiqarishda metallning ishlatila boshlanishi, ilk shaharlar va davlatlarning tashkil topishi, antik davri, o'rta asrlar me'morchiligi va moddiy madaniyatining rivojlanishi bilan birga boshqa ko'pdan-ko'p voqealar bilan bog'liq.

Talabalar qadimgi tarixni o'rganishda qimmatli arxeologik manbalarga e'tibor berishlari lozim. Jahonda tekshirilgan barcha turdag'i arxeologik yodgorliklar va ularda topilgan moddiy manbalar, insoniyat toshdan yasagan oddiy qo'pol cho'qmordan boshlab, uzlusiz mehnat natijasida yuksak madaniyat darajasiga yetib kelishining asosiy qonuniyatlarini ochib beradilar.

Ushbu kursning asosiy maqsadi - tariximizning muhim voqealarini o'rganishda arxeologik manbalarni ahamiyatini ko'satish, jahon, jumladan O'rta Osiyo, shuningdek O'zbekiston hududida yashab o'tgan ibridoiy odamlar, qadimgi qabilalar va xalqlarning tarixini va madaniy taraqqiyotidagi o'ziga xos tomonlari va xususiyatlarini ko'rsatib berishdir.

## **1-MAVZU: ARXEOLOGIYA ASOSLARI FANIGA KIRISH (2 SOAT)**

**REJA:**

1. Arxeologiya fanining rivojlanish tarixi.
2. Arxeologiya fanining maqsad va vazifalari.
3. Arxeologik davrlashtirish va xronologiya.

### **T A Y A N C H S O' Z L A R**

Arxeologiya, numizmatika, epigrafika, sfragistika, arxeologik manbalar, arxeologik yodgorliklar, arxeologik davrlashtirish, madaniy qatlam.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
3. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.
4. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
5. Авдусин Д.А. Полевая археология СССР. 2-е изд. – М., 1980.
6. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. Что такое археология. – М., 1966.
7. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. В поисках исчезнувших цивилизаций. М., Наука, 1966.
8. Археологи рассказывают. Таджикгосиздат. – Сталинабад, 1959.
9. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.
10. Мартынов А.И., Чер Я.А. Методика археологического исследования. – Л., 1989.
11. Методика полевых археологических исследований. – М., Наука, 1983.
12. Методические проблемы реконструкций в археологии и палеоэкологии. – Новосибирск, 1989.
13. Новые методы в археологических исследованиях. – М., 1963.

**Arxeologiya** – tarix fanining mustaqil yo'naliishi bo'lib, o'zining tadqiqot obyekti, shuningdek, ularni ohib o'rganishda maxsus uslublardan foydalaniladi. Ya'ni zamonaviy tushunchada arxeologiya ibtidoiy, antik, o'rta asrlarga oid yodgorliklarni o'rganish va qayta tiklash ishlarini olib borish tushuniladi.

Arxeologiya va tarixni bir-biridan ajratib bo'lmaydi, ikkala fanning ham maqsadi bir xil, ya'ni insoniyat tarixini o'rganishdan iborat. Mazkur sohada faoliyat yuritayotgan kishilar tarixchi va arxeolog deb yuritiladi.

Arxeologiya o'zining uzoq rivojlanish tarixiga ega. Rivojlanish tarixi bevosita insoniyat jamiyatining umumiy tarzda rivojlanib, ilm va fanning rivojlanish jarayonidagi o'zgarishlarni arxeologik topilmalar misolida ko'rish mumkin.

Arxeologiya – yosh ijtimoiy fanlardan biri bo'lsa-da, uning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Yozma manbalardan ma'lumki, mil. avv. VI asrda Bobil podshosi **Nabonid** (Nabunaid, Nabonagid, mil. avv. 555-538 yy.) saroy va ibodatxonalarning asos qismida qazuv ishlarini olib borgan. Ayni paytda **Britaniya muzeyida** Nabonid tomonidan topilgan yozuvli taxtacha saqlanmoqda.

"Arxeologiya" atamasi yozma manbalarda ilk marta yunon faylasufi **Platon** (mil. avv. 427-347 yy.) ning "**Katta Gippiy bilan suhbat**" asarida tilga olinadi. Arxeologiya ikkita qadimgi yunon so'zidan iborat bo'lib, "**археос**" – qadimgi, "**логос**" – fan degan ma'nolarni anglatadi. Xuddi shunga o'xshash iborani yunon yozuvchisi **Diodor Sitsiliyskiy** (mil. avv. 80-29 yy.) ham qayd etgan. Ya'ni Troya urushigacha bolgan davr ellenlar nazarida "*Ellinlar arxeologiyasi*" hisoblangan. Diodor Sitsiliyskiyning zamondoshi **Dionisiy Galikarnasskiy** Rim tarixini *Puni urushigacha bo'lgan davrini "Rim arxeologiyasi"* deb atagan. "Arxeologiya" atamasini shuningek Strabon va boshqa yunon muarrixlari ham ishlatib, ularning nazarida bu atama nafaqat qadimgi, balki ibtidoiy davrni ham qamrab olgan.

Rim imperiyasining lotin mualliflari “qadimiyat” – *a n t i q u i t a t e s* - atamasini qo’lllaganlar. O’rta asrlarda “arxeologiya” atamasi “qadimiyat” atamasi tomonidan siqib chiqarilib, ancha vaqtgacha (XIX asrgacha) yodga olinmaydi.

Rim imperiyasida shuningdek “a n t i q u a r i e u s” – antikvari, ya’ni qadimiyatga qiziquvchi atamasi ham qo’llanilgan. O’rta asrlarda antikvariylar jumlasiga turli qadimiyoq’lyozmalarni yig’uvchi kishilar kirgan bo’lsa, Uyg’onish davriga kelib asosan klassik madaniyat namunalarini yig’uvchilarni, ya’ni antik davr madaniyatiga qiziquvchilarni shunday ataganlar.

1767 yilda **Gettingen** universiteti prof. *Xristian Gottlib Geyni* “arxeologiya” atamasiga “**Yunon va rimliklarning qadimgi san’ati arxeologiyasi**” kursi bo’yicha ma’ruza o’qib, uni qaytadan muomalaga kiritadi. Lekin bu yunonlarning “arxeologiya” ga bergen ta’riflari singari keng qamrovli bo’lmay, faqat klassik san’at yodgorliklarini ta’riflash va klassifikatsiya qilish bilan cheklangan. XIX asr boshigacha qadimiyat bilan shug’ullanuvchilarni faqat antik madaniyat namunalari qiziqtirgan.

Shu davrdan boshlab arxeologiyaning yordamchi tarmoqlari – **numizmatika** (tangashunoslik), **epigrafika** (toshlardagi bitiklarni o’rganish), **sfragistika** (muhrlarni o’rganuvchi fan) vujudga kela boshlaydi.

Epigrafikaga qiziqish Angliyada ham yoyila boshlaydi. Bu yerda arxeologiya qirol Karl I va uning yaqinlari homiyligida boyitila boshlandi.

XVII asrning o’rtalarida Fransiyada Pomponiy Letning birinchi Antikvar akademiyasi ochiladi. Keyinchalik Qo’lyozmalar akademiyasi, Me’morchilik akademiyasi, Haykaltaroshlik va rassomchilik akademiyasi ochiladi. Bu tashkilotlar turli ekspeditsiyalar uysushtirib, topilgan materiallarni o’rganish va ularni sistemalashtirish ustida ish olib boradilar.

1733 yilda Angliyada Delitantlar jamiyatি ochiladi. 1753-1756 yy. Juda ko’plab arxeologik ashyolarni qo’lga kiritgan *Britaniya muzeyi* ociladi.

1718 yilda Rossiyada *Piotr I* boshchiligidagi ilk marta antikvar materiallarni izlash, to’plash va o’rganish boshlanadi. Barcha topilmalar **Kunstkameraga** joylashtirilgan. Shu davrda Sibirdagi mozor-qo’rg’onlarda qazuv ishlari olib borilib, juda ko’plab bronza va tilladan yasalgan buyumlar topiladi.

XVIII asrning oxiridan arxeologiya Rossiyada keng ko’lamda yoyila boshlanadi. Arxeologik topimalarni saqlash uchun turli ilmiy jamiyat va muzeylar tashkil etiladi (1806 yil Nikolayevoda, 1811 yil Feodeasiyada, 1825 yil Odessada, 1826 yil Kerchda).

**1839 yilda** Odessa tarix va qadimiyat jamiyatida tashkil etilib, **1844 yildan** olib borilgan qazuv ishlarining natijalari har yili nashr etib borilgan.

Yevropa davlatlari singari Rossiya jamiyatida ham Sharqqa qiziqish ortadi. Chor hukumati a’zolari Kavkaz va O’rta Osiyo hududlarida amaliy san’at namunalarini va qo’l yozma asarlarni izlash va yig’ishga qiziqish kuchayadi.

**1818 yil** Kunstkamera tarkibida *Osiyo muzeyi* tashkil etiladi. **1846 yil** Peterburgda arxeologiya va numizmatika jamiyatida tashkil qilinib, bu jamiyat arxeologik ishlarni tashkil etish bilan shug’ullangan. **1855 yil** Peterburg universitetida *Sharq fakulteti* ochiladi. Uning birinchi dekani **Kazanbek** O’rta Osiyoda bir necha marta ekspeditsiyalar uysushtirib, qator tarixchi olimlarni yuboradi.

Turkiston o’lkasi Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach, bu yerda ham mazkur fanga qiziqish orta boshlaydi. **1895 yil 11 dekabrda** *Turkiston arxeologiya havaskorlari to’garagi* tuziladi.

XIX asrning 80-90-yillarida mahalliy aholi orasidan ham qadimiyatga qiziquvchilar ko’payadi. Masalan, *Mirza Buxoriy Mirza Abdullo*, *Mirza Barat Mullaqosimov*, *Akram Polvon Asqarov*, *Muhammad Vafo*, *Alixo’ja Yunusov*, *Mirza Hakim* va boshqalar qadimgi buyumlar hamda chaqtangalarni to’plash bilan shug’ullanishgan. Bu davrda Afrosiyob, Ulug’bek rasadxonasi va Poykand xarobalarida dastlabki qazuv ishlari olib borilgan.

Keyinchalik V.L. Vyatkin Afrosiyob xarobasini (1925, 1929-30), B.P. Denike qadimgi Termizni (1926-27), M.Ye. Masson Ohangaron vodiysini (1925-28), Ayrитом xarobalarini (1932-33), qadimgi Termizni (1936-38), A.Yu. Yakubovskiy Zarafshon vodiysini (1934, 1939), V.A. Shishkin Tali Barzu (1936-38) va Varaxshani (1936-39), S.P. Tolstov va Ya.G'. G'ulomov qadimgi Xorazm vohasida (1937-50), A.P. Okladnikov Teshiktosh va Machay g'orlarini (1938-39), V.V. Grigorev Qovunchitepa xarobalarini qazib o'rgandilar.

1940 yilda O'rta Osiyo Davlat universitetining Tarix fakulteti bazasida M.Ye. Massonning tashabbusi bilan O'rta Osiyo arxeologiyasi kafedrasi tashkil etiladi. Kafedra a'zolari tomonidan O'rta Osyoning turli respublikalarida, ayniqsa Turkmaniston va O'zbekistonda keng ko'lamli qazuv ishlari olib borildi. 1963 yilda Qashqadaryo vohasining yuqori qismini tadqiq etish uchun Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi tashkil etiladi.

1970 yilda O'zR FA Arxeologiya institutining tashkil etilishi arxeologik tadqiqotlarning ko'lamini yanada kengaytirdi.

XX asr davomida butun Orta Osiyo hududida barcha davrlarga taalluqli arxeologik yodgorliklar, qadimgi kanallar, suv o'zanlari o'rganildi.

2001 yil 24 oktabrda Termiz Arxeologiya muzeyi Termiz shahrining 2500 yilligi munosabati bilan (2 aprel 2002 yil) tashkil etildi. Ushbu muzey O'rta Osiyodagi yagona mutaxassislashtirilgan muzey hisoblanadi.

*M.Ye. Massonning ta'rificha arxeologiya – tarixning bir sohasi bo'lib, kishilik jamiyat o'tmishi va faoliyatini xilma xil izlariga, aksariyat hollarda moddiy yodgorliklarga, imkoniyat bo'lgan joyda esa, yozma manbalarga, til, etnografiya, geologiya, tuproqshunoslik, antropologiya, zoologiya, botanika va boshqa fanlar yutuqlariga tayanuvchi fandir.*

Bizga ma'lumki, tarix fani moddiy manbalarini o'z ichiga oladi. O'tmish tarixni tiklashda qazish natijasida topilgan moddiy manbalar alohida o'rin tutadi. Moddiy manbalar madaniy qatlamlarda saqlanadi. Moddiy manbalar yozma manbalardan qadimiy bo'lib, tarixning ulkan qismini moddiy manbalar, ya'ni arxeologik topilmalar orqaligina tiklash mumkin.

Moddiy manbalarning ko'pi yer qa'rida saqlanadi. Bular – tosh qurollari, har xil mehnat qurollari, suyaklar va hakozalar. Moddiy manbalar yordamida o'tmish tarixiy jarayonlari – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy voqealari o'rganiladi.

Arxeologik manbalarni shartli ravishda 2 turga bo'lish mumkin:

1. Tabiiy manbalar inson va hayvon suyaklari, o'simliklar qoldiqlari va geologik qatlamlar bo'lib, ularni asosan zoologlar va botaniklar o'rganadi.

2. Sun'iy yoki inson tomonidan yaratilgan manbalar. Ular mehnat qurollari, yarog'-aslalalar, sopol idishlari, san'at va zeb-ziynat buyumlari, qoyatosh rasmlari, yozuv hamda uning manbalari va hakozolar.

Arxeologiya insoniyatning o'tmish tarixini o'rganishda **arxeologik ekspeditsiyalar** natijasida topilgan ibridoymakonlar, qishloqlar, shaharlar, mudofaa va suv inshootlari, qoyatosh rasmlari hamda boshqa buyumlarga suyanib ko'radi. Arxeologik ekspeditsiyalar deyilganda viloyat, shahar, tuman, qishloq va boshqa joylarda moddiy madaniyat yodgorliklarini dala tadqiqot yo'li bilan o'rganish usuli tushuniladi.

Joylarda arxeologik ekspeditsiyalarni maxsus ilmiy tadqiqot institatlari, oliy o'quv yurtlarining arxeologiya kafedralari, san'atshunoslik institatlari, muzeylar, shuningdek o'lkani o'rganish to'garaklari tashkil etadi.

Arxeologik ekspeditsiya va otryadlarning ish uslubi uch bosqichli bo'lib, **arxeologik qidiruv, sinov va qazish ishlarini** amalga oshirishdan iboratdir, uning vazifasi yodgorliklarning paydo bo'lgan davri, qancha yashaganligi, inqirozga yuz tutishi va boshqa xususiyatlarini aniqlash hisoblanadi.

Arxeologik qazishmalar arxeologik qidiruv va sinov natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarga tayanib, mazkur joyda yodgorlikni to'liq qazib ochishdan va yodgorlik haqida xulosalar chiqarishdan iborat bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, arxeologik yodgorliklarning bir qismi yer ostida va boshqa xillari yer ustidadir. Arxeolog u yoki bu yodgorliklarni qazir ekan, shubhasiz **madaniy qatlamlarga** duch keladi. **Madaniy qatlam** deyilganda insoniyatning turmushi, xo'jaligi va g'oyaviy faoliyatining izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami tushuniladi. Chunonchi, g'or-makon, ochiq manzilgoh, qishloq va shahar madaniy qoldiqlarning jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq holda joylanishi madaniy qatlamni ifodalaydi. Bu qatlam yillar, asrlar va ming yillar osha astasekin vujudga keladi. Arxeologik yodgorliklar bir yoki bir necha o'n madaniy qatlamdan iborat bo'lib. Ularning qalinligi bir necha santimetrdan 30-35 metrgacha borishi mumkin. Bu esa, mazkur joyda odamlar qancha vaqt yashaganligiga bog'liq bo'ladi. Madaniy qatlam u yoki bu yodgorlikda **shurf** tashlash, keng ko'lamdag'i qazish ishlari natijasida aniqlanadi. Shurf aslida nemischa so'z bo'lib, o'zbek tilida qazimoq degan ma'noni bildiradi. Shurf solish deyilganda yodgorlikdagi dastlabki qazish ishlari tushunilib, shurf tashlashdan asosiy maqsad madaniy qatlamni aniqlash va yodgorlik haqida dastlabki ma'lumat olishdir. Shurf ko'pincha kvadrat va to'g'ri to'rtburchak shakllarida bo'lib, chuqurligi va kengligi madaniy qatlamga qarab har xil bo'lishi mumkin. Keng ko'lamdag'i qazish natijasida madaniy qatlam to'la ochilib, insin faoliyatining izlari bo'lмаган yergacha kavlab tushiladi. Arxeologiyada u "materik" – bezovta *qilinmagan yer* deb ataladi.

Arxeologik yodgorliklarining bir qismi yer ostida yoki bir xillari yer ustida joylashgan bo'ladi. Demak, «arxeologik yodgorliklar», qadimgi insoniyat yashagan manzillar (qishloqlar, shaharlar) xarobalari, binolar, qoyatosh rasmlari, ibodatxonalar, sug'orish inshootlari va hakozolar bo'lib, O'rta Osiyoda asosiy qurilish materiallari qadim zamonlarda paxsa va xom g'isht bo'lganligidan makonlar, shahar va qishloqlar asrlar davomida turli hodisalarga uchrab tepaliklarga aylangan. Ularning nomlari geografik, tarixiy va hokzo ma'nolarni bildiradi (Afrosiyob, Oqtepa, Dalvarzintepa, Yerqo'rg'on). Arxeologiyada mustahkamlangan turar joylar – «shahar xarobalari»; mustahkamlanmagan qadimiyy turar joylar – «qishloq xarobalari» juda qadimgi xarobalar esa, «makonlar» deb ataladi. «Makonlar» shaharlardan qadimiyoq bo'ladi.

Insoniyat tarixini u yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning rivojlanish bosqichlariga qarab, quyidagi davrlarga bo'lish mumkin:

1. Ibtidoiy davr.
2. Qadimgi dunyo.
3. O'rta asrlar.
4. Yangi davr.

Insoniyat taraqqiyotining birinchi davri ibtidoiy jamoa davri bo'lib, juda uzoq davom etgan. Bu davrda inson qiyofasi, faoliyati o'zgarib, mehnat qurollari va insonlar o'rtasidagi munosabatlar davrlar o'tishi natijasida takomillashib brogan. Ibtidoiy davr tarixi ham o'z navbatida bir necha bosqichlarga bo'linadi. Arxeologlar tomonidan mehnat qurollarining rivojlanishiga qarab o'ziga xos bir davrlashtirish qilinganki, ularga tosh, bronza va temir davrini kiritish mumkin.

Har bir davrning davom etishi turlicha bo'lgan. Masalan, tosh davri bronza davriga nisbatan juda uzoq davom etgan. 800 ming – 1 mln. yil davom etgan. Tosh davrida uzlusiz ravishda inson faoliyati natijasida tosh qurollari va ularni yasalish uslubi takomillashib borgan. Tosh davri ham o'z navbatida bir necha davrga bo'linadi: paleolit (qadimgi tosh davri), mezolit (o'rta tosh davri), neolit (yangi tosh davri). Tosh va bronza davri o'rtasida o'tish davri bo'lGAN-ki, misdan qilingan mehnat qurollari bilan birga tosh qurollaridan ham foydalanilgan. Bu davrni eneolit davri (mis-tosh davri) deb atalgan. Bronza olish usuli kashf qilingach, ya'ni mis va qalay qorishmasidan mehnat qurollari keng tarqalishi natijasida bronza davri boshlangan. Ayrim joylarda bu mil. avv. III ming yilliklarda, shimoliy, o'rmonli hududlarda biroz kechroq – mil. avv. II ming yillikdan boshlangan. Nihoyat, ko'plab miqdorda temir qazib olinishi va keng tarqalishi natijasida mil. avv. XIII-IX asrlarda insoniyat tarixida temir davri boshlangan. Shu tariqa arxeologik davrlashtirish asosan mehnat qurollari rivojlanishi va ularni yasalish texnologiyasiga qarab amalga oshiriladi. Bunda asosiy e'tibor tarixiy taraqqiyot xususiyatiga

qaratiladi. Shunga qaramay bu insoniyat taraqqiyoti qanday bo'lganligi haqida to'liq ma'lumot bermaydi.

**Xronologiya** arxeologiyaning asosiy qismi bo'lib, qadimdan boshlab, tarixiy jarayon, eng asosiysi insoniyat tarixini ilmiy asoslashda muhim ahamiyatga egadir. Arxeologlar xronologiyadan mutlaq to'g'ri va taxminlarga suyanib foydalanadilar. Nisbiy xronologiyada mazkur madaniyat qaysi qadimiy hududga xosligi, yodgorlikni o'rganish jarayonida qaysi biri qadimiyoq ekanligiga ahamiyat beradi. Mutlaq xronologiyada esa, arxeologlar biror yilni aniqlash uchun albatta konkret manbalarga tayanadilar. Tosh davri yodgorliklarini davrlashtirishda geologik qatlam, paleontologiya va paleobotanika usullaridan keng foydalanadi. Tabiiy fanlarda ishlab chiqilgan radiokarbon davrlashtirish usuli ham keng tarqalgan. O'simlik qoldiqlari yoki hayvon suyaklarini aniqlash uchun ularga 14 ta atom og'irligidagi uglerod (C 14) tomiziladi. Buhday usulda davrlashtirishda kamdan-kam hollarda xatolik bo'ladi.

Sopol, qadimiy metall eritish va paxsa pechlarini davrlashtirishda paleomagnit usulidan keng foydalaniladi. Shuningdek, ximiyaviy va ultratovush usulidan ham keng foydalaniladi.

Shunday qilib, arxeologiya fan sifatida yosh bo'lsa-da, atama ancha qadimiyyidir. Turli davrlarda uni turlicha ishlatilgan. Arxeologik qazishmalar ham juda qadim zamonlardan buyon o'tkazilib kelinmoqda va ko'plab yutuqlarga erishilmoxqda.

Xulosa qilib arxeologiya fanining ochilmagan jihatlari, o'rganilmagan qirralarini o'rganishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash mumkin.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Arxeologiya fani haqida ma'lumot bering.
2. O'rta Osiyoda arxeologiya fani qachondan rivojlanana boshlagan?
3. Arxeologik tadqiqot usullarini aytib bering.
4. O'zbekistonda arxeologik tadqiqot ishlarini olib borishda qaysi muassasalar yetakchilik qiladi?
5. Arxeologik davrlashtirish haqida ma'lumot bering.

### **2-MAVZU: PALEOLIT DAVRI ARXEOLOGIYASI (2 SOAT)**

#### **REJA:**

1. Paleolit - tosh davrining dastlabki bosqichi.
2. Paleolit davrining o'rganilish tarixi.
3. Paleolit davrining xo'jalik xususiyati va shakllari.
4. Osiyo, Yevropa va Afrikaning paleolit davriga oid yodgorliklari tavsifi.

#### **T A Y A N C H   S O' Z L A R**

Paleolit, Olduvay, Sent-Ashel, Shell, Mustye, Altamir, La-Mut, Teshiktosh, Obirahmat, antropologiya, arxantrop, arxey, paleozoy, mezozoy, kaynozoy, irqshunoslik, paleoantropologiya, pitekantrop, sinantrop, neandertal, geydelberg.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.
4. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.
5. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004.
6. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.

7. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. Что такое археология. – М., 1966.
8. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. В поисках исчезнувших цивилизаций. М., Наука, 1966.
9. Археологи рассказывают. Таджикгосиздат. – Сталинабад, 1959.
10. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.
11. Григорьев Г.П. Начало верхнего палеолита и происхождение Хомо Сapiens. – Л., 1968.
12. Джохансон Д., Иди М. Люси. Истоки рода человеческого. – М., Мир, 1984.
13. Древние цивилизации. – М., Мысль, 1989.
14. Исламов У.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Т., 1986.
15. Каменный век на территории СССР. – М., Наука, 1970.
16. Недостающее звено. – М., Мир, 1977.
17. Окладников А.П. Утро искусства. – Л., 1967.
18. Палеолит СССР. Ранний палеолит Азиатской части СССР. Поздний палеолит Азиатской части СССР /Археология СССР. Отв. ред. П.И. Борисовский. – М., 1984.
19. Первые люди. – М., Мир, 1978.
20. Природа и древний человек. – М., Мысль, 1981.
21. Технология производства в эпоху палеолита. – Л., 1983.

**Tosh davri** eng uzoq davom etgan tarixiy davr hisoblanib, qadimgi odamlar tomonidan mazkur davrda asosiy mehnat qurollari toshdan yasalgan. Tosh davri milodgacha IV ming yillikkacha davom etgan.

Tosh davri arxeologiyada qadimgi (**paleolit**) va yangi (**neolit**) tosh davrlariga bo'linadi. Shuningdek, paleolitdan neolitga o'tish davrini bir-biriga bog'lovchi o'rta tosh davri (**mezolit**) ga ham bo'linadi.

Tosh davrida insoniyat rivojlanishining natijasi o'larоq ko'plab yirik kashfiyotlar qilingan. Ular sirasiga olovni olish va undan foydalanish, kiyim-kechak tayyorlash, uy-joy qurish, kamoning kashf etilishi, turli mehnat, ov va baliqchilik qurollarining yasalishini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Tosh davrining oxiriga kelib odamlar turli idishlar yasashni, mato tayyorlashni o'rganadilar. Shuningdek, turli narsa buyumlar, o'simliklar va hayvonlarning foydali tomonlarini ham o'zlashtirdilar. Eng diqqatga sazovor jihatni dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi, ya'ni mehnat taqsimoti bo'ldi.

Paleolit davri tosh davrining eng qadimgi davri bo'lib, bundan 2,5 mln.dan 14 ming yillikkacha bo'lган davr kiradi.

Paleolit davri o'z navbatida 3 bosqichga bo'linadi: quyi yoki ilk paleolit (2,5 mln. – 150 mingyillik), o'rta paleolit (150 ming yillikdan – 40 ming yilligach) va yuqori yoki so'nggi paleolit (40 – 14 ming yilliklar).

Insoniyatning qadimgi davri haqida antik davr mualliflarining asarlarida dastlabki ma'lumotlar keltiriladi. Yunon faylasufi **Demokrit** (mil.av. 460-370) ibtidoiy davr odamlarining hayotini tasvirlar ekan, ularni boshpanasiz, kiyim-kechaksiz, olovni bilmay va tartibsiz hayot kechirganliklarini keltirib o'tadi.

Aristotel, mil.avv. I asrning 1-yarmida yashab o'tgan faylasuf **Lukretsiyning** asarlarida ham qadimgi odamlar hayoti haqida ayrim ma'lumotlar uchraydi.

**1813** yilda daniyalik tarixchi **Vedel Simonsen** qadimgi davr - tosh, bronza va temir davriga bo'linishini taklif qilgan bo'sada arxeologik jihatdan isbot qilib bera olmagan. Buni yana bir daniyalik tarixchi, Kopengagen muzeyining direktori, arxeolog **Kristian Yurgensen Tomsen** (1788-1865) amalga oshiradi. U topilgan moddiy ashyolarni 3 davr bo'yicha taqsimlab chiqadi. U aniq bir davrni bermagan bo'lsada, mehnat qurollarining yasalish uslublaridan kelib chiqib bosqichlarga bo'lганligini ko'rsatadi. Uning bu fikri ko'pchilik tarixchilar, xususan nemis mutaxasislari tomonidan qattiq tanqid qilinadi.

Shved arxeologi **Gildebrand Tomsen** bilan tanishgach, **Lund** va **Stokgolmdagi** muzeylarni uning davlashtirishi bo'yicha tuzadi. Keyinchalik buni Germaniyadagi **Shverin** muzeyi direktori **Fredrix Mel** ham amalga oshiradi. Shunday qilib Tomsenning arxeologik davlashtirishi boshqa tarixchilar tomonidan ham qabul qilinadi.

1832 yilda Fransiyaning *Somma daryosi* bo'yidagi **Abivil** shahri yaqinida olib borilayotgan qurilish ishlari jarayonida juda katta, hozirgi biror hayvonga teng kelmaydigan suyak qoldiqlari, kremen toshi topiladi. Bu topilmalar bojxona amaldori, havaskor arxeolog **Bushe de Pertga** katta qiziqish uyg'otadi.

XIX asrning 50-yillarida **Olduvay** (Tanzaniya) dan keyin 2-o'rinda turuvchi qadimgi manzilgoh - **Sent Ashel** tolpiladi. Bu yerdan juda ko'plab toshdan qilingan "boltalar" topiladi (800 ga yaqin). Ular ustida 25 yil davomida tadqiqot ishlarini olib boragan arxeolog **Rigollo** ularni soxta emasligini tasdiqlaydi. Keyinchalik **Shell** (Fransiya), Ispaniyaning Dordon departamentida **Solyutre** va **Mustye** manzilgoh-larining topilishi tosh davri qurollarining yasalish uslubi va texnikasini o'rganishga yo'l ochib berdi. 1868 yilda Shimoliy Ispaniyada **Altamir** g'oridagi qoyatosh suratlari ovchilar tomonidan topiladi va arxeolog **Savtuola** tomonidan o'rganiladi. Bunga o'xshash qoyatosh suratlari Dordondagi **La-Mut** g'orida arxeolog **Emil River** tomonidan o'rganiladi. 1892 yilda birinchi marta **Brassempuida** suyakdan qilingan ayol haykalchasi topiladi.

O'rta Osiyoda paleolit davrining o'rganilish tarixi 1938 yildan boshlanadi. Bu yilda **A.P. Okladnikov** tomonidan Teshiktosh g'ori topiladi va mustye davri madaniyati hamda neandertal tipga mansub odam suyaklari topiladi. Bu esa, O'rta Osiyoning boshqa hududlarida ham ilk paleolit davriga oid yodgorliklarini topib o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Ilk paleolit davri yodgorliklarida **D.N. Lev, B.A. Ranov, M.M. Gerasimov, R.H. Suleymanov, M.R. Qosimov, N.X. Toshkanboyev, O.I. Islomov**lar tomonidan tadqiqotlar olib bordilar.

Ilk paleolit davrida insoniyat tarixida tabiat katta ahamiyatga ega bo'lgan. Inson va uni o'rab turgan tabiat o'rtasidagi doimiy munosabatlar uzuksiz jarayon shaklini olgan.

Ilk paleolitda biologik jihatdan – tabiiy saralanish va jinsiy tanlanish, mehnat jarayonida arxantroplar (dastlabki odamlar) o'tmishdoshlaridan juda uzoqlashib ketadilar. Mehnat qurollarini yasash, qo'lning mehnat faoliyati uchun bo'shashi, uni alohida vazifalar bajarishi, go'shtli ovqatning iste'mol qilinishi va boshqa ijtimoiy va tabiiy omillar tufayli odamzod rivojlanib borgan.

Ilk paleolitning dastlabki davrida Janubiy va O'rta Yevropada iqlim subtropik, Janubiy Osiyo va Afrikada esa, tropik bo'lib, issiqsevar hayvonlar keng tarqalgan. Masalan, Yevropada fillar, begemotlar, primitiv (Stenon otlar) otlar; Osiyoda esa, ibridoib xo'kizlar, karkidonlar, zebra paydo bo'lgan. O'simliklar esa, hamisha yashil rangda bo'lgan. Janubiy va Markaziy Yevropa hududlarida shamshod, dafna, anjir; Yevropaning boshqa hududlarida esa, qalin, keng bargli daraxtlardan tashkil topgan o'rmonlar tarqalgan. Osiyo va Afrika hududlarida ham issiqsevar o'simliklar keng tarqalgan.

Ilk paleolitda dastlabki odamlar Shimoliy Afrika, Yevropa va Osiyo hududlarida yashagan. Miloddan avvalgi 600-400 ming yilliklarga kelib, ular Markaziy Osiyo, Kavkazorti hududlariga ham o'rashadi.

Ilk paleolit davrida yashagan ibridoib odamlar tosh qurollar yasagan va ulardan o'zlarining mehnat faoliyatlarida foydalangan. Bu davrning asosiy quroli – cho'qmor bo'lib, u 20 sm uzunlikda va 1 kg dan ortiq og'irlikda, ko'pincha bodomsimon shaklda bo'lgan. Cho'qmor chopqi deb ham ataladi. Cho'qmor shell davrining asosiy quroli bo'lib, u ikki tomonlama simmetriyali qilib, urib to'g'rilash texnikasi (usuli) bilan yasalgan. Cho'qmorning pastki qismi toshni kertib ishlash texnikasi (usuli) bilan yasalgan bo'lib, u o'tkirlangan, chetlari notekis, egri-bugri shaklga ega bo'lgan. Har qanday tosh shell davri quroolini yasash uchun yaroqli bo'lmasligi. Tosh qattiq va tez uchirmalar hosil qilish imkonini berishi kerak edi. Shuning uchun ham, dastlab qurollar yasash uchun asosiy xomashyo vazifasini daryo va dengiz toshlari bajargan. Dengizdan, daryochalardan kvarts, kremen toshlari olib kelinib, ulardan

qurollar yasalgan. Ilk paleolitda chaqmoqtoshlardan ham ko'plab tosh qurollar yasalgan. Ular boshqa toshlarga nisbatan mo'rt bo'lsada turli shaklga keltirilib, o'tkir, keskir xususiyatga keltirilgan. Ammo chaqmoqtoshlar tabiatda ko'p uchramagan. Chaqmoq-toshlardan qurollar yasash quyidagicha amalga oshirilgan: dastlab chaqmoqtosh olingan bo'lib, uning atrofi boshqa bir tosh bilan (u qattiqroq bo'lган va tosh uchirgich - bolg'a vazifasini bajargan) urib uchirilgan. Uning o'mni esa, keskir va o'tkir shaklga aylangan. Tosh qurollar yasashning ushbu usuli – toshni kertib ishslash texnikasi deb atalib, ushbu usul bilan shell davrida dastasiz cho'qmorlar yasalgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, ashel davri xronologik jihatdan shell davridan katta farq qilmasada, ashel qurollari shell qurollariga nisbatan hiyla taraqqiy etgan. Ashel qurollarida tosh uzoqdan uchrindilar olingan joy ma'lum shaklga ega bo'lган. Ya'ni bu davrda odamlar tosh qurollarni qulayroq shaklga keltira olgan. Uchburchak shakldagi, uzunchoq, dumaloq va boshqa shakldagi qurollar hosil qilingan. Ashel davrida ayrim qurollarning shakli uni ishlatish xususiyatiga bog'liq bo'lган.

So'nggi ashelda tabiat keskin o'zgara boshlaydi. O'simliklar, hayvonot dunyosi, iqlimning o'zgarishi ibridoiy odam xo'jaligiga ham ta'sir etadi. Iqlimning o'zgarishi yer yuzini ulkan muzliklar qoplashi bilan xarakterlanadi. Muzlik – odamning paydo bo'lishi davri bo'lган kaynozoy erasining to'rtlamchi bosqichida siljiy boshlaydi. Muzlik izlarini olimlar mo'tadil iqlim mintaqalarida o'rganganlar. Tropik zonalarda muzlikning siljishi plyuvia davrini (plyuvia-yomg'ir) shakllantirgan. Masalan, bu davrda Sahroi Kabirdan daryolar oqqan.

Ashel davrida Shimoliy Amerika hududlari deyarli muzlik bilan qoplangan. Janubiy Amerikada muzlik ancha ichkariga kirib borgan. Yevropaning katta va Osiyoning bir qismini muzlik egallagan. Muzlikning markazi Grenlandiya bo'lган. Muzlik paleolit davrida bir necha million kv.km. ni tashkil etgan. Uning balandligi 1-2 km dan ortiq bo'lган.

Olimlar to'rt marotaba muz siljib kelgan degan fikrni ilgari suradi. Muzlikning siljishini gints, mindel, riss va vyurm deb bosqichlarga bo'lганlar. Bu terminlar Alp tog'idagi qishloqlar nomidan kelib chiqqan. Bu qishloqlarda muzliklar va muzlik yotqiziqlari birin-ketin qatlamlangan bo'lib, uning izlari XX asrning o'rtalarigacha saqlanib qolgan. Gints va mindel muzligi O'rta Yevropa hududlariga yetib kelgan. Riss esa, yanada kengroq hududlarni qoplagan. So'nggi ashel davri esa, xronologik jihatdan riss muzligidan oldingi bosqich bo'lган. Muzlikning siljib kelishi natijasida sovuqqa chidamsiz hayvonlar qirilib ketadi. Ularning ko'p qismi janubiy hududlarga qarab siljidi. Muzlik bilan kurashish vositalari kam bo'lganligi uchun ko'plab ibridoiy odamlar sovuqqa bardosh bera olmagan.

Shell va ashel makonlari ochiq turdag'i makonlar bo'lib, ular chaqmoqtosh xom ashyolari mavjud bo'lган ochiq joylarda, tepaliklarda joylashgan. Ibtidoiy odamlar o'z ehtiyojini qondirish maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurgan. Ular tabiatdagi tayyor mahsulotlarni o'zlashtirib, hayot kechirgan. Ovchilik ham ular hayotida asosiy o'rinda bo'lган. Odamlarning eng qadimgi mashg'uloti - terimchilik va ov-o'zlashtiruvchi xo'jalik deb nomlanadi.

Shell davrida yashagan odamlar asta-sekin yer yuzining ko'plab hududlariga o'rnasha boshlagan. Ashel davrida ular shimoliy hududlarga qarab siljigan. Ashel davridan odamlar sun'iy makonlarda yashashga harakat qiladi. Dastlabki sun'iy makonlar - g'orlar edi. Qadimgi odamlarning g'orlarga joylashishi va o'rnashishi bilan odamlar ko'chmanchi hayotdan o'troq kun kechirishga o'ta boshladi. Ibtidoiy to'da ichida ayollar va erkaklar o'rtasidagi mehnat taqsimlanadi. Ya'ni erkaklar ozuqa topish zarurati tufayli ko'proq ovga intilgan bo'lsa, ayollar g'orni qo'riqlash, bu davrda o'zlashtirilgan olovni o'chirmasdan saqlashga harakat qilishgan.

Bu davr ozuqalari – yeish mumkin bo'lган o'simlik tomirlari, o'simlik mevalari, hayvon go'shtlari edi. Yangi ko'nikmalarning paydo bo'lishi va o'zlashtirilishi ijtimoiy munosabatlarni rivojlantiradi. Ilg'or jarayonlarning rivojlanishiga olovdan foydalanish kuchli turki beradi. Tabiat bilan kurashish vositalarini topilishi bundan keyingi kishilik madaniyat taraqqiyotining bevosita natijasi bo'ladi. Chunki odamzodni halokatdan saqlab qolgan vosita - mehnat ko'nikmasi edi. So'nggi ashelda odamzod olovdan tabiiy holda foydalangan. Chunki o't - olov sovuqdan, yirtqich hayvonlardan saqlanish uchun zarur edi.

Bu davrda ibridoiy odamlar turar joylarga ham zarurat sezal boshladi. Chunki iqlim sovuq, havo nam bo'lib, odamlar g'orlarni egallashga kirishadi. Asta – sekin hayvon terilariga ehtiyoj tug'iladi. Bu davrda xo'jalik hayoti yuritilishida ham o'zgarishlar paydo bo'ladi. O'zlashtiruvchi xo'jalikni asosiy shakli bo'lgan terimchilik o'zining hal qiluvchi ahamiyatini yo'qota boshladi. Sababi, sovuq iqlimda tabiatda uchraydigan daraxt mevalari, o'simlik tomirlari kamyob bo'lib qoladi. Natijada hayvonlarni ovlashning ahamiyati ortadi. Asta - sekin ovlash usullari ishlab chiqiladi.

Ovchilikda yog'och nayzalar, chaqmoqtosh qurollar ishlatila boshlanadi. Yangi sharoit va yashash zarurati ehtiyojni qondirish yo'llarini izlash (qurollarni mukammallashtirish, teridan kiyim tikish), qurollar evolyutsiyasida yangiliklarni paydo bo'lishiga olib keladi.

Paleolitning ilk bosqichi izlari arxeologlar tomonidan yer yuzining ko'plab hududlaridan topib o'r ganilgan. Bu davrda yashagan pitekantrop (maymun odam), sinantrop (Xitoy odami), geydelberg (Germaniya odami) tipidagi odamlar tuzilishi jihatidan odam bilan (odamsimon) maymun o'rtasidagi holatda bo'lganlar. Ular yuqorida aytigandek, to'da bo'lib, yashagan, so'zlashishni bilmagan, toshga ishlov berishning shell va ashel texnikalaridan foydalangan. Eng qadimgi odamlardan pitekantrop izlari Yava orolida, Sinantrop izlari Xitoyda topilgan. Shell va ashel madaniyati qoldiqlari Old Osiyo, Kavkazorti, Qora Dengiz, Osiyo va Afrika hududlarida ham saqlanib qolgan.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston hududida eng qadimgi odamlar ilk paleolit davrida taxminan mil. avv. 700-500 ming yillar oldin paydo bo'lgan. O'zbekiston hududida yashagan odamlar Janubi-sharqi va Sharqi Osiyoning eng qadimgi odamlari bo'lgan «Sinantrop» - «Xitoy odamlari» ga yaqin bo'lgan.

Markaziy Osiyo hududlaridan ibridoiy kishilarning eng qadimgi tosh davri yodgorliklari topilgan. Ko'lbuloq, Uchtut, Bo'riqazigan, Tanirqazigan, Onarcha, Qoratangir, Qizqal'a, Yangaja, Takali, Kamar, Uchbuluoq, Qoratog', Havolang va boshqa makonlar arxeologlar tomonidan o'r ganilgan.

Ko'lbuloq makoni Toshkent viloyati Angren shahri yaqinida Qizilolma soyining chap sohilida joylashgan. Ko'lbuloq makoni fanga 1963 yildan ma'lum. Makon dastlab arxeolog M.R. Qosimov tomonidan o'r ganila boshlangan. Ko'lbuloq 41 qatlamlili yodgorlik bo'lib, uning yuqori qatlamlari so'nggi tosh va mustye davrlariga oid, quyi qatlamlari ashel' davriga mansubdir. Makondan ko'plab chaqmoqtoshlar, kvarts, slaneslardan yasalgan qurollar topilgan. Nukleuslar, parrakchalar, qo'l chopqilari, sodda tosh kirkichlari ham topilgan bo'lib, ular ishlanish texnikasi jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Ko'lbuloq makonida yashagan ibridoiy odamlar ovchilik va terimchilik bilan shug'ullangan. Ko'lbuloqqa ajododlarimiz bundan 200 ming yillar burun kelib o'r nashgan. Bu erda arxantroplar, sinantroplar va kramon'on tipidagi odamlar yashagan.

Ko'lbuloq makonida 2002 yildan tadqiqot ishlari qayta boshlandi. O'zR FA Arxeologiya instituti Toshkent bo'limi, O'zMU olimlari tomonidan olib borilgan tinimsiz izlanishlar natijasida 10.000 ga yaqin birlamchi va ikkilamchi ishlov berilagn tosh qurollar o'r ganildi. 2003 yilning 3 oktyabrida Ko'lbuloq makoni moddiy manbalari asosida Xalqaro ilmiy konferentsiya o'tkazildi. Hozirgi kunda Ko'lbuloq makoniga davlat tomonidan muhofaza etiladigan «Tarixiy qo'riqxona» maqomi berilgan.

O'zbekistonda Janubiy Farg'onadagi Selung'ur va Toshkent viloyatidagi Boltag'or makonlarida ham ashel davri tosh qurollari topilagn. Selung'ur g'ori madaniy qatlamlaridan eng qadimgi odam - arxantrop tish parchalari topilgan. Fanga Selung'ur g'ori 1958 yildan ma'lum. Dastlab g'or-makon akademik A.P. Okladnikov tomonidan o'r ganilgan va u so'nggi poleolit davriga oid degan fikr bildirilgan. 1980 yilda akademik O.I. Islomov g'orda qayta qazish ishlarini o'tkazib, ko'plab tosh qurollar, hayvon suyaklari qoldiqlarini topadi. O'Ismoilov g'orni ashel davriga mansubligini ilmiy asosda isbotlaydi.

O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston odamzodning ilk bor paydo bo'lgan mintaqalar qatoriga qo'shildi.

1955 yilda Toshkentdan 15 km g'arbda Shoimko'prik deb nomlangan joyda Qoraqamish suvining bo'yida ashel davriga mansub madaniy qatlamlar o'rganilgan. Madaniy qatlamlardan ko'plab tosh qurollar topilgan bo'lib, ular hozirgi kunda O'zbekiston Davlat Tarix Muzeyida saqlanmoqda.

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida, Farg'ona vodiysining Qayrag'och qishlog'i yaqinidagi Boqirg'on darasida, Isfayram soyida, Palman qishlog'i yaqinida, Ho'jaxayr soyining o'ng sohilida, Navoiy viloyatining Uchtut qishlog'i yaqinidagi Voush tog'ining yon bag'rida joylashgan makonlar (Ijond-Voush) da, shuningdek, Janubiy Turkmaniston hududlarida ham ilk poleolit davri ibridoiy odamlarning izlari o'rganilgan.

Umuman olganda ilk poleolit davri odamlari toshdan quroq yasab, uni ishlatib va qurollarni takomillashtirib borgan sari, o'zлari ham rivojlanib borganlar. Bundan 400-500 ming yillar ilgari «shell» va «ashel» madaniyatini yaratgan, dastlabki tosh quroq - cho'qmor yasash orqali kishilik madaniyatiga asos solgan odamlar yashash uchun qulay bo'lган hududlarda o'mashgan. Ular o'z faoliyati izlарini oddiy yodgorliklar bo'lган qadimgi makonlar va ulardagi madaniy qatlamlarda qoldirganlar. O'rta Osiyo, jumladan hozirgi O'zbekistonning geografik sharoiti ibridoiy odamlarning yashashi uchun juda qulay bo'lган va bu davrda uning keng hududlarida odamlar yashab, yaratuvchanlik faoliyatlarini boshlaganligi shubhasizdir.

Janubiy Qozog'iston hududida ham ilk paleolit davriga oid bir qancha yodgorliklar ohib o'rganilgan. **Takali, Bo'riqazigan, Tanirqazigan, Kamar** va **Shabakti** shular jumlasidandir.

**Takali joy-makonlari** Qoratog' tizmasi yonbag'irlarida joylashgan yodgorliklar majmuasi hisoblanadi. Bu yerdan yirik tosh chopqilar, yirik uchrindilar va yumaloq toshlardan iborat jami **300 dan** ortiq tosh qurollari topilgan. Olimlarning fikriga ko'ra, Takali tosh qurollari ilk tosh asrining so'nggi bosqichi – *ashell-mustye davriga*, ya'ni mil. avv. **300-100 ming yilliklarga** mansubdir.

Qirg'ziston hududida ham ilk tosh davriga oid yodgorliklar topib o'rganilgan. **1953** yilda **On Archa** degan joyidan mil. avv. **300-100 ming yilliklarga** mansub chaqmoqtoshdan yasalgan qo'l cho'qmorlari, nukleuslar, uchrindi va boshqa tosh parchalari topilgan.

Tojikistonda arxeologlar va geoglalning hamkorligidagi tadqiqotlari natijasida **Qoratog' I, Lohutiy I** va **Havolang** kabi joy-makonlari topildi.

**Qoratog' I joy-makoni** Dushanbe shahridan 50 km janubi-sharqda, *O'tagan* qishlog'idan 1 km janubi-sharqda joylashgan. Bu yerdan qirg'ich, teshgich, chopper, uchrindilar, tosh parchalari, nukleuslar, qayroq toshlar, qo'pol tosh chopqilar topilgan.

**1947** yilda mash'hur arxeolog olim **A.P. Okladnikov** Turkmanistonning janubiy qismida, Kopetdog' etaklaridan ilk tosh davriga oid yodgorliklarni tadqiq etgan. **Yaganja** va **Qora Tanger** shular jumlasidandir.

Mustye davrining o'rganilishi O'rta Osiyo hududida Teshiktosh g'orining ochilishi bilan bog'liq. Bugungi kungacha mustye davriga oid **100** dan ortiq yodgorliklar ohib o'rganilgan. O'rta Osiyoning eng mash'hur mustye yodgorliklariga *Teshiktosh, Omonqo'ton, Obirahmat, Xo'jakent, Ko'lbulloq, Qo'tirbulloq, Uchtut, Qayroqqum, Og'zikichik, Oqjar, Qora-Bura, Tossal* va boshqalarini kiritish mumkin.

**Teshiktosh g'or-makoni** Surxondaryo viloyati Boysuntog' tumanidagi Boysun tog'ining janubiy yonbag'ridagi Turgandaryoning Zavlatashgansoy darasida, dengiz sathidan 1500 m balandda joylashgan. G'or shimoli-sharqqa qaragan, kengligi **20 m**, chuqurligi **21 m**, balandligi **9 m**. Olib borilgan qazuv ishlari natijasida **5 ta** madaniy qatlam borligi aniqlangan. Madaniy qatlamlardan 2859 ta toshdan yasalgan mehnat qurollari, gulxan izlari va kul qoldiqlari, tog' echkisi, bug'u, yovvoyi ot, ayiq, quyon, kemiruvchi va parrandalarning suyak qoldiqlari topildi. Teshiktoshdan topilgan topilmalar orasida **25 sm** chuqurlikda **neandertal** tipdagи odam suyagi qoldiqlari topildi. Bu topilmani mash'hur antropolog olim **M.Gerasimov** o'rganib chiqib, uning taxminiyl qiyofasini tiklagan. Teshiktoshliklar asosan ovchilik va qisman termachilik bilan shug'ullanganlar.

**Omonqo'ton g'or-makoni** Samarqand viloyatidagi Zarafshon tog' tizmasining g'arbiy yonbag'rida joylashgan Omonqo'ton qishlog'i yaqinida joylashgan. G'orning kengligi **1,5 m**, balandligi **0,9 m**, chuqurligi **25 m**. G'or-makonning madaniy qatlamlaridan qirg'ich, paykon, plastinkalar, nukleuslar, qo'l chopqilari, Osiyo mufloni (arxar), qo'ng'ir ayiq, tog' echkisi suyagi, gulxan qoldiqlari topilgan. Bu yerda yashagan qadimgi odamlar asosan ovchilik va termachilik bilan shug'ullanishgan.

**Obirahmat g'or-makoni** Toshkent shahridan 100 km shimili-sharqda, G'arbiy Tyan-Shan – Chotqol tizmasidagi Paltov soyining yuqori sohilidi joylashgan. Qazuv ishlari jarayonida 21 ta madaniy qatlam mavjud ekanligi aniqlandi. Ko'plab tosh qurollar, har xil hayvonlar suyaklari, gulxan va kul qoldiqlari topilgan.

Olimlarning farazlariga ko'ra, bu yodgorlikda odamlar bundan **120-40 ming yil** muqaddam istiqomat qilishgan.

**Xo'jakent manzilgohi** Toshkent shahridan 80 km shimoli-sharqda, Chirchiq daryosining chap sohilidagi Xo'jakent qishlog'i yaqinida joylashgan. G'or shimoli-g'arbga qaragan, balandligi **2,5 m**, kengligi **6 m**, chuqurligi **4 m**. G'ordan ishlov berilgan nukleuslar, qo'l chopqilari, parrakchalar, teshgich-bigizlar topilgan bo'lib, odamlar miloddan **100-40 ming yillar** ilgari yashaganlar va asosan termachilik hamda ovchilik bilan shug'ullanganlar.

**Ko'buloq joy-makoni** Ohangaron daryosining o'ng irmog'idan biri – Qizil olma soyining o'rta oqimida, Angren shahridan 10-12 km g'arbda joylashgan **Obliq** qishlog'idan 5 km shimoli-g'arbda joylashgan. Bu yodgorlik ko'p qatlamli bo'lib, unda **arkantroplar**, **neandertallar** va **kramonyonlar** yashashgan. Ko'buloq 41 ta qatlamdan iborat bo'lib, 4-8 qatlamlari mustye davriga taalluqlidir.

**Qo'tirbuloq makoni** Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi *Charxin* qishlog'idan 700-800 m uzoqda joylashgan **ochiq manzilgohdir**. Bu yerdan ko'plab paykonlar, qirg'ichlar, chopping, chopper, yassi nukleuslar, fil, tur, bug'u, yovvoyi ot, Buxoro bug'usi suyagi qoldiqlari, gulxan va kul qoldiqlari topilgan.

Mustye davriga oid yodgorliklarda olb borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mustye neandertallari g'orlarda ham, ulkan mamont suyaklaridan qilingan turar joy – chumalarda ham yashaganlar. Mazkur davrda odamlar olovni saqlabgina qolmay, balki yog'ochni bir-biriga ishqalash yo'li bilan yoki chaqmoqtoshni bir-biriga urish natijasida olov hosil qilishgan.

O'rta paleolit davri odamlarining asosiy mashg'uloti mamont, bison, bug'u, tog' echkisi, arxar va boshqa hayvonlarni ovlab kun ko'rish bo'lib, ovchilik ular hayotida muhim o'rinn tutgan. Ovhilar chaqmoqtosh, o'q qadalgan nayzalar, gavronlar bilan qurollangan edilar. Lekin termachilik ham ular xo'jalik hayotining asosini tashkil etgan.

Mustye davri kishilari neandertallar hisoblanib, hali ularning tashqi qiyofasida maymunga xos belgilar birmuncha saqlanib qolgan edi. Ularda hozirgi qiyofadagi kishilarga o'tish jarayoni borayotgan, ishlab chiqarish qurollari takomillashayotgan, nutq madaniyati o'sa borib, fikrlash ancha oshgan, olov sun'iy tarzda yaratila boshlangan. Mazkur davrda ibtidoiy to'dadan urug'chilik tuzumiga o'tila boshlangan. Shuningdek, bu davrda murdalarni sun'iy tarzda kovlangan qabrga ko'mish birinchi bor qo'llanilganki, bu ancha murakkab g'oyaviy tushunchalar paydo bo'lganligidan dalolatdir.

Olimlarning ilmiy farazlariga ko'ra, biz yashab turgan **Yer** sayyorasi **5 mlrd.** yil muqaddam paydo bo'lib, dastlab unda hech qanday hayot bo'limgan. Yer tarixi geologik jihatdan **arxey**, **paleozoy**, **mezozoy** va **kaynozoy eralariga** bo'linadi. **Arxey** erasining oxirida Yerda juda oddiy tirik mavjudotlar, **paleozoyda** suvda va quruqlikda yashovchi hayvonlar, **mezozoyda** sudralib yuruvchilar paydo bo'ladi. Yer tarixining **kaynozoy** erasida esa, sut emizuvchi hayvonlar tarqaladi. Bu era, o'z navbatida, uchlamchi va to'rtlamchi bosqichlarga bo'linib, uchlamchi bosqich **50-60 mln.**, to'rtlamchi bosqich **3-3,5 mln.** yilni o'z ichiga oladi.

**To'rtlamchi bosqich** boshlarida iqlim hozirgiga nisbatan issiqroq bo'lib, **Periney yarimorolidan Xitoygacha** bo'lgan hududlar subtropik, Osiyoning janubi va Afrikaning katta

qismida esa, tropik mintaqalar edi. Uchlamchi bosqichning oxiri va to'rtlamchi bosqichning boshlarida mazkur o'lkalarda maymunlarning xilma-xil turlari yashagan.

Biz fan tomonidan isbotlangan, odamning hayvonot dunyosidan uzoq vaqt davom etgan rivojlanish jarayoni oqibatida ajralib chiqqanligi haqidagi fikrga yondashamiz. Odamning oliv tipdagi maymunsimon ajdodlar bilan bog'liqligi haqidagi g'oya Ch.Darvinga taalluqli bo'lib, u evalyutsion jarayon natijasida odam huddi shu odamsimon maymundan kelib chiqqanligini ta'kidlaydi. Ya'ni, maymunning odamga aylanishida asosiy omillardan biri – tabiiy saralanish va jinsiy tanlanishdir, degan nazariyani ilgari suradi. Jamiyatshunos olimlar maymunning odamga aylanishi jarayonida asosiy omillardan yana biri – mehnat ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Biz yuqorida, yer tarixi kaynazoy erasining to'rtlamchi bosqichida odamzod paydo bo'la boshlaganligini aytgan edik. Uchlamchi bosqich boshlarida iqlim hozirgiga nisbatan issiqroq bo'lib, Pireney yarim orolidan Xitoygacha bo'lган maydonlar subtropik mintaqalar edi. Mazkur o'lkalarda to'rtlamchi bosqich boshlarida hayvonlarning, shuningdek, maymunlarning xilma xil turlari yashagan. Ular orasida odamsimon maymunlar ham bo'lib, ular odamning eng qadimgi ajdodlari hisoblangan. Ular driopitek, ramapitek, avstrolopiteklar bo'lib, shulardan avstrolopiteklar odamga ko'proq o'xshashligi bilan ajralib turgan. Driopiteklar hozirgi kunimizdan 15-12 mln yillar ilgari yashagan. Driopitek – «daraxtda yuruvchi odam» deb nomlanadi. 1856 yilda frantsuz arxeolog Larte Avstriyaning Yuqori Goranna degan joyidan yer tarixinining miotsen yotqiziqlaridan (bundan 5-12 mln. yil burun) eng oliv tipdagi odamsimon «maymun» driopiteklarga tegishli bo'lган 3 ta tish qoldiqlarini topgan. Driopitek odamsimon maymunlar turiga kiradi. Olimlar uning miya suyagini hajmini o'lganda 600 sm<sup>3</sup> bo'lganligini qayd etadi.

Hozirgi kunda dunyoning har xil joylaridan driopiteklarning 10 dan ortiq turlari topib o'rGANILGAN. Ch.Darvin Avstriya topilmasini o'rganib uning tishlarida odamzod tishlariga xos belgilar borligini isbotladi. Ch.Darvin driopitekda odamzodning ajdodini ko'ra bildi. Darwin yaratgan ta'limotga ko'ra barcha driopiteklar odamzodning ajdodi bo'la olmaydi. Undan qolgan iz so'nggi (Yuqori Gerannadagi) si avlod izi bo'lgan. Ramapiteklar ham odamsimon maymunlar turiga mansub bo'lib, uning qoldiqlari Afrika, Hindiston hududlaridan topilgan. Ramapiteklar 12-7 mln. yillar ilgari yashagan.

Avstrolopiteklar keyingi tur bo'lib, ular odamga ko'proq o'xshagan va hozirgi kunimizdan 3 mln. yillar ilgari yashagan. Ularning miya suyagining hajmi 600-700 sm<sup>3</sup> bo'lib, avstrolopiteklar ikki oyoqda tik turgan, o'simlik va go'shtni ovqat sifatida iste'mol qilgan. 1924 yilda Janubiy Afrika hududlaridan odamzodning ilk ajdodi bo'lgan avstrolopitekning suyaklari topilgan. Olimlar unga «Janubiy odam» deb nom berishgan.

Yer qa'rining plyutsen (bundan 3-4 mln. yil oldin) yotqiziqlaridan olimlarning xulosasiga ko'ra, driopitek eng oliv tipdagi odamsimon «maymun» bo'lsa, avstrolopitek esa, «maymunsimon» odam vakili bo'lgan. Avstrolopitek odamzodning hayvonlar olamidan odamlar dunyosiga o'tishda qo'yilgan birinchi qadami edi.

1960 yilda arxeolog Luis Liki Sharqiy Afrikaning Olduvay darasidan odamzodning qadimgi ajdodlari suyak qoldiqlarini topdilar. Olduvayda odam, hayvon suyaklari bilan bir qatorda tosh qurollar ham topildi. Olimlar bu erdan topilgan mavjudotni zinjantrop deb atadi va uning yashagan davrini avstrolopitek va pitekantrop oralig'i deb belgiladi.

Zinjantrop deb atalishiga sabab, uning Tanzaniyaning Zinji nomli qishlog'i atrofidan topilishi edi. Zinjantoplarga «Xomo Xabilis» - «ishbilarmon odami» deb nom beriladi. Chunki u eng sodda mehnat qurollarini yasay olar edi. Zinjantrop qoldiqlari Keniya va Efiopiya hududlaridan ham topib o'rGANILGAN. Zinjantoplarni suyagi topilgan joylardan hayvon suyaklari va tosh qurollar ham topiladi. Afrikadan «ishbilarmon odamlar» topilgan geologik qatlarning sanasi 3-2 mln. yillar bilan belgilanmoqda. Bu esa, odamzodning mehnat qila boshlagan ilk ajdodi pitekantropga qadar zinjantoplarni bo'lgan, degan xulosaga olib keladi. Afrikadan topilgan ishbilarmon odamlar arxantoplarni deb nomlangan. Yunoncha «Arxayos» - qadimgi, «antropos» -

odam degan ma'nolarni bildiradi. Demak, arxantroplar toshdan quroq yasash qobiliyatiga ega bo'lgan odamzodning dastlabki ajdodlaridir.

Odamning kelib chiqishi va rivojlanishi masalasi bilan **antropologiya** fani shug'ullanadi. Antropologiya uch asosiy bo'limga bo'lib o'rganiladi: 1) **morfologiya**; 2) **antropogeniya** yoki **antropogenez**; 3) **irqshunoslik** yoki **etnik antropologiya**. **Morfologiya** odamning jismoniy tuzilishidagi belgilarning yosh, jins, kasb va tashqi sharoitga qarab o'zgarishini o'rganadi; **antropogeniya (antropogenez)** odam jismoniy qiyofasining shakllanishi, mehnat faoliyati, tili, shuningdek jamiyatning dastlabki rivojlanishi jarayonini o'rganadi; **irqshunoslik** irqlarning sinifi tasnifi, irqlarning geografik jihatdan tarqalganligi, irqlarning shakllanish tarixi bilan shug'ullanadi.

**Paleoantropologiya** qadimgi odam qoldiqlarini o'rganib, muayyan davrdagi odamlarning faziologik tiplari haqida tasavvur hosil qilishda, mazkur fiziologik tiplarning o'rgarishida turli ijtimoiy va tabiiy sharoitlarning ta'siri masalalariga oydinlik kiritadi. Umuman olganda, bugungi kunda olimlar odamning paydo bo'lismeni ilk paleolit davridan boshlab, so'nggi paleolitga kelib odamning antropologik va tarixiy rivojlanishi nihoyasiga yetib, zamonaviy qiyofadagi odamning (*Homo Sapiens*) qaror topishi bilan tugagan. Odamning paydo bo'lishi tarixiga qiziqish qadimdan, antik davrdan boshlanganligini ko'rish mumkin. Aristotel mazkur masalani yechishga harakat qilgan olimlardan biridir. Aynan "antropologiya" atamasini ham Aristotel ilk marta odamning kelib chiqishini o'rganuvchi fanga nisbatan ishlatgan.

XVIII asrdan boshlab odamning kelib chiqishi masalalarga qiziqish orta borgan. Fransuz tabiatshunos olimi *Jorj Lui Leklerk Byuffon* (1707-1788) inson bilan hayvonot olami o'rtasida qandaydir o'tib bo'lmas to'siq borligini taxmin qilgan. **1735 yilda** shved tabiatshunos olimi *Karl Linney* (1707-1778) o'simlik va hayvonot olamini sistemasini tuzgan va insonni "Birinchi qator" ga qo'ygan. **1758 yilda** u o'z sistemasiga o'zgartirish qilib, unga primatlar guruhini – **Ordo primates** (ya'ni birinchi yoki boshlang'ich ma'nosida) kiritib, ularni to'rt qismga bo'ladi: 1) **Homo** – odam; 2) **Simia** – maymun; 3) **Lemur** – lemur (primatlar guruhiga kirivchi chala maymunlar oilasi); 4) **Vesprutilio** – ko'rshapalak. Homo guruhini u yana ikki guruhga bo'ladi: 1) **sapiens** – "kunduzgi odam" o'zining "joyiga nisbatan" madaniyati bilan ajralib turgan. 2) **Troglodytes** (troglodit) – "kechki odam", "o'rmon odami", "Orangutang".

Shu tariqa ilk marta hayvonot olamida odam o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, "**Homo sapiens**" (aql-idrokli odam) atamasi paydo bo'lib, bugungi kunda ham fanda ilmiy termin sifatida ishlatib kelinmoqda.

Karl Linneydanda aniq isbotni frantsuz olimi **Jan Batist Lamark** (1744-1829) bergan. Uning fikriga ko'ra, o'ta rivojlangan maymunning bir turi o'sha davrda qandaydir tabiiy ta'sir ostida daraxtda yashash qobiliyatini yo'qotib, ikki oyoqda tik yura boshlagan. Ular o'zları uchun yemish izlab tanlagan holda oziqlanishgan. Biroq uning bu fikri o'sha davrda o'z tasdig'ini topmaydi.

Evolutsion nazariyaning tan olinishi **Charlz Darwin** (1809-1882) nomi bilan bog'liqdir. **1859 yilda** Darwin o'zining "*Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning kelib chiqishi*" asarida antropogenez jarayoni haqida fikr yuritadi. **1871 yilda** "*Odamning paydo bo'lishi va jinsiyl tanlanish*" asarida esa, yanada aniq dalillar bilan vaqt, davrlar o'tishi bilan bosqichma-bosqich odam bugungi ko'rinishga kelganligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, Afrika ilk odamzod paydo bo'lgan hudud hisoblanadi.

Umuman olganda Ch.Darvin ilgari surgan g'oya bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Antropologik topilmalar XIX asrning 40-yillaridan topila boshlangan. **1848 yilda** *Ispaniyaning Gibraltar qoyasidan* ishchilar odam bosh chanog'ini topib oladilar. Biroq bu topilma haqidagi ilk ma'lumot **1864 yilga** kelibgina **G.Besk** tomonidan matbuotda e'lon qilinadi.

**1856 yilda** Germaniyaning Dyusseldorf hududiga yaqin **Neander** vodiysidagi (Neandertal) g'ordan Gibraltardan topilgan suyakka o'xshash bosh chanog'i topiladi va tezda butun jahonga ma'lum bo'ladi. Uni paleontolog **Fulrod** o'rganadi.

**1868 yilda** Fransiyaning *Kro-Manon g'oridan* so'nggi paleolitga mansub odam suyagi qoldiqlari topiladi (yevropeoid irqiga mansub xususiyatlar mavjud).

Golland vrachi va anatomi *Ernest Dyubua* **1890-1892 yillarda** Yava orolida antropoid va neandertallar oralig'ida mavjud bo'lgan odam turiga mansub suyak qoldiqlarini topadi. Skeletini top'liq topib, qayta tiklashga muyassar bo'lgan olim uni tik ikki oyoqda yurgan eng qadimgi odam ekanligini ta'kidlaydi va uni "*Pitekantropus erekta*" – "*Tik yuruvchi maymunsimon odam*" deb ataydi.

**1901 yilda** Italiyaning *Grimaldi g'oridan* odam suyagi qoldig'i topiladi (negroid irqiga mansub xususiyatlar mavjud).

Keyingi tadqiqtolar jarayonida pitekantropga tegishli suyak qoldiqlari ko'plab topila boshlandi.

**1907 yilda** Germaniyaning **Mauer qishlog'ida**, Geydelbergdan 10 km janubda ishchilar qazilma odam suyagi qoldiqlarini topib olishadi. U fanda **geydelberg odami** nomi bilan mash'hur. Olimlar uni pitekantrop va neandertal turlari oralig'idagi tipiga mansub odam, deb hisoblaydilar.

**1927 yilda** Pekin shahri yaqinidagi *Chjoukoutyan* degan joydan sinantrop suyagi qoldiqlari topiladi. Bu manzilgoh kanadalik olim **D.Blek** tomonidan o'rganilgan. 25-30 m qalinlikdagi madaniy qatlamga ega yodgorlikda arxantroplar bo'lib, ular pitekantroplarga nisbatan ancha rivojlangan, bir necha mingyillar davomida shu yerda yashashgan va buni ular yasagan ov va mehnat qurollari, ulardagi o'zgaruvchanlik hamda bir necha o'n metrlik kul qatlami ham buni tasdiqlaydi (mongoloid irqiga xos xususiyatlar mavjud).

**1935 yilda** Angliyaning **Svanskomb** degan joyidan (Kent) **Mareton** ayol jinsiga mansub odam suyagi qoldiqlarini topadi. Mazkur topilmani maxsus o'rganish uchun Qirollik qo'mitasida Antropoliya instituti tashkil etiladi. Olimlar ushbu topilmani Homo sapiensga yaqin odam tipii ekanligini tasdiqlaydilar.

**1938 yilda** O'zbekistonda *Teshiktosh g'ori* arxeolog **A.P. Okladnikov** tomonidan tadqiq etilib, neantortal tipiga mansub odam suyagi qoldiqlarini topadi. Uni qiyofasini antropolog olim **M.M. Gerasimov** tiklagan.

**1954-1955 yillarda** fransuz olimlari **K.Arambur va R.Xofshtetter Ternifin (Jazoir)** dagi qazuv ishlari jarayonida sinantropga yaqin odam suyagi qoldiqlarini topiladi. Bu topilma **atlantrop** (Afrikaning shimoli-g'arbidagi Atlas tog'i nomidan) deb nomlanadi. Suyak qoldiqlari bilan birga shell va ilk ashel davriga oid tosh qurollari ham topiladi.

**1960 yildan** ingliz antropologi **Luis Liki Tanganikadagi (Sharqiy Afrika) Olduvay g'orida** shell davriga oid tosh qurollarni topish bilan birga odam suyagi qoldiqlarini ham topadi. Olim uni pitekantropning zamondoshi sifatida ko'rib, "zinjantrop" (avstralopitek – janub odami) deb ataydi. **Homo habilis** deb atalgan bu odam tipi bundan 2,5-3 mln. yil avval yashagan.

**1963 yilda** Xitoy olimi **Vu Xuanxe** daryosi o'rta oqimida Lyandyan manzilidan qadimgi odam qoldig'ini topadi. Uning sinantropga nisbatan ancha qadimiy bo'lganligi aniqlandi. Fanda u «*Lyandyan arxantropi*» deb nom oldi.

**1963 yilda** Toshkent viloyati Ohangoron tumanida Mingbuloqdan hozirgi kunimizdan 400-500 ming yillar muqaddam yashagan sinantrop turiga oid qazilma odam qoldiqlari topilgan.

Shunday qilib, antropologik topilmalarini izlash va ularni o'rganish bugungi kungacha ham davom etib kelmoqda. **2000-2004 yillar** davomida **Qashqadaryo vohasi** Kitob tumani tog'li hududlarida olib borilgan tadqiqt ishlari jarayonida (o'zbek-amerika qo'shma ekspeditsiyasi) **Oyoqchisoy vodisida Angilak g'ori** tadqiq etilib neandertal tipiga mansub odamning oyoq suyagi topildi. Bu viloyatimiz tarixidagi eng diqqatga sazovor topilma bo'lди.

Demak,

1. Odamzod tabiatning ajralmas bir bo'lagi sifatida Yer tarixining ma'lum bir bosqichida hayvonot olamidan ajralib chiqdi. U jonivor fanda eng oliy tipdag'i «odamsimon maymun» deb atalmoqda.

2. Ajdodlarimizning hayvonot olamidan odamzod dunyosiga qo'ygan birinchi qadami avstralipiteklar davrida sodir bo'ldi.

3. Odamzodning ilk ajdodlari zinjantrop va pitekantroplar toshni toshga urib mehnat qila boshlaydilar. Mehnat odamzodni hayvonot olamidan ajratdi.

4. Odamzod o'zining ajdodi – sinantroplar davrida olovni kashf etdi va shu tufayli ajdodlarimiz go'shtni olovda chala pishirgan holda iste'mol qila boshladilar. Pishirilgan go'shtni iste'mol qilish natijasida ularning fikrlashida o'zgarish yuz berdi va odamning biologik, jismoniy tuzilishida hozirgi zamon odami tomon ijobiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi.

Kramonon odami zamonasiga kelib ilk ajdodlarimizning biologik, jismoniy tuzilishi hozirgi zamon odamidan farq qilmaydigan holatga kirdi. Kramon'onlar davri urug'chilik jamoasining boshlanishi birinchi jamoachilik kurtagining tughilishidir. Bu o'zgarishlarning barchasiga inson o'z mehnati tufayli erishdi.

Yuqorida ko'rdikki, tabiiy tanlanish va jinsiy saralanish, shuningdek birinchi navbatda mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofadagi odamlar hozirgi qiyofadagi kishilarga aylana bordilar. Ular ham aqliy, ham jismoniy jihatdan kamol topib, uzoq vaqt davom etgan rivojlanish jarayonida hozirgi qiyofadagi kishilarni shakllantirdi va shu bilan antropogenez jarayoni nihoyasiga etdi. Huddi shu davrda evropoid, negroid va mo'g'ul deb nomlangan dastlabki irqlar vujudga keldi. Insoniyat o'zining hozirgi qiyofasiga yetib kelguncha 2-3 million yillik katta tarixiy davrni bosib o'tdi. Bu kishilar fanda «homo sapines» - «aql-idrokli odamlar», deb ataladi.

Paleolit – odamning shakllanish davri hisoblanadi. Bu davrda odamlar ibtidoiy gala davridan urug'chilik tuzumiga o'tishgan. Odamlar o'zları uchun tosh, suyak va yog'ochdan ov hamda mehnat qurollari yasay boshlashgan. Bir toshga ishlov berish uchun odam ikkinchi toshni, suyak yoki yog'ochni ishga solgan. Tosh qurollariga ishlov berish texnologiyasiga qarab ularni quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

**Olduvay bosqichi** (bundan 3 mln. - 700 ming yil muqaddam). Qurollarning sodda va oddiyligiga ko'ra ularning jismoniy qiyofasi va tafakkuri hali yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan xarakterlanadi. Bu davr uchun uch xil ko'rinishdagi qurollar xos. *Birinchisi* ko'pqirrali tosh qurol bo'lib, asosan o'simliklarni tanalarini qirishda va hayvonlarni terisini shilishda ishlatilgan. *Ikkinchisi* tosh uchrindilar bo'lib, ular toshni toshga urish natijasida hosil qilingan. Bu arxeologiyada retush texnikasi deb nomланади.

*Uchinchisi* chopperlar bo'lib, asosan chopqi sifatida ishlatilgan. Shu bilan birga choppenglar ham bo'lib, ularga ikki taraflama urib ishlov berilib, ushlashga juda qulay qilib ishlangan.

Olduvay tosh qurollari orasida nukleuslar alohida ahamiyatga ega. Ular tosh qurol yasashda asos vazifasini bajarsa-da, chopperdan ajratish ancha qiyin. Olduvay qurollarining o'lchami 8-10 sm atrofida.

Bu davrda yashagan qadimgi odamlar tabiatdan ajralmagan holda, olovni bilmay termachilik va ovchilik bilan shug'ullanishgan. Ular jamoa ko'rinishida yashab, ovni ham jamoa bo'lib uyushtirishgan.

**Ashel davri** (bundan 700-150-120 ming yil muqaddam). Ashel davrida yangi tosh quroli – qo'l chopqilari (ручные рубила) va teshgichlar (кливера) paydo bo'lган. Bu davr qurollari olduvay qurollariga nisbatan katta bo'lib, 35 sm gacha bo'lган.

Ashel davrida odamlar ovchilikka qulay muqim joyga o'rnashib, tosh qurollar yasaladigan maxsus "ustaxonalar" tashkil etishgan. Bu davrda olov kashf etilib, odamlar gorlarda yashab, o'zlarini yovvoyi hayvonlardan himoya qilishga sharoit yarata boshlaganlar. Jinslar o'rasida taqsimot vujudga kela boshlagan: erkaklar ovchilik bilan, ayollar esa, "uyda" olovni saqlash, bolalarga va qariyalarga g'amxo'rlik ko'rsatishgan.

Mustye davri – asheldan keyingi, xronologik jihatdan muzlikning riss bosqichiga muvofiq keladigan davrdir. Bu bosqich bir necha 10 ming yillar davom etgan bo'lib, taxminan 40 ming yillar burun tugagan va u Frantsiyadagi Must'e g'or-makoni nomi bilan atalgan.

Mustye madaniyati – neandertal odamlar hayoti, faoliyati, maishiy munosabatlarining aks etishidir. Bu davrda neandertallar keng territoriyaga yoyilgan, tabiat bilan ilk paleolit odamlariga nisbatan faolroq munosabatga kirishgan. Tabiiy sharoit sovub, Yevropa, Osiyo, Amerika shimoliy viloyatlarining katta qismini ulkan muzliklar qoplagan. Sharqiy Yevropa hududlariga ham muz qatlamlari siljigan (uning markaziy Skandinaviya bo'lgan) va qalinligi 2 km.ni tashkil etgan. Hatto must'e bosqichida O'rta va G'arbiy Sibirni ulkan muzlik qatlami qoplagan. Shimoli-sharqda esa, markazi Chukotka bo'lgan muzlik qoplagan. Umuman, million km<sup>2</sup> ni muz qoplab, bu joy inson faoliyat ko'rsata olmaydigan hududga aylangan.

Mustye davrida – mamontlar, shimol bug'ilari va boshqa hayvonlar keng tarqalgan. Muzlikning siljishi natijasida ob-havoningsovushi qadimgi odamlarni tabiiy sharoitga moslashishiga turki bo'ladi. Qadimgi odamlar tabiatning dahshatli sinovi (sovug'i) ga chidash uchun yashash zaruriyatining turli formalarini topishga harakat qiladi. Bu harakat (sovuqdan saqlanish, kiyim kiyish, ehtiyojni qondirish) natijasida insoniyat o'z taraqqiyotida hal qiluvchi asosiy qadamlardan birini tashladi.

Insonning rivojlanish jarayonida ongning taraqqiy etishi asosiy hal qiluvchi omillardan biridir. Mustye davrida yashagan va antropogenez jarayonida 2 chi asosiy hal qiluvchi bosqich hisoblangan – neandertallar dunyoni bilish, tabiat to'g'risida, undagi o'zgarishlar va real voqealarcha munosabat borasida ma'lum fikrga kela boshladи. O'z faoliyati davomida bilimga ega bo'lish va fikrlash ko'nikmalarini sekin-asta egallanishi odamni (insonni) rivojlantiradi. Natijada tabiatdagи voqealarning sehrli tuyulishi ta'sirida dastlabki diniy tasavvurlar paydo bo'ladi. Ya'ni hayratlanish, o'zgarishlarni sehr sifatida idrok etilishi murdalarni ko'mish – chuqr kovlash, murda yoniga uning qurollarini quyilishi va hakozolar «narigi dunyo» yoki ruh haqidagi tushunchalarni paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

Mustye davrida tabiatning keskin o'zgarishi odamlar faoliyatida, hayotida katta muammolarni keltirib chiqardi. Avvalgi issiq iqlim o'rniga muzsovug'i - havoning keskin o'zgarishi yashash zaruratini qiyinlashtirdi. Ko'plab odamlar sovuqdan qirilib ketadi. Tabiat bilan kurashib, mol terilaridan kiyimlar tikib, ochiq manzilgohlardan baland g'orlarga joylashgan odamlar jon saqlab yangi sharoitga ko'nika boshlagan.

G'orlarga joylashgan odamlarni uzoq vaqt kollektiv mehnat faoliyati bog'lab kelgan. Ularning asosiy xo'jalik mashg'uloti – ovchilik bo'lib, u ehtiyojni qondirishdagi asosiga aylandi. Odamlarning birgalikda yashashi va uning zaruriyatga aylanishi («kollektivda» yoki g'or ichida) ichki maishiy munosabatlarni shakllanishiga olib keladi.

Mustye bosqichi ibridoiy jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda o'zining ishlab chiqarish funktsiyalariga ko'ra turli tuman bo'lgan tosh qurollar paydo bo'ladi. Hozirgi kunda must'e madaniyat qurollarining 60 turi topib o'rganilgan. Chaqmoqtosh qurollar yasashning yangi texnikasi must'e davrida keng yoyildi. Qurollar yasashning yangi usuli yorma texnika deb ataladi. Bu usul orqali tosh qurolning bosh tomoni urib uchirilib, tekis maydonga hosil qilinadi. U **zarb maydonchasi** deb ataladi. Shunday maydoncha hosil bo'lgandan keyin uning chetlaridan avvalgi texnika usuli vositasи bilan hosil qilish mumkin bo'lмаган yupqa tosh parchalarini birin-ketin uchirib olishga imkon tug'ilgan. Tosh parrakchalar uchirib olinib bo'lgach, nihoyat tosh bo'lagidan boshqa uchirib bo'lmaydigan, tashqarisi tarashlangan o'zak qolgan. Bu o'zak nukleus bo'lib, urib uchirish uchun ishlatiladigan yaxlit tosh esa, ushatgich deb atalgan. Mustye uchun ikki asosiy qurol turi: o'tkir uchli qurollar va tarashlagichlar xarakterli bo'lib, ular uch burchakli plastinkalardan yasalgan; bu plastinkalar yangi sindirish texnikasini qo'llanib, disk (gardish) shaklidagi nukleuslarga (yadro) otboynik (tosh) bilan urib hosil qilingan. Qisqa va keng qurollar tayyorlangan. O'tkir uchli qurolning asosiy ishni bajaratdigan qismi-o'tkir cho'qqisi, tarashlagichning asosiy qismi esa, uch burchakli plastinkaning yoysimon tagidir. Must'e davrida shakli jihatdan tarashlagichga o'xshab ketadigan bo'lsa ham, lekin ishni bajaratdigan chetidagi chuqurchasi bilan farq qiladigan o'roq randa paydo bo'lgan. Bu asbob bilan randalashgan, po'stloqni shilib olishgan. Qurollar ko'pincha chetlari o'tkir, yupqa bo'laklarga yorilishi mumkin

bo'lgan qattiq chaqmoqtoshdan yasalgan. Tabiatda chaqmoqtosh keng tarqalgan. So'nggi must'eda ahyon-ahyonda istisno tariqasida suyakdan quollar yasala boshlagan. Eng qadimgi odamlar har narsani eyaveradigan bo'lganlar: o'simliklardan tayyorlangan va go'shtli ovqatlar iste'mol qilgan. Odamzodning tongida o'simlik oziq-ovqatlar ko'proq iste'mol qilingan bo'lsa kerak. Odamlar bunday oziq-ovqatni tabiatdan tayyor shaklda olishgan. Ular o'simlik ildizlarini, mevalarini, zamburug'larni iste'mol qilgan.

Demak, mustye o'ziga xos arxeologik bosqich bo'lib, u miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklarni o'z ichiga olib, kishilik madaniyati rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Mustye davriga kelib inson tashqi qiyofasida jiddiy o'zgarishlar ro'y bera boshlagan. Arxantroplar paleoantroplarga (neandertallar) aylanib, ba'zi maymunga xos belgilar saqlanib qolgan bo'lsa-da, ularning fikrlash doirasi kengayib, nutq paydo bo'la boshlagan.

Mustye davrida tosh quollarga ishlov berishning o'ziga xos texnologiyasi vujudga kelgan. Nukleuslarda zarb maydonchasi juda aniq olinganligi aniq seziladi. Birgina zarb bilan toshning yuqori qismi sindirib olingan va natijada zarb maydonchasi hosil qilingan. Natijada toshning chetlaridan turli ko'rinishdagi uchrindilarni olish imkonи tug'ilgan. Bunday nukleuslardan ko'pincha uchrindi hosil qilingan.

Mustye davri tosh quollariga ishlov berish texnologiyasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, inson ongi va tafakkurining o'sishi natijasida tosh quollarning keraksiz, ishlatishda halaqit beradigan joylari olib tashlangan, ya'ni tarashlangan.

Mustye davriga kelib tosh quollarning asosiy shakllari – uchrindi pichoq va qirg'ichlar paydo bo'lgan. Uchrindi pichoq kesishga ishlatilib, ov quroli hisoblangan. Qirg'ich esa, asosan xo'jalik quroli bo'lib, teriga ishlov berishda ishlatilgan. Shu bilan birga qo'l chopqilari ham saqlanib qolgan. Umuman olgandi mustye davrida tosh quollarning 60 ga yaqin turi mavjud bo'lgan.

Tosh quollar bilan birga suyakdan yasalgan quollar ham alohida ahamiyatga ega. Suyakdan qilingan quollarni o'rganish jarayonida odamlar ularni oddiygina sindirish yoki u yoq, bu yog'ini yo'nish bilan cheklanganlar. Chunki suyaklarga ishlov berayotganda ularning hammasi ham qovurg'a yoki kurak suyagi singari egiluvchan, elastik xususiyatga ega bo'limgan yoki ushlab turib yo'nishga moslashmagan. Tosh davriga taalluqli suyak quollari asosan jag' suyagidan, qoziq tishlar, mamont va fillarning tishlari, suyaklari, shoxli hayvonlarning shoxlaridan yasalgan.

Suyakdan tosh quollari yasalishi jarayonida ularga tosh quollar bilan ishlov berilgan. Suyakni ma'lum bir shaklga kiritish uchun 200 gr yoki 500 gr chaqmoqtoshdan foydalilanilgan. Tosh bilan urib sindirilgan suyakning tig'li tarafidan pichoq yoki bigiz sifatida ishlatilgan. Mamont yoki filning yon tishlariga ishlov berish yoki uni sindirish ancha mehnat va kuchni talab etgan.

Mustye yodgorliklari Markaziy Osiyo hududlarida keng o'rganilgan. Mustye yodgorliklarini o'rganish 1938 yildan boshlagan bo'lib, hozirgi kunda **Markaziy Osiyoda 300** ga yaqin mustye makonlari aniqlangan. Uning **100** ga yaqini arxeologlar tomonidan keng o'rganilgan. O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston hududlarida must'e yodgorliklari mavjud. O'rta tosh asri - mustye davri arxeologik yodgorliklari O'zbekiston hududida ham mavjud bo'lib, bu davrda yashagan ajdodlarimiz antropogenez shajarasida neandertal odami nomi bilan ma'lumdir.

O'zbekistonda mustye davri yodgorliklariga **Teshiktosh, Obirahmat, Xo'jakent, Amir Temur g'ori, Qizilqum, Zirabuloq** kabi joy makonlarini kiritish mumkin. O'zbekistonda topilgan mustye davri yodgorliklari ichida Teshiktosh g'ori alohida ahamiyatga ega. Teshiktosh g'ori 1938 yilda A.Okladnikov tomonidan o'rganilgan. Teshiktosh g'oridan 9 yashar bolaning mozori - qabri topilgan. Bola skleti chuqurcha qazib unga chalqanchasiga yotqizilgan. Qabrning atrofi hayvon shoxlari (6 juft) bilan o'ralgan. G'orda qalin kul qatlami mavjud bo'lib, uning orasidan turli hayvon suyaklari topilgan. G'orda neandertal odamlari yashagan bo'lib, ularning asosiy mashg'uloti ovchilik bo'lgan.

**Teshiktosh g'or-makoni** Surxondaryo viloyati Boysuntog' tumanidagi Boysun tog'ining janubiy yonbag'ridagi Turgandaryoning Zavlatashgansoy dasasida, dengiz sathidan 1500 m balandda joylashgan. G'or shimoli-sharqqa qaragan, kengligi **20 м**, chuqurligi **21 м**, balandligi **9 м**. Olib borilgan qazuv ishlari natijasida **5 та** madaniy qatlam borligi aniqlangan. Madaniy qatlamlardan 2859 ta toshdan yasalgan mehnat qurollari, gulxan izlari va kul qoldiqlari, tog' echkisi, bug'u, yovvoyi ot, ayiq, quyon, kemiruvchi va parrandalarning suyak qoldiqlari topildi. Teshiktoshdan topilgan topilmalar orasida **25 см** chuqurlikda **neandertal** tipdag'i odam suyagi qoldiqlari topildi. Bu topilmani mash'hur antropolog olim **M.Gerasimov** o'rganib chiqib, uning taxminiy qiyofasini tiklagan. Teshiktoshliklar asosan ovchilik va qisman termachilik bilan shug'ullanishgan.

**Omonqo'ton g'or-makoni** Samarqand viloyatidagi Zarafshon tog' tizmasining g'arbiy yonbag'rida joylashgan Omonqo'ton qishlog'i yaqinida joylashgan. G'orning kengligi **1,5 м**, balandligi **0,9 м**, chuqurligi **25 м**. G'or-makonning madaniy qatlamlaridan qirg'ich, paykon, plastinkalar, nukleuslar, qo'l chopqilar, Osiyo mufloni (arxar), qo'ng'ir ayiq, tog' echkisi suyagi, gulxan qoldiqlari topilgan. Bu yerda yashagan qadimgi odamlar asosan ovchilik va termachilik bilan shug'ullanishgan.

**Obirahmat g'or-makoni** Toshkent shahridan 100 km shimoli-sharqda, G'arbiy Tyan-Shan – Chotqol tizmasidagi Paltov soyining yuqori sohilidi joylashgan. Qazuv ishlari jarayonida 21 ta madaniy qatlam mavjud ekanligi aniqlandi. Ko'plab tosh qurollar, har xil hayvonlar suyaklari, gulxan va kul qoldiqlari topilgan. Undan 10 м qalinlikda 21 ta madaniy qatlam topiladi. Madaniy qatlamlardan ohak toshli chaqmoqtoshdan yasalgan mehnat qurollari, nukleuslar, parrakchalar, qirg'ichlar topilgan. 30 mingdan ortiq tosh uchrindilaridan tayyorlangan pichoqlar mavjud bo'lgan.

Olimlarning farazlariga ko'ra, bu yodgorlikda odamlar bundan **120-40 ming yil** muqaddam istiqomat qilishgan.

**Xo'jakent manzilgohi** Toshkent shahridan 80 km shimoli-sharqda, Chirchiq daryosining chap sohilidagi Xo'jakent qishlog'i yaqinida joylashgan. G'or shimoli-g'arbga qaragan, balandligi **2,5 м**, kengligi **6 м**, chuqurligi **4 м**. G'ordan ishlov berilgan nukleuslar, qo'l chopqilar, parrakchalar, teshgich-bigizlar topilgan bo'lib, odamlar miloddan **100-40 ming yillar** ilgari yashaganlar va asosan termachilik hamda ovchilik bilan shug'ullanishgan.

**Ko'lbulloq joy-makoni** Ohangaron daryosining o'ng irmog'idan biri – Qizil olma soyining o'rta oqimida, Angren shahridan 10-12 km g'arbda joylashgan **Obliq** qishlog'idan 5 km shimoli-g'arbda joylashgan. Bu yodgorlik ko'p qatlamli bo'lib, unda **arxantroplar**, **neandertallar** va **kramonyonlar** yashashgan. Ko'lbulloq 41 ta qatlamdan iborat bo'lib, 4-8 qatlamlari mustye davriga taalluqlidir.

**Qo'tirbulloq makoni** Samarqand viloyati, Kattaqo'pg'on tumanidagi *Charxin* qishlog'idan 700-800 m uzoqda joylashgan **ochiq manzilgohdir**. Bu yerdan ko'plab paykonlar, qirg'ichlar, chopping, chopper, yassi nukleuslar, fil, tur, bug'u, yovvoyi ot, Buxoro bug'usi suyagi qoldiqlari, gulxan va kul qoldiqlari topilgan.

Mustye davri yodgorliklari nafaqat ochiq manzillarda, balki g'orlarda, shuningdek tosh konlari bo'lgan ustaxonalarda ham aniqlangan. Yuqorida keltirilgan manzillardan tashqari Toshkent vohasida Xo'jakent g'ori, Samarqanddagi Omonqo'ton, Takalisoy, Zarafshonda Uchtut, Ijond tosh konlari ham arxeologlar tomonidan o'rganilgan.

Odamlarning mehnat faoliyati va uning kengaya borishi, atrof-muhit haqidagi tushunchalarga ega bo'lishi ularning fikrini o'zgartiradi. Mustye davri odamlari tabiat hodisalarini bo'lgan kun bilan tun almashishi, momaqaldiroq, vulqon otlishi, zilzila va boshqalar haqida bosh qotirgan va ularga sig'inganlar. Hatto ular tug'ilish, o'lim va narigi dunyo kabi tushunchalarga o'zlarini munosabatini bildirgan. Masalan, Teshiktosh g'oridan topilgan qabrda dafn etilgan bola qanday falokatga uchraganini ko'rish mumkin: 9-10 yoshli bola yirtqich hayvon ovi paytida qoyatoshdan yoki boshqa sharoitda yiqilgan va og'ir jarohat olib halok bo'lgan. Bola jasadi qabrga qo'yilib, atrofiga arxar shohlarini qadab qo'yilgan. Arxar shohlarini

ularning e'tiqodicha o'lgan odamni narigi dunyoda muhofaza qiladi. Mustye odamlari bu davrda tabiatdan tashqari kuchlarga ishongan. Insonni o'rab turgan muhitda ruhlarning mavjudligiga ishoniш fanda animizm deb ataladi. U diniy tasavvurlarning dastlabki kurtagi hisoblanadi.

Bundan 40 ming yillar ilgari kishilik jamiyat tarixida yuqori paleolit deb ataluvchi davr boshlanadi. U xronologik jihatdan arxeologik davrlashtirishda miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklar bilan belgilanadi. Yuqori paleolit odamning zamonaviy jismoniy tipini shakllantirgan, ibtidoiy to'da davri vayronalarida kishilik jamiyatining dastlabki bo'g'ini ibtidoiy jamoani tarkib toptirgan, tosh qurollar ishlashda yangi yutuqlarni vujudga keltirgan davrdir. Ibtidoiy to'dadan ibtidoiy jamoaga o'tishda toshdan mehnat qurollari yasash texnikasida, ibtidoiy xo'jalik shakllarida, ibtidoiy odamning turmush tarzida, ularning ijtimoiy munosabatlarida, dunyoqarashida, hatto odamning jismoniy tuzilishida ham keskin o'zgarishlar yuz berdi.

Yuqori paleolit davrida odamlar muz davrining sovuq iqlimida yashagan. Mustye davri oxirlarida muzlikning chekinishi, katta hududlarda tundra tabiat sharoitidagi o'simliklar o'sa boshlashiga imkon bergen. Shuningdek janubiy, muzlik etib bormagan o'lkalarda havoning isishi natijasida o'rmonlar ko'payib, turli daraxtlar keng tarqalgan.

Yuqori paleolitda yirik hayvonlar – mamontlar, bug'ular, junli karkidonlar, yovvoyi otlar mayjud bo'lib, ular paleolit davri odamlarining ehtiyojini qondirish manbalari hisoblangan. Ammo ob-havoning keskin o'zgarishi tabiatda yirik hayvonlarning kamayishiga olib kelgan. Yuqori paleolit davri oxirlarida mamont kabi yirik hayvonlar yo'q bo'lib ketadi. Bu hodisa odamlarning yashash sharoitida ma'lum o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ladi.

Yuqori paleolit moddiy madaniyati o'z xususiyatlari va ishlanish usuli bilan oldingi tosh qurollar davriga nisbatan ancha takomillashadi. Ya'ni bu davr tosh qurollari to'g'ri va uzun shaklda bo'lib, asosan pichoq sifatida ishlatilgan. Shuning uchun arxeologiyada yuqori paleolit qurollari pichoqsimon qurollar deb ataladi. Qurollar kesuvchi va shiluvchi xususiyatlarga ega bo'ladi.

Yuqori paleolit moddiy madaniyatida ko'zga tashlanadigan muhim xususiyatlardan biri – qurol yashashda yangi xom-ashyo – suyakdan keng foydalanish edi. Masalan, suyakdan garpunlar, ignalar yasalgan.

Tabiat bilan uzoq vaqt yashash zarurati uchun kurashgan inson katta hayot tajribasiga ega bo'la boshladи. Chunki, ilk paleolit mo'tadil havosi, o'rta poleolit muzligi va so'nggi paleolit sovug'i odamni yashash uchun kurashga o'rgatdi. Natijada odamlar ehtiyoj tufayli o'zlariga qulay bo'lgan hududlarga o'rasha boshladи. Ma'lumki, muz qoplagan davrda (gints, vyurm, ris va mendel bosqichlarida) odamlar sovuqdan saqlanish uchun tog' yon bag'irlarida yoki baland tog'larda mavjud bo'lgan g'orlarda yashagan. Muzlikning ortga siljishi natijasida ular vodiylar, daryo bo'yiali past tekisliklarga siljib, o'z makonlarini qurban.

Yuqori paleolit makonlarida o'rganilgan ho'jalik yuritish vositalari oldingi davrga nisbatan yuqoriroq darajadagi ijtimoiy hayot bo'lganligidan guvohlik beradi. Ho'jalikning asosiy mashg'uloti – ovchilik bo'lib, u bu davrda erkaklar va ayollar o'rtasidagi mehnat taqsimatiga olib keladi.

Erkaklar ovchilik mashg'ulotlari, ayollar esa, terimchilik mashg'uloti bilan shug'ullangan. Ehtiyojni qondirish ayollar zimmasida bo'lgan. Ya'ni kiyim tikish, bolalar tarbiysi, ovqat pishirish, murakkablashayotgan ho'jalikni boshqarish, uyni va muqaddas olov - o'choqni asrash, mehnat qurollarini qo'riqlash kabi mas'uliyatli vazifa ham ayollar zimmasida edi.

Yuqori paleolit davrining eng muhim sifat o'zgarishi - bu ibtidoiy jamoaning shakllanishi edi. Dastlab jamoa onalar atrofida paydo bo'ladi. Qon-qardoshlik hislarini anglagan kishilar guruhi urug'larni tashkil etadi. Bu davr kishilari urug'-urug' bo'lib, yagona boshpana ostida emas, balki alohida o'zlariga tegishli qurollar va o'choqlari bo'lgan manzillarda yashagan.

Urug'chilik tuzumining dastlabki bosqichi - matriarxat deb, uning asoschisi va poydevori bo'lgan onalar nomi bilan ataldi. Biz yuqorida so'nggi paleolitda ayollar va erkaklar o'rtasida mehnat taqsimoti ro'y berganligini aytgan edik. Ayollarning ijtimoiy hayotdagi mavqeい ularga

yuklagan vazifalarda namoyon bo'ladi. Ya'ni xo'jalikni boshqarish, uyni, muqaddas olovni asrash va hakozolar.

Ma'lumki, paleolitning so'nggi bosqichigacha ibtidoiy to'dada guruhli, tartibsiz nikoh munosabatlari hukmron edi. Ammo yuqori paleolit davrida oila-nikoh munosabatlari tartibga solina boshladi. Shuni ta'kidlash joizki, bir-birlari bilan qarindoshlik iplari bir bo'lgan, kelib chiqishi jihatidan bir urug'dan tarqagan odamlar guruhida nikoh bobida «guruhli nikoh» tizimi hukmronlik qiladi. Guruhli nikoh odatiga ko'ra ota noma'lum qoladi. Qon-qarindoshlik ona urug'i doirasida rasmiy lashadi. Bir urug'ning erkaklari ikkinchi urug'ning ayollarini bilan jinsiy aloqada bo'ladi. Tabiiyki, aniq sherik bilan jinsiy aloqa qilish hali yo'lga qo'yilmaydi. Aniq sherik bilan aloqa qilish huquqi ham ayollar ixtiyorida bo'ladi. Urug' ichidagi nikoh o'rniiga urug'lar orasidan nikoh munosotalariga o'tiladi. U fanda **ekzogamiya** deb ataladi. Jamiyatda urug'lar o'rtasida guruhli nikohlar saqlanib, avlod ona urug'i orqali davom etadigan bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida onaning o'rni va uning ijtimoiy hayotdagi rolini mustahkamlaydi. Yuqori poleolitda sekin-asta juft oilalar ham paydo bo'la boshlaydi. Odamlarning ongi va dunyoqarashi o'sib boradi. Ular qon-qardoshlik hislarini anglab, ehtiyojni birgalikda qondirish uchun birlashishga intiladilar.

Yuqori paleolitda bir necha urug'lar qarindoshlik munosabatlarini o'rnatadi. Bu munosabatlar dastlab urug'lar orasidagi guruhli nikoh orqali shakllanib, uning asosida yangi urug'ga nisbatan ko'lami keng bo'lgan jamoat tashkiloti - qabilalarni vujudga keltiradi. Qabilalar urug'lar ittifoqi bo'lib, ular o'ziga xos jamoa tashkiloti edi. Qabilalar o'z hududi va ov qilish joylariga ega bo'ladi.

Yuqori paleolit kishilari ovchilik, terimchilik va baliqchilik kabi xo'jalik mashg'ulotlari bilan shug'ullangan. Ovchilik xo'jalikning asosi bo'lib, mehnat va ov qurollari orasida o'tkir uchli nayzaning kashf etilishi ovdan keladigan kundalik tirikchilik daromadini ko'payishiga olib kelgan.

Baliq ovi xo'jalikda asosiy rol o'ynamasa-da bu sohaning kashf etilishi ibtidoiy xo'jalik uchun katta ahamiyat kasb etar edi. Termachilik ham ovchilik bilan bir qatorda o'zining yangi imkoniyatlarini bera boshlaydi. Ya'ni odamlar ilk bora yovvoyi boshqoli o'simliklardan foydalanish yo'llarini izlab topadilar.

Yuqori paleolitning yana bir xususiyatli tomoni shundaki, bu davr odamlari o'zlariga yashash uchun doimiy kulbalar qurishni kashf etdilar. Ular dastlabki yerto'lalar, yarim yerto'la va chayla shaklidagi kulba (uy) lar edi. Uylar odatda aylana, yarim aylana shaklida bo'lib, ularning o'rtasida albatta o'choq joylashgan. Bir o'choqli kichkina kulbalar bilan bir qatorda bir necha o'choqli, yirik uzunchoq shakldagi kulbalar ham keng tarqaladi. Bu o'choqlarda qalin kul qatlami, oziq-ovqatlarning qoldiqlari hozirgi kunimizgacha saqlanib qolgan.

Yuqori paleolitning eng katta yutug'i – antropogenez jarayonining tugallanishi va hozirgi qiyofadagi odamlarning shakllanishi edi. Odam o'zining rivojlanish jarayonida «maymun odam» (pitekanthrop) dan «ishbilarmen odam» (homo habilis) ga so'ngra «ongli odam» (Homo Sapiens) darajasiga yetdi. Hozirgi qiyofadagi odam fanda «kramonon odami» deb ataladi. Ular yuqori paleolit davrida Osiyo hududlarini, Yevropaning yuqori hududlarini egallagan, Bering bo'g'ozi orqali Amerika qit'asiga, Janubiy-sharqda Hindixitoy, Indoneziyadan Avstraliyaga, Tasmaniyaga va Tinch okeani orollariga siljigan va o'rnashgan.

Yuqori paleolitda hozirgi zamon tipidagi odamning shakllanishi bir vaqtning o'zida yevropa, negr va mo'g'ul irqlarining paydo bo'lishiga olib kelgan. Shuni alohida qayd qilish kerakki, odamlar o'rtasidagi irqiy tafovut - bu inson hayoti va uning tabiat sirlarini bilib olish qobiliyati bilan bog'liq bo'lмаган ikkinchi darajali tashqi ko'rinish belgilaridir. Ular bir-birlaridan terisining rangi, soch va ko'zlarining shakli va rangi, muskullarining uzun-kaltaligi, bosh suyagining shakli va boshqa belgilari bilan farq qiladi. Ularning barchasi uchun pitekanthrop, sinantrop va neandartal taraqqiyot bosqichlarini o'tish joiz bo'lgan va odamzodning "Homo Sapiens" bosqichini uch irqning har biri bir davrda bosib o'tilgan. Yevropa irqi odamlari asosan, Yevropa hududlarida yashagan. Ular baland bo'yli, qomatli, bosh suyagi va yuzi uzunchoq,

terisini rangi oq, ko'zlar ko'k, sochlari sariq bo'lib, Yevropaning mavjud tabiiy sharoiti bu tipning ana shunday alomatlar bilan shakllanishini ta'minlagan. Paleolitning so'nggi bosqichi 3 davrga bo'lib o'r ganiladi:

- 1.Orinyak davri;
- 2.Solyutre davri;
- 3.Madlen davri.

Bu davrlar arxeologlar tomonidan Fransiyadan dastlab topib o'r ganilgan makonlar nomi bilan atalgan. Yuqoridagi bosqichlar Yevropa paleoliti so'nggi bosqichiga xos bo'lib, boshqa hududlarga to'liq mos kelmaydi. Ammo moddiy madaniyatdagi xususiyatlar barcha mintaqaga va hududlardagi yodgorliklar uchun umumiydir.

Orinyak va solyutre davrlari bir-biriga juda o'xshash, tosh qurollar o'rtasida katta tafovutlar yo'q. Ammo tosh qurollar shaklan ozroq farqlanadi. Bu bosqichlar mil. avv. 40-12 ming yilliklarga mansub. Orinyak bosqichiga quyidagi qurollar mansub: tosh parrakchalarining turli shakldagi turlari (uzunchoq, to'g'ri, pichoqsimon, yalpoq va qirrali), kesish xizmatini bajaruvchi haqiqiy tosh pichoqlar. Orinyakda mehnat qurollari 2 turga bo'lingan bo'lib, ular tosh kesgich, tosh qirg'ichlar edi. Tosh qurollar qirrali va yoysimon shaklda bo'lган. Orinyak va mustye davrlari o'rtasida muhim o'rtoqlik va urug'chilik jamiyati tashkil topadi.

Salyutre davrida toshga ishlov berishning o'ziga xos usuli – ezib retushlash, ya'ni yo'nish usulidan keng foydalanilgan. Unda mustye davridagi tosh qurol yasashda paydo bo'ladigan disksimon tosh o'zak – nucleus o'rniga uzunchoq shakldagi yadro hosil qilinadi. Endi toshdan uchirma usuli o'rniga ezib retushlash usulidan foydalanib, keskir, qirrali pichoqsifat uzunchoq qurollar yasaladi. Natijada, tosh qurolning turi va vazifasi kengayadi. Ular kesuvchi, arralovchi, shiluvchi, teshuvchi xususiyatlarga ega bo'ladi.

Yuqori paleolitning so'nggi bosqichi madlen davri hisoblanadi. Madlen davriga kelib tosh qurol bilan birga suyakdan yasalgan qurollar ham ishlatiladi. Dastlab, suyakdan yasalgan ko'p tishli qarmoq (garpun) lar paydo bo'ladi. Tosh qurollar orasida chaqmoqtoshdan yasalgan nayza uchlari keng tarqalgan.

Ibtidoiy kishilar yasagan tosh qurollar yuqori paleolitda 2 ga bo'lingan:

- 1.Ov qurollari
2. Mehnat qurollari

Tosh nayzalar, pichoqlar, qirg'ichlar, teshgichlar – ov qurollari vazifasini bajargan. Mehnat qurollari – tosh va suyakdan yasalgan bo'lib, ular turli ho'jalik mashg'ulotlarida (terimchilik, ovchilik) qo'llanilgan. Ibtidoiy jamoa xo'jaligining rivojlanishida mehnat qurollari ishlab chiqarish va ulardan ho'jalik yuritishda foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tosh qurollar yordamida hayvonlarning shoh va suyaklaridan mehnat qurollari yasash jo'riy etiladi. Suyakdan qurol yasash va suyak bilan ishslash jarayonida birinchi bor tasviriy san'at namunalarini yasash kashf etildi. Suyakdan turli taqinchoqlar yasash, suyak ustiga turli rasmlar solish va nihoyat suyakdan jamoaning boshlig'i, jamoaning eng nufuzli a'zolari bo'lган onalarni ilohiylashtirishga qaratilgan haykalchalarini yasash odat tusiga kiradi. Dastlab birinchi navbatda homilador ayollar rasmi chizilib, ularning haykalchalarini yasalgan. Yuqori paleolit odamlari yirik hayvonlar rasmini chizib, ularga uyushtirilgan ov manzarasini tasvirlaydilar. Shu tariqa ibtidoiy tasviriy va amaliy san'at paydo bo'ladi.

Insonning tabiat bilan munosabatga kirishishi va uni o'rab turgan olam to'g'risida keng bilimga ega bo'lishi dunyoni anglashda o'ziga xos dunyoqarashni shakllanishiga olib keladi. Oddiy dunyoqarash **paleolit davri san'atini** vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Ibtidoiy san'at va uning rivojlanishi haqida bilimlarni to'plana boshlanishi bilan ibtidoiy davr madaniyati to'g'risidagi tushunchalar paydo bo'ladi. Bu boradagi dastlabki ma'lumotlar XIX asrning 40-yillariga to'g'ri keladi. Ammo ibtidoiy odam, uning hayoti, turmush-tarzi haqidagi ma'lumotlar yangi fan bo'lган arxeologiyaga, moddiy-madaniyat topilmalariga qiziqish uyg'onishiga sabab bo'lindi. Chunki dastlab bu ma'lumotlar ommalashmadidi yoki ularning haqiqitligiga shubha bilan qaraldi. Ibtidoiy san'at haqidagi qarashlarga **1879 yilda olim Savtuola**

tomonidan Ispaniyaning **Altamir** g'oridan topilgan tasviriy san'at namunalari e'lon qilingach e'tibor berildi. Olim Altamir g'ori devorida qizil, qirmizi oxra (mineral bo'yoq) da chizilgan bizon va otlar rasmi – suratlariga duch keladi. Bu yerda shuningdek devorlarga chekilgan (tosh devorga o'yib ishlangan) zubr, to'ng'iz, kiyik rasmlari ham bo'lган. Arxeolog **Savtuola** g'ordan topilgan suratlarni e'lon qilganda hech kim unga ishonmaydi. Aksincha uni qalbakilikda ayblaydilar. Oradan 20 yil o'tib, Fransiyaning ko'p g'or va makonlaridan boshqa rasmlar qatorida yo'qolib ketgan hayvonlar – bizonlar, mamontlar, begemotlar suratlari topilgach, Altamir yodgorliklari paleolit moddiy madaniyatiga tegishli ekanligi tan olinadi.

1940 yilda esa, Fransiyaning Lyasko g'orida juda boy suratlar – tasviriy san'at namunalari topiladi. Ular ot, ho'kiz, yugurib ketayotgan bug'u suratlari bo'lib, yuqori paleolitga mansub edi. Shuningdek, g'or devorlari va qoyatoshlarga chizilgan suratlar Yevropa va Shimoliy Osiyo hududlaridan topiladi. Masalan, Rossiya Federatsiyasi hududidan yuqori paleolit davri tasviriy san'at namunalari Lena daryosi sohilidagi toshlarda, Shishkino qishlog'i yaqinida topilgan. Bu yerda tadqiq etilgan qizil bo'yoq bilan chizilgan ho'kiz, 2 ta ot surati diqqatni tortadi. 1959 yilda Boshqirdiston hududida Ural tog'idiagi Kapova g'oridan ham qoyatoshlarga chizilgan suratlar topiladi. Bu erdag'i 30 ga yaqin suratlar qizil va jigarrang bo'yoqlarda chizilgan bo'lib, ular turli harakatlar shaklida ifodalangan. Bu suratlar galareyasi arxeologlar tomonidan to'liq o'rganilgan.

Yuqori paleolit san'ati – haykaltaroshlikda o'z aksini topadi. Ispaniya, Fransiya, Shimoliy Yevropa makonlaridan ko'plab haykallar topib o'rganilgan. Haykallar toshdan, loydan, suyakdan yasalgan. Dastlab barcha haykallarda ayollar tasvirlangan, keyinchalik hayvonlar haykali ham keng tarqalgan bo'lib, ular ibridoib diniy tasavvurlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. O'rta Osiyoning so'nggi paleolit davri yodgorliklari muste davriga nisbatan sustroq o'rganilgan. Bunga sabab mazkur hududda bunday yodgorliklarning kamsonliligidadir. So'nggi tosh davri kishilari endilikda faqat tog'liklarda yashamay, balki vodiylarga, daryo bo'ylariga tushib kelganlar va shu joylarda istiqomat qila boshlaganlar. Bunday hayot kechirishga o'tish ular tomonidan qilingan "uy-joylarning" vaqt o'tishi bilan tabiat ta'siri natijasida yo'qolib ketgan.

**Ko'lbulloq makoni.** 1, 2, 3 qatlamlari so'nggi paleolit davriga mansub bo'lib, bu qatlamlardan gulxan, ko'mir qoldiqlari, kul, tosh buyumlar – nukleuslar, tishli tosh qurollar, qirg'ichlar, tosh paykonlar, sixchalar, plastinkalar, tosh pichoqlar, shuning-dek, bug'u, yovvoyi ot, sirtlon, arxar kabi hayvonlarning suyaklari topilgan.

**Samarqand makoni.** Samarqand shahri markazida topilgan. Qazishma jarayonida 100 kv. m ga teng keladigan to'g'ri burchak shaklidagi chayla qoldig'i topilgan. Chayla soy bo'yiga joylashgan bo'lib, ibridoib odamlarning kundalik hayoti shu soy sohilida ovchilik bilan kechgan. Chayla o'rnida gulxan qoldig'i, tosh qurollar tayyorlaydigan maydonchalar, chayla ustunlarining qoldiqlari topilgan.

So'nggi tosh asriga kelib, mustye davri neandertal odami o'rnini hozirgi qiyofadagi kromanon odami egallay boshlaydi. Samarqand makonidan ham kromanon odami suyagi qoldiqlari topilgan. Arxeologik qazuv ishlai jarayonida 3 m 20 sm chuqurlikda hozirgi qiyofadagi odamning pastki jag' suyagi va 9 ta tishi, qo'l suyak-lari topilgan. Antropolog olim T.Xodjayovning tadqiqoti natijasida topilgan suyaklar 25 yoshlar atrofidagi ayolga mansub ekanligi aniqlandi.

Keyingi qatlamda olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida 2 m 80 sm chuqur-likdan odamning 10 ta tishi va pastki jag' suyagi topildi. Olib borilgan antropologik tadqiqotlar ularni 35 yoshli ayolga tegishli ekanligi aniqlangan. Shuningdek, yosh bolaga tegishli oziq tishi va pastki jag'i topilgan. Tosh qurollari bilan birga dengiz chig'anog'i, oq qayroq tosh topilgan. Ular ayollar uchun taqinchoq yoki tumor vazifasini bajargan.

**Takalisoy g'ori.** Samarqanddan 50 km janubi-sharqda bo'lib, Taxtaqoracha dovon rayonida dengiz sathidan 2000 m balandlikda joylashgan. G'ordan nukleuslar, parrakchalar, uchrindilar, tosh pichoq, qirg'ich va boshqa tosh qurollari, kul qoldiq-lari, turli hayvonlarga taalluqli suyaklar topilgan.

Olimlarning fikricha, Takalisoy g'orida yashagan ibtidoiy kishilar omonqo'ton-liklardan ancha keyin, so'nggi paleolit davrida – urug'chilik tuzumiga o'tish davrida yashagan bo'lislari mumkin.

Yuqori poleolit davrining yana bir klassik yodgorligi 1939 yilda geolog Xarla-mov tomonidan Samarqand shahridan o'tgan qadimgi **Siyobcha** soyi yoqasidan topildi. Bu makonda uzoq yillar SamDU olimlari ish olib boradilar. Natijada, makondan hayvon suyagi qoldiqlari, odam skeletiga doir materiallar topiladi. Arxeologlar D.Lev va M.Jo'raqulovlar makonni qazish vaqtida undan chaylasimon kulbaning izlari va uning markazidan kul qatlami bilan o'choq qoldig'iga duch keladi. Keyinchalik arxeologlar Siyobcha soyining boshqa nuqtalaridan shu davrga mansub yana bir necha makonlarni aniqlaydilar. Ammo ularda inson faoliyati izlarini ko'rsatuvchi madaniy qatlamlar yaxshi saqlanmagan edi. Shunday bo'lsada, bu yerdagi kramon'on odami va hayvon suyaklari bilan bir qatorda ayollarning taqinchoqlari qoldiqlari bo'lgan-teshilgan danaklar topilgan.

**Bo'zsuv I makoni** - Toshkent shahrida Qoraqamishsoyi jarida joylashgan. Arxeologlar yuqori paleolitga oid bu makondan 85 tosh qurol namunalarini topishgan. Jumladan: tosh pichoq, tosh qirg'ichlar va hokazo.

**Bo'zsuv II makoni** - Bo'zsuv sohilining Sho'rasisoy degan joyidan topilgan. Olimlar makon madaniy qatlamidan 103 ta tosh qurolni topib o'rganishgan. Bu qurollar orasida ikki tomonlama ishlov berilgan tosh pichoqlar, qirg'ichlar nukleuslar bo'lgan.

**Tuyabo'g'iz makonlari** - Unga 6 ta yuqori poleolitga oid makon mansub bo'lib, ular Tuyabo'g'iz suv ombori havzasidan topilgan. Makonlardan parrakchalar, teshgich-lar, qirg'ichlar va ko'plab tosh qurollar topilgan.

Qozog'iston hududida ham so'nggi paleolit davriga taalluqli yodgorliklar topib o'rganilgan.

**Achchisoy joy-makoni.** Qozog'istondagi Qoratog'ning Turlan dovo ni yaqini-dagi Achchisoy darasida joylashgan. Ammo bu yodgorlik to'liq ochib o'rganilmagan. Tosh qirg'ichlar, kurakchalar, teshgichlar, ushatgichlar, o'tkir uchli toshchalar va tosh qurollarning chiqindilari topilgan. Shuningdek, 15 ta gulxan izlari, kul, ko'mir qoldiq-lari, bizon, tur, yovvoyi ot, tog' qo'y'i, arxar va boshqa hayvonlarning kuygan suyak-lari topilgan.

**Sari-Arka makoni.** Markaziy Qozog'istondagi so'nggi tosh davri yodgoligidir. Yodgorlik Balxash ko'lining shimoliy sohilidan, suvsiz dara va tog' oralig'i joylaridan topilgan. Nukleus, qirg'ich, keskichlar, to'g'ri pichoqsimon parrakchalar, ponasimon nukleuslar topilgan.

Turkmanistonda **Yangaja II** degan so'nggi tosh davri yodgorligi topilgan.

So'nggi tosh asrining eng katta yutug'i – bu odamzod naslining shakllanib bo'l-ganligi, ya'ni antropogenez jarayonining tugallanishi va hozirgi qiyofadagi odamlar-ning vujudga kelishi bo'ldi. Shuningdek, mazkur davrda yevropeoid, mongoloid va negroid kabi yiik irqlarning shakllanish jarayoni ham ro'y berdi.

Umuman olganda hozirgi kunda O'rta Osiyoda yuqori paleolit davriga mansub bo'lgan 30 dan ortiq yodgorliklar topib o'rganilgan. Ana shu yodgorliklarni bizgacha qoldirgan qadimgi ajdodlarimizning mehnat qurollari asosan chaqmoqtoshdan yasalgan bo'lib, bu yodgorliklardan ham birinchi marta tosh nayza, sanchqi kabi ov qurollari xo'jalikda keng ishlatilgani haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Xulosa sifatida shuni e'tirof etish kerakki, yuqori tosh asri yodgorliklarining o'rganilishi bu davrning eng katta yutuqlari to'g'risida ma'lumotlar beradi:

- odamzod naslining shakllanib bo'lганligi, ya'ni antropogenez jarayonining tugallanishi va hozirgi qiyofadagi odamlarning vujudga kelishi, shuningdek, mazkur davrda evropoid, mongoloid va negroid kabi yirik irqlarning shakllanish jarayoni sodir bo'lib, odamlar endilikda yer yuzining ancha keng territoriyasiga tarqala boshlagan;

- Yevropa irqiga mansub odamlar: Yevropada va uning janubida g'arbida, Boltiq dengizi bo'ylarida joylashgan. Old Osiyoda, Yaqin Sharqda, Arabiston, Hindiston, Mesopatamiya va boshqa hududlarga o'rashgan;

- Mo'g'ul irqiga mansub odamlar – Janubi-sharqiy Osiyoda yashagan. (Qirg'i-ziston, Turkmaniston, Qozog'istonda yashagan odamlar qisman shu irqqa mansub bo'l-gan). Ular Mo'g'uliston, shu bilan birga Shimoliy muz okeani bilan tutash hududlarda yashagan;

- Negr irqiga mansub odamlar: Afrika va Hindistonda yashagan. Ular Bering bo'g'ozi orqali Amerika qit'asiga o'tgan. Janubda esa, Hindixitoy va Indoneziyadan Avstraliya, Tasmaniya va undan Tinch okeani orollariga o'tib yashagan.

- Miloddan avvalgi 50-12 ming yillikda odamlar yanada mukammal qurollarni yaratib, o'z buniyodkorlik faoliyatida bir necha pog'ona yuqoriga ko'tarildi. Ya'ni ke-suvchi, arralovchi qurollarni, munchoq, tumor, bilakuzuk singari taqinchoqlarni yasay oladigan bo'ldi.

- Yuqori paleolitda moddiy madaniyat, shuningdek, ijtimoiy tuzum sohasida keskin o'zgarishlar bo'ldi. Urug'lar esa, urug' jamoalarini tashkil etdi. Urug'chilik jamoasi eng qadimgi odamlar to'dasiga nisbatan mustahkamroq va tashkiliyoq edi. Urug' ichida ayolning ijtimoiy mavqeい Yuqori bo'lgani uchun urug' uning nomi bilan ona urug'i (**matriarxat**) deb ataldi.

- Yuqori paleolitda odamlarning muhim kashfiyotlaridan biri turar joylar qurish bo'ldi. Bu davrda antropogenez jarayoni tugallandi. Hozirgi qiyofadagi odam «**Homo Sapiens**» - «ongli odam» - kramonon tipi odami shakllandi.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

- 1. Paleolit davrida O'zbekiston hududining tabiiy-geografik sharoiti qanday edi?**
- 2. Paleolit davri bosqichlari haqida nima bilasiz?**
- 3. Diniy tasavvurlarning ilk ko'rinishlari haqida nima bilasiz?**
- 4. Paleolit davri odamlari qanday mehnat qurollaridan foydalanganlar?**
- 5. So'nggi paleolit davrida qanday yodgorliklar bo'lgan?**
- 6. Ilk va o'rta paleolit davri yodgorliklari o'rtasidagi farqni aniqlang?**

### **3-MAVZU: MEZOLIT DAVRI ARXEOLOGIYASI (2 SOAT)**

REJA:

1. Mezolit davrining o'rganilish darajasi, xronologiyasi va davrlashtirish.
2. Yevropa hududida mezolit.
3. Rossiya va Kavkaz hududida mezolit.
4. O'rta Osiyoning mezolit davri yodgorliklari.
5. Mezolit davri san'ati.

### **TAYANCH SO'ZLAR**

Mezolit, azil, tardenula, mikrolit, makrolit, kamalak, o'q, garpun, Jebel, Machay, Obishir, mezolit madaniyati.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.
4. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.
5. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004.
6. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
7. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. Что такое археология. – М., 1966.
8. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. В поисках исчезнувших цивилизаций. М., Наука, 1966.
9. Археологи рассказывают. Таджикгосиздат. – Сталинабад, 1959.
10. Древние цивилизации. – М., Мысль, 1989.
11. Исламов У.И. Пещера Мачай. – Т., 1975.

12. Исламов У.И. Обиширская культура. – Т., 1980.
13. Исламов У.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Т., 1986.
14. Каменный век на территории СССР.–М., Наука, 1970.
15. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.
16. Мезолит СССР. Мезолит Средней Азии и Казахстана (Г.Ф.Ко-робкова). Под общ. ред. акад. Б.А. Рыбакова. 4.2. Гл. 16. – М., 1983.

Mezolit paleolit davridan keyingi davr bo'lib, u miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Muzlik davrining tugashi paleolitning ob-havosiga nisbatan issiqroq iqlimni shakllantirdi. Flora va fauna dunyosi ham bir oz hozirgi hayvonot va o'simliklar dunyosiga yaqinlashdi.

Mezolit termini yunoncha «mezos» - o'rta va «litos» - tosh degan so'zlardan kelib chiqqan. Mezolit davri XIX asrning oxirlarida fanga ma'lum bo'ldi. Mazkur davrga mansub bo'lgan dastlabki yodgorlik 1887 yilda frantsuz arxeologi D.Pet tomonidan Maz-d Azil g'oridan topilgan va o'rganilgan.

Mezolit davrining xususiyati, chegarasi va atalishi haqida arxeologlar orasida hozirgacha qizg'in baxslar mavjud. Bir guruh olimlar bu davrga qadimgi tosh asrining alohida bosqichi sifatida qarasalar, boshqalari tosh asridan so'nggi bosqichi deb biladilar. Ammo keyingi tadqiqotlar tosh qurollar shakli, qo'llanilishi va ishslash texnikasidagi o'zgarishlar va yangi xususiyatlarni aniqlashi natijasida tosh davrining o'rta bosqichi ekanligi e'tirof etildi.

Mezolit davrining quyi va yuqori chegarasini belgilashda ham turli fikr va mulohazalar mavjud. Ko'pgina olimlar mezolit davrining chegarasini aniqlashda geografik muhitga suyansa, boshqalari toshni ishslash texnikasiga asoslanadilar. Uchinchi guruh olimlar esa, bu masalada ho'jalik mashg'ulotlarini birinchi o'ringa qo'yadilar.

Mezolit davri tabiiy sharoiti muzlikning erishi bilan o'zgardi. Muzlikning shimolga chekinishi natijasida ko'plab ko'llar, o'simliklar o'sishi uchun yaroqli erlar, botqoqliklar ko'paydi. Dastlabki bosqichda ya'ni 100 000-85000 yillar davomida iqlim subtropik bo'lib, poleolitga ancha yaqin edi. Keyinchalik miloddan avvalgi 85000-50000 yillar davomida issiq va quruq iqlim shakllana boshladи. Janubda iqlim yaxshilanib, bu paytda ko'plab shoxli hayvonlar va yashil o'simliklar tarqaldi. Yevropa hududida esa, keng bargli yashil o'rmonlar bilan qoplandi. Bu davrda Boltiq dengizi va Shimoliy Yevropa ko'llari hozirgi qiyofaga keladi. Muzlik siljishi (muzlik yiliga taxminan 160 metr siljigan.) bilan odamlar ham shimol tomon harakat qiladi.

Mezolit davriga kelib O'rta Osiyoda segment, trapetsiya va uchburchak shaklidagi mayda qurochlalar – mikrolitlar paydo bo'ladi. Bu qurollardan odamlar kesish va o'rish maqsadlarida, pichoq va o'roq sifatida keng foydalanganlar. Mezolit davrining eng katta kashfiyoti va yutuqlaridan biri – kamalak va o'qning kashf etilishi edi. Kamalak va o'q-inson kashf etgan eng dastlabki murakkab moslama bo'lib, u insoniyatning uzoq davom etgan mehnat tajribasi va zakovatining natijasi bo'ldi. O'q yoyning kashf etilishi mezolit davri ishlab chiqaruvchi kuchlarining o'ziga xos inqilobi edi. Avval otiladigan (uloqtiriladigan) qurollar ishlatilar edi. U ma'lum ma'noda jismoniy kuch talab etgan. Yangi sharoitda esa, ming yillar davomida shakllangan ov madaniyati o'zgaradi. Ov ob'ekti ham shunga mos holda o'zgarishi tufayli yangi quronga ehtiyoj sezila boshlaydi. Mezolit davrida kichik hayvonlarning tarqalishi ov usulining o'zgarishiga olib keladi. O'q-yoyning paydo bo'lishi ishlab-chiqarish kuchlarining rivojlanishini taqozo etib, quyidagi xususiyatlar bilan bog'liq edi:

- fizik qonuniyat - o'qning tezligi - kinetik kuch (energiya) ni idrok etish uzoq yillik malaka va ko'nikma taqozasi; insonning (kashf etilishi bilan) birinchi marta kinetik energiyadan maxsus asbob yordamida foydalanishi;

- aqlning rivojlanishi (hayvonlarni orqasidan quvib, chuqurga xaydash emas, balki ularni o'q-yoy otib ovlash) va faoliyatning ongliligi;

- itni qo'lga o'rgatilishi;

- mezolitda ovchilik ho'jaligi bilan birga baliqchilik va terimchilik mashg'ulotlarini ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ekanligi;

- ovchilikda individual harakatlarning ko'zga tashlanish (it bilan ov qilish, tuzoq qo'yish);

- baliqchilikda – garpunlar, to'rlar bilan, qarmoqlar bilan ov qilish usullarining paydo bo'lishi.

-Mezolit davri dunyoning hamma qit'alarida hali qadam bosilmagan joylarni o'zlashtirish davridir. Bu davrda odam yashaydigan hududlar chegarasi kengayib borgan. Mezolit davrida urug' a'zolarining kollektiv mehnati, o'zaro yordamlari ov va baliqchilikning zaruriy sharti bo'lgan. Tosh qurollar va o'q-yoy bilan tabiat kuchlari va yirtqich hayvonlarga qarshi yakka holda kurashib bo'lmas edi. Kishilar ochdan o'lmaslik, yirtqich hayvonlarga em bo'lmaslik yoki qo'shni jamoalar qo'lida halok bo'lmaslik uchun ov qilish, o'rmonda meva yig'ish, baliq ovlash ishlarini birlashib bajarishga majbur edilar.

-Kamondan foydalanish ov unumdorligini oshirishi, ho'jalikning yangi shakllarini vujudga keltirishi lozim edi. Shunday bo'ldi ham, natijada:

- iste'moldan ancha ortiq o'lja topila boshladi;

- yarador hayvonlar, tirik hayvon bolalari paydo bo'ldi va ular oziq-ovqat zahirasi sifatida g'amlandi;

- hayvonlar birin ketin qo'lga o'rgatila boshlandi.

-Mezolit davri bosqichlari va yodgorliklarini Yevropa va Markaziy Osiyo xususan, O'zbekiston moddiy madaniyat o'rganilishi misolida ko'rib chiqamiz. Yevropada mezolit davri 2 bosqichga bo'lib o'rganiladi:

1. Ilk mezolit – azill.

2. So'nggi mezolit – tardenula.

Bu davrlar Fransiya hududlarida dastlab topilgan va o'rganilgan mezolit makonlari nomi bilan ataladi. Azil davrining tosh qurollarida madlen tipi saqlanib qolgan. Azilliklar madlenliklarning vorislari hisoblanadi. Azilda o'ziga xos, qalamtarosh tig'iga o'xshash maxsus o'tkir tosh parrakchalari keng tarqalgan. Bu davrning asosiy quroli mayda chaqmoqtosh qurollar – mikrolitlar hisoblanadi. Mikrolit (mikros-kichik, litos-tosh) qurollarning aksariyati o'q uchi vazifasini bajarib, asosan tol bargi shaklida bo'lgan.

Tardenula makonlarida ham mikrolitlar uchraydi. Ammo bu makonlardagi chaqmoqtosh parchalari juda mayda- 1-2 sm ni tashkil etadi. Ular turli xil geometrik shaklda bo'lib, chaqmoqtosh bo'lagidan ezgich bilan urib hosil qilingan (uchburchak, romb, trapetsiya shaklida).

Mikrolitlar o'q uchlari (tayoq uchidagi yoriqlarga joylashtirilib qotirilgan), qadamalar (suyak yoki yog'och qurolga qator qilib qadalgan chaqmoqtosh parchalari tizmasi) sifatida ishlataligan.

Mezolit davri makonlari arxeologlar tomonidan keng o'rganilgan. Yer yuzining turli nuqtalaridan mezolit davri yodgorliklari topilgan. Masalan, Frantsiyada (Maz-d Azil), MDH hududlarida - Qrimda (Murzak Koba, Zagin' Koba), Volga bo'yalarida (Sobolevo, Sknyatino qishloqlari), Oka daryosi bo'yulari, Ural, Boltiqbo'yi hududlarida ko'plab mezolit makonlari tadqiq etilgan.

O'rta Osiyo hudularida ham mezolit davrida haroratning ko'tarilishi natijasida hayvonot olami va o'simliklar dunyosida o'zgarishlar yuz beradi. Qadimgi tosh asrining yirik hayvonlari asta-sekin yo'qolib, ular o'rniga arxar, muflon, tog' echkilari, bug'u, jayron, saygoq, arslon, kabi hayvonlar ko'paya boshladi. Shuningdek, O'rta Osiyoda issiqtalab o'simliklar – yovvoyi boshqoli o'simliklar va daraxtlar ko'paya boshladi. Tabiatdagi bu o'zgarishlar odamlarining turmush tarziga ham ta'sir etdi. Bu davrda odamlar Pomir, Tyanshan tog'lari yon bag'irlarida, Kaspiy bo'ylarida, Markaziy Qozog'istondan Turkman-Xuroson tog'larigacha bo'lgan erlarda makon quradilar. O'zbekiston hududida mezolit yodgorliklari arxeolog olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Farg'ona vodiysidagi Obishir I, Obishir V g'or makonlari ahamiyatlidir. Obishir I Xaydarkon shaharchasidan 4-5 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, g'orning kengligi 25,5 m,

balandligi 12 m ni tashkil etadi. Bu yerdan mikrolitlar, parrakchalar, nukleuslar, bigiz, qirg'ich, pichoq-qadamalar topilgan. Obishir V makoni Obishir I g'ori yaqinida joylashgan, kengligi 8 m, balandligi 10 m va chuqurligi 4-5 m. G'or 3 ta madaniy qatlardan iborat bo'lган. Bu erdan ham pichoq-qadamalar, qirg'ichlar, teshgichlar topilgan. Moddiy manbalar ichida yovvoyi hayvonlarning suyaklari ham mavjud bo'lган. G'ordan topilgan qadoq toshlar – baliq tutishda ishlatilgan. Obishirliklar baliqchilik, ovchilik va terimchilik ho'jalik mashg'ulotlari bilan shug'ullanganlar.

Mezolit davri yodgorliklaridan biri **Machay g'or makonidir**. Bu yodgorlik Hisor tog' tizmasining Ketmonchopti tog'ining janubiy yonbag'rida, Mochay daryosining o'ng sohilidagi Quyi va O'rta Mochay qishloqlari orasida joylashgan. G'orning kengligi 20 m, chuqurligi 11 m, balandligi 3,5m ni tashkil etadi. Mochay g'oridan bigiz, igna, suyak va tosh qurollar topilgan (15 nusxadagi qurol turlari aniqlangan). G'ordan 870 ta tosh qurol – parrak, nukleuslar, tosh pichoqlar, yo'ng'ichlar–randalar, nayza, o'q uchlari topib o'rganilgan. Mochay g'ori madaniy qatlamlaridan topilgan qurollar miloddan avvalgi VII-VI ming yilliklarga mansub. G'orni qazish davomida antrapologik materiallar-odam bosh suyagi, tishi, jag'i, boshqa a'zolari qoldiqlari topilgan. Antrapologlarning ma'lumotlariga qaraganda topilgan suyaklarning biri voyaga etgan erkak, ikkinchisi ayol va uchinchisi yosh bolaniki bo'lib, ular evropoid irqiga mansub bo'lган. Madaniy qatlamlardan qalin kul qatlamlari topilgan. Kuygan suyaklardan va olov qoldiqlaridan odamlar go'shtni pishirib eganlar, degan xulosaga kelish mumkin.

Machay g'orida yashagan ajdodlarimiz ovchilik va qisman chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Shu bilan birga termachilik ham ularning ho'jaligida mavjud bo'lган. G'ordan topilgan suyaklar-qizil bo'ri, tulki, bars, mo'ynali suvsar, to'ng'iz, jayron, Osiyo qo'y-i-muflon, toshbaqa, echki va boshqa hayvonlarga tegishli bo'lган.

Janubiy O'zbekistonda mezolit davri yodgorligi Ayrитом makoni bo'lib, u Termizdan 18 km uzoqlikda joylashgan. Ayrитом yodgorligi ko'p qavatli madaniy qatlamanidan tosh parmalagichlar, nukleuslar, tosh uchrindilar, o'q uchlari topilgan.

Farg'ona hudud ochiq-past tekisliklarida mezolit makonlari mavjud bo'lib, ular fanga «Markaziy Farg'ona mezolit yodgorliklari» nomi bilan kiritilgan. Markaziy Farg'onada Ittak qal'a, Shurkul, Achchiq ko'l, Yangiqadam, Bekobod, Zambar, Toypoq ko'l, Damko'l, Bosqum, kabi mezolit davri joy-makonlari topilgan. Ular 80 dan ortiq yodgorliklarni tashkil etgan bo'lib, makonlarda retushlanmagan va retushlangan ixcham nukleuslar ko'plab tarqalgan. Nukleuslar siniq va mayda parraklar olish uchun ishlatilgan. Shuningdek, qirg'ichlar, uchrindilar, mayda geometrik shakldagi qurollar ham (trapetsiyalar ham uchraydi) mavjud bo'lган. Markaziy Farg'ona mezolit makonlari ochiq makonlar bo'lib, ularda madaniy qatlamlar saqlanmagan. Bu makonlarda yashagan mezolit qabilalari termachilik, baliqchilik va ovchilik ho'jalik mashg'ulotlari bilan shug'ullangan. Markaziy Farg'ona mezoliti 2 bosqichga bo'lib o'rganiladi:

1. Ilk mezolit – Ittak qal'a, Achchiq ko'l-1,7; Yangiqadam-1-2; Toypoq-I, ular miloddan avvalgi IX-VII ming yilliklar bilan belgilanadi.

2. So'nggi mezolit – Achchiqko'l; Yangiqadam 2; Bekobod - 3-4; Sho'rko'l-2; Madiyor-11; Yangiqadam-22; Toypoq-2; Achchiqko'l-3; Zambar-2; Toypoq - 3,5,7, makonlari ular miloddan avvalgi VII ming yilliklar bilan belgilanadi.

Toshkent shahri va viloyati hududlarida ham arxeloglar tomonidan mezolit davri yodgorliklari ham o'rganilgan. Ulardan biri Bo'zsuv makoni hisoblanadi. Bo'zsuv mezolit makoni Toshkentdagи Qoraqamish jarligi yoqasida joylashgan. Bu yerdan nukleuslar, ixcham tosh plastinkalar, geometrik shakldagi qurollar va qirg'ichlar topilgan.

Qo'shilish mezolit makoni esa, Toshkentning g'arbida joylashgan bo'lib, qadimgi Bo'zsuv anholi sohilidan topilgan. Makondan chaqmoqtoshdan ishlangan nukleuslar, mayda parrakchalar, uchrindilar, qirg'ichlar, har xil shakldagi qurollar, tosh pichoqlar, silliqlangan tosh buyumlar topilgan. Tosh qurollarning deyarli barchasi geometrik shaklda ishlangan. Qo'shilish mezolit makoni miloddan avvalgi XI-X ming yilliklarga mansub bo'lib, bu erda ovchilik va terimchilik bilan shug'ullangan qabilalar yashagan.

Mezolit makonlari Qizilqum va Qoraqum cho'llarida ham keng tarqalgan. Masalan, Ustyurt hududlarida Jayronquduq makonlari joylashgan bo'lib, ulardan mayda tosh parrakchalar, retushsiz parraklar, nukleuslar va uning bo'laklari, ikkinchi marta ishlov berilgan tosh siniqlari, qirg'ichlar, retushli trapetsiyalar topilgan. Bu yerda yashagan qabilalar baliqchilik, ovchilik ho'jaligi bilan mashg'ul bo'lgan.

Aydabol mezolit davri makonlari ham Ustyurtda o'rganilgan. Bu yodgorlik Aydabol qudug'i atrofida topilgan 26 ta mezolit makonlari majmuidan iboratdir. Bu makonlardan chaqmoqtoshdan ishlangan uchrindilar, nukleuslar, tosh bo'lakchalar, ikki tomoniga ishlov berilgan kamon o'qining uchlari, keskichlar, bargsimon shakldagi qirg'ichlar, qirg'ichli tosh siniqlar, topilgan va o'rganilgan.

Tojikiston Respublikasi hududlarida ham O'rta Osiyoning eng mashhur mezolit davri yodgorliklari topilgan. Ulardan biri Pomir tog'ida joylashgan Oshxona makonidir. Makondan kamon o'qlari, nukleuslar, parrakchalar, teshgichlar, mikrolit qurollar topilgan. Yana bir yodgorlik Chil-tor chashma makoni bo'lib, u Shaxrituz rayonida joylashgan. Bu erdan segmentlar, prizma shakldagi nukleuslar, parrakchalar topilgan. Ular miloddan avvalgi 8-7 ming yilliklarga oid.

Eramizdan avvalgi XI-VI ming yillikda Kaspiy bo'ylaridan Pomir tog'larigacha, Kopetdog' etaklaridan Markaziy Qozog'istongacha bo'lgan territoriyada mezolit qabilalari yashagan. Bu joylarning geografik sharoiti xilma-xil bo'lgan, makonlar past tekisliklar, daryo bo'yłari va tog'li o'lkalarda joylashgan. Qabilalar va urug'lar ovchilik, termachilik bilan kun kechirgan. Makonlarda xonaki hayvonlarning izlari ham saqlangan bo'lib, ular chorvachilikning ilk bosqichidan dalolat beradi.

Mezolit davrida yashagan ajdodlarimiz ibtidoiy tasviriy san'at mo'jizalarini yarata boshlaganlar. Bular asosan g'orlarga va g'oya toshlarga qizil bo'yoq yordamida yoki o'ymakorlik usulida tasvirlangan ov manzaralaridir. Bunday yodgorliklar Surhondaryo viloyatidagi Zaravutsoy dasasida, Jizzax viloyatining Takatosh mazesida, Buxoro viloyatidagi Sarmish va Qorungursoy, Toshkent viloyatining Parkent, Chotqol tog' tizmalarida o'rganilgan. Qoyatosh va g'or devorlaridagi rasmlar qadimgi tarixning ajoyib yodgorliklari bo'lib, ular O'rta Osiyoning, xususan O'zbekistonning tog'li hududlarida keng tarqalgan. Bu rasmlar o'yib-urib, ishqlash, chizish yo'li bilan ishlangan. Ular fanda petrogliflar deb nomlanadi. O'zbekistonidagi qoyatosh rasmlari haqidagi qadimgi ma'lumotlar Abu Rayxon Beruniy asarlarida uchraydi. O'zbekistonda arxeolog olim A.Kabirov tadqiqotlari tufayli O'zbekistonning janubiy hududlarida joylashgan qoyatosh suratlari haqida keng ma'lumotlarga ega bo'lindi. Bu rangdor tasvirlar mezolit va neolit davrlariga mansub bo'lib, ularda sigirlar, tog' echkilari, bo'rilar, qulonlar, bug'ular, it, ot, sayg'oq kabi hayvonlarning rasmlari ko'plab uchraydi.

Masalan, Surhondaryo viloyatidagi Zaravutsoy dasasining har ikki tomonida turli suratlar topilgan. Ulardan yaxshiroq saqlanib qolgani Zaravutkamar nomli, uncha chuqur bo'limgan g'orning devorlari va shiptidagi suratlardir. Bu suratlarda yovvoyi buqalarni ov qilish manzarasi qizil bo'yoqlar yordamida gavdalantirilgan. Boshqa bir manzarada ovchilar guruhi yovvoyi buqalarni va tog' echkilarni o'rab olayotgani, yopinchiq yopinib, o'q-yoy va sopqonlar otayotgani tasvirlangan.

Takatoshdagi suratlar esa, qoyaga o'yib ishlangan. Rasmlardagi manzaralardan birida o'ndan ortiq ovchi yovvoyi buqa va arxarlar podasiga kamonlardan o'q uzayotgani ifodalangan. O'rtacha ayloning rasmi katta hajmda chizilgan. Rasmda itlar tasviri ham bor.

Ho'jaobod tumani hududidagi Imomota g'ori ichidagi qoyatoshlarga yirik planda shoxlari bir necha bor qayrilib ketgan, bir-biridan ulkan arxarlar va ularning o'rtasida yanada ko'zga tashlanarli qilib ishlangan duldul ot tasviri ahamiyatlidir. O'zbekistonda qoyatosh rasmlarining ajoyib namunalari yuzdan ortiq joydan topib o'rganilgan. O'rta Osiyoda, Qirg'iziston Respublikasi hududida Sariyoz, Saymalitosh, Aravon, Ayrimachtog', Suratlisoy, Oxna, Talos vodiysida ham qoyatosh yodgorliklari bo'lib, ularda tog' echkisi, arxar, bug'u, tulki, to'ng'iz, odam, uy hayvonlari tasvirlangan.

Hech shubha yo'qliki, qadimiy tasviriy san'at yodgorliklari g'oyat qimmatli tarixiy hujjatlar hisoblanadi. Bu hujjatlar bizga eng qadimgi zamondagi odamning fikrlash jarayonini anglab etishga, mezolit davri ma'naviy madaniyatlari bilan tanishishga imkon beradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki miloddan avvalgi 12-7 ming yilliklarni o'z ichiga olgan mezolit davri insoniyat rivojlanishi tarixidagi muhim davrlardan hisoblanadi. Bu davrda ibtidoiy jamoa tuzumida hayot kechirgan odamlar muzlikning orqaga siljishi bilan yangi hududlarni o'zlashtirgan, o'q-yoyni kashf etib, ov unimdonligini oshirgan va ehtiyojni to'laroq ta'minlash imkonini beruvchi ortiqcha mahsulotlarni paydo bo'lishi uchun zamin yaratgan.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

- 1. Mezolit davrida iqlimning o'zgarishi insonlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?**
- 2. Mezolit davri bosqichlari haqida nima bilasiz?**
- 3. Yevropa hududidagi mezolit davri yodgorliklarini sanab bering?**
- 4. Rossiya va Kavkaz hududidagi mezolit davri yodgorliklarini sanab bering?**
- 5. Mezolit davrida qanday mehnat va ov qurollari paydo bo'ldi?**
- 6. O'rta Osiyo hududidagi mezolit davri yodgorliklarini sanab bering?**
- 7. Mezolit davri san'ati haqida nima bilasiz?**
- 8. Mezolit davri yutuqlari nimalardan iborat?**

### **4- MAVZU: NEOLIT DAVRI ARXEOLOGIYASI (2 SOAT)**

#### **REJA:**

1. Neolit davri xususiyatlari va xronologiyasi.
2. Yevropa va Rossiya hududida neolit.
3. O'rta Osiyoning neolit davri madaniyatlari (Joytun, Kaltaminor, Sazag'on va Hisor madaniyatlari).

#### **TAYANCH SO'ZLAR**

Neolit tushunchasi, neolit kashfiyotlari, tosh quollarning xususiyatlari, maishiy munosabatlar, Hisor, Kaltaminor, Sazag'on va Jaytun madaniyatlari, Darvoza qir makoni, Markaziy Farg'ona neolit makonlari, Uchtut shaxtasi.

#### **ADABIYOTLAR:**

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
- 2.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
- 3.Anbayev T., Tilovov B., Xudoyerberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.
4. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 1999.
- 5.Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.
6. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004.
7. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
8. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. Что такое археология. – М., 1966.
9. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. В поисках исчезнувших цивилизаций. М., Наука, 1966.
10. Археологи рассказывают. Таджикгосиздат. – Сталинабад, 1959.
11. Виноградов Л.В. Неолитические памятники Хорезма. – М., 1968.
12. Древние цивилизации. – М., Мысль, 1989.
13. Каменный век на территории СССР. – М., Наука, 1970.
14. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.

15. Коробкова Г.Ф. Орудия труда и хозяйство неолитических племен Средней Азии. – Л., 1969.
16. Массон В.М. Первые цивилизации. – Л., 1961.
17. Массон В.М. Поселение Джейтун // МИА. – Л., 1971. -№ 180.
18. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – Т., 1986.

Neolit davri uzoq davom etgan tosh asrining so'nggi va yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Neolit yunoncha, «**neos**» - yangi, «**ditos**» - tosh degan so'zlardan tarkib topgan bo'lib, u «yangi tosh» davri degan ma'noni anglatadi. Arxeologiya faniga neolit tushunchasini 1865 yilda ingliz arxeologi Lebbok olib kirgan. Neolit davri **miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklarni** o'z ichiga oladi. Arxeologlar neolit davrining boshlanishini sopol idishlar yasashni kashf etilishi bilan belgilaydi.

Neolit davrining ob-havosi hozirgidek bo'lib, iqlim kishilarning keng hududlarga tarqalishi va joylashishi uchun imkon bergan. Natijada keng hududlarga o'rnashgan odamlar guruhi turli tabiiy sharoitga moslashgan va alohida madaniyat yaratgan. Turli geografik muhit va sharoitdan kelib chiqib, ularning mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari turar joylari va ho'jaliklari ham har xil shaklga ega bo'lган. Bu esa, ho'jalikning notejis rivojlanishiga sabab bo'ladi. Janubiy o'lkalarning serhosil erlarida yashagan kishilar ho'jalikning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik shakllarini rivojlantirgan. Bu davr ho'jaligi ishlab chiqaruvchi ho'jalik deb atalib, unda nafaqat tabiatdan tayyor mahsulotlar o'zlashtirilgan, balki chorvachilik va ziroatchilik orqali ehtiyoj uchun qo'shimcha oziq-ovqatlar yaratilgan. Masalan, hayvonlarni qo'lga o'rgatish orqali chorva mollariga ega bo'linishi; yovvoyi o'simliklarni madaniylash-tirish va boshqoli don ekinlari ekishga o'tish va hakozo.

Neolit davrida qabilalarning ko'pchiligi o'troq hayot tarziga o'tadi, doimiy yashash uchun manzillar qura boshlaydi. Manzil va makonlar guvaladan qurilgan turar joylar shaklida bo'lib, deyarli barcha xalqlarda bu xususiyat ko'zga tashlanadi. Avvalgidek daydib yurish, yangi-yangi ov makonlari qidirib ko'chib yurishga barham beriladi. Endi doimiy erto'lalar, kulbalar yasash, loydan, zuvaladan uy qurish, neolit davri jamoasining asosiy odatiga, turmush tarziga aylanib boradi. Shunday qilib, doimiy o'troqlik xo'jaligi paydo bo'ladi. Jamiyatda urug'ning ahamiyati ortib, u o'ziga xos munosabatda namoyon bo'ladi. Neolit davrida urug' jamoalarining qarorgohlari ham shakllanadi. O'troq hayot tarzi mehnat qurollarining takomillashuvini tezlashtiradi. Neolit davri kishilari qayerda, qaysi sharoitda yashamasin, ularning qurollari mezolit davri qurollariga nisbatan rivojlangan. Kishilik tarixining neolit davri qurollarni ishlash sillqlash, pardozlash, arralash, parmalash usullarining ixtiro etilishi, ibridoish chiqaruvchi kuchlarning oldingi davrlarga nisbatan tezroq rivojlanishiga olib keldi. Neolit davrida tosh xom ashvosining xususiyatlari yaxshi o'zlashtirilishi natijasida shakl va vazifa doirasi xar xil bo'lган yangidan yangi mehnat qurollari yaratiladi. Tosh qurollar orasida tosh boltalar, ponalar, tosh teshalar, iskanalar paydo bo'ladi.

Neolit davrida tosh boltalar keng tarqalgan. Pardozlangan tosh boltalar o'rmon kesishda, uy qurilish ishlarida, ovchilikda o'zining tengi yo'q jangovor qurol ekanligini ko'rsatdi. Neolit davrida barcha og'ir yumushlar ana shu tosh boltalar orqali bajarilar edi. Neolitda parrakchalar, qadamalar, nayza va kamon o'qlarining uchlari, pichoq, teshgich, parmallar, yorma toshlar, o'roq-randalar va boshqa qurollar takomillashgan.

Neolit davri so'nggi urug'chilik jamiyatiga xos bo'lib, bu davrda erkaklarning o'rni tobora orta boshlaydi. Chunki xo'jalikning rivojlanishi erkaklar mehnati bilan bog'liq bo'lган, ya'ni kengayib borayotgan xo'jalik yumushlarini bajarishga ayollar ulgura olmay qoladi; xo'jalikning unumdar shakllari (chorvachilik va dehqonchilik) tobora ko'proq e'tibor va ish kuchini talab qilgan. Natijada urug' ichida, xususan oilada o'ziga xos mehnat taqsimoti shakllanadi. Demak, barcha yumushlar – moddiy ehtiyojni qondirish, ortib borayotgan zarurat uchun oziq-ovqat zahiralari tayyorlash ayollardan erkaklar qo'liga o'tadi. Ijtimoiy hayotda erkaklarning roli ortib

borishi oilada erkakning hukmronligiga olib keladi. Urug' ichida ayollarning hukmron mavqeiga barham beriladi. Endi matriatxat (ona urug' i) o'rnini patriarchat (ota urug' i) egallay boshlaydi.

Neolit davrida o'troq turmush tarzi, o'troq ho'jalik janubiy subtropik rayonlarda dehqonchilikning kelib chiqishiga, cho'lli mintaqalarda, azim daryo va ko'l bo'ylarida o'troq ovchilik ho'jaligining qaror topishiga olib keldi. O'troq ho'jalik yuritishning qaror topishi o'z navbatida chorvachilikning ham paydo bo'lishiga olib keldi.

Neolit davri turli joylarda turlicha kechgan, ya'ni yer yuzida neolit davri har xil vaqtida paydo bo'lgan va tugagan.

Misr va Mesopotamiyani olib qqraydigan bo'lsak rivojlangan bronza davri boshlangan bo'lib, quldorlik davlatlari tarkib topa boshlagan, Shimoliy Yevropada qadimgi odamlar endigina neolit davriga o'ta boshlaganlar, chekka Shimol v shimoli-sharqiyo Osiyoda esa, paleolit davri davom etayotgan edi.

Umumiy hisobda olib qaraydigan bo'lsak, neolitning davriy chegarasi Yevropa, Osiyo va Afrikada taxminan mil. avv. VI ming yillikdan boshlanib II ming yilliklarni o'z ichiga oladi.

Neolit davrini ikki bosqichga: ilk va so'nggi neolit davri bosqichlariga bo'lish mumkin.

Yevropa hududidagi neolit davri yodgorliklariga tavsif berib o'tamiz. G'arbiy Yevropadagi eng qqqdimgi manzilgohlardan biri Kampinidir. Kampini manzilgohi Fransiyaning shimolidagi Quyi Sena departamentiga qarashli Bleni-syur-Brel qishlog'i yaqinidan topilgan. Bu manzilgohdagi qazuv ishlari 1897 yildan P.Salmon va G.d'O-dyu-Menil tomonidan boshlangan. Izlanishlar jarayonida yarim yerto'la ko'rinishidan uy qoldig'i ochilgan, unda o'choq qoldiqlari, minglab chaqmoqtoshdan qilingan tosh qurollari, ko'mir, kul, bug'u, ot va ho'kizning suyak qoldiqlari topilgan. Topilmlar orasida eng diqqatga sazovori sopol parchasida saqlanib qolgan arpa donidir. Olimlar izlanishlar natijasini xulosasi sifatida bu yerda yashagan qadimgi odamlar dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshlaganliklarini ko'rsatib berishgan.

Ma'lumki, arpaning ilk vatani Old Osiyo va Shimoli-Sharqiyo Afrika hisoblanadi. Yevropaga u Falastin orqali tabiiy yo'l bilan madaniylashtirilgan va maxsus ekib yetishtirish uchun o'stirilgan.

Yevropaning boshqa joylarida olib borilgan qazuv ishlari jarayonida yuqorida sanab o'tilgan topilmalar bilan birga yorg'ichoq va uning siniqlari topilgan. Izlanishlar vaqtida neolit davrining Yevropadagi eng yirik chaqmoqtosh koni (shaxtasi) topilgan (Belgiya yaqinidagi Spenna shaxtasi). Uning chuqurligi 15 m. ni tashkil etgan.

Rossiya hududidagi neolit davri manzilgohlari XX asrning 20-yillaridan o'rganila boshlangan. Moskvadan 40 km shimolda, Klyazma daryosi qirg'og'i bo'yida joylashgan Lyalovo qishlog'idan topilgan manzilgoh 1922-1923 yillarda rus arxeologlari B.S. Jukova B.A. Kuftinlar tomonidan o'rganilgan. Bu yerdan topilgan sopol buyumlar o'sha vaqtida sobiq Ittifoq hududidagi eng qadimiy va ilk topilma hisoblangan.

Markaziy Osiyo hududida neolit davri odamlari ovchilik dehqonchilik va chorvachilik bilan qisman esa, hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Markaziy Osiyo janubiy hududlarida, Kopetdog' (Turkmaniston) etaklarida dehqonchilik va ilk chorvachilik qaror topadi. Katta-kichik daryolar va ko'llar sohilida ovchilik va chorvachilik, dehqonchilik qaror topishi insoniyat tarixida buyuk burilish yasadi va ko'plab kashfiyotlarga turki bo'ldi.

Neolit davri jamoalari hayotida o'troq ho'jalikning yorqin belgisi sifatida yana bir ho'jalik yangiligi ixtiro qilindi. Bu bo'lajak hunarmandchilik ho'jaligining muhim tarmog'i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarishning paydo bo'lishi edi. Kulolchilik buyumlarining paydo bo'lishiga unumdar ho'jalik shakllari ta'sir etadi. Ya'ni, sut quyish uchun idishlar, donlar saqlash uchun kulolchilik buyumlariga bo'lgan zarurat va ehtiyoj.

To'qimachilikning kashf etilishi ham neolitning katta yutug'i hisoblanadi. Endi ibridoiy jamoa a'zolari faqat hayvon terilaridan yasalgan kiyim-kechak emas, balki, uning yungidan hamda, o'simliklar tolasidan to'qilgan matolardan ham kiyimlar to'qib kiyadigan bo'ladilar. Zig'ir poyalari va jun iplardan to'qilgan mahsulotlarning neolit makonlarida keng tarqalishi yuqoridagi fikrlarning isbotidir. Neolitda ip yigirish kashf etiladi. Ip yigirishning kashf etilishi o'z

navbatida boshqa xil ho'jalik mashg'ulotlarining rivojlanishiga turtki beradi. Masalan, to'rlarning paydo bo'lishi baliqchilikni keskin darajada rivojlanishiga, o'z navbatida moddiy ehtiyojlarni yanada kengroq qondirish imkoniyatiga olib keldi.

Neolit davrida turli xo'jalik shakllarining qaror topishi hududlar o'rtasidagi o'zaro buyum almashuvining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Masalan, chorvachilik mahsulotlarining dehqonchilik mahsulotlariga almashinuvi yoki aksincha.

Neolitda suvda suzish moslamalari dastlabki qayiqlar, shimoliy o'lkalarda esa, chenalar paydo bo'ldi. Hatto sharning yaratilishi neolit davrining yutug'idir. Umuman, odamlar faoliyatida bunyodkorlik va yaratuvchanlik ko'nikma sifatida neolit davrida chuqur egallagan. Shuningdek, neolit davrida – jamoa bo'lib ishlab chiqarish mehnatning umumiyligi urug' mulkchiligi, asosiy xususiyatlardan hisoblangan.

Neolitda maishiy munosabatlar ham o'z navbatida tartibga solina boshlanadi. Guruhli nikoh hukmronligi mayjud bo'lsada, ammo nikoh tub mohiyati bilan o'zining dastlabki bosqichlardi holatidan farq qiladi. Endilikda matriarxat urug' jamoasining guruhli nikoh doirasida juft oilalar vujudga keladi. Ayollar endi tug'ilgan farzandlarining otalaridan o'z urug'lari manfaatlari uchun ishlab berishini talab qiladigan bo'ladilar. Ichkuyovlik mazmunidagi juft oilaning dastlabki ko'rinishlari shakllana boradi. Ayollar o'zlariga aniq sherik tanlab, jinsiy aloqalar aynan aniq sheriklar bilan bo'ladigan bo'ldi. Ona urug'iga qatnovchi erlar o'z urug'i uchun ishlab berishdan tashqari xotinlar urug'i uchun ham ishlab berishga majbur bo'ladi. Maishiy munosabatlarda yangi ko'rinish – jinsiy sherikchilik shakllanadi. Urug' ichidagi nikoh elementlari paydo bo'ladi. Juft, monogom oila sari qadamlar qo'yiladi.

Neolit davri yer kurrasining barcha mintaqalarida har xil vaqtida sodir bo'ldi. Masalan, bir qit'a aholisi jamiyat taraqqiyotining quzdorlik davriga to'g'ri kelgan bo'lsa, ikkinchi mintaqada endigina dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklari kashf etilib, ibtidoiy jamoalar tabiatning tayyor mahsulotlari hisobiga yashash qulligidan ozod edilar. Boshqa bir mintaqalarda esa, hali neolit jamoalari ovchilik va terimchilik bilan shug'ullanar edilar. O'rta Osiyoda ham ibtidoiy jamoa rivojining keyingi ikki ko'rinishi mavjud. Masalan, uning janubi-g'arbiy rayonlarida, hozirgi Turkmaniston Respublikasining Kopetdog' tog'i oldi hududlarida neolit davri odamlari miloddan avvalgi VI ming yillikning oxirlari va V ming yillikkning boshlaridayoq ilk dehqonchilik madaniyati bilan band bo'lgan bo'lsalar, markaziy va shimoliy viloyatlarda bu vaqtida odamlar ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanar edilar. Neolit davri jamoasining bunday mintaqalararo rivojlanishi har bir viloyatning mavjud tabiiy-iqlim sharoitlaridan kelib chiqar edi. O'rta Osiyoda neolit davri yodgorliklari juda keng tarqalgan. Ular tekisliklardagina emas, balki O'rta Osyo tog'lik rayonlarida ham ko'p uchraydi. O'lkanning neolit yodgorliklarini uchta yirik – hududiy-madaniy ho'jalik shakllariga ajratish mumkin. Fanda ular **Kaltaminor, Hisor va Joytun madaniyati** nomi bilan mashhurdir. Ularning har biri alohida geografik muhitga ega bo'lgan erlarga joylashgan.

O'rta Osiyoda **Kaltaminor madaniyati** nomi bilan mashhur bo'lgan yodgorliklar asosan o'lkanning g'arbiy va shimoli-g'arbiy tomonlarida keng tarqalgan. Shu bilan birga uning chegarasi Ural daryosi va Kaspiy dengizi bilan ham tutashgan. Janubda Qoraqum va Shimoliy Qizilqum etaklarida, sharqda esa, Orol dengizi shimoliy-sharqiylar va janubiy tomonlarida quyi Sirdaryoga borib taqaladi. Qizilqum va Ustyurtning keng hududlarida ham Kaltaminor madaniyati ancha keng tarqalgan.

**Kaltaminor madaniyatiga** asos solgan kishilar qadimda ko'l va daryolar bo'yalarida, qamishzorlar yonida yashagan. Joylarning tabiiy sharoitiga ko'ra, Kaltaminor madaniyatini yaratgan kishilar asosan yovvoyi hayvonlarni ov qilib, ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirgan. Mevali daraxtlar ko'p bo'lgani uchun ham ularning ho'jalik hayotlarida termachilik ham katta o'rin egallagan. Kaltaminor qabilalari ho'jaligida qisman chorvachilik ho'jaligi ham bo'lgan.

Kaltaminor madaniyatini arxeolog **S.P.Tolstov** o'rgangan. Kaltaminor madaniyati jamoalarining makonlari ilk bor Amudaryo-ning Oqchadaryo o'zanidan chiqqan qadimgi

Kaltaminor kanali etaklaridan topilgani uchun ularga shu nom berilgan. Oqchadaryo havzasidagi bir necha manzilda madaniy qatlamlar saqlangan bo'lib, ulardan biri **Jonbos – 4 makonida** chaqmoqtoshdan yasalgan minglab mehnat qurollari, sopol parchalari, hayvon suyaklari va baliqlarning suyaklari topilgan.

Arxeologlar **Jonbos-4** manzilgohini o'rganish jarayonida yarim yerto'la shaklidagi kulba (chaylaga) duch keladilar. Kulbaning markaziy qismida katta o'choq qoldig'i topiladi. Bu o'choq atrofida yuzga yaqin mayda o'choq qoldiqlari joylashgan. Arxeolog S.P. Tolstov katta o'choqni muqaqqas olov saqlanadigan otashqada, uning atrofidagi o'choqlar esa, oilalarning o'choqlari bo'lган degan fikrni aytadi. Jonbos-4 makonida topilgan kulbaning maydoni  $300\text{ m}^2$  bo'lib, bu yerda 120-125 kishi istiqomat qilgan. U katta urug' jamoasining makoni bo'lgan.

**Kaltaminor madaniyati** jamoalari sopol ishlab chiqarishga usta bo'lgan. Sopol yasashda ham kulolchilik charxidan foydalanish o'zlashtirilmagan bo'lsa-da, qurollar sopol buyumlar yasashning ibtidoiy usullarini ko'nikma sifatida egallaganlar. Kaltaminorliklar idishlar yasash uchun tayyorlangan loyga yantoq va qamishning toza kulidan qo'shishgan. Sopol qozon loylariga esa, maydalangan tosh qo'shishgan. Bu qo'shilmlar sopol idishlarning mustahkam chiqishini, olovga tushganda o'zida issiqlikni uzoq vaqt saqlab qolishini ta'minlagan. Sopol buyumlarning sirtiga odatda naqsh berilgan. Naqshlar chizma uslubda ishlangan. Ular turli geometrik shakllarda o'z aksini topgan. Asosan naqshlar uchi uchli yog'och yoki suyak pichoq yordamida ilon izi, romb, uchbuchak, egri chiziq va boshqa shakllar chizilgan. Kaltaminor madaniyatining so'nggi bosqichiga kelganda ba'zi sopollarning gardishiga rangli gul-naqshlar chizilgan. Kaltaminor madaniyatining dastlabki bosqichida sopol buyumlar aksariyat hollarda tuxumsimon shaklda bo'lgan. Ammo so'nggi bosqich (O'zboy) da tuxumsimon, tosh dumaloq idishlar o'rmini tuvaksimon, osti tekis idishlar egallaydi. Agar dastlab idishlar mato xalta qoliplarida tayyorlangan bo'lsa, endi loy lentalarda qo'lda yasalgan. Idishlarda jo'mraklar paydo bo'lgan. Ular bir qavatli humdonlarda pishirilgan.

Kaltaminor madaniyati urug' jamoalari tabiat kuchlari oldida ojiz edi. Ular suv orqasidan, ov orqasidan ergashib yurganlar. Ularning kulbalari qurib borayotgan daryo yoqalarida, ko'l bo'yalarida qumlar ustida qad ko'targan. Daryo va ko'l suvlarining o'zgarishi bilan Kaltaminorliklar jamoasi ham o'z manzilgohlarini o'zgartirganlar.

Kaltaminor madaniyati taraqqiyotida 3 bosqich kuzatiladi. Ilk (daryo-soy) bosqichi miloddan avvalgi VI-V ming yilliklarga to'g'ri keladi. Uning o'rta bosqichi (Jonbos – 4) miloddan avvalgi V-VI ming yilliklarga mansub. Nihoyat, so'nggi bosqich (O'zboy) miloddan avvalgi V-III ming yilliklarni qamrab oladi. Bu bosqichlarning madaniy qiyofasi ularga xos ishlab chiqarish, mehnat qurollari hamda sopol buyumlarda o'z aksini topgan.

**Hisor madaniyati** nomi bilan atalgan Markaziy Osiyoning neolit davri makonlari. Hisor – Pomir tog'laridan topib o'rganilgan. Hisor madaniyatining asosiy markazi Tojikiston Respublikasining Hisor – Bobotog' - Qoratog' oralig'idagi yerlar bo'lib, dastlab o'rganilgan yodgorliklar Hisor vodiysidan topilganligi uchun u shu nom bilan ataladi. Hisor madaniyati o'z xususiyatiga ko'ra tog' madaniyati deb ham nomlanadi. Hisor madaniyatiga mansub bo'lgan yodgorliklar 200 dan ortiq bo'lib, ular **miloddan avvalgi V-III ming yilliklar** bilan belgilanadi.

Hisor madaniyati jamoalari sopol idishlar yasab, asosan chorvachilik, ovchilik, qisman dehqonchilik va termachilik bilan shug'ullanган.

Markaziy Osiyoda eng qadimgi dehqonchilik markazlaridan biri Kopetdog' va Qoraqum oralig'idan (Turkmaniston) topilgan. **Nayzatepa, Qadimtepa, Joytun** va boshqa qator ibtidoiy dehqonlar manzilgohlari Jaytun madaniyati nomi bilan ataladi. Chunki yodgorlik bahorda yomg'ir suvidan hosil bo'ladigan ko'lmak o'rnda joylashgan bo'lib, u oftob tegmagan paytda qorong'u bo'lib ko'ringan. Shuning uchun ham mahalliy xalq u erni Joyi-tun ya'ni qorong'u joy deb nomlagan.

**Joytun madaniyatiga** mansub qabilalar paxsa va guvalasomon aralashtirib qurilgan uylarda yashab, bo'yoq bilan naqshlangan idishlardan foydalangan. Jaytun makoni ibtidoiy qishloq bo'lib, u bir necha uylardan tashkil topgan. Uylarning maydoni  $25-30\text{ m}^2$  tashkil etgan

bo'lib, ular paxsadan qurilgan. Uylar to'g'ri to'rt burchakli va bir xonali bo'lib, har bir xonaning alohida o'choqlari bo'lган. Devorlari somon loy bilan suvalib, oxra tabiiy bo'yoq bilan bo'yalgan. Turar joy-uylari yonida omborxonasi, saroy, ho'jalik uchun o'ralar ham joylashgan.

Har bir uuda 5-6 kishilik oila istiqomat qilgan. Jaytun qishlog'ida 30 ga yaqin uy bo'lib, ularda 160-180 kishi yashagan. Bu erdan boshoqli don ekinlarining qoldiqlari, munchoq-taqinchoqlar, shaxmat-shashka donalari shaklidagi buyumlar topilgan. Hatto ko'plab loydan yasab pishirilgan odam va hayvon haykalchalari ham uchraydi. Jaytunliklarda ona urug'i hukmon bo'lган. Ular **miloddan avvalgi VI-V ming yilliklarda** yashab, asosan dehqonchilik, chorvachilik, qisman ovchilik bilan shug'ullangan.

O'zbekiston hududlaridan keyingi yillarda ko'plab neolit makonlari topilgan. Arxeologlar Qashqadaryo va Zarafshon daryola-rining quyi oqimidan 45 dan ortiq neolit makonini o'rgangan. **Markaziy Farg'ona** hududida ham neolit yodgorliklari topilgan. Arxeologlar bu erda 80 ga yaqin neolit makonlarini o'rganadilar. Ular arxeologiya faniga "Markaziy Farg'ona neoliti" nomi bilan kiritilgan. Markaziy Farg'onaning neolit yodgorliklaridan tosh qurollar, toshdan yasalgan taqinchoqlar va yorg'uchoqlar topilgan. Bu erda yashagan qabilalar ho'jaligi baliqchilik, ovchilik va termachilikdan iborat bo'lган. Markaziy Farg'onada o'rganilgan yodgorliklar O'rta Osiyodagi to'rtinchi neolit madaniyati hisoblanadi.

Neolit davri jamoalarining izlari Zarafshon daryosi etaklarida ham topib o'rganilgan. Neolit davrida Zarafshon daryosi o'zining 5 ta tarmog'i orqali Amudaryoga qo'shilgan. Uning eng yirik tarmog'i Mohandaryo bo'lib, u o'zining to'lib toshib oqqan suvlari bilan ko'plab ko'llar hosil qilgan. Bu ko'llar atrofida esa, neolit davrida yuzlab jamoalar makonlari tashkil topgan. 1950 yillarda arxeolog Ya. G'ulomov Moxandaryo bo'yalarida ko'plab tosh qurollar va sopol parchalarini topib o'rganadi. 1960 yilda arxeologlar **A.Asqarov va O'Islomov**lar Mohandaryo suvlaridan hosil bo'lган **Katta** va **Kichik Tuzkon** sohillaridan 100 dan ortiq neolit makonlarini o'rganadi. Bu makonlarda madaniy qatlamlar saqlanmagan, bo'lsa-da, ammo ko'plab tosh qurollar, hayvon va baliq suyaklari ochiq havoda qumlar ustida hozirgacha saqlanib qolgan. Faqat bir makon "**Darvoza Qir**" makonida madaniy qatlam qisman buzilmay saqlangan bo'lib, qazish ishlari davomida undan chayla ustuningiz izlari topilgan. Shuning-dek, tosh qurollari – o'q-yoy paykonlari, randalash, teshish asbob-uskunalar, tosh pichoq va pardoz berilgan toshbolta va boshqa qurollar ham mavjud bo'lib, bu topilmalar neolit davri odamlari ho'jaligi haqida tasavvurimizni kengayishiga xizmat qiladi.

**Darvoza Qir makonida** yashagan jamoa ho'jaligida asosiy mashg'ulot baliqchilik bo'lган. Ovchilik ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Chunki makondan jayron, soyg'oh, yovvoyi cho'chqa, qulon, ot suyaklari topilgan.

Neolit davri yodgorliklari Samarqand viloyatining **Sazag'on** qishlog'ida ham o'rganilgan. Sazag'on jamoalari tog' oldi buloq suvlari yoqalarida ovchilik ho'jaligi bilan shug'ullangan.

Zarafshon vodiysida yashagan neolit davri qabilalari shaxta yo'li bilan xom-ashyo qazib chiqarish usulini ixtiro qiladilar. Neolit davri odamlari toshning xususiyatlarini o'rganishga e'tibor bergan. Ular ma'lum darajada nam tortgan (chaqmoqtosh qancha ko'p nam tortsa, undan istalgan shaklda yuqori sifatli quroq yasash oson bo'lган) chaqmoqtosh topish ustida harakat qilgan. Chaqmoqtosh sirlarini yaxshi bilgan neolit davri ustalari ana shu chaqmoqtoshni izlash natijasida yangi kashfiyotlar qildilar. Ya'ni ular shaxta yo'li bilan xom-ashyo olish usulini ixtiro qiladilar. 1960 yilda arxeolog Ya.G'ulomov Navoiy viloyatining **Uchtut** degan joyida mehnat qurollari yasash uchun juda boy xom-ashyo markazini ochdi. Arxeologlar **M.Qosimov va T.Mirsoatov** Uchtut yodgorligini tadqiq qildilar. Uchtutda Chaqmoqtosh xom-ashyosi olish uchun 4,5 va 5 metrli o'ralar kovlangan. Kerakli xom ashyni olish uchun esa, o'raning har tomoniga qo'shimcha yo'laklar ochilgan. Uchtutda 100 dan ortiq shaxtaning o'ni ochib o'rganilgan.

Neolit davrida dastlabki shaxtalar Angliya, Frantsiya, Daniya, Shimoliy Germaniya hududlarida ham ko'plab mavjud edi. Bu davrda xom ashyni ixtisoslashgan tarzda qazib olish

keng ko'lamda bo'lib, u san'at darajasiga ko'tarilgan. Ibtidoiy san'atning rivojlanish bosqichi ham neolit davriga to'g'ri keladi. Yuqorida keltirib o'tganimiz madaniyat yodgorliklaridan topilgan idishlarga, kulolchilik buyumlariga har xil rangdagi bo'yoqlardan naqshlar, odam va hayvon suratlari chizilgan. Shu bilan birga loydan yasalib pishirilgan ayol haykalchali ham neolit davri moddiy topilmalari hisoblanadi.

Neolit davri uzoq davom etgan tosh asrining so'nggi bosqichi bo'lib, odamlar bu davrda ho'jalikning ilg'or, unumdar shakli – deh-qonchilik va chorvachilikni kashf etgan. Bu jarayon arxeologiyada neolitning inqilobi deb yuritiladi. (ingliz olimi **G.Chayl** fikri) kishilarda yaratuvchanlik faoliyatini aktivlashuvi mehnat qurollarida yangi shakl va xususiyatlarni, ishlab chiqarishda esa, yangi ko'nik-malarни paydo etdi. Natijada, to'qimachilik, ip yigirish, qayiqsozlik, uysozlik, suvda suzish, o'rganildi va o'zlashtirildi. Bu davrda hunarmandchilikka asos solindi. Maishiy munosabatlar ma'lum ma'noda tartibga kela boshladi. Odamlarda fiziologik o'zgarishlar yasashga xissa qo'shgan xususiyat-pazandalik sohasida go'shtni pishirib eyish va ovqatlar tayyorlash imkoniyatiga ega bo'lindi. Xususan, neolitda odamzod rivojlanish sari katta qadam tashladi.

#### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

- **Neolit davri bosqichlarini aytинг?**
- **Neolit davri yodgorliklarini sanang?**
- **Kaltaminor madaniyati necha bosqichda rivojlangan?**
- **Neolit davri yutuqlari nimalardan iborat?**
- **Ishlab chiqaruvchi xo'jalik va uning mohiyati nima?**
- **Joytun madaniyati qaysi hududda shakllangan?**
- **Xisor madaniyati xususiyatlarini tushuntirib bering?**
- **Markaziy Farg'ona yodgorliklarining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?**

#### **5-MAVZU: ENEOLIT DAVRI ARXEEOLOGIYASI (2 SOAT)**

##### **REJA:**

1. Eneolit davri xronologiyasi, tavsifi va o'rganilishi.
2. Eneolit madaniyatining rivojlanish bosqichlari.
3. Qurilish va me'morchilik.
4. Kulolchilikning mukammallashuvi.
5. Eneolit davri san'ati.

#### **T A Y A N C H   S O' Z L A R**

Eneolit, Sialk va Suza kompleksi, Mundigak, Anov-Nomozgoh, Sarazm, qurilish va me'morchilik, kulolchilik va metall, haykalchalar, Tripole madaniyati va uning bosqichlari, g'oyaviy qarashlar, Maykop, Drevneyam va Afanasev madaniyatları, Janubiy Turkmaniston arxeologik kompleks ekspeditsiyasi (JTAKE), Anovtepa, Namozgochtepa, Oltintepa, Geoksyur, oilaviy ibodatxonalar, katta oila jamoasi.

#### **ADABIYOTLAR:**

- 1.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
- 3.Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.
4. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 1999.
5. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993.
6. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.

7. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004.
8. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
9. Исаков А.И. Саразм. – Душанбе, 1991.
10. Массон В.М. Первые цивилизации. – Л., 1961.
11. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.-Л., Наука, 1964.
12. Массон В.М. Страна тысячи городов. – М., Наука, 1966.
13. Сарианиди В.И., Кошеленко Г.А. За барханами – прошлое. – М., 1966.
14. Сарианиди В.И. Тайны исчезнувшего искусства Каракумов. – М., Наука, 1967.
15. Сарианиди В.И. Древности страны Маргуша. – Ашхабад, 1990.
16. Энеолит СССР. Энеолит Средней Азии. – М., 1982.

**Enolit** – lotin va yunoncha so'zlaridan yasalgan bo'lib, «alneus» - lotinchal mis, «ditos» - yunoncha tosh degan ma'noni anglatadi. Eneolit atamasi bilan birga "Xalkolit" ("xalkos" yunoncha mis demak) ham ishlatiladi. Eneolit neolit bilan bir vaqtga to'g'ri keladi. Ammo ular orasida xronologik jihatdan katta farq bo'lmasada, madaniy darajalari jihatidan bir-biridan farqlanadi. Masalan, Yevropa va Osiyoning ko'p hududlarida miloddan avvalgi IV-III ming yillikda neolit qabilalari yashagan, ular bu vaqtida metaldan xabardor bo'lmagan, ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullangan. Yevropa va Osiyoning boshqa o'lkalarida aynan shu paytda metalldan bir oz xabardor eneolit qabilalari yashagan va ularning xo'jaliklari odatda dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan. **Miloddan avvalgi IV ming yillikda** (mis) metallning qimmatli xususiyatlari bilib olingan. Natijada dastlabki metallurgiyaga asos solingan.

Eneolit davri yodgorliklarida rangli sopol buyumlar ko'plab topilgan. Xitoydan Dunaygacha (Ruminiya) «sopol makonlari» sifatida keng tarqalgan makonlar xarakterli bo'lib, shu xususiyatga ega bo'lgan makonlarda ijtimoiy taraqqiyotning bir xil bosqichi ko'zga tashlanadi. Bir-biriga juda kam o'xshaydigan ijtimoiy-iqtisodiy sharoit hamma erda amaliy san'atning bir-biriga o'xshash shakllarini taqoza etgan. Ammo sopol buyumlar bir-biriga o'xshasa ham aynan bir xil emas.

Eneolit makonlari birinchi bo'lib Ikki daryo oralig'i va Misrda vujudga kelgan. Arxeologlar eneolit davriga xos bo'lgan 5 umumiylar birlashtiruvchi alomatni ajratib ko'rsatadilar:

1. Xo'jalikning hamma turidan ko'ra motiga bilan qilinadigan dehqonchilikning ustunligi;
2. Chaqmoqtosh qurollar ko'p bo'lishi bilan birga mis qurollarining paydo bo'lishi;
3. Katta-katta ibtidoiy jamoa birlashmalarining katta-katta paxsa uylarinining mavjudligi;
4. Hayvonlarning loydan yasalgan va onalik urug'iga xos bo'lgan haykalchalarining mavjudligi;
5. Rangdor sopol buyumlari (gul solingan) ning tarqalishi.

Yuqorida alomatlar Misr, Mesopotamiya makonlarida, keyinroq Yevropa, Markaziy Osiyo yodgorliklarida ko'zga tashlanadi. Eneolitda Mesopatamiyada rangdor sopol buyumlarga katakli bezaklar, Misrning rangli sopol buyumlariga esa, syujetli suratlar chizilgan. Osiyo va Yevropaning keng hududlarida esa, rangdor sopol makonlari tarqalgan.

Eneolit makonlarining ko'philigidagi, ya'ni dehqonchilikning ibtidoiy usullari tarqalgan hududlarida rangdor sopol buyumlar tarqalgan bo'lsada, ba'zilarida mutlaqo uchramaydi. Masalan, Germaniya, Frantsiya, Yevropaning yana boshqa mamlakatlarda eneolit makonlarida rangli sopol buyumlar yo'q. Aksincha, bu yerdagi makonlarda naqshi tasma-tasma qilib o'yilgan kulolchilik buyumlari mavjud bo'lgan. Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistondagi eneolit makonlarida sopol buyumlar sirti qizil yoki qora bo'yoqlardan ishlangan geometrik shakllardan iborat bo'lgan.

Eneolit makonlari yer yuzida dastlab Ikkidaryo va Misrda vujudga kelgan. Yuqorida ko'rsatilgan eneolit besh alomati bu mamlakatlardagi yodgorliklarda mavjud bo'lgan. Masalan, Ikkidaryo oralig'ining rangdor sopol buyumlariga bezaklar chizilgan. Misrning rangli sopol buyumlariga syujetli suratlar solingan. Miloddan avvalgi IV-III ming yillikda Ikkidaryo oralig'i va Misrda (eneolit hali davom etayotgan davrda) quidorlik asosida yuksak madaniyat yuzaga

kelgan. Ammo bu vaqtida Osiyo va Yevro-paning katta hududlarida unumdar ho'jalik shakllari endi rivojlana boshlagan edi.

Eneolit davriga xos bo'lган birinchi xususiyat bevosita unumdar xo'jalik shakli – dehqonchilik mashg'ulotiga borib taqaladi. Eneolit davrida dehqonchilikda motiga bilan ishlov berish ustun darajada bo'lган. Ammo o'z xususiyatiga ko'ra misdan foydalanish mehnat unumdarligini oshirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, dehqonchilikda motiga tishi sifatida toshdan foydalanilgan. Mis qurollar tosh qurollarga nisbatan takomillashgan bo'lsa-da, u kuchli, og'ir va qattiq qurollar yasashga yaroqsiz edi. Mis o'z xususiyatiga ko'ra yumshoq va juda tez o'z shaklini o'zgartirgan. Shuning uchun ham motiga tishi sifatida toshdan foydalanilgan.

Mis-tosh davrida odamlar metall bilan tanishadi. Ungacha ibridoib odamlar 2-3 million yillar davomida faqat toshdan, yog'ochdan va suyakdan yasalgan qurollardan foydalangan edilar. Mis qurollar qattiq, kuchli bo'lmay, ayrim xususiyatlari jihatdan tosh qurollarga nisbatan pastroq darajada bo'lsa-da, o'zining shakli, ishlab chiqarish jarayonida qo'llanishidagi qulayligi, shuningdek juda tez turli shaklga kelishi oson bo'lganligi uchun ham chaqmoqtosh qurollar bilan parallel holda ishlatila boshlangan.

Ma'lumki, eneolit davrida Markaziy Osiyo aholisi madaniyati bir bosqich yuqori ko'tarilgan. Lekin ularning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti bir xil darajada bo'lмаган. Bu davda unumdar xo'jalikka asoslangan qabilalar tezroq rivojlangan. Qo'shimcha ho'jalik bilan mashg'ul bo'lган kishilar madaniy jihatdan bir necha yuz yillar orqada bo'lган. Urug' munosabatlari ham tobora taraqqiy topib, kengaya boshlagan. Endi kichik-kichik oilalardan iborat bo'lган urug' makonlari o'rniqa bir necha urug'lar yashagan yirik manzillar paydo bo'ladi, ular jamoa birlashmalarini tashkil etadi. O'troq hayot ko'nikmalarini egallayotgan qabilalarning xom g'ishtdan yoki paxsalardan qurilgan katta-katta uylari paydo bo'ladi.

Yirik jamoa birlashmalari yashagan makonlardan ko'plab mehnat ov qurollari, zeb-ziynat buyumlari topilgan. Moddiy topilmalar ichida ayollarning ijtimoiy hayotdagi e'tibori va mavqeini ko'rsatuvchi haykalchalari ham bo'lgan.

Eneolit makonlari yer yuzining turli nuqtalari – Xitoy, Eron, Markaziy Osiyo, Ukraina, Bolgariya, Gretsya, Frantsiya, Germaniya hududlaridan topib o'rganilgan. Mesopatamiyada Xassuan yodgorligi, Eronda So'za kompleksi, Ukrainada Tripole madaniyati, Kavkazortida Shengavit, Turkmanistonda Anov, Nomozgoh makonlari eneolit davriga mansubdir.

Eneolit makonlaridan topilgan qurollarning eng ko'p tarqalgani - retushlangan egri o'roqlar va silliqlangan tosh motigalardir. Egri o'roqlar barcha mamlakatlarda eng qadimgi dehqonchilik xo'jalik mashg'uloti bilan birga paydo bo'lган. Yevropa va Osiyo hududlaridan topilgan makonlarda 3 xil don - bug'doy, arpa va tariq qoldiqlari topilgan. Bu donlarning yovvoyi xillari Yevropada yetishtirilgan. Ular bu yerlarga Markaziy Osiyo va Hindiston hududlaridan olib kelgingan.

Yer yuzining ko'p hududlarida eneolit davri ibridoib dehqonlarning qishloqlari keng tarqalgan. Ular ho'jaligida dehqonchilik va chorvachilik asosiy mashg'ulot bo'lishi bilan birga, ovchilik ham mavjud bo'lган. Ovchi qabilalarning faoliyati izlari ularning mozor qo'rg'onlarida saqlanib qolgan. Ularning eneolit davriga xos bo'lган “**Qadimiy chuqur**” mozor qo'rg'onlari deb atalib, yer yuzida ularidan qadimiyrog'i yo'q. Ular miloddan avvalgi III ming yillikka oid. Qabr tagidagi oddiy go'r chuqurlar bu davr uchun nom bo'lган. Qadimiy chuqur mozor-qo'rg'onlarida chaqmoqtosh o'q uchlari, qirg'ichlari pichoqsimon tosh qurollar uchraydi.

Eronning **Koshon shahri** yaqinida ko'p qatlamlı eneolit davriga oid manzilgoh xarobasi topib o'rganilgan. Bu yerdan turar joy qoldiqlari, qabrlar, sopol idishlar, mis va jez (bronza) dan ishlangan qurollar va boshqalar topilgan.

**Sialktepa** manzilgohi 3 ga maydonni tashkil etib, bir nech bosqichdan iborat va o'ziga xos madaniyatni hosil qilgan (**Sialk I**). Tehron vohasida aynan shu madaniyatga xos, juda ko'p va qiziqarli ashyolarni o'zida jam qilgan **Ray shahri** yaqinida **Chashma Ali** manzilgohi topib o'rganilgan (**Sialk III**). Markaziy Eronning katta hududida, **Qum shahridan Sialk II** bosqichiga xos **Qalai Duxtar** manzilgohi topib o'rganilgan. Ularning hammasida olib borilgan qazuv ishlari

jarayonida rangli sopol buyumlari, turli xil mis va jezdan yasalgan quollar, paxsa va xom g'ishtdan qilingan ko'p xonali uylar, tosh quollari topilgan. Uylarning asosi xom g'ishtdan qilinib devori paxsadan iborat bo'lgan, pol qismi ham ba'zi hollarda xom g'ishtdan iborat bo'lgan, devorlari esa, loy bilan suvalib qizil rang bilan bo'yalgan.

Sialk manzilgohida bevosita XX asrning 60-yillarida qazuv ishlrini olib borgan **R.Girshmanning** ta'kidiga ko'ra, sopol buyumlarini asosan maxsus xumdonlarda pishirishgan. Ular asosan geometrik shakldagi naqshlar bilan bezatilgan, ayrim hollarda esa, echki tasviri ko'zga tashlanadi.

Hozirgi **Xuziston viloyatida**, Diza yoki Abi-Diza daryosi irmoqlari bo'yida 1,5-2 ga maydonga ega ko'plab manzilgohlar joylashgan. Ular Eronning **Suza madaniyatiga** xos bo'lgan eneolit davri yodgorliklaridir. Bu protoelam yoki suza kompleksi nomini olgan manzilgohlarga **Jafarobod, Jovi va Bendebalni** kiritish mumkin.

**Jovida** olib borilgan qazuv ishlari jarayonida mis buyumlari topilmagan bo'lsa-da, ko'plab sopol buyumlar, tosh quollar, ho'kiz, echki va qo'y, ba'zan ayol haykalchalari topilgan. Tosh bolta va motigani bitum bilan mahkamlanganligini ko'rish mumkin. Sopol buyumlarning zoomorf va antromorflar belgilar uchraydi.

**Bendebal** kompleksidagi sopol buyumlarining katta qismida hayvonlarning tasviri tushirilgan.

O'zbekistonda eneolit yodgorliklar yaxshi o'rganilgan. Arxeolog **S.P. Tolstov** Quyi Amudaryo etaklarida neolitdan mis-tosh davriga o'tish davrini aniqlagan. Quyi Zarafshon vohasining qadimgi eneolit makonlari arxeologlar **Ya.G'ułomov, A.Asqarov, O'Islomovlar** tomonidan o'rganilgan. Arxeolog olimlarning fikricha Buxoro viloyatining **Lavlakon** va **Beshbulloq** qishloqlarida, **Zamonbobo I** qabristonidan topilgan moddiy manbalar eneolit davriga oiddir. Bu makondan chaqmoqtosh quollar bilan birga misdan yasalgan ignalar, munchoqlar ham topilgan.

Quyi Zarafshonning **Kaptarqum** va **Kattatuzkon manzillarida** to'rt joydan eneolit yodgorliklari topilgan. Bu yerdan toshdan ishlangan yorg'uchoqlar, o'roq pichoqlar, pichoq qadamalar bilan birga misdan ishlangan quroq siniqlari qazib olingan.

**1977 yilda Yuqori Zarafshon** (Tojikiston bilan O'zbekiston chegarasida) hududida **Sarazm** qishlog'i xarobasi topilgan. U eneolit davriga oid muhim yodgorlik bo'lib, o'rganilgan moddiy manbalar O'zbekistonda dehqonchilik qabilalarining O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlariga siljiganini ko'rsa-tadi. Chunki, shimol ziroatchilari janubiy O'rta Osiyoning Turkmaniston dehqonchilik markazlari bilan bog'langan edi. Sarazm yodgorlikligini olimlar to'rt bosqichga bo'ladi. Bu yodgorlik AQSh, Fransiya olimlarini ham e'tiborini tortgan, ular ham turli yillarda ilmiy izlanishlar olib bongan. Sarazm yodgorligi eneolit davridan ilk bronza davrigacha yashagan bobodehqonlar manzilgohi ekanligi aniqlangan.

**Sarazm 90 ga maydonni** egallagan, 10 ta tepalikdan iborat yodgorlikdir. Sarazm I eneolit davriga oid bo'lib, bu erdan topilgan idishlarda qora va qizil bo'yoqlarda ishlangan geometrik shakllar mavjud.

**Sarazm II** so'nggi eneolit va ilk bronza asriga o'tish davriga mansub. Bu bosqich naqshsiz sopol buyumlar bilan xususiyatlari. Sarazm III-IV esa, bronza davriga mansub.

**Sarazm I** bosqichida guvaladan kulbalar qurgan dehqonlar manzilga asos soladilar. Arxeologlar bu erdan mudofaa devorlari bilan o'ralgan 48 ta kulba, ya'ni paxsadan qurilgan uyni topib o'rganganlar. Bu uylar 2-3 xonali qilib qurilgan bo'lib, ular yakka, kichik oilalarga mo'ljallangan. Xonalardan kichik, dumaloq shakldagi o'choqlar topilgan. Bular – otashkadalar, jamoa olovi o'rni bo'lib, unda olov saqlangan. Otashkadalar e'tiqod markazi yoki joyi hisoblangan.

Yana bir eneolit va bronza davriga oid bo'lgan yodgorlik qoldiqlari **Zamonbobo madaniyati** nomi bilan mashhur. Arxeolog Ya.G'ułomov 1950 yil qadimgi qabriston qoldiqlarini topib, o'rganadi.

Ma'lumki, kishilik madaniyatining bir necha ming yillarni o'z ichiga oluvchi tarixi yozuv bo'lmanan davrga to'g'ri keladi. 5 ming yillik tarixiy davrdan ilgarigi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy jarayonlar moddiy topilmalarni o'rganish orqali tiklanadi. Eneolit mis-tosh davrining o'ziga xos tarixi, biz yuqorida keltirib o'tgan 5 madaniy jarayonda o'z aksini topgan. Eneolitning besh umumlashtiruvchi alomatlari bu davr qabilalari madaniyatining o'zidan oldingi davrlarga nisbatan bir bosqich yuqoriga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Sarazm moddiy topilmalari ichida Shimoliy Afg'aniston, Eron, Kaltaminor madaniyatiga mansub buyumlar ham bor. Ular eneolit davri qabilalarining keng madaniy va iqtisodiy aloqalarda bo'lganligidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyoda eneolit yodgorliklari Turkmaniston hududlarida yaxshi o'rganilgan. Turkmanistonda eneolit 3 bosqichga bo'lib o'rganiladi:

1. Ilk eneolit (Anov I, Nomozgoh I makonlari).
2. Rivojlangan eneolit (Anov II, Nomozgoh II).
3. So'nggi eneolit (Nomozgoh III).

Turkmaniston eneolit makonlaridan tosh qurollar (o'roq va pichoq qadamalar, qirg'ichlar, sopol idishlar geometrik shakllar bilan naqshlangan) topib o'rganilgan. Bu davr makonlarida uy joylar paxsa yoki g'ishtdan, dumaloq va to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan. Inshootlarning o'rtaida markaziy o'choq bo'lган. U diniy marosimlar o'tkazish va e'tiqod joyi vazifasini o'tagan. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar yerga, quyoshga, suvga, hosildorlikka sig'inishgan. Murdani ko'mishda urug' a'zolarining saganalari paydo bo'lган. Murdaning yoniga sopol idishlar, mehnat qurollari va zeb-ziynat buyumlari qo'yilgan. Eneolitda ibtidoiy diniy tasavvur – totemizm hayvonlar haykallarini tarqalishida ko'zga tashlanadi.

Kavkazortining eneolit davriga oid ilk dehqonchilik manzilgohlari mil. avv. VI ming yillikning oxiri – IV ming yillik boshlari bilan davrlashtiriladi, ammo bu yerdagи birorta manzilgoh to'liq ochib o'rganilmagan. Ular orasida **Kyultepa** (Ozarbayjondagi Naxichevan yaqinida), **Shulaverisgora** (Gruziya), **Texut** (Armaniston) va boshqalar.

1-2 ga maydonga ega manzilgohlarda paxsadan yoki xom g'ishtdan qilingan, markazida o'chog'i bo'lган aylana shaklidagi bir xonali uylar bo'lган. Unda kichik bir oila yashagan. Umumiy holda olganda 30-40 uylar o'zaro birlashib mahallachani hosil qilgan va undagi aholi 120-150 kishini tashkil etgan. Tadqiqotlar jarayonida tosh, shox va suyakdan qilingan qurollar topilgan. **Aruxlo I** (Armaniston) va **Imrisgora** (Gruziya) da dehqonchilik yerlarini sug'orish uchun sodda, bir martalik kanal izlari topilgan.

Markaziy Kavkazbo'yи hududida **Agubekov** va Kabardin-Balkariyadagi **Nalchik mozor-qo'rg'oni** topib o'rganilgan. Nalchik mozor-qo'rg'oni shaharning markazida joylashgan bo'lib, **147 ta qabr** ochib o'rganilgan. Bu yerda odamlar oila-oila qilib dafn etilgan; erkaklar o'ng, ayollar chap yoni bilan dafn etilgan. Qabrlardan mis uzuklar, tosh munchoqlar, yorg'uchchoq va motigalar topilgan. Bunga o'xshash yodgorliklarni **Chechen-Ingushetiya**da ham ko'rish mumkin.

Sharqiy Karpat yoni va O'rta Dnepr bo'yalarida **Tripole madaniyati** keng tarqalgan. Ruminiyada **Kukuteni madaniyati** deb ataladi. Kiev yaqinidagi **Tripole qishlog'**idan topilgan va shu nom bilan atalgan. **1899** yilda ukrain arxeologi **V.V. Xvoyko** arxeologlar syezdida o'zining yangi topilmasi, ya'ni "**o'liklar uyi**" haqida ma'lum qiladi. Deyarli 35 yil davom etgan tortishuvlardan so'ng bu madaniyat nafaqat Uraina, balki unga qo'shni hududlardan tortib boshqa joylardan ham aynan uning xususiyatlariga xos belgilardan iborat ashyolar topilganligi aniq bo'ldi. **V.A. Gorodtsov va A.A. Spitsinlar** uni yer osti turar joyi deb taxmin qilishadi va V.V. Xvoyko xato qilganligini isbotlaydilar. **1934-1938 yillarda** davomida **T.S. Passek va Ye.Yu. Krichevskiy**lar tomonidan 15 ming kv. m. li maydon qazib o'rganiladi va dehqonchilik madaniyatini o'zida jam qilgan Tripole madaniyati fanga ma'lum qilinadi.

Tripole madaniyati **3 ta bosqichga**: ilk (mil. avv. IV ming yillik), o'rta (mil. avv. IV ming yillik oxiri – III ming yillik 1-yarmi), so'nggi (mil. avv. III ming yillikning 2-yarmi) bo'linadi. Tripole madaniyati qishloqlari doira yoki tuxumsimon shaklda joylashgan bo'lib, markazida qolgan ochiq joy mollar uchun qo'ton vazifasini bajargan. Turar joylar ko'ndalang to'siqlar bilan

alohida xonalarga ajratilgan. Xonalardan don yanchayotgan ayol haykalchasi, yorg'ichoq, bug'u shoxidan yasalgan motiga, yirik xumlar, tandir va boshqa xo'jalik anjomlari, naqsh solingan sopol idishlar (**850 ta**), mis buyumlar (**444 ta** turli xil buyumlar - bolta, to'rt qirrali bigiz, qarmoq, xanjar) topilgan. Tripole madaniyati vakillari misni Bolqon yarim orolidan olib kelishgan. Tripole madaniyati vakillari, asosan, chorvachilik, dehqonchilik, shuningdek, ovchilik va baliq ovlash bilan shug'ullangan.

**Maykop madaniyati** Shimoliy Kavkaz tog' oldi hududlarida tarqalgan bo'lib, mil. avv. III ming yillikning 2-yarmiga oiddir. **1897 yilda** tekshirilgan. Maykop madaniyatiga ko'plab qo'rg'onlar, ba'zan mustahkamlangan manzilgohlar mansubdir. Maykop madaniyatining so'nggi bosqichida tosh maqbaralar, jumladan, dalmenlar paydo bo'lган. Asosiy jangovar v mehnat qurollari sifatida mis boltalar, motiga, cho'qmor, pichoq, xanjar, panshaxa, nayza uchlari hisoblangan. Turli bezak buyumlari, Maykop madaniyatiga mansub qabilalar Sharq xalqlari bilan aloqada bo'lishgnidan dalolat beradi. Maykop madaniyatining qizil, ba'zan naqshinkor sopol idishlari kulolchilik dastgohida tayyorlangan. Xo'jlikning yetakchi shakli – chorvachilik va dehqonchilik bo'lган. Maykop madaniyati qabilalari ibtidoiy jamoa bosqichiga yashaganlar. Ba'zi qo'rg'onlardan topilgan qimmatbaho buyumlar jamiyatda mulkiy tabaqalanish ildiz otganligidan dalolat beradi.

Maykop madaniyatiga xos **Maykop qo'rg'oni** Maykop shahri (RF ga qarashli Aligeya Respublikasi poytxti, Kuban daryosi irmog'i Belaya daryosi sohida joylashgan) hududida joylashgan. **N.I. Veselovskiy** tomonidan **1897 yilda** o'rganilgan. Qo'rg'onning balandligi **11 m** bo'lib, undagi boy qabrda qabila sadori va uning ikki xotini dafn etilgan. Maykop qo'rg'onidan kumush taqinchoqlar va ularga mustahkamlangan **4 ta oltin** buqa haykalchalari hamda qimmatbaho guldar chodir topilgan. Chodir yopinchig'iga oltin suvi yuritilgan halqlar, sher v buqa suratlari solingan. Sardorning yoniga **2 oltin** va **14 kumush** idish qo'yilgan. Ulardan biriga Kavkaz tog'i va bir qator bo'lib ketayotgan hayvonlarni tasvirlovchi manzara o'yib ishlangan. Bu idishdagi tasvirlar – eng qadimgi xaritografik rasmlardan biridir. Sardor xotinlari qabridan bezak buyumlari – tillaqoshlar, turli xildagi **olitn** va **seradolik munchoqlar, feruza va la'l tumorchalar**, shuningdek, malika kiyimlariga qadalgaan turli hayvon haykalchalari topilgan. Maykop qo'rg'oni topilmaalari **Sankt-Peterburgdag'i Davlat Ermitajida** saqlanadi.

Mezolit va neolitda terib-termachlab ovqat topishdan yovvoyi o'simliklar ekish va o'tkazish yo'li bilan vujudga kelgan dehqonchilik eneolit zamonida yuqori xo'jalik shakliga aylanadi. Dehqonchilik va chorvachilik ortiqcha mahsulotlar yetishtirishga va mol ayrboshlashni tartibga solinishiga yordam beradi. Eneolitning yana bir xarakterli xususiyati shundaki, Mesopotamiya, Old Osiyo va Osiyo hududlarida dastlabki shahar-davlatlarning paydo bo'lishi, quldarlik munosabatlarining shakllanishi jarayoni ko'zga tashlanadi. Bu jarayonlar ijtimoiy munosabatlarning keyingi davrlardagi rivojlanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

#### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

- 1. Nima uchun bu davr eneolit deb nomlanadi?**
- 2. Ilk eneolit davriga xos xususiyatlarni aniqlang?**
- 3. O'rta eneolit davriga xos xususiyatlarni aniqlang?**
- 4. So'nggi eneolit davriga xos xususiyatlarni aniqlang?**
- 5. O'zbekistonning qaysi hududlaridan eneolit davri makonlari topilgan?**
- 6. Sarazm madaniyatida uylar qanday qurilgan?**
- 7. Nomozgoh madaniyatini kimlar o'rgangan?**
- 8. Eneolit davri san'atining o'ziga xosliklari nimada?**

## **6-MAVZU: BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYASI (2 SOAT)**

REJA:

1. Bronza davriga tavsif.
2. Yevropa va Kavkaz hududlarida bronza davri.
3. Rossiya hududidagi bronza davri madaniyati (afanasev va andronovo madaniyatları).
4. O'rta Osiyo hududida bronza davri (Nomozgoh IV, Nomozgoh V, Nomozgoh VI, Sopolli madaniyati, Zamorbobo, Tozabog'yop, Qayroqqum madaniyatları).

### **TAYANCH SO'ZLAR**

Bronza davri, bronza – metalining xususiyatlari, Katakomba - mozor-qo'rg'onlari, Yog'ochband mozor-qo'rg'onlari, moddiy madaniyat yodgorliklari, xo'jalik va madaniy taraqqiyot darajasi.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.
4. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – T., 1997.
5. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. – T., 1990.
6. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 1999.
7. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993.
8. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.
9. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004.
10. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osyoning shaharlari tarixi. – T., 2006.
11. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
12. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Т., 1977.
13. Аскаров А. Сапалитепа. – Т., 1975.
14. Аскаров А., Абдуллаев Б. Джаркутан. – Т., 1983.
15. Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии. – Самарканд, 1993.
16. Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. – Л., 1968.
17. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.
18. Сарианиди В.И. Древности страны Маргуша. – Ашхабад, 1990.

***Bronza davri miloddan avvalgi III-II ming yillikni o'z ichiga oladi. Bu davrda egey dunyosi, Misr, Ikki daryo oralig'i, Hindiston va Xitoyda quldorlik jamiyati ravnaq topgan. Yevropa va Osyoning ko'p mamlakatlarida esa,,, hali ibtidoiy jamaa tuzumi hukm surgan.***

Jez miloddan avvalgi III ming yillikda kashf etilgan. Uning vatani Ikkidaryo oralig'i bo'lган. U mis bilan qalay qorishmasidan iborat bo'lib, nisbat jihatidan turli xilda. Bronza metal sifatida ko'p afzalliklarga ega:

1. Bronza qurollar mis qurollardan pishiqroq va o'tkirroq.
2. Uni eritib quyish oson, chunki uning erish temperaturasi pastroq.

Mis va bronza tabiatda yombi holida tarqalgan. Misni eritish  $t^{\circ}$  - 1084 S $^{\circ}$ , bronzaning erish  $t^{\circ}$  700-900 S $^{\circ}$  o'rtasida. Mis va qalayni birga qo'shib, qoliplarga quyishgan. Qoliplar toshdan qumtosh yoki toshtaxtachalardan iborat bo'lган.

Bronzaning kashf etilishi ibtidoiy jamoa ho'jaligida ro'y bergan buyuk madaniy xo'jalik ixtiro edi. Yangi metal xarbiy qurollarning turini ko'paytirdi, harbiy qurollarning xili va jangovarligi oshdi. Bronzadan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari ham paydo bo'lди. Ammo bronza mehnat qurollari ishlab chiqarish uchun nodir va kamchil metal bo'lib qolaveradi. U mehnat qurollari yasashda tosh xom ashvosini uzil-kesil siqib chiqara olmadi. Chunki dastlab bronzadan munchoqlar, uzuklar, to'g'nag'ichlar yasalgan. Ular asosan ziynat buyumlari edi. Bu davrda tosh qurollar ham ko'plab ishlatalgan. Tosh parrakchalardan keng foydalanilgan. Ammo bronzaning toshga nisbatan ustunlik tomonlari, ya'ni uning juda tez turli shaklga keltirilishi, turli ishlarda foydalanish mumkinligi, ko'p uchraydigan keskir va qattiq tosh qurollarni kamyobligi, mo'rtligi va tez sinishi kabi xususiyatiga ega bo'lgan (bronza) metal siqib chiqara olmagan.

Bu davrda bronzadan asosan turli bezaklar, uy-ro'zg'or va ho'jalik buyumlari, xarbiy qurol-aslahalar va mehnat qurollari yasaydigan maxsus temirchilik, chilangarlik va zargarlik ustaxonlari vujudga keldi. Hunarmandchilikning ixtisoslashuvi bilan mintaqalararo ayrboshlash kuchaydi. Kishilik jamiyatni tarixida birinchi marta muntazam mol ayrboshlash imkoniyati bevosita dehqonchilik va chorvachilikning bir-biridan ajralishi va hunarmandchilikning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

Bronza davri ho'jaliklari ho'jalik va ijtimoiy taraqqiyot darajalari bilan bir-biridan farq qilmasa-da, sopol buyumlarining xili, qabrlar qurilishi jihatidan bir-biridan farqlanadi.

Yevropadagi ibtidoiy davr qo'rg'onlarining deyarli hammasidan bo'yangan va bo'yalmagan skletlar topilgan. Skletlar yerda yonboshlab, oyoqlari bukilgan holatda yotishadi. Bu odat keng yoyilgan. Hatto Sharq, Markaziy Osiyo hududlarida ibtidoiy qabilalar tug'ilguncha odam ona qornida qanday holatda bo'lsa, o'lganidan keyin yer bag'rida shu taxlitda yotadi deb o'yaganlar. Arxeologlar tomonidan murdani bo'yab, bukchaytirib ko'mishning 3 davri ajratib o'r ganilgan:

1. Qadimgi chuqur, mozor-qo'rg'onlari (eneolit davriga mansub).
2. Katakomba mozor-qo'rg'onlari.
3. Yog'ochband mozor qo'rg'onlari.

Katakomba mozor-qo'rg'onlari go'rlari yon tomoniga o'yib qazilgan alohida lahad shaklidagi qabrlardir. Bu mozor qo'rg'onlardan bronza, mis-pichoqlar, to'g'nag'ichlar, bigiz, buyumlar topilgan. Katakomba mozor-qo'rg'onlarida tosh qurollar silliqlangan tosh boltalar va cho'qmorlar, chaqmoqtosh, nayza, o'q va pichoqlar, sopol idishlar ko'plab topilgan, bu sopol buyumlarning aksariyatini tagi tekis va hatto boshqa shakllari ham uchraydi.

**Katakomba davri** miloddan avvalgi III ming yillikning oxirlaridan II ming yillikning I-yarmigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Katakomba mozor-qo'rg'onlaridan erkaklar va ayollar murdalari topilgan. Ko'plab kollektiv qabrlar ham uchraydi.

Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida katakomba davri o'rniga yog'ochband davri keladi. Yog'ochband-yog'och qabr, MDH hududlarida, Shimoliy Yevropada ko'plab tarqalgan. Go'rlar-ning ichiga murdalar yog'och tobutda qo'yilgan. Shuning uchun ham bu qabrlar yog'ochband qabrlar deb ataladi.

**Yog'ochband davri** miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalariga to'g'ri keladi. Bu davrda dastali, teshikli boltalar keng tarqalgan. Dastlab ular Sharq mamlakatlaridagi yodgorliklardan topilgan. Yog'ochband davrida metallurgiya va chorvachilikning, rivojlanishi boyliklar to'planishiga va xarbiy to'qnashuvlarning kuchayishiga olib keladi. Jamiyatda moddiy boyliklarning ayrim kishilar qo'lida to'planishi jarayoni boshlanadi.

Bronza davriga oid bo'lgan qo'rg'onsiz qabrlar ham ko'p uchraydi. Unda murdalar kuydirilgan. Bunday xolat G'arbiy Yevropada so'nggi bronza davri uchun xarakterlidir.

Bronza (Jez) davri mozor-qo'rg'onlari o'rganilishi orqali bu davr haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lindi. Bu davr mozorlaridan «bo'yangan va bukchaytirilgan» skletlar ko'plab topilgan. Bu davrda kishilar murdalarga har xil rangdagi (ko'proq qizil, och qizil) tabiiy bo'yoqlar sephishtan. Qizil va och qizil rang – jon, tirlish, qon ramzi hisoblangan.

**«Bukchaytirilgan skletlar»** - murdalarmi yonboshlab, oyoqlari bukilgan holatda ko'milishi, odamning dunyoga kelishi, ibrido va intiho haqidagi tasavvurlarning inikosi sifatida, ona qornida va yer bag'rida bir holatda bo'lishini aks etirilishidir.

Yevropada bronza davri chorvador qabilalari o'ziga xos katta birliklarni tashkil etadi. Sopol buyumlarning shakli va naqshlari o'z birliklarga xos bo'lib, ular bir-birlaridan farq qilgan.

Masalan, Janubiy Shvetsiya, Daniya, Germaniya, Pol'sha, Chexiya, Frantsiya, Venetsiya, hududlarida, xatto MDH davlatlari territoriyalarida chilvir naqshli sopol buyumlar keng tarqalgan. Angliya, Frantsiya, Ispaniya, G'arbiy Germaniya hududlarida esa, oddiy, o'ziga xos shakldagi sopol buyumlar tarqalgan.

Yer yuzining ko'plab hududlaridan bronza (jez) davri yodgor-liklari topilgan. Arxeologlar ijtimoiy-iqtisodiy va maishiy munosa-batlarni yodgorliklardan topilgan moddiy topilmalarni o'rganish orqali tiklab, bronza davri kishilari hayoti va faoliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Sharqi O'rta yer dengizi bo'yalarida, xususan Falastinda bronza davrida shahar tipi markazlari paydo bo'lgan hunarmandchilik va mustahkamlangan manzillarning shakllanishi bilan ilk bronza davrida *kulolchilik charxi* paydo bo'ladi. Ushlagichli cho'zinchoq ko'zalar va turli shakldagi idishlar bronza davrida keng tarqaladi. Falastin yodgorliklarida bronza, mis, kumush metali keng ishlatilgan. Hatto milddan avvalgi III ming yillik oxirlarida kumush idishlar keng tarqalgan. Falastinda bronza davriga mansub kumush xazina topilgan. U 35 xil predmetdan iborat bo'lib, uning tarkibida turli buyumlar, idishlar, bezaklar bo'lgan. Bronza davri manzillari ko'pincha mudofaa devorlari, bilan o'ralgan, to'g'ri burchakli binolardan iborat bo'lgan. Bu davr shahar xarobalarining o'mni 2-4ga etadi va buyumlarning joylanishi, qurilishi shakli o'ziga xos reja asosida bo'lgan.

Falastin yodgorliklari mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, bu devorlarning eni 4,5 metrdan to 8 metrgacha bo'lgan. Masalan, Fara yodgorligi xarobasi devorlar bilan o'ralgan. Fara shahri xarobasi hisoblanadi. Shahardan ijtimoiy xarakterdagi binolarning qoldiqlari topilgan. Yuqori tabaqa uylari, mahalliy hukmdorlarning saroylari ham mavjud bo'lgan. Shahardan unga uzoq bo'lмаган joyda qabriston joylashgan. Bu erda (Ochiq Qabr) kollektiv qabrlar bo'lib, har bir qabrdagi 50-90 murdaning qoldig'i bo'lgan. Hatto, bir qabrga 300 kishi ko'milgan. Qabrlardan kulolchilik buyumlari (idishlar), zeb-ziynat va ayrimlaridan metal buyumlar topilgan.

Miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o'zgaradi. Bu davrga oid bo'lgan Iordan vohasidagi Xazor xarobasi 50 gani tashkil etadi. U poytaxt, ya'ni markaz vazifasini o'tagan. Xarobada ibodatxona qoldig'i va zadagon kishilarning uylari qoldiqlari topilgan. Ilk sinfiy munosabatlar mavjud bo'lganligini bildiruvchi topilmalar – yuqori tabaqa, oziq-ovqat omborlari o'rganilgan.

Kichik Osiyoda Qumtepa yodgorligi bronza davriga mansub bo'lib, u miloddan avvalgi III ming yillik bilan belgilanadi. Qumtepa yodgorligi tosh arxitekturasining ajoyib namunasi bo'lib, unda uylar poydevorigina emas, balki xonalar ham toshdan urilgan. Kichik Osiyoda bronza davriga oid bo'lgan Troya I, Termi manzilgohlaridan bronza qurollar topilgan va o'rganilgan.

Miloddan avvalgi III ming yillik oxirlarida hunarmandchilikni rivojlanishi shaharlarning gullab-yashnashiga sabab bo'lgan. Markaziy Osiyo shaharlari – Troya II, Polisxni V, Axlatenbel 1-2 ga maydonni tashkil etgan. Beyjesulton shahar xarobasining maydoni 24ga teng bo'lib, yodgorlik xarabalardan shahar xususiyatiga xos elementlar, hukmdor saroyi, ijtimoiy bino qoldiqlari topilgan va o'rganilgan.

Elamning bronza davri yodgorliklari – Eron hududida Suza kompleksi bo'lib, u miloddan avvalgi III ming yillikning birinchi yarmiga oiddir. Suza kompleksidan buqa, echki, baliq, . . . suratlari solingen kulolchilik buyumlari, bronza qurollar – bolta, xanjar, qadimgi Elam yozuvi aks ettirilgan plastinkalar topilgan.

MDH davlatlari hududida ham bronza davri yodgorliklari o'rganilgan. Janubiy Sibir' hududida bronza davri yodgorliklaridan eng qadimiysi Afanas'ev madaniyati bo'lib, u miloddan avvalgi III ming yillikka oid. Afanas'ev madaniyati Enisey (Enasoy) daryosi bo'yida joylashgan. Afanas'ev yodgorligidan qadimgi qabrlar o'mni topilgan. Bu qabrlar ustiga tosh taxlangan chuqr

qabrlar bo'lib, unga murdalar yonlab qo'yilgan. Ularning yonida oziq-ovqatlar, mehnat qurollari qoldiqlari saqlangan.

Miloddan avvalgi II ming yilliklarda G'arbiy Sibir' xududida Andronov madaniyati keng tarqalgan. Andronovo madaniyati tipi- Janubiy Sibir', Janubiy Ural, Qozog'iston shimoliy hududiga mosdir. Andronovo madaniyati qabrlar va makonlardan iborat bo'lган. Qabrlar – to'g'ri burchakli bo'lib, yog'och va tosh plitalar bilan yonlari mustahkamlangan. Andronovo madaniyatiga oid makonlarda metallurgiya, chovachilik, motiga dehqonchiligi rivojlangan. Ko'plab jez qurollar, don qoldiqlari topilgan.

**Andronovo madaniyati** bronza davri chorvador qabilalari madaniyati bo'lib, bu madaniyatga tegishli dastlabki yodgorlik o'tgan asning 20-yillarida Sibiryaning Achinsk shahri yaqinidagi Andronovo qishlog'idan topib o'rganilgani uchun shu nomni olgan. Bu madaniyatga tegishli jamoalarning ayrim guruhlari hatto o'z podasiga bo'sh yaylovlar qidirib miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida O'rta Osiyo hududlariga ham kirib keladi. Xorazmda va Farg'ona hududlarida o'z moddiy madaniyat izlarini qoldiradilar.

Kavkazning tabiiy sharoiti bronza davri xo'jaligi dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay bo'lganligi uchun ham bu yerda ko'plab qabilalar o'zlarining madaniyatini vujudga keltirgan. Kavkazorti madaniyati Old Osiyo madaniyatiga yaqin. Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarga oid makonlardan qadimgi sharq qurollari, qadimgi Ossuriya qilichlari kabi moddiy topilmalar topilgan. Kavkazortida Maykop, Trialet kabi mozor- qo'rg'onlar o'rganilgan.

Bronza davrida ibtidoiy jamiyat ho'jalik va madaniy taraqqiyoti yuqori darajada bo'lган. Bronza davri urug'chilik jamoasi xarobalari o'rnida dastlabki sinfiy jamiyat vujudga kelganligini ko'rsatuvchi dalillar arxeologlar tomonidan aniqlangan. Bronza davrida mulkiy tabaqalanish jarayoni natijasida ibtidoiy jamoa tuzumidan quzdorlik tuzumiga o'tish ro'y beradi. Bu jarayonlarni o'rganishda turli hududlarda topilgan bronza davri arxeologik manbalari katta ahamiyatga egadir.

Farg'ona vodiysida mil. avv. II ming yillik oxiri - I ming yillik boshlarida o'ziga xos Chust madaniyati shakllandi. Bugungi kungacha Farg'ona vodiysida Chust madaniyatiga mansub 70 dan ortiq yodgorliklar o'rganilgan. Bular jumlasiga Chust Dalvarzintepa, Ashqoltepa, Bo'ztepa, Chimboy va boshqalar kiradi. Chust madaniyati yodgorliklarining eng chekkalari bir-biridan 100 km masofada joylashganligi ushbu madaniyatni keng tarqalganligini ko'rsatadi.

Shimoliy Farg'onadagi Chust guruhiba Govasoy xavzasida Chust, Ko'ksaraksoy sohilida Qoraqo'rg'on, Kosonsoy vodiysida To'raqo'rg'on, Tergovchi I, II, Go'rmiron, Yoztepa yodgorliklari kiradi.

Sharqy Farg'ona guruhi yodgorliklari Dalvarzintepa guruhi deb nomlanib, ular Qoradaryoning so'l sohilida joylashgan. Mazkur guruhiba Dalvarzintepa, Ashqoltepa, Axshar va G'ayrattepa yodgorliklari kiradi.

Qoradaryoning o'ng qirg'g'ida joylashgan O'zgan guruhiba Dehqon, Chimboy, Qoraqo'chqor I va II, O'zgan, Qashqaterak, Do'nbuloq yodgorliklari kiradi.

Janubi-sharqiy Farg'onadan Sho'rtepa, Zarg'aldoqtepa, Manyak, Shaltoqtepa makonlari topilgan. Shuningdek, yuqorida guruhlarga kirmagan Chakan, Aqbarabod makonlari ham o'rganilgan. Asosiy yodgorliklar Farg'ona vodiysining sharqiy tumanlarida joylashganligi bu yerda dehqonchilikning yuksak rivojlanganligini ko'rsatadi. Topilgan moddiy ashyolar Chust davri madaniyati mil. avv. II-I ming yillik boshlariga tegishli ekanligini ko'rsatadi. Radiouglerod tahliliga ko'ra Dalvarzintepaning I davri mil.avv.  $1090 \pm 120$  yil, ikkinchi davri esa, mil.avv.  $760 \pm 120$  yildir. Chustning so'nggi davri mil. avv.  $280 \pm 75$  yilni o'z ichiga oladi.

Chust madaniyati yodgorliklari egallagan maydoniga ko'ra katta, kichik va o'rtacha hisoblanadi. Katta qishloqlarga maydoni 10 gettardan ortiq bo'lgan Dalvarzintepa, Ashqoltepa, o'rtachalariga Chust (4 gettar), Dehqon (5 gettarga yaqin) kiradi. Kichiklarining maydoni 1 gettar atrofida.

Chust yodgorligi tepalikda joylashgan bo'lib, maydoni  $210 \times 200$  metrni tashkil etadi. Madaniy qatlami 40 sm.dan 3,5 metrgacha bo'lib, 7 ta qatlamni tashkil etadi. Ikkiti turar-joy

paxsadan ko'rilgan, qolganlari esa, yerto'la ko'rinishida. Markazda 2 x 2,7 metr o'lchamda tuxumsimon turar-joy mavjud. Chust makoni mudofaa devorlari bilan o'rab olingan bo'lib, devorlarning qalinligi 7 metr, balandligi 3,5 metr, xom g'ishtdan qilingan.

Chust madaniyatining yirik yodgorligi Dalvarzintepa bo'lib, maydoni 25 gektarga yaqin, madaniy qatlaming qalinligi 1,6 metrdan 4 metrgacha boradi. Bu yerda turar-joylardan tashkari ko'plab xo'jalik uralari topilganki, ular don saqlash vazifasini bajargan. Asosiy qurilish ashysosi xom g'isht bo'lib, uning o'lchami 30 x 30 x 10 va 50 x 70 x 10 sm ni tashkil etgan. Dalvarzintepa mudofaa devori butun qishloq atrofini o'ragan bo'lsa, Chustda faqat shimoli-g'arb tomonni o'ragan. Kichik makonlar jumlasiga Chimboy makoni kirib u 500 m. kv. maydonni egallaydi. Uning madaniy qatlami 1 metr. Xom g'ishtdan qilingan devor va o'choq izlari topilgan. 16 ta xo'jalik o'ralari mavjud bo'lган. Qoradaryo vohasida Chust madaniyatiga oid 5 ta kichik makonlar topilgan. Bu yerda topilgan Qoraqo'chqor I 200 m. kv., Qoraquchqor II 700 m. kv. ga yaqin, 33-makon 1040-1400, 82-makon 2000 m. kv. maydonni egallagan.

Tog' qoyalarida O'sh atrofida Manyak makonlari joylashib, ularda madaniy qatlam 60-80 sm.ni tashkil qiladi. O'zgan, Do'nbuloq, G'ayrattepa makonlaridan Chust sopol idishlari topilgan.

Chust madaniyati turar-joylari paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. Turar-joylar o'lchami 9 x 7 m, 6 x 3 m, tor xonalar o'lchami 1,5 x 3 metrni tashkil etadi. Ashqoltepedan 3 ta xona topib o'rganilgan. Shuningdek, Chustdan yerto'lalar ham topilgan.

Dalvarzintepa va Chustdan bir necha qabrlar topilib, dafn marosimi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Murdalar bukchaytirilib, bir tomonga yonboshlatib ko'milgan. Ayrim murdalarda zo'rlik bilan o'ldirilganlik alomatlari uchraydi. Chust va Dalvarzintepadan topilgan ayrim odam suyaklari va bosh miya qopqog'i xo'jalik o'ralarida hayvon suyaklari ichida topilib, ularda gulxanda kuydirilganlik alomatlari uchraydi. Yuqoridagi ikki makonda bir necha bosh suyaklari to'p holatda saqlangan.

Chust madaniyati kabilalari uchun bronza eritishning rivojlanishi muhim o'rinnegallagan. Chust va Dalvarzintepada yumaloq ko'zgular yasash qoliplari topilgan. Hunarmandchilikda bronza o'roqlar yasalgan. Metallga ikkilamchi ishlov berish makon hududidagi ustaxonada amalga oshirilgan. Bronza qurollar tarkibida 5-7-% qalay, 5% rux aralashtirilgan.

Chust madaniyati qurollari kimyoviy tarkibi bilan O'rta Osiyoning boshqa hududlari qurollaridan farq qiladi. Bronzadan yasalgan mehnat qurollariga o'roq, pichoq, bigiz, igna va boshqalar, harbiy qurollarga o'q va nayza paykonlari, ot anjomlari, bezaklarga ko'zgu, bilakuzuk, uzuk va marjonlar kiradi. Hammasi bo'lib, Dalvarzintepadan 60 ta, Chustdan 80 ga yaqin metall buyumlar topilgan.

Farg'ona vodiysida bronza metalluriyasining keng rivojlanishi bilan ilk marta temirdan foydalanish ham boshlangan. Dalvarzintepadan temir pichoq siniqlari, temir rudasi qoldiqlari topilgan.

Tosh qurollar Chust qabilalari tomonidan keng qo'llanilgan, u barcha makonlarda ko'plab uchraydi. Dalvarzintepadan 1500 tosh qurol topilgan. Tosh qurollar xo'jalik va maishiy hayotda ko'p qo'llanilgan bo'lsada, u yordamchi xarakter kasb etgan. Yer ishslash uchun trapetsiya ko'rinishidagi motigalar topilgan. Dalvarzintepadan 400 ta o'roqsimon pichoqlar topilgan. Pichoqlarning o'rtacha o'lchami 15 x 4,2 x 0,8 sm.ni tashkil etgan. Bunday qurollar O'zbekiston janubidagi Kuchuktepedan ham topilgan. Chimboy, Tergovchi, Chust, Dalvarzintepadan oq va qora toshdan qilingan qurollar ham topilgan. Toshdan, shuningdek yorg'uchqolar, taqinchoqlar ham qilingan.

Ishlab chiqarishda suyak qurollar muhim o'rinnegallagan. Ayniqsa, to'qimachilikda va o'q uchlari yasashda suyakdan keng foydalanilgan.

Chust madaniyatiga oid sopol idishlar bir xilligi bilan ajralib turadi. Sopol idishlarning asosiy qismi qo'lda yasalgan. Lekin Chust va Dalvarzintepadan kulolchilik charxida yasalgan sopol buyumlar ham topilgan. Topilgan sopol idishlarning 73% qizil rangda, 18% jigarrang, 1,2% naqshli idishlardir. Bitta piyolada odam gavdasi qora rangga bo'yagan. Sopol idishlardan ko'zalar ham mavjud. Ayrim idishlarga tutqichlar ham qilingan.

Chust madaniyatning xo'jaligi dehqonchilik-chorvachilikni tashkil etgan. Dehqonchilik Farg'ona vodiysida Chust madaniyatidan oldingi davrda paydo bo'lган. Chust madaniyati davrida vodiy keng o'zlashtirilgan edi. Yirik makonlarning mavjudligi madaniy qatlamning qalinligi, moddiy madaniyatning yuqori darajasi dehqonchilik ancha rivojlanganligini ko'rsatadi. Ayrim faktlar sun'iy sug'orish ham bo'lганligini ko'rsatadi. Qadimgi dehqonlar bug'doy, arpa, tariq ekkanlar. Chustdan topilgan tariq urug'lari dehqonchilikda tariq ko'p ekkanligini ko'rsatdi.

Don va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash uchun o'ralar qazilib, ularda 200 kg dan 1 tonnagacha, katta o'ralarda 2 tonna va undan ko'proq ham don saqlanishi mumkin bo'lган. Donni bunday saqlash usuli faqat Farg'onaga xos bo'lib, bu usul bronza davrida Turkmaniston va Xorazmda mavjud bo'lмаган.

Dehqonchilikda yer haydash uchun yirik tosh motigalardan foydalanilgan. Shuningdek, bu sohada o'roqsimon pichoqlar, qo'l yorg'uchchoqlar topilgan. Ko'rinish turibdiki dehqonchilik qurollari kam saqlangan.

Chust madaniyati qabilalari xo'jaligida dehqonchilik bilan mahkam bog'langan yaylov chorvachiligi muhim o'r'in tutadi. Topilgan hayvon suyaklarining 40% ni qoramol va ot suyaklari tashkil etadi.

Yovvoyi hayvonlar suyaklari kam topilgan. Sayg'oq, qulon, jayron, yovvoyi cho'chqa, kiyik suyaklari, baliq suyaklari Chust va Dalvarzintepadan topilgan. Mazkur xo'jalik sohalari yordamchi xo'jalik hisoblangan.

Hunarmandchilik ham taraqqiy etgan. Bronza hunarmandchiligi uchun xom ashyo Farg'ona tog'laridan olingan. Aholining muhim mashg'ulotlaridan biri to'qimachilik bo'lib, uning xom ashyosi jun va tolali ekinlar bo'lган. Metall ishlab chiqarish ham rivojlangan sohalardan hisoblangan. Qurilish sohasi anchagina rivojlanganligini ko'rsatadi.

Shunday qilib mil.avv. II-I ming yilliklar bo'sag'asida Farg'ona yirik dehqonchilik madaniyati o'choqlaridan hisoblangan. U O'rta Osiyoning janubi-g'arbiy viloyatlari va Eron bilan tarixiy-madaniy aloqalar o'rnatdi. Farg'ona qabilalari yaylov chorvachiliga asoslangan Andronovo madaniyati qabilalari bilan ham aloqalar o'rnatgan. Lekin ular o'rtasidagi munosabatlar doimo tinch bo'lмаган va shuning uchun ham mudofaa devorlari qurilgan.

Mavjud antropologik materiallar aholining irqiy xususiyatlari haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Bu davrga mansub bosh suyaklari o'rganilganda ularning ko'pchiligi Yevropa irqining O'rta yer dengizi tarmog'iga mansubligi aniqlandi. Oz qismi esa, Yevropa va Andronovo irqiga mansubdir. Chust aholisi irqiy jihatdan janubiy O'rta Osiyo, Buxoro vohasi va qisman Xorazm aholisiga o'xhash bo'lган. Chust qabilalarning etnik va til xususiyatlari o'rganilmagan.

Farg'ona dehqonchilik qabilalarining ijtimoiy tuzumi urug'chilik tuzumining so'nggi davri bo'lib, ibridoiy munosabatlar yemirilayotgan vaqtga to'g'ri keladi.

Xo'jalik va moddiy madaniyatning rivojlanganligi bilan Chust madaniyati O'rta Osiyo janubidagi madaniyatga o'xhash bo'lган. Lekin Chust madaniyatida sun'iy sug'orish, hunarmandchilik, qal'alar qurilishi janub qabilalaridek rivojlanmagan edi. Shunday bo'lsada Chust madaniyati O'rta Osiyoning boshqa viloyatlari, Xorazmning Tozabogyob madaniyatiga nisbatan ancha yuqori rivojlangan edi.

So'nggi bronza davrida qabilalarning ko'chish jarayonlari bo'lib o'tadi. Bu jarayondan Farg'ona aholisi ham chetda qolmagan. Chust sopol idishlari Markaziy Eron, Markaziy Hindiston sopol idishlariga o'xshab ketadi. Chust madaniyatining rivojlangan madaniyati mil.avv. VIII-VII asrlarda tushkunlikka uchraydi va uning o'rniغا ilk temir davri keladi.

## MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

- 1. Bronza davri yutuqlari nimalardan iborat?**
- 2. Bronzadan qanday qurollar ishlab chiqarilgan?**
- 3. Sopolli madaniyati nechta bosqichda rivojlangan?**
- 4. Yevropa va Kavkaz hududlaridagi bronza davri yodgorliklarini sanab o'ting?**
- 5. Jarqo'ton yodgorligi haqida ma'lumot bering?**

- 6. Afanasev va Andronovo madaniyatları haqida ma'lumot bering?**
- 7. Chorvador qabilalar o'rta Osiyoning qaysi hududlarida istiqomat qilishgan?**
- 8. Zamonbobo madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ko'rsating?**

## **7-MAVZU: TEMIR DAVRI ARXEOLOGIYASI (2 SOAT)**

**REJA:**

1. Temir davriga umumiyl tavsif.
2. Urartu davlati madaniyati.
3. Ckif va sarmat qabilalari madaniyati.
4. Rossiya hududida ilk temir davri
5. O'rta Osiyo hududida so'nggi bronza va ilk temir davri madaniyatlarining rivojlanishi (Dahiston, Kopetdog', Yoztepa va Murg'ob vohalari, So'g'd, Choch va Ustrushona).

### **TAYANCH SO'ZLAR**

Temir metalli, ikkinchi mehnat taqsimoti, ayirboshlash va savdo aloqalari, ko'chmanchi chorvachilik, Xett podsholigi, Urartu podsholigi, skiflar, sarmatlar, mozor-qo'rg'onlar, temir davri yodgorliklari.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.
4. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – T., 1997.
5. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. – T., 1990.
6. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 1999.
7. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993.
8. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.
9. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004.
10. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osiyoning shaharlari tarixi. – T., 2006.
11. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. – T., 2008.
12. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
13. Археология Приаралья. – Т., Фан, 1984.
14. Афрасиаб. Вып. 1. – Т., Фан, 1969.
15. Афрасиаб. Вып. 2. – Т., Фан, 1974.
16. Воробьёва М.Г. Дингильдже – усадьба середины I тысячелетия до н.э. в древнем Хорезме. – М., Наука, 1973.
17. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Средняя Азия в раннем железном веке. Средняя Азия в античную эпоху // Археология СССР с древнейших времен до средневековья. Отв. ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985.
18. Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра / Отв. ред. Ю.Ф. Буряков. – Т., 1990.
19. Древний Мерв // Тр. ЮТАКЭ. Т.XIX. – Ашхабад, 1989.
20. Древняя и средневековая культура Чача. – Т., 1979.
21. Заднепетровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – М., 1962.
22. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Т., 2002.
23. Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган. – Т., Фан, 1984.

24. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.
25. Мокрынин В.П. По следам прошлого. – Фрунзе, Кыргызстан, 1986.
26. На среднеазиатских трассах Великого Шелкового пути. – Т., Фан, 1990.
27. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана V в. до н.э. - VI в. н.э. – Самарканда-Ташкент, 2000.

Metall bilan qadimgi odamlar neolit davridayoq tanish edi. Ammo metallurgiyaning kashf etilishi va murakkab metallurgiya ko'nikmasining o'zlashtirilishi keyingi davrlarda amalga oshdi.

Temir o'ziga xos metall. Uning xususiyatlari boshqa metallarga nisbatan afzalligini belgilaydi. Temir metali tabiatda ko'p uchraydi. Albatta, u tayyor shaklda emas, balki ma'dan shaklida keng tarqalgan edi. Temir ma'danidan ajratib quyuq holatda olingan va sandonlarda toblangan. Bizga ma'lumki bronza buyumlar suyuq holatda qoliplarga quyilar edi. Temirning erish temperaturasi  $1534^{\circ}\text{S}$  bo'lib, undan yasalgan jang va mehnat qurollari o'zining qattiqligi, o'tkirligi bilan avval mavjud bo'lgan qurollarga nisbatan ustuvor xususiyatlarga ega bo'lgan. Temirning yangi metall turi sifatida kashf etilishi o'z zamonasining moddiy madaniyatini o'zgartiribgina qolmay, texnika uchun yangi imkoniyatlar tug'dirdi. Keyingi ming yilliklarda yuz bergen ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar uchun zamin yaratdi.

Temir o'z sanasidan ko'ra ancha ilgari kashf etildi. Uning tantanasi uchun atigi bir necha asr kifoya qildi. Miloddan avvalgi II ming yillik oxirlarida temir hamma yerda noyob zeb-ziynat buyumlari sifatida mavjud edi. Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlaridan esa, u moddiy madaniyat dunyosida hukmron o'rinni oldi va bu o'rinni hozirgi kunda ham saqlamoqda.

Odamlar sof temir bilan dastlab tanishganlarida uning hali amaliy ahamiyati bo'lмаган. Gap shundaki, dastlabki tabiatdagi sof temir faqat meteoritlarda uchragan, nihoyatda kamyon bo'lganligi tufayli u ayrim mamlakatlarda ilohiyashtirilgan. Temirdan yasalgan qurollar mo'jiza sifatida qabul qilingan. Meteorit – temirdan ishlangan qurollar munchoqlar sifatida tarqalgan va eneolit, bronza, temir davrlariga mansub qabrlardan topilgan.

Temir haqidagi yozma ma'lumotlar Misr fir'avni bilan va Xett podshosining yozishmalarida berilgan. Fir'avnlar Amenoxotep III va Exnaton davrida temir haqidagi ilk yozma ma'lumotlar uchraydi. Fir'avn Tutanxamon qabrida temirdan yasalgan buyumlar uchraydi. Bularning deyarli barchasi g'oyat qimmatli zargarlik buyumlari bo'lgan.

Dastlabki temir Misr, Ikkidaryo oralig'i, Egey dengizi bo'yи dunyosida zeb-ziynatlar sifatida kashf qilingan.

Temir o'zidan oldingi metallarga nisbatan qattiqroq va o'tkirroq xususiyatga ega bo'lgan va yer yuzida ko'p tarqalgan. Lekin odamlar uni boshqa metallardan keyin o'zlashtirgan. Yozma manbalar va arxeologik ma'lumotlarga ko'ra temir metallurgiyasi Kichik Osiyo hududidagi Xett podsholigi territoriyasida mil. avv. XIV-XIII asrlarda vujudga kelgan. Mil. avv. X-IX asrlarda temir metali Hindiston va Eronda kashf etilgan. Mil. avv. IX-VIII asrlarda temirchilik Ossuriya va Urartu hududlarida ham keng tarqalgan.

Mil. avv. XIV asrda yasalgan temir buyumlarning hammasi g'oyat qimmatli badiiy zargarlik buyumlari hisoblanadi. Temir qurollardan ijtimoiy hayotda keng foydalanish, mehnat qurollari va qurol-yarog'lar sifatida ishlatish nisbatan kechroq amalga oshirilgan. Masalan, Italiyada temir miloddan avvalgi XII asrda, Sharqiy Yevropa, Skandinaviya mamlakatlarida mil. avv. X asrda paydo bo'lgan. Xitoyda esa, mil. avv. VI-V asrlarda temir buyumlari ishlab chiqarilgan. Temir qurollar esa, bu yerda miloddan avvalgi IX asrlarda ishlatila boshlanganligi manbalardan ma'lum.

Mil. avv. XIII asrlardan e'tiboran quidorlik davlatlarida temir bronza o'rnini egallaydi. Mil. avv. VII asrda Yevropada temir ko'proq qurol-yarog'lar sifatida ishlatilgan. Amerika, Avstraliya, Tinch okeani orollari, MDHning ayrim hududlari (uzoq shimol rayonlari) da temir mil. avv. XVII-XVI asrlarda ma'lum bo'lgan. «**Temir davri**» degan tushuncha arxeologiya faniga fransuz olimi **K.Tomsen** tomonidan XIX asrda kiritilgan.

Temir metalidan yasalgan quollarning keng tarqalishi iqtisodiy geografiyani mislsiz ravishda o'zgarishiga olib keladi. Chunki yer yuzining deyarli barcha nuqtasida temir ma'dani (rudasi) keng tarqalgan edi. Uni qazib olish va ma'dan (ruda) dan temirni ajratish ko'nikmasini rivojlanishi o'ziga xos ishlab chiqarish tarmog'ini shakllantiradi. Ilk temir davrida ishlab chiqarish 2 tarmoqqa bo'linadi:

Dehqonchilik – ilk temir davrida ishlab chiqarishning vujudga kelgan birinchi tarmog'i bo'lib, temir metalini ishlatalishi unda alohida o'rinni tutgan. Daraxtlarni kesish, yangi yerlarni ochish va boshqa ishlarda temir quollarning o'rni katta edi. Yer haydash quollari - so'qa, omoch tishlarining temirdan yasalishi ham mehnat unumdorligini bir necha marta oshishiga xizmat qilgan.

Ishlab chiqarishning ikkinchi tarmog'i hunarmandchilik bo'lib, ilk temir davrida u dehqonchilikdan ajralib, alohida ixtisoslikka aylanadi. Hunarmandchilik asosan temirchilik kasbidan boshlanadi. Neolit davrining eng katta yutuqlaridan biri kulolchilikning kashf etilishi edi. Ammo bu xo'jalik ixtirosi dehqonchilik doirasida rivojlanadi. Ilk temir metallurgiyasining ko'nikma sifatida o'zlashtirilishi va temirchilik kasbining shakllanishi bosqichida ham u dehqonchilik ho'jaligi bilan bog'liq holda edi. Shuning uchun ham kulolchilik temirchilikdan keyingi bosqichda kasb-hunar darajasiga erishdi. Temirchilik kasbining taraqqiysi temir buyumlarining ishlab chiqarishdagi tantanasini belgiladi. Xo'jalik hayotida yuqori unumdorlik darajasiga ega bo'lган temir quollardan foydalanish yo'lga qo'yiladi.

Ilk temir davrida dehqonchiik va hunarmandchilikni ishlab chiqarishning asosiy sohalariga aylanishi jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Iqtisodiy hayotda hunarmandchilik asosiy o'ringa chiqib, ayriboshlash uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Dastavall, unumdor xo'jalik va hunarmandchilik ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlanirdi. Hunarmandchilik mahsulotlari - kulolchilik va temirchilik buyumlari ayriboshlash uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlarga aylandi va tovar xarakterini ola boshladи. Chunki, bu davrda ishlab chiqarish imkoniyatlari shu darajaga yetdiki, bir kishining mehnatidan unadigan daromad uning bir o'zini boqishgagina emas, balki bir necha kishini ta'minlashga kifoya qila boshladи. Alohida hunarmandchilik markazlarining paydo bo'la boshlashi va ularning shahar hayotining iqtisodiy asosga aylanishi tufayli savdo munosabatlarini yo'lga qo'yish imkoniyati yaratildi. Ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarish savdo aloqalarini rivojlanishiga xizmat qildi.

Ilk temir davrida jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichga ko'tarilishi va mehnatning o'zgartiruvchilik mohiyati – dehqonchilik va hunarmandchilik ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'ldi. Temir quollarning ishlatalishi va undan mehnat quollari sifatida keng foydalanish ko'plab moddiy boyliklarni yaratilishiga olib keldi. Natijada ijtimoiy hayotda katta o'zgarishlar ro'y bera boshladи. Erkin jamoa xo'jaliklarida jamoa a'zolari orasida tabaqalanish jarayoni boshlanadi. Moddiy madaniyat yodgorliklarining o'rganish jarayonida mulkiy tengsizlik dastlab chorvador aholi orasida ko'zga tashlanganiligini ko'rsatadi.

Bu davrda o'troq chorvachilik o'rnini ko'chmanchi chorvachilik egallaydi. Chorvadorlarning tez-tez ko'chishi dehqonlarni notinchlik va xavf-xatarni oldini olish choralarini qidirishga majbur qiladi. Buning natijasida esa, mudofaa devorlari bilan o'ralgan dehqonchilik hududlari (qishloqlar, shaharlar) paydo bo'la boshlaydi.

Jamoa a'zolari o'rtasida mulkiy tengsizlikning paydo bo'lishi arafasida siyosiy hayotda ham o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Jamoani boshqarishda oqsoqollar kengashi katta o'rinni tutgan. Oqsoqollar kengashi qo'lida harbiy, diniy va dunyoviy hokimiyat bor edi. Jamoada moddiy boyliklar to'planishi va taqsimoti jarayonida ham albatta boylik dastlab oqsoqollar qo'lidan o'tar edi. Boylik avvalo jamoa oqsoqollar, harbiy boshliqlar, mo'tabar shaxslar qo'lida to'plangan (Moddiy boyliklarning to'planishi yo'llari: urug'lar o'rtasidagi urushlar, iqtisodiy jihatdan mustahkam va harbiy jihatdan kuchli jamoalar kuchsiz jamoalarni asir olishi, qul sifatida ishlatishi, unumdor yerlarni taqsimlanishi va hokazolar).

Urug', jamoa oqsoqollar avvallari jamoalarni, jamoa mulkini oson boshqarar edi. Boshqaruv tizimida halollik, fidoyilik va demokratiya printsiplari bor edi. Ammo sinfiy

tabaqalanish jarayoni kuchaygan sari jamiyatni boshqarish qiyinlashadi. Chunki boyliklarni taqsimlashda, jamoani boshqarishda demokratik printsiplar buzila boradi, adolatsizliklar kelib chiqadi. Natijada o’z-o’zini boshqarish tizimi buzilib, jamiyatni boshqarishning **harbiy demokratiya** davri boshlanadi (Topshiriq va buyruqlarning bajarilishi jamoa a’zolari uchun qonuniyligi).

**Urartu davlati** ilk temir davridagi yirik podsholiklardan biri bo’lgan. Urartu so’zi ossuriyicha bo’lib, urartcha – **Biaynili**, Bibliyada – Ararat podsholigi nomi bilan yuritilgan. G’arbiy Osiyodagi qadimgi davlat (**mil. avv. IX-VI asrlar**). Urartu davlati ravnaq topgan davrida Armanistonning tog’lik rayonlarini (hozirgi Armanistonning butun hududi, Turkiya va Eronning bir qismi) ni qamrab oлган. Aholisi asosan urartlar bo’lgan. Poytaxti – **Tushpa** shahri bo’lgan (hozirgi Turkiyadagi **Van shahri**) bo’lib, unda podsho **Sarduri I** davrida katta qurilish ishlari olib borilgan. Mil. avv. IX asr oxiri – VIII asr birinchi yarmida Urartu davlati ravnaq topgan. **Menuya, Argishti I** va **Sarduri II** podsholiklari davrida Urartuning hududi ancha kengaygan. Bosib olingan viloyatlarda qal’alar qurilgan (Ararat tog’ining shimoliy yon bag’rida **Menuaxinili** shahri; **Erebuni** – Yerevan atrofidagi **Arin-berd** tepaligi; Araksning so’l qirg’og’ida **Argishtixinili**). Urartuda qullar mehnatidan keng foydalanilgan.

Mil. avv. VIII asr o’rtasida Ossuriya podshosi **Tiglatpalasar III** (mil. avv. 745-727) Urartu qo’shinlarini bir necha marta mag’lubiyatga uchratgan va Urartu davlati tarkibiga kiruvchi **Shimoliy Mesopatamiya** va **Shimoliy Suriyani** egallagan. So’ngra **Rusa I** davrida **Sargon II** boshliq Ossuriya qo’shinlarining yurishlari natijasida mamlakat xonavayron bo’lgan. Biroq mil. avv. VII asrda Urartu Janubiy Zakavkazeda hali ham o’z mavqeini saqlab qolgan edi. **Rusa II** (mil. avv. 685-645) bu yerda yangi qal’alar bunyod etgan (jumladan **Teyshebaini**). Skif-kimmeriy yollanma qo’shini yordamida Urartu podsholari **Frigiya podsholigini** tor-mor qilganlar (mil. avv. 676 y.). Midiya podsholigining kuchayishi Urartuni Ossuriya bilan yaqinlashtirgan. Biroq mil. avv. VI asr boshida Urartu **Midiya** tomonidan tor-mor etilgan va uning tarkibiga qo’shib yuborilgan.

**Teyshebaini** Urartu davlatining yirik markazi (mil. avv. VII-VI asrlar) bo’lib, bugungi kunda **Yerevan** shahridagi **Karmir-Blur** tepaligida qal’a xarobalari sifatida saqlanib qolgan. Mahobatli inshoot qoldiqlari (150 ga yaqin xona – ustaxonalar, omborxonalar, don omborxonalari (750 t gacha don saqlangan), vino saqlanadigan yerto’lalar (8 ta) va b.) aniqlangan. Qal’a atrofida to’g’ri rejalahtirilgan shahar joylashgan. Teyshebainidan ko’plab qurol-aslahalar (jumladan Urartu podsholriga tegishli serbezak dubulg’alar, sadoqlar, qalqonlar, qilichlar va b.), san’at buyumlari, taqinchoqlar, mixxat yozuvlari, Teyshebaning bronzadan ishlangan haykalchasi topilgan. Mil. avv. **585 yilda Teyshebaini** mahalliy va skif qabilalari tomonidan vayron etilgan.

Teyshebainida olib borilgan tadqiqotlar jarayonida bug’doy, arpa, kunjut donlari topilganligi Urartu aholisining asosiy mashg’uloti dehqonchilik bo’lganligidan darakdir. Bog’dorchilik va uzumchilik ham xo’jalikning asosiy tarmoqlaridan bo’lgan. Qazishmalar jarayonida olcha, olma, behi, anor, uzum, yong’oq, shaftoli, shuningdek tarvuz urug’lari topilgan. Vino saqlanadigan 400 ta maxsus idishlar - **karaslar** (har birining sig’imi 800-1200 litr) topilgan.

**Erebuni** (Yerevan atrofidagi **Arin-berd tepaligi**) shahri xarobalarida olib borilgan tadqiqot ishlari jarayonida toshda o’yib yozilgan yozuv topiladi, unda: “**Xalda xudosi panohidagi Argishti, Menuaning o’g’li, bu qal’ani qudirib, shaharga Erebuni nomini berib, Biayna (Urartu) va boshqa mamlakatlardagi shaharlardanda mustahkam. Shahar o’rnida avval hech nima yo’q edi, men bu yerda Xate va Supanidan 6600 askar olib keltirib uni bunyod ettirdim**”, deb yozilgan.

Qadimgi urart tilidagi Erebuni hozirgi Yerevan nomi bilan bog’liq bo’lib, Armaniston poytaxtining yadroso sifatida qadimgi shaharlardan biri hisoblanadi.

**Erebuni** shahri xarobalarida olib borilgan qazuv ishlari jarayonida asosi tog’ toshlari va xom g’ishtdan qilingan mustahkam mudofaa devorlari bilan o’ralgan qal’a (5 m balandlikda saqlanib qolgan) ochib o’rganilgan. Yuqorida qayd etilgan toshdagи yozuv qal’aga kirish qismida saqlanib qolgan, bundan tashqari yana **21 ta** qal’adagi saroy, ibodatxona va boshqa binolarning

qurilishi bilan bog'liq ma'lumotlardan iborat **mixxat yozuvlari** topilgan. Qazuv ishlari davomida saroy va ibodatxonadagi zallarda ossuriy uslubdagi to'rt xil rangdan iborat suratlar chizilganligi aniqlandi.

Shaharning urartu davriga oid madaniy qatlami nihoyatda yomon saqlangan. Shunday bo'lsa-da, qazuv ishlari natijasida ko'plab kulolchilik charxida tayyorlangan sopol idishlari va ularning parchalarini, vino saqlanadigan katta sopol idishlar, ossuriy uslubida yasalgan urart muhrlari, turli xil bronzadan qilingan taqinchoqlar, aqiq, ferauza va shishadan qilingan munchoqlar topilgan.

**Arin-berdda** olib borilgan tadqiqotlar davomida **yuzdan ortiq** bronzadan ishlangan skif kamon o'qlariga o'xshash o'qlar topilgan, shuningdek temirdan yasalgan turli hajmdagi o'qlar ham uchraydi. **Erebunidan** topilgan kamon o'qlari qo'shni **Teyshbainidagidan** nisbatan qadimiyroqdir.

Agar shaharga asos solingan yilni qadimgi mixxatdagi ma'lumotlardan kelib chiqib **mil. avv. 782 yil** deb hisoblasak, unda **Yerevan** shahrining yoshi **2750 yil**, ya'ni **mil. avv. 754 yilda** asos solingan **Rim** shahridan ham katta.

Urartu davlatida amal qilgan **urart tili** bugungi kunda **o'lik til** hisoblanib, mil. avv. IX-VI asrlarga mansub o'yma yozuvlar (mixxat) orqali ma'lum. Hozirgi **Van ko'li** atrofida, sharqroqda **Urmiya ko'ligacha**, qisman **Armaniston Respublikasi** hududida tarqalgan. Yozuvi akkad mixxatining soddalashtirilgan tizimidan iborat bo'lib, **16-17 undosh** va **4 ta unlini** farqlash mumkin. Urartu tilida yozilgan ko'plab yodnomalar (**500 dan ortiq**) dastlab XIX asrning 20-yillarda **nemis arxeologlari** tomonidan Van ko'li (Turkiya) atrofidan topilgan.

Bronza davrining so'nggi bosqichlarida yashagan ko'chmanchi kimmeriyalar haqidagi ma'lumotlar ilk marta mil. avv. 8 asrga mansub Bibliya kitobi va "Odisseya" dostonida tilga olib o'tiladi. Shuningdek ularning harbiy yurishlari haqidgi ma'lumotlar mil. avv. 8-7 asrlardagi Ossuriya-Bobil mixxat yozuvlarida ham uchraydi. Kimmeriyarning harbiy yurishlari natijasida ular juda katta - Zakavkazeden Kichik Osiyogacha bo'lgan hududni o'zlariga bo'ysundirganlar. Mil. avv. 7 asrning birinchi yarmida ular Urartuga hujum qilib uni yakson qiladilar.

Ilk ko'chmanchi chorvadorlarni urf-odati tarqagan hududlari to'g'risida yunon tarixchilari ancha batafsil ma'lumot beradi. Bunday xalqlarning eng qadimgilari va yozma manbalarida saqlanganlaridan biri kimmeriyardir. Gerodot asarlarida bu aholini skiflarga bo'lgan davrda Qora dengiz bo'yi hududlarida yashaganliklari to'g'risida ma'lumotlar bor. Gerodot skiflar to'g'risida ham ma'lumot berib, ularni ko'proq ot va aravada yurishlari, hatto ayrimlari o'troq hayot kechirishlari, ularning juda ham jangavor xalq ekanliklari to'g'risida xabar beradi. Skiflarni juda katta xalq ekanligi, ularni O'rta Osiyo hududlarida tarqalgan qismini saklar deb atalishi alohida uqtiriladi.

Saklarni yoki skiflarni asosan ko'chmanchi-chorvachilik qilib kun ko'rganliklari bois ulardan doimiy turar-joy makonlari qolmagan. Shuning uchun ularning hayotini, yashash tarzini faqat mozor-qo'rg'onlarni o'rganibgina bilish mumkin.

Shuning uchun fanda butun boshli "skiflar davri arxeologiyasi" degan soha ajrab chiqqan. Skif va saklarni mozor-qo'rg'onlarni o'rganish XX asrning boshlaridayoq boshlangan. Ayniqsa O'rta Osiyo saklarini arxeologik jihatdan o'rganish XX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida ancha taraqqiy etdi.

Chorvachilik bilan shug'ullangan ko'chmanchi qabilalar Avestoda turlar, yunon tarixchilarining asarlarida skiflar va massagetlar, ahamoniylar davri yozuvlarida esa, ular saklar nomi bilan eslatiladi.

O'rta Osyoning dasht va tog'li hududlarida yashagan saklarning yodgorliklari Quiy Zarafshon, Amudaryo, Orolbo'yi, Pomir va Tyan-Shan tog'larida topib o'rganilgan. Ular asosan mozor-qo'rg'onlardan iborat. Topilmalar bronza va temirdan ishlangan harbiy qurollar, zeb-ziynat buyumlari, mehnat qurollari va sopol idishlar uchraydi.

Saklarning mozor-qo'rg'onlarda ot anjomlari uchraydi. Gerodotning ma'lumotlariga ko'ra saklarning xo'jaligida yilqichilik asosiy o'rinn tutgan. Qadimgi Yunon va Rim

tarixchilarining asarlarida saklarni uch guruhi keltirilgan. Ularning ko'pchiligin saka-tigraxauda, ya'ni o'tkir uchlari kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar. Ular Toshkent viloyati va Janubiy Qozog'iston viloyatlarida yashashgan. Saka-tiay-tara-daraya, ya'ni daryo orti saklari. Ular Sirdaryoning quyi oqimi va daryo bo'yalarida yashaganlar. Uchinchi guruh saklar Pomir tog'lari va Farg'ona vodiysida yashab, saka-xoumovarka deb atalganlar.

**Tagisken mozor qo'rg'oni.** Bu mozor to'rtburchak va xalqasimon qo'rg'on shaklida. Ular ilk va so'nggi davrga oid ikki guruh qabrlardan iborat. Birinchi guruh qabrlar (mil.av. IX-VIII asrlar) xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, ko'rinishdan qabila oqsoqoliga tegishli bo'lgan. Marhum oltin va bronzadan ishlangan zeb-ziyat buyumlari, bronza paykonlari, qo'lida va kulolchilik charxida qilingan sopol idishlari bilan qo'yilgan. So'nggi davrga (mil.av. VII asrlar) oid ikkinchi guruh qabrlarda ham ko'pgina topilmalar uchraydi. Ularning ichida sarmatlarnikiga o'xshash qurollar, ot anjomlari, yirtqich hayvon shaklidagi topilmalar mavjud. Sarmatlar bilan yaqin aloqada bo'lganligidan dalolat beradi. Tagisken mozor-qo'rg'oni saklarga tegishli bo'lgan.

Sirdaryoning quyi oqimida qadimgi Inkar daryosining bo'yida Uygarak qabristoni topilgan bo'lib, u xalqa shaklida. Kichik mozor-qo'rg'onlardagi oddiy qabrlarda bronzadan yasalgan o'q uchlari, sopoldan yasalgan idishlar uchraydi. Katta mozor-qo'rg'onlardagi sak urug' va qabila boshliqlarining qabrlarida qurol-yarog' anjomlari, zeb-ziyat buyumlari topilgan.

Tomdi va Alichur mozor-qo'rg'onlari (VI-IV asrlar). Sharqi Pomirdagi Alichur, Tomdi mozor-qo'rg'onlaridan temirdan yasalgan harbiy qurollar: qilichlar, harbiy boltalar, xanjarlar, bronzadan yasalgan o'qlar topilgan. O'qlar bargsimon, ikki yoki uch qirrali. Bu davrda o'qlar bronzadan tashqari temirdan ham yasalgan. Bronzadan zeb-ziyat buyumlari hamda dumaloq tagli idishlari ham mavjud.

Saklarning ot anjomlari va jangavor qurollari skiflarnikiga o'xshash bronzadan yasalgan san'at buyumlarida ham katta o'xshashlik bor. Ular bir-birlari bilan doimiy madaniy aloqada bo'lganlar.

Ko'chmanchilarning uylari yerto'la va chaylasimon shaklda bo'lgan. Ular chorva izidan doimo ko'chib yurganliklari tufayli doimiy o'troq hayot ular uchun muhim rol o'ynamagan.

Ko'chmanchi sak qabilalarining mozor qo'rg'onlaridagi moddiy topilmalarga ko'ra ularda mulkiy tengsizlik mavjud bo'lgan. Lekin ularda qachon sinfiy jamiyat paydo bo'lganligi noaniq. Olimlarning fikriga ko'ra mil.il. VII-VI asrlarda ko'chmanchilar orasida harbiy-siyosiy qabila uyushmalari mavjud bo'lgan.

Saklarning kelib chiqishi to'g'risida fanda anchagina murakkab bo'lgan tortishuvlar mavjud. Bu qabilalarining tarqalish hududi yuqorida eslatilgani kabi ancha katta hududlarni egallaydi. Lekin, hamma gap shunda-ki, saklar tarqalgan hududlarda kelib chiqishi jihatidan turli etnik guruhlarga kiruvchi qabilalarni hayot kechirganligini aniqlash mumkin. Ularning hammasida asosan bitta arxeologik kompleks tarqalganligini hisobga oladigan bo'lsak, ularning nomini ham andronova madaniyati sohiblari deb aytish mumkin.

Andronova madaniyati sohiblari bronza davrining oxirida Ural tog'laridan sharqda Oltoygacha, janubda Qozog'iston va O'rta Osiyoning janubiy qismlarigacha bo'lgan hududlarida yashagan chorvador qabilalar edi. Deyarli xuddi o'sha hududda keyinroq ko'chmanchi sak qabilalarining jamoalarini keng tarqalganligini ko'rish mumkin. Aynan shu hududlarda yashagan chorvador aholi – Andronova madaniyati sohiblarini xo'jalik yuritish uslubini ko'chib yurib chorva mollarini boqib kun ko'radigan qabilalarga aylanganligidan bilsa bo'ladi. Bu fikrimizning yaqqol dalili Sirdaryoning quyi oqimlari va Orolbo'yida yashagan qadimgi Andronova madaniyati sohiblarining mozor qo'rg'onlarini yonida ko'plab miloddan ilgarigi VI-V asrlarga oid mozor-qo'rg'onlarni paydo bo'lganligini ko'rish mumkin.

Bu fikrimizni Pomir tog'laridan topilgan saklar davriga oid mozor-qo'rg'onlar yaqinida Andronova madaniyati sohiblarining mozorlarini yo'qligi va buning ustiga ko'mish marosimining urf-odatlari boshqa hududlarnikidan tubdan farq qiladi. O'likni g'ujanak, ya'ni o'ng va chap yonboshida ona qornida yotganday qilib ko'mish odati bu qabilalarni kelib-

chiqishini ko'proq sopolli madaniyati yoki yanada janubiy hududlar bilan bog'lanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Xuddi shunday mozor-qo'rg'onlar Samarqand Sug'dining g'arbiy chekkalari, vohaning dasht hududlari bilan chegara rayonlarida ko'plab uchraganligini alohida aytib o'tish kerak.

Sak qabilalari qabrlarining eng xarakterli xususiyati qabrlarning yer yuzasiga joylashganligi va shaklini uyni shakliga o'xshatib qurilganligidir. Shu bilan birga qabrni qazishdan ilgari uyning shaklini berib turib keyin esa,, yo ajratilgan uyni markaziy qismiga o'lik qo'yilgan yoki uncha chuqur bo'limgan chuqurga qo'yilgan. Bunday urf-odat va an'ana faqat bitta hududda juda ko'p vaqtlardan buyon davom etib kelayotgan an'anani davom etganligidan dalolat beradi.

Sug'dning g'arbiy qismlaridagi saklarning Xorazm, Orolbo'y'i va Sirdaryoning quyi oqimlaridagi sak qabilalaridan farqi shunda-ki, quyi Sirdaryodagi qabilalar yuqorida aytilganiday uyga o'xshatib qurilgan mozorning markaziga, yer yuzasiga qo'yilmay, balki unchalik chuqur bo'limgan lahatga qo'yishgan. Lekin, bunday urf-odat bilan ko'mish odati "Samarqand yoki Buxoro Sug'dining chorvador aholisi sak qabilalari emas edi" degan fikrni bermaydi, balki bu hududning urf-odatlaridagi o'ziga xos xususiyatlaridan darak beradi.

O'rta Osiyoda temirdan ishlangan dastlabki, mehnat qurollari miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga mansub bo'lgan yodgorliklardan topilgan. Ammo aksariyat buyumlar miloddan avvalgi VII-VI asrlarga oiddir. O'rta Osiyoda ilk temir davri miloddan avvalgi I ming yillik bilan belgilanadi. **Anov, Dalvarzin, Daratepa, Quyisoy** kabi o'nlab yodgorliklar Turkmaniston Respublikasining janubiy, O'zbekistonning Qashqadaryo va Zarafshon vohasi, Farg'ona vodiysi hamda Toshkent va Xorazm viloyatlari hududlarida o'rganilgan.

Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlariga oid yodgorliklardan 46 tasi Janubiy Turkmaniston hududlaridan topilgan. **Anov, Yoztepa, Yelkantepa, Uchtepa, Cho'rnoq** kabi qadimgi qishloq xarobalaridagi madaniy qatlamlar temir asriga mansubdir. Temir asri yodgorliklaridan biri Yoztepa bo'lib, uning quyi qatlamini Yoz I miloddan avvalgi 900-650 yil bilan sanalanadi. Ushbu davrda yodgorlik 16 ga maydonni egallagan qishloq turar joylaridan va to'g'ri burchakli katta imorat-qo'rg'onidan iborat bo'lgan. Qo'rg'on o'rnida 8 m keladigan xom g'ishtli sahn ustiga qurilgan saroy qoldiqlari topilgan. Xonalar uzun va to'rburchak shaklda bo'lgan. Yoz I davri sopol idishlarining ko'pchiligi qo'lda yasalgan. Idishlar sariq angob bilan bo'yalgan va angob ustidan jigarrang va qizil bo'yoq bilan geometrik shaklli naqsh solingan. O'zbekiston hududida ham ilk temir davriga oid bo'lgan ko'plab yodgorliklar topilgan. **Afrosiyob, Daratepa, Ko'zaliqir, Uygarak, Chust, Dalvarzin, Oqtom, Kuchuktepa, Yerqo'rg'on, Sangirtepa** yodgorliklari shu davrga mansubdir.

**Kuchuktepa** Surhondaryo viloyati hududidan, Termiz shahridan 70 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, u miloddan avvalgi 1000-750 yillarda tepalik ustiga qurilgan qo'rg'onchaning xarobasidir. Arxeologlarning fikricha, qo'rg'on mudofaa devorlari bilan o'ralgan 6 ta uy-joy va ro'zg'or xonalaridan iborat. Kuchuk I madaniy qatlamlaridan sopol idishlarning qoldiqlari topilgan bo'lib, ular ikki guruhg'a bo'linadi. Kulolchilik charxida ishlangan idishlar-kosasimon, tuvaksimon va xumsimon naqshsiz idishlardir. Qo'lda ishlangan idishlar-rangli egri chiziqlar va uchburchak geometrik naqshlar bilan bezatilgan buyumlardir. Kulolchilik buyumlarining deyarli barchasining tagi yassi bo'lgan. Don saqlash uchun xumchasimon idishlar va tovoq, kosa, piyola shaklida kichik sopol buyumlaridan keng foydalanilgan.

Miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlarida va miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida Farg'ona vodiysida **Chust madaniyati** Qadimgi Farg'onadagi ilk dehqonchilik madaniyati bo'lib, bobodehqonlarning dastlabki qishlog'i 1951 yilda arxeolog **M.Ye.Voronev** tomonidan Chust shahri yaqnidagi Buvanamozor deb atalgan buloq yoqasidan topib o'rganiladi. Bu madaniyatga tegishli bo'lgan yodgorliklar Namangan, Andijon, Farg'ona viloyatlarida 70 dan ortiq bo'lib, ulardan 10 ga yaqini arxeologlar **V.Sprishevskiy, B.Matboboev, Yu.Zadneprovskiy** tomonidan tadqiq etilgan.

Chust madaniyatini yaratgan dehqonlar yerto’la, paxsa va xom g’ishdan qurilgan uylarda yashagan. Chust qishloqlari atrofi mudofaa devorlari bilan o’ralgan. Chustda xom g’ishdan ishlangan devorlarning qalnligi 3 m, balandligi 3,5 metrga teng bo’lgan. Chust madaniyatiga mansub bo’lgan Dalvarzintepa yodgorligida mudofaa devorining qoldig’i qazib olingan. Uning eni 4,6 m, balandligi 2,5 m ni tashkil etadi.

Chust madaniyatiga mansub bo’lgan yodgorliklardan tosh va jez o’roqlar, pichoqlar, tosh yorg’uchqolar hamda arpa, bug’doy, tariq donlari va ular uchun kovlangan o’ralarning topilishi aholining asosan dehqonchilik bilan shug’ullanganligidan guvohlik beradi.

Chust madaniyatida metall bilan bog’liq hunarmandchilik rivojlangan. Ot uzangilari va suvlig’i, oyna, bilaguzuk, sirg’a, qarmoq va hokazolar keng tarqalgan. Kulolchilik sohasi ham taraqqiy topadi. Idishlar qo’lda yasalgan va sirlangan. Sopol idishlar uy xo’jaligida ishlatilgan qozon, xumcha, ko’za, tovoqlar bo’lib, ularga gul va geometrik chiziqlar chizilgan. Chust aholisi hayotida to’qimachilik rivojlangan. To’qimachilik dastgohiga tegishli urchuq toshlar, moki va suyak taroqlar barcha makonlardan topiladi.

Hozirgi Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlari hududlarida So’g’diyona deb nomlangan qadimgi dehqonchilik madaniyati markazi shakllandi. Uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar bilan bog’liq holda miloddan avvalgi 2,5 ming yillar ilgari (miloddan avvalgi I ming yilliklar o’rtalarida) Markaziy So’g’dda Samarqand shahri - **Afrosiyob** qad ko’taradi. Afrosiyob afsonaviy shaxs bo’lib, rivoyatlarga qaraganda Samarqand shahriga asos solgan pahlavondir.

Afrosiyob yodgorligining ilk qatlamlaridan Chust madaniyati tipiga oid sopol parchalari topilgan. Shuningdek, miloddan avvalgi VI asrga mansub mudofaa devorlarining qoldiqlari o’rganiladi.

Qashqadaryo viloyati (janubiy So’g’diyona) hududlaridan ilk temir davriga mansub bo’lgan **Yerqo’rg’on**, **Daratepa**, **Uzunqir**, **Qo’rg’oncha** singari yodgorliklar o’rganilgan. Yodgorliklardan xom g’ishtdan va paxsadan qurilgan bino qoldiqlari, metall qurollar, hunarmandchilik buyumlari topilgan.

Surhondaryo viloyatida (Baqtriyaning shimoli) **Qiziltepa**, **Kuchuktepa**, **Talashgantepa**, **Bandixontep**a singari yodgorliklar topilgan. Ilk temir davriga mansub bo’lgan yodgorliklarda arxitektura va qurilish texnikasi, hunarmandchilik rivojlanganligini ko’rsatuvchi moddiy topilmalar o’rganilgan.

Toshkent viloyatida ilk temir davri yodgorliklari Burgulik madaniyatiga aylangan. 1940 yilda arxeolog A.Terenojkin “**Burgulik madaniyati**” ga mansub bo’lgan makonlarni o’rganishni boshlaydi. Burgulik madaniyati miloddan avvalgi VI-IV asrlar bilan belgilanadi. 1972 yilda arxeolog X.Duke chorvachilik va dehqonchilik bilan shug’ullangan qabilalarining 14 ta qishloq va 60 dan ortiq yerto’la va yarim yerto’la shaklidagi kulbalarni o’rganadi. Bu makonlardan yorg’o’choqlar, tosh o’g’ir, o’g’ir sopları, tagi yassi qilib ishlangan kosalar, tuvakchalar, surmachalar, qulqoli sopol qozonlar topilgan.

Xorazmda ilk temir davriga oid Ko’zaliqir, Quysisoy, Uygarak, Dingilja kabi ko’plab yodgorliklar mavjud bo’lib, ular miloddan avvalgi VII-V asrlarga mansubdir.

O’rta Osiyoning dasht va tog’li rayonlarida yashagan ko’chmanchi chorvador sak qabilalarining izlari ilk temir davri yodgorliklarida muhrlanib qolgan. Bunday yodgorliklar Pomir, Tyanshan, Zarafshon, Amudaryo, Orol dengizi atroflarida topilgan bo’lib, ular asosan mozor-qo’rg’onlardir. Saklarning mozor-qo’rg’onlarida ot anjomlari topiladi. Shuningdek, topilmalar orasida bronza va temirdan ishlangan harbiy qurollar, zeb-ziynat buyumlari, mehnat qurollari va sopol idishlar uchraydi. Quyi Sirdaryo irmog’i bo’lgan Inkordaryo bo’yida **Uygarak qabristoni** topilgan. Yodgorlik xalqa shaklida bo’lib, uning balandligi 1,5-2,0 m, diametri 27-40 m keladi. Kichik mozor qo’rg’onlardagi oddiy qabrlarda sopol idishlar va bronza o’q uchlari uchraydi. Katta mozor-qo’rg’onlardagi saklar va qabila boshliqlarining qabrlarida yarog’-aslaha, ot anjomlari va zeb-ziynat buyumlari topiladi.

Saklarning shahar xarobalari topilmagan. Ko’chmanchilarning uy-joylari yerto’la, chaylasimon uylardan iborat bo’lgan.

Arxeolog olimlarning fikricha, mil.avv. VII-VI asrlarda ko'chmanchilar orasida harbiy-siyosiy qabila uyushmalari vujudga kelgan. Ko'chmanchi qabilalar tarixini o'rganishda **Tagiskent** maqbaralarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Maqbara mil.avv. IX-VII asrlarga mansub bo'lib, Sirdaryoning quyi oqimi bo'ylaridan topilgan. Ular xom g'ishtdan bino qilingan, to'rt burchak, xalqasimon maqbaralardir.

O'rta Osiyo hududlarida yashagan ilk temir davri qabilalarining moddiy madaniyati Baqtriya, Marg'iyona va So'g'diyona yerlarida topib tekshirilgan. Ularning soni 350 tadan ortiq.

Sak qabilalarining makonlaridan topilgan ot anjomlari, o'qlar, xanjarlar, Sharqiy Yevropa va Osiyo dashtlarida yashagan skif quro'l-aslahalariga o'xshaydi. Yunon tarixchisi Gerodot mil. Avv. V asrdagi skiflar hayoti haqida ma'lumotlar beradi.

O'rta Osiyoning ilk temir davri qadimiy viloyatlaridagi jamiyat to'g'risida muhim yozma manbalar - Avesto, Ahmoniylar davri yozma yodgorliklari va yunon tarixshunoslari hikoya qiladi.

«Avesto» (sharqiy Eron tillaridan «Asos» deb tarjima qilinadi) Zardo'sht (Zaratushtra) dinidagi xalqlarning shariyat qonunlari majmuidir. Avesto ma'lumotlariga ko'ra ushbu davr qabilalari birlashmasi viloyat («daxiyu») bo'lган, urug' jamoasi - «vis», ayrim oilalardan - «nmana» dan tashkil topgan. Aholi kohinlar, jangchilar, dehqonlar va chorvadorlar toifasiga bo'lingan.

Ahamoniylar davridagi (m.av. VI-IV asrlar) mixsimon yozuvlar **Behistun** va **Naqshi Rustam** qoyatoshlarida, Suza, Hamadon, Persepol shaharlarida topib tekshirilgan. Ular qadimgi fors tilidagi turli ijtimoiy, siyosiy, diniy masalalarga doir podsho buyruqlaridan va nutqlaridan iborat. Ahmoniylar yozmalarida O'rta Osiyo xalqlari va viloyatlari to'g'risida ma'lumotlar bor.

Qadimgi yunon tarixchilari Gerodot va Ktesiy asarlari O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy va geografik qiyofasini ko'rsatib bergan.

Ilk temir davri moddiy-madaniyat yodgorliklarining o'rganilishi bu davrda O'rta Osiyo xalqlari hayotida katta ijtimoiy, ho'jalik va madaniy o'zgarishlar sodir bo'lganligidan dalolat beradi.

### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Nima sababdan temirni ilohiylashtirganlar?
2. Xo'jalikda temir buyumlarining asosiy o'rin egallashi sabablarini aniqlang?
3. Ikkinchchi mehnat taqsimoti jamiyatda qanday o'zgarishlarga olib keldi?
4. Kuchuktepa yodgorligi necha bosqichda rivojlangan?
5. Skiflar to'g'risida qaerlarda ma'lumotlar saqlanib qolgan?
6. Amirobod aholisi nima bilan shug'ullangan?
7. Rossiya hududida qanday yodgorliklar bo'lgan?
8. Chust madaniyati izlari qaerlardan topilgan?
9. Elatan madaniyati qaysi madaniyat asosida shakllangan?

### 8-MAVZU: ANTIK DAVRI ARXEEOLOGIYASI (2 SOAT)

#### REJA:

1. Antik davr haqida umumiyyat ma'lumot.
2. Shimoliy Qora dengiz hududidagi antik davr davlatlari.
3. O'rta Osiyoda markazlashgan davlatlarning tashkil topishi (Parfiya, Marg'iyona, Xorazm, Baqtriya, So'g'd).

#### TAYANCH SO'ZLAR

Antik davr, Yunon-Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Davan (Farg'on) davlatlari moddiy madaniyati, Dalvarzintepa, Tuproqqa'l'a yodgorliklari, haykaltaroshlik, amaliy va tasviriy san'at.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Т., 1998.
3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – Т., 1999.
4. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Т., 1997.
5. Buryakov Yu.F. Toshkent vohasining qadimgi karvon yo'llari. – Т., Fan, 1978.
6. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – Т., 1993.
7. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – Т., 1990.
8. Muhammadjonov A.R. Qadimgi Buxoro. – Т., 1990.
9. Muhammadjonov A.R. Qadimgi Toshkent. – Т., 1990.
10. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Т., 2004.
11. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osiyoning shaharlari tarixi. – Т., 2006.
12. Eshov B.J. So'g'diyona tarixidan lavhalar (Mil. avv. VII-IV asrlar). – Т., Universitet, 2002.
13. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. – Т., 2008.
14. Pidayev Sh. Sirli Kushonlar sultanati. – Т., 1990.
15. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
16. Археология Приаралья. – Т., Фан, 1984.
17. Афрасиаб. Вып. 1. – Т., Фан, 1969.
18. Афрасиаб. Вып. 2. – Т., Фан, 1974.
19. Буддийские пещеры Кара-тепе в Старом Термезе. – М., 1969.
20. Буддийские памятники Кара-тепе в Старом Термезе. – М., 1982.
21. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Т., Фан, 1979.
22. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Средняя Азия в раннем железном веке. Средняя Азия в античную эпоху // Археология СССР с древнейших времен до средневековья. Отв. ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985.
23. Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра / Отв. ред. Ю.Ф. Буряков. – Т., 1990.
24. Древний Мерв // Тр. ЙОТАКЭ. Т.XIX. – Ашхабад, 1989.
25. Древняя и средневековая культура Чача. – Т., 1979.
26. Заднепетровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – М., 1962.
27. Исамидинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандинского Согда. – Т., 2002.
28. Исамидинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган. – Т., Фан, 1984.
29. Исамидинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. – Т., 2000.
30. Кара-тепе – Буддийский пещерный монастырь в Старом Термезе. – М., 1964.
31. Кой-Крылган-кала - памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н.э. - IV н.э. / Отв. ред. СП. Толстов, Б.И. Вайнберг. – М., 1967.
32. Культура древнебухарского оазиса III-VI вв. н.э. – Т., Фан, 1983.
33. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.
34. Мокрынин В.П. По следам прошлого. – Фрунзе, Кыргызстан, 1986.
35. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.-Л., 1964.
36. На среднеазиатских трассах Великого Шелкового пути. – Т., Фан, 1990.
37. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – Т. 1989.
38. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1989.
39. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана V в. до н.э. - VI в. н.э. – Самарканд-Ташкент, 2000.
40. Филанович М.И. Ташкент. Зарождение и развитие города и городской

Antika iborasi lotincha «*antigus*» so'zidan olingen bo'lib, u qadimgi degan ma'noni anglatadi. Bu ibora **XV asrda Italiya gumanistlari** tomonidan dastlab ishlatilgan bo'lib, u asosan qadimgi Yunon va Rim madaniyati va san'atini ta'riflash uchun qo'llanilgan. U quldarlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishini ta'riflaydi. Aynan Yunoniston va Rimning qadimgi madaniyat o'chog'i, deb qabul qilinishida ramziy ma'no bor. Chunki bu hududda qadimdan buyuk davlatlar hukm surgan bo'lib, ularning har biri qaysidir ma'noda jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan.

Mil. avv. I ming yillik yunonlar bosqini va ularning keng hududlar bo'yab tarqalishlari bilan bog'liqidir. Yunon manzilgohlari turli joylarda barpo etilib, metropoliyalarida bo'lган antik jamiyat uchun xos bo'lган quldarlik tuzumini olib kelishdi. Bu davrda Yunonistonda muhim ijtimoiy jarayon – quldarlik jamiyatining shakllanishi va mustahkamlanishi yuz bergan edi. Quldarlik tuzuming rivojlanishi natijasida ozod dehqonlar xizmatidan ko'ra qullar mehnatidan foydalanish kuchaydi. Bu esa, ozod dehqonlar sonini tobora kamaytirib, ularni yerdan mahrum qilib qulga aylanishlariga olib keldi.

Yunonistondagi qullarning ayovsiz ekspluatatsiya qilinishi natijasida ular orasida o'limni kuchaytirdi, bu esa, mazkur davlatni qullar mehnatiga bo'lган ehtiyojni keltirib chiqardi. Yunon bosqini mil. avv. VIII asrdayoq O'rta Yer dengizi bo'ylaridagi yerlarni bosib olinishi bilan boshlangan bo'lib, mil. avv. VII asrga kelib yanada kuchaydi. Bu hududda vujudga kelgan yunon shaharlari – koloniylar metropoliyalaridan mustaqil holda boshqarilar edi. Ular O'rta Yer dengizi bo'ylarida yashovchi qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sezilarli ta'sir o'tkazishdi.

Vaqt o'tishi bilan yunonlar o'z hududlarini tobora kengaytirib Shimoliy Qora dengiz bo'ylarini ham bosib ola boshlaydilar. Bu yerdagi eng qadimi yunon koloniylaridan biri Dnepropetrovsk-Bugskiy rayoni bo'lган. Bu yerda Berezan orolida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari jarayonida aholisi asosan baliqchilik bilan shug'ullangan ilk yunon manzilgohlaridan biri ochib o'rganilgan. Koloniya ioniy qabilalariga tegishli bo'lib, bu yerdan topilgan sopol buyumlari ioniy uslubda – kulolchilik charxida yasalgan va juda sifatli qilib pishirilgan va turli afsonaviy manzaralar, o'simliksimon va geometrik naqshlar solingan.

Keyinchalik Janubiy Bug daryosining o'ng qirg'og'ida Olviya deb nomlangan koloniya vujudga keladi (yunonchadan tarjimasi "Baxtli"). Bu yunon koloniylariga berilgan odatiy nomlardan biridir. Olviya 50 ga maydonga ega bo'lib arxeoglarning taxminiga ko'ra 15 mingga yaqin kishi yashagan. Uning paydo bo'lishi haqidagi ilk ma'lumotlar Gerodot asarlarida berilgan.

Olviya shahriga mil. avv. VII- VI asrlarda Milet shahridan kelgan Kichik osiyoliklar asos solishgan. Olviyaning gullab-yashnagan davri mil. avv. IV asrga to'g'ri keladi. Mil. avv. 331-330 yillarda Aleksandr Makedonskiy sarkardalaridan biri bo'lган Zopirion qo'shinlari tomonidan qamal qilindi. Mil. avv. III asrga kelib skif-sarmat qabilalarining bosqini natijasida boshqa yunon koloniylari singari Olviya ham tushkunlikka yuz tutadi. Mil. avv. II asrda Olviya butunlay skiflar tomonidan bo'ysundiriladi. Mil. avv. I asrda shahar frakiy qabilalar bo'lган getlar bosqinini boshdan o'tkazadi. Keyinchalik shaharning avvalgi maydonining uchdan bir qismida hayot yangidan boshlanadi. Ayrim mahallalar qabriston tagida qolib ketadi. Milodiy III aasrda Olviya shahridagi hayot gotlarning bosqini natijasida butunlay vayronaga aylanadi.

Olviya shahri atroflari yunonlarga qarashli bepoyon g'alla maydonlaridan iborat bo'lib, aholisi asosan don yetishtirish va eksporti bilan mashg'ul bo'lган.

Olviya uzoq shimoliy hududlargacha savdo aloqalarini olib borganligini tarixiy manbalar va ashayoviy topilmalar tasdiqlaydi. Olviyada ishlangan buyumlar Kiev va Poltava hududlaridan topilgan bo'lsa, shuningdek bu yerdan Volga bo'yi hududlariga olib boruvchi karvon yo'li boshlangan.

Arxeologik tadqiqotlar jarayonida turar-joy, xo'jalik binolari bilan birga savdo markazi goldiqlari ham ochib o'rganilgan. Bu yerdan 700 ga yaqin tanga-chaqalar topilgan.

Tangalarning paydo bo'lish tarixiga nazar tashlasak, ularning paydo bo'lishi mil. avv. VII asrda lidiyaliklar tomonidan muomalaga kiritilgan va keyinchalik boshqa hududlarga ham tarqalgan. Ilk Olviya tangalari mil. avv. VI-V asrlarda paydo bo'lgan. Ularda asosan delfinga tashlanayotgan burgut tasvirlangan.

Qal'aning shimoliy qismida Zevs va Apollonga sig'iniladigan ibodatxona bunyod etilgan bo'lgan.

Markaziy Osiyo hududida qadimgi davrda shakllangan davlatlar ham o'z navbatida jahon sivilizatsiya tarixida katta o'ringa ega. Sharq sivilizatsiyasini, shahar madaniyatini Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Farg'ona moddiy madaniyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Markaziy Osiyoning dastlabki davlatlari taraqqiyotining yangi ijtimoiy va iqtisodiy bosqichi mil.av. VI-IV asrlardagi ahmoniyalar siyosati bilan bog'liqdir. Mil. avv. 330 yilda Makedoniyalik Aleksandr Eron podshosi Doro III qo'shinlarini tor-mor qiladi. Mil. avv. 329-327 yillarda Parfiya va Marg'iyona, Xorazm, Farg'ona va Sirdaryoning shimoliy rayonlari mustaqil bo'lib qoladi. Markaziy Osiyo tarixida qadimgi dunyo - antik davrni vujudga keltiradi. Mil.avv. III asrning o'rtalarida Baqtriya va Parfiya Salavka davlatidan ajralib chiqadi. Baqtriya yerlarida Yunon-Baqtriya davlati tashkil topadi.

Markaziy Osiyo hududlarining Ahamoniylar imperiyasiga qo'shib olinishi, garchi uning Yaqin Sharq dunyosi bilan madaniy aloqalari kengayishiga sezilarli darajada ta'sir etgan bo'lsada, ammo mintaqada asrlar osha davom etib kelgan moddiy madaniyatning hech bir jabhasida tub o'zgarishlarga olib kelmadи. Ammo mil. avv. 330-327 yillarda Aleksandrning O'rta Osiyoga qilgan harbiy yurishlari oqibatida Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona xalqlari madaniy hayotida iz qoldi. Lekin ko'zga tashlanarli o'zgarishlar Amudaryordan shimoliy viloyatlarda faqat salavkiylar davridan boshlanadi. Mil. avv. III asr o'rtalariga kelib Baqtryada Yunon-Baqtriya davlatining qaror topishi bilan mahalliy madaniyatga ellinizm elementlarining kirib kelishi jadallahdi. Bu jarayon ayniqsa moddiy madaniyatda, uning me'moriy qurilish jahbalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'rta Osiyoning janubiy rayonlarini keng xalqaro munosabatlarga tortilishi, o'lka viloyatlarining qadimgi Sharq va Yunoniston, Makedoniya davlatlari bilan keng madaniy va savdo aloqalarda bo'lishi o'z navbatida uning markaziy va shimoliy viloyatlari – So'g'd, Xorazm, Shosh va Qadimgi Farg'onani ham chetlab o'tmadи. O'sha davr madaniy hayotidagi yuksalishlar Baqtryada Dalvarzintepa, Eski Termiz, Jondavlattepa: So'g'dda Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Poykent; Xorazmda Jonbasqal'a, Ayozqal'a, Tuproqkal'a; Chochda Qanqa, Shoshtepa, Qovunchitepa; Qadimgi Farg'onada Asxikent, Koson, Marhamat kabi yodgorliklar va yuzlab kichik shaharlar va qishloqlar shaklidagi arxeologik yodgorliklar misolida ko'zga tashlanadi.

Miloddan avvalgi II asrning 2-yarmida O'rta Osiyoning shimoli-sharqidan ko'chmanchi yuechji (tohar) qabilalari Qadimgi Farg'ona, Ustrushona, So'g'd orqali Qadimgi Baqtriya yerlariga kirib keladi. Milodiy I asrning boshlarida yuechjilarning guyshan qabilasi boshchiligidida Kushonlar davlati tashkil topadi. Uning hududiy chegarasi Hindistonda Hind va Ganga daryolarining havzalarigacha borib yetadi. Qadimgi Farg'onada Davon davlati, O'rta Osiyoning qolgan hududlari (Xorazm va So'g'd) esa,, Sirdaryoning o'rta havzasida qadimgi davrda qad ko'targan Qang' davlati tarkibida rivojlanishda davom etadi. Mil. avv. III asridan boshlab Kushonlar saltanati inqirozga uchraydi. Shu tariqa O'rta Osiyoning davlatlari quldorlik munosabatlari tushkunligi bilan bog'liq holda tanazzulga yuz tutadi.

Yunon-Baqtriya Sharqning yirik davlati sifatida 120 yildan ortiq (mil.av. 250-128 yillar) vaqt yashadi. Yunon-Baqtriya davlatining asosini Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona yerlari tashkil etgan bo'lib, ular iqtisodiy jihatdan to'q, shaharlari ko'p, tabiiy boyliklari mo'l hududlar edi. Yunon-Baqtriyaning ko'plab yodgorliklari qadimgi davrga mansub bo'lib, ularning asosiy qismi arxeologlar tomonidan o'rganilgan. Baqtryada – (Afg'oniston qismida) Bagram, Baqtra, Oyxonum, Dalvarzin kabi; Qabadshoh, Qayqabod, Ko'hnaqal'a (Tojikiston qismida), Dalvarzintepa, Dunyotepa, Jondavlattepa va boshqa ko'plab qadimgi shahar xarobalari (O'zbekiston qismida) ochib o'rganilgan. So'g'diyonada Yerqo'rg'on, Afrosiyob, Talli Barzu

yodgorliklarining shu davrga oid madaniy qatlamlari, Marg'iyonada Govurqal'a kabi shahar goldiqlari tadqiq etilgan.

Antik davrda Yunon-Baqtriyada dehqonchilik va chorvachilikdan tashqari kulolchilik sohasi yuksak darajada taraqqiy qilgan bo'lib, bu davrda yasalgan kulolchilik buyumlarining tengi yo'q edi.

Uy-joylar shohona saroylar, ibodatxonalar hamda mudofaa inshoatlari qurilishda bu o'lkkalar xalqi antik davr olamida yuksalishning yuqori nuqtasiga ko'tarilgan. Bu davrda Baqtriy va So'g'd yozuvlari shakllanadi va rivojlanadi. Tasviriy san'at, me'morchilik, zargarlik san'atida katta yutuqlarga erishiladi.

Antik davr mualliflari Baqtriyani 1000 shaharli mamlakat, deb ta'riflaganlar. Yunon-Baqtriya aholisi zardushtiylik diniy e'tiqodida bo'lib, mahalliy diniy tasavvurlar yunon mifologiyasi obrazlari bilan chatishib ketgan. Suvga, yerga, quyoshga bo'lgan hurmat va e'tiqod ilohlarga bo'lgan (Mitra, Naxid) e'tiqod bilan uyg'unlashib ketgan.

Ko'chmanchi qabilalarning Yunon-Baqtriya yerlariga kirib kelishi uni inqirozga uchratadi. 110 yilda yuechji qabilalari Yunon-Baqtriya yerlariga kirib kelib, o'z hukmronligini o'rnatdi. Guyshan qabilasi yabg'usi Kudzula Kadfiz boshqa qabila yabg'ularini tobe etib, o'zini hukmdor deb e'lon qiladi. Tarix sahnasiga shu tariqa Kushonlar davlati kelib, u uzoq muddat, milodning IV asrigacha hokimiyatga egalik qildi. Uning hududiy chegarasi Amudaryo qirg'oqlaridan janubda Hindistonning janubiy rayonlarigacha tarqaldi. Kushonlar podsholigida shahar qurilishi, me'moriy-monumental, amaliy va tasviriy san'at, haykaltaroshlik rivojlandi. buddaviylik diniy e'tiqodi davlat dini darajasiga ko'tarildi. Buddha va uning sanamlari (badisatva) ni haykallari bilan ibdatxonalarini bezash ruhiy va ma'naviy zaruratga aylandi. Dehqonchilik, uning assosi hisoblangan irrigatsiya inshoatlari barpo etish taraqqiy etdi. Bu ishlarning davlat tasarrufiga olinishi ko'plab moddiy boyliklar yaratilishiga imkon berdi. Kushonlar davrida ichki va tashqi savdo kuchaydi. Buyuk Ipak yo'li g'arb va sharq xalqlarining hayotida katta rol o'ynadi.

Kushonlar davrining katta ahamiyatga ega bo'lgan yodgorliklaridan biri milodiy I asr boshlariga mansub bo'lgan «Xolchayon hokimining saroyi» dir. Xolchayon saroyining kutish zalini qadimgi haykallar kompazitsiyasi egallagan bo'lib, ularda turli etnoslarning qiyofalari o'z aksini topgan. Shuningdek, saroyda a'yonlar, kurash sahnasi, og'ir gulchambarlarni ko'tarib turgan bolalar haykallari, musiqa asboblari tutgan ayol haykallari topilgan.

Buddaviylik bilan bog'liq bo'lgan yodgorliklardan biri Ayrитом bo'lib, u Termiz yaqinida Amudaryo bo'yida joylashgan. Bu yerdan topilgan me'moriy san'at asarlarida turli xil musiqa asbobi chalayotgan musiqachilar tasvirlangan.

Termiz yaqinida arxeologlar **Qoratepa** yodgorligini topib o'rganganlar. Qoratepa buddaviylik dinining ibodatxonasi bo'lgan. Qoratepa tabiiy tepalik bo'lib, uning atrofidan ko'plab haykallar topilgan. **Fayoztepa** esa, Qoratepa yaqinida joylashgan yodgorlik bo'lib, u buddaviylarning ibodatxonasi va maktabi vazifasini o'tagan.

Kushonlar davriga oid yodgorliklarning yana biri Dalvarzintepa bo'lib, u Surxondaryo viloyatida joylashgan. 1972 yilda Dalvarzintepani qazish vaqtida 34 kg og'irlilikda tilladan ishlangan 115 dona buyum topilgan. Ular bilaguzuklar, uzuk, to'g'nag'ichlar bo'lib, yuksak mahorat bilan yasalgan. Dalvarzintepani qazish vaqtida 60 ta turli xil metal buyumlar topilgan. Metall bilan bog'liq hunarmandchilikning rivoji haqida gap ketganda Dalvarzintepadan topilgan tosh qoliplarni ham ko'rsatish mumkin. bu qoliplarda oyna, o'roq, pichoq, bigiz va boshqa shunga o'xshash ho'jalik buyumlari quyilgan. Metall esa, sopol idishlarda tigellarda eritilganligi olimlar tomonidan aniqlanib, o'rganilgan. Dalvarzintepani qazish vaqtida ot uzangilari va suvlig'i, oyna, bilaguzuk, halqa va qarmoqlar, ikki parrakli bronza paykonlari topildi.

Chust madaniyati yodgorliklarida toshdan mehnat qurollari yashash davom etadi. Masalan, birgina Dalvarzintepani qazish vaqtida 1500 ga yaqin tosh qurollar topilgan. Tosh qurollar orasida qum-toshdan yasalgan o'roqsimon pichoqlar yashash alohida diqqatga sazovordir. Bu yerdan 400 yaqin ana shunday tosh pichoqlar topilgan. Topilmalarga qaraganda o'sha davrda suyakdan quro

yasash ham keng yo'1 qo'yilgan. Suyakdan yasalgan-taroq, moki, bigiz, urchuq va boshqa buyumlar ham Davlvarzintepada ko'plab uchraydi.

Antik davr yodgorliklari Xorazm hududlaridan ham topib o'rganilgan. Qadimgi Xorazm tarixi va madaniyati haqida ma'lumot beruvchi yodgorliklardan biri –Qo'yqirilganqal'adir.

Qo'yqirilganqal'ada 1951-57 yillarda arxeologik qazish va qidiruv ishlari olib borilgan. Bu yodgorlik qadimgi Xorazmning mil. avv. IV – milodning I asriga mansub bo'lgan shaharlaridan biri bo'lgan. Shahar doira shaklidagi qal'adan iborat bo'lib, u tashqi va ichki devorlar bilan o'rabi olingan. Arxeologlar 3 qatordan iborat bo'lgan mudofaa devori bo'lganligini, tashqi devorning yuqori qismida kamonchilar uchun qilingan tuynuklar, aylana shaklida burjlar o'rnini aniqlaganlar. Qal'ada kulolchilik rivojlangan idishlar sirtiga afsonaviy qushlar rasmi chizilgan. Ko'plab idishlarda chopar ot ustidagi sipohiyalar surati solingan. Tulpor ot tasviri esa, ko'plab uchraydi. Urug' totemlari bilan bog'liq xususiyatlarni aks ettiruvchi arslon, jayron, tuyu singari hayvonlarning suratlari solingan buyumlar keng tarqalgan.

Devorning muhim madaniy yodgorliklaridan biri **Tuproqqal'adir**. Tuproqqal'a Xorazmshohlar podsholarining markaziy shahri bo'lgan. Yodgorlikda keng ko'lAMDAGI ishlari 1945 yildan S.P.Tolstov tomonidan olib borilgan. Tuproqqal'aning maydoni 17,5 ga bo'lib, u III-IV asrlarga mansub noyob yodgorlik. Yodgorlik markazida 80x80 m hududni podsho saroyi egallagan. Saroyning devorlari haykallar bilan bezatilgan. Saroy xonalari esa, har xil maqsadlar uchun mo'ljallangan. Arxeologlar ularni «**podsho zali**», «**raqqoslar zali**» degan shartli nomlar bilan atashgan.

Podsho zalida ko'plab haykallar bo'lib, ularning barchasi loydan ishlangan. Ular qimmatbaho va turli rangdagi liboslarda tasvirlangan. (yaxtak, sholvor kiygan erkaklar, burmalangan ko'yakdag'i ayollarining haykallari). «**Qizil tanli harbiylar zali**»da podsho haykali qo'yilgan, uning ikki tomonida o'ziga xos bosh kiyimdag'i qurolli harbiylar haykali o'rnatilgan. Podshoh saroyining yana bir zalida mayho'rlik bazmi ko'rsatilgan. Tuproqqal'a yodgorligidan podsho arxivni topilgan, u 100 ga yaqin hujjat bo'lib, shundan 18 tasi yog'ochga, ko'pchiligi teriga yozilgan, hozirgi kungacha ularning 8 tasi yaxshi saqlangan. 100 ga yaqin hujjatdan 26 tasi o'qishga yaroqli. Tuproqqal'a Xorazm davlatining III-IV asrlarda poytaxti bilan bu shahar antik davr shahar madaniyatining yorqin timsolidir.

Toshkent viloyatida, Sirdaryo va Janubiy Qozog'iston yerlarida mil. avv. III asrda yarim o'troq **Qang' davlati** tashkil topgan. Qang' davlatining hayoti, turmush tarzi va madaniyati haqida Xitoy manbalarida ma'lumotlar uchraydi. Qang' da yashagan qang'uylarning madaniyati va ho'jaligi haqida Qovunchi yodgorligi ma'lumot beradi, Qang' davlatining poytaxti qang'diz-qanqa (hozirgi Oqqo'rg'on markazida) shahar xarobasi hisoblanadi. Uning umumiyligi maydoni 150 ga bo'lib, atrofi qalin mudofaa devorlari bilan o'rabi olingan. Shahar xarobasidan arki a'lo, (o'rda), ibodatxona, savdo va hunarmandchilik mavzelari, shahar yo'llari, maydonlar, hovuzlarning o'mni topib o'rganilgan.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda mil. avv. III-II asrlarda Farg'ona davlati-Davan shakllangan davlat sifatida mavjud edi. U qadimga Parkana, Xitoy manbalarida esa, Davan deb atalgan.

Xitoy manbalarida mil. avv. I asrda Davan ko'p aholisi bor, dehqonchilik va hunarmandchilik ho'jaliklari yuksak rivojlangan.

Davanda 70 ga yaqin obod shahar bo'lgan. Bu hududda bog'dorchilik, ziroatchilik, to'qimachilik rivojlangan. Farg'onaning samoviy dul dullari-afsonaviy otlari mashhur bo'lgan; Ershi, Axsi, Quva singari shaharlar taraqqiy etgan.

Xulosa qilib shuni qayd etish kerakki, O'rta Osiyo antik davrda shahar madaniyatining uzluksiz rivojlanishi jarayoniga tortilgan bo'lib, bu yerda Qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga xos mahalliy shahar qurilishi an'analar shakllanadi. Me'morchiligidagi mudofaa inshootlari, diniy va dunyoviy monumental inshootlarning paydo bo'lishi shahar madaniyati taraqqiyotini belgilab beradi. Moddiy madaniyatning barcha jabhalarida originallik, amaliy va tasviriy asarlarda yuksak did va mahorat ruhi antik madaniyatni mazmun va mohiyatini belgilab beradi.

## **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

- 1. Antik davr deganda nimani tushunasiz?**
- 2. Ilk davlatlarning shakllanishi va rivojlanishi haqida nima bilasiz?**
- 3. Shimoliy Qora dengiz hududidagi antik davr yodgorliklari haqida nima bilasiz?**
- 4. Yunon-Baqtriya davlati hududidagi yodgorliklar haqida gapirib bering?**
- 5. Xorazm hududidagi antik davr yodgorliklari haqida nima bilasiz?**
- 6. Farg'ona vodiysidagi antik davr yodgorliklari haqida nima bilasiz?**

## **9-MAVZU: ILK O'RTA ASRLAR DAVRI ARXEOLOGIYASI (2 SOAT)**

**REJA:**

1. Ilk o'rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot.
2. Ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligi.
3. San'atning yuksalishi.

### **TAYANCH TUSHUNCHALAR**

O'rta asr, yer egaligi, Afrosiyob, Panjikent, Shosh, Quva, qasr-qo'rg'on.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.
4. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – T., 1997.
5. Buryakov Yu.F. Toshkent vohasining qadimgi karvon yo'llari. – T., Fan, 1978.
6. Isomiddinov M.N. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993.
7. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Т., 1975.
8. Аннаев Т.Д. Раннесредневековые поселения Северного Тохаристана. – Т., Фан, 1988.
9. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Б. Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973.
10. Живопись древнего Панджикента / Отв. ред. А.Ю. Якубовский и М.М. Дьяконов. – М., 1954.
11. Кабанов С.К. Культура сельских поселений Южного Согда III-VI вв. – Т., 1981.
12. Кабанов С.К. В оазисах и степях Кеша и Нахшеба. – Т., Узбекистан, 1988.
13. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – Т. 1989.
14. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1989.
15. Фрейман А.А. Описание публикации и исследование документов с горы Муг. – М., 1962.

Tarix faniga o'rta asr tushunchasi uyg'onish davri mutafakkirlari tomonidan kiritilgan bo'lib, madaniyat yuksak taraqqiy etgan antik davr bilan uyg'onish davr o'tasidagi davrga nisbatan ishlatilgan. O'rta asrlar feodal yer egaligi munosabatlari davri bo'lib uch bosqichdan iborat: 1) **ilk o'rta asrlar** (V - IX asrlar); 2) **rivojlangan o'rta asrlar** (IX - XV asrlar); 3) **so'nggi o'rta asrlar** (XVI - XVII asrning o'rtalari) ni o'z ichiga oladi.

O'rta Osiyoda o'rta asrlar davrining dastlabki bosqichi yirik davlatlar – Kushonlar sultanati va Qang' davlati konfederatsiyasining inqirozi va ular ustiga xionitlar, kidaratlar va eftalitlar kabi ko'chmanchi qabilalarning ommaviy ravishda bostirib kirishi bilan boshlandi. Bu

ikki davlatning tanazzuli O’rtta Osiyo hududlariga Eron sosoniyalarining istilochilik harakatini faollashtirdi. Ammo ko’chmanchi qabilalar, ayniqsa eftalitlar bunga yo’l qo’ymadi. VI asrning ikkinchi yarmida sosoniyalar O’rtta Osiyoda Turk xoqonligi bilan to’qnashishga to’g’ri keldi. Hokimiyatni o’z qo’liga olgan G’arbiy Turk xoqonligi 100 yil davomida butun O’rtta Osiyo ustidan nazoratini o’rnata oldi.

VII asrda O’rtta Osiyo ijtimoiy va siyosiy hayotida yuz bergan feodallahish jarayonining rivojlanishi xoqonlikda ichki qarama-qarshiliklarning chuqurlashishiga olib keldi. Natijada, nomigagina hoqonlik hukmronligini tan olgan mahalliy sulolalar boshchiligidagi katta va kichik yer egaligi jadal rivojlandi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibida o’zgarishlar, katta yer egalari bo’lgan dehqonlar, badavlat savdogar va hunarmandlar tabaqasi paydo bo’ldi. Ular o’z navbatida shaharlarning vujudga kelishiga, ko’p tarmoqli hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga ta’sir o’tkazdi.

Ma’lumki, G’arb bilan, Sharqni bog’lovchi muhim savdo yo’li bilan **Buyuk Ipak yo’li** («G’arbiy meridional yo’l») ning qadimgi Farg’onadan o’tgan yo’nalishi ilk o’rta asrlarga kelib, O’rtta Osiyo shimoliy hududlarining ichki rayonlariga kirib bordi. Natijada O’rtta Osiyoning chorvador qabilalari va o’troq aholisi o’rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar kuchaydi.

Savdo-sotiqni pul asosida rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi, tanga – pul zarb qilishga bo’lgan ehtiyoj kuchayib, pul zarbxonalarining yangi markazlari paydo bo’ldi. O’rta Osiyo bozorlarida **Tohariston, So’g’d, Ustrushona va Shosh** tangalari keng muomalada bo’ldi.

Ilk o’rta asrlarda O’rtta Osiyoda shahar hunarmandchiligi keng tarmoq otib rivojlanishda davom etdi. Samarqand, Buxoro, Poykent va boshqa shaharlar yirik savdo-sotiq markazlari sifatidagi o’rnini saqlab qoldi. Hatto Shosh-Iloq vohasidagi shaharlar juda jadal rivojlanish yo’liga tushib oldi. Bu shaharlarda hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, metallurgiya, to’qimachilik sohalari yuksak professional darajada rivojlanib ular ko’p hollarda tashqi savdo uchun mahsulot chiqarar edilar.

Ilk o’rta asrlarda to’qimachilik O’rtta Osiyo hunarmandchiligining ustivor yo’nalishiga aylandi. Ayniqsa ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish keng yo’lga qo’ylgan. Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha ipak qurtini boqish Qadimgi Baqtriyada bronza davridan ma’lum bo’lgan. Antik davri va ilk o’rta asrlarga kelib, ipakchilik bilan shug’ullanish So’g’diyona va Farg’ona vodiysiga ham keng yoyildi. Ipakchilikning jahonga mashhur markazlari paydo bo’ldi. Masalan, VI-VII asrlarda shakllangan Buxoroning «zandanachi» ipak mahsulotlariga bo’lgan talab hatto ipakchilikning ilk vatani Xitoya ham katta edi. Zandanachi ipak mahsulotlarining namunalari hatto Afrosiyob devoriy su’ratlarida yaxshi saqlangan.

Ilk o’rta asrlar davrida O’rtta Osiyo tarixida muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bo’lib o’tdi va keyingi tarixiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko’rsatdi. Albatta feodal yer egaligi munosabatlari dunyoning turli xalqlari va mamlakatlarida bir vaqtida sodir bo’lmasan. Ilk o’rta asrlar O’rta Osiyo tarixida V-IX asrlarni o’z ichiga olib, muhim tarixiy voqealarga boyligi bilan ajralib turadi.

Milodiy III - IV asrlarda yirik imperiya - Kushon davlati inqirozga yuz tutdi va parchalanib ketdi. IV asrda O’rtta Osiyo hududiga **xioniylar** kirib keldilar. Xioniylar etnik jihatdan kelib chiqishi kushonlarning avlodlari hisoblanib, ayrim tarixiy manbalarda toxarlar deb ham yuritiladi. Mazkur xalq O’rtta Osiyoda 120 yilga yaqin hukmronlik qildi. Xioniylar birinchi marta **Ammian Martsellinning** 356 yilgi hikoyasida ularning podshosi **Grumbat** va o’g’lining **Amida (Suriya)** shahrini qamal qilganligi yoziladi. Xioniylar Amudaryo havzasini egallab olgach, g’arbgaga yurish qiladilar.

V asr boshlarida tarix sahnasiga kidariylar chiqdi. Ularning poytaxti Balx bo’lib, podshosi Kidar nomi bilan bog’lik tangalar Amudaryoning janubidagi yerlardan topilgan.

V asr o’rtalarida O’rtta Osiyo tarixida yangi siyosiy kuch - **eftalitlar** paydo bo’ldi. Eftalitlar etnik jihatdan S.P. Tolstov fikricha massagetlar avlodidir. Eftalitlar tarixiga oid yozma manbalar - xitoy, arman, Vizantiya, arab manbalaridir. Mazkur davlat O’rtta Osiyoda V asr o’rtalaridan VI asr 60-yillargacha hukmronlik qildi. U hududiy jihatdan Kushon imperiyasidan 2 barobar katta bo’lib, hokimi mutlaq boshqargan. Ushbu davlat o’zlarigacha mavjud bo’lgan jtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o’zgartirmadilar.

Eftalitlar davrida hozirgi O'zbekiston hududida dehqonlarning qasr-qo'rg'onlaridan bir qancha shaharlar paydo bo'ladi. Bunday shaharlar jumlasiga **Bolaliktepa**, **Varaxsha** kabilarni kiritish mumkin. Ilk o'rta asrlarga oid yirik shaharlar jumlasiga qadimdan mavjud bo'lgan **Afrosiyob**, **Buxoro**, **Poykand**, **Toshkent**, **Termiz** va boshqlarni kiritish mumkin.

Shuningdek, mazkur davrga oid devoriy suratlar **Bolaliktepa**, **Varaxsha**, **Toshkent**dan topib o'rganilgan. Eron sosoniylariga mansub ko'plab tangalar topilgan.

O'zbekiston hududidagi ilk o'rta asrlarga mansub shaharlarning maydoni uncha katta bo'limganligini ta'kidlash lozim. Bu vaqtda Samarcandning aylanasi 3,5 km, Poykandniki 1,8 km, Farg'onadagi Koson shahriniki 2 km ni tashkil etgan. Mazkur davrga oid arxeologik topilmalarni hududlar bo'yicha ko'rilinganda quyidagi manzara hosil bo'ladi.

Ilk o'rta asr **So'g'd** yodgorliklari jumlasiga **Afrosiyob**, **Varaxsha**, **Poykand**, **Panjikent**, **Tallu Barzu**, **Tohariston** yodgorliklariga **Bolaliktepa**, **Kofirqal'a**, **Fargona** yodgorliklariga **Quva**, **Axsikat**, **Koson**, **Toshkent** vohasida **Binkat**, **Yunusobod**, **Mingo'rik**, **Xorazm** hududida **Fir qal'asi**, **Baraktom**, **Kuyukqal'a**, **Teshikqal'a** va boshqalar mavjud bo'lgan. Mazkur davrda aholining o'rtoqlashuvi natijasida sun'iy sug'orish inshootlari quriladi. Bular jumlasiga **Bo'zuv**, **Zog'ariq**, **Darg'om kanallarini** kiritish mumkin.

**1948 yilda** arxeolog **A.Terenojkin** Afrosiyobning ilk o'rta asrlarga oid qatlamlarini tekshiradi. **1958 yildan** buyon Afrosiyobni o'rganilish davom etmoqda va hozirgacha turli davrlarga oid bir qancha boshqa yodgorliklar ham o'rganildi. VI asrga mansub **Tallu Barzu** yodgorligidagi qazuv ishlari jarayonida VIII asrga oid sopol idishlar majmui, sosoniylar tangalari, quiyi qatlamidan esa, antik va Kushon davriga oid temirchilik charxi, sopol idishlar, haykalcha topildi. **1956-57 yillarda** **Kofirqal'a** o'rganila boshlanadi.

Olib borilgan qazuv ishlari natijasida IV-V asrlarda **Samarqand** tushkunlikka uchraganligi aniqlandi. Uning rivojlanishidagi yangi davr VI asrdan boshlanadi. Ark yangi devor bilan o'rab olinadi VI asrda uzunligi 1,5 km to'rtinchı devor quriladi. Shahar janubga qarab kengayib boradi va uzunligi 3 km ichki devor quriladi. III-IV asrlarga oid kulollar va miskarlar mahallalari topilgan.

VII asrlarda Afrosiyobda maxsus saroy devori quriladi va shaharning to'rtinchı tashqi devori butunlay qayta quriladi. Saroy devorining ichida yirik inshootlar alohida binolar qurilgan.

Ilk o'rta asrlarga xos Samarcandning quyidagi binolari mavjud bo'lganligi aniqlangan:

A) o'rtahol shaharliklarning turar joylari devorlari qalinligi 1,1 m, uy maydoni 11,8x 6,45 m, ko'pchilik hollarda 2,6 x 2,5 m bo'lgan.

B) Shahar kiborlari turar joylari devorlariga rasmlar ishlangan.

V) Jamoat binolari.

G) Ibodatxona.

D) Saroy bir necha xonalardan iborat bo'lgan.

Shahar aholisi kasb-korlari bo'yicha mahallalarga bo'lingan. Shunday qilib VI-VII asrlarda **So'g'd** poytaxti bo'lgan **Samarqand** ko'p asrlik tarixida o'z taraqqiyotining yuqori darajasiga ko'tarildi.

**Varaxsha** shahar xarobasida o'tkazilgan arxeologik qazishlar tufayli eftalitlar davrida shaharni tubdan qayta qurilish ishlari olib borilganligi aniqlandi. Varaxsha Buxoro hukmdorlari (**buxorxudotlar**) ning qarorgohi bo'lib, bu yerdan saroy qoldiqlari bilan bir qatorda devorga ishlangan rasmlar ham topildi.

Mazkur yodgorlik **1938-1953** yillarda tekshirildi. **Varaxsha** devorlariga loy suvoqdan so'ng yelimli rang bilan suratlar solingenan. Ularda podsho saroyi hayoti tasvirlangan. Shuningdek Varaxshadan ganchdan ishlangan haykallar ham topilgan.

**Qashqadaryo vohasida** ham ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklar ro'yxatga olingan. Ayniqsa S.K. Kabanov tomonidan Qarshi vohasida joylshgan 300 dan ortiq tepaliklar ro'yxatga olinib xaritasi tuziladi. 1946 yildan boshlab ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklari tadqiq etila boshlandi va bu borada katta yutuqlarga erishildi. 1970-yillardan boshlab G'uzor va Dehqonobod tumanlaridagi, shuningdek Yuqori Qashqadaryo vohasidagi ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklar KATE a'zolari tomonidan o'rganildi.

**Panjikent** xarobasini tekshirish **1946 yildan** buyon olib borilmoqda. Tadqiqotlar natijasida V, VI, VII asrlarga oid bo'lgan turar joylar tekshirildi. Turar joylar jumlasiga **Divashtich saroyi**, boy va oddiy shahar aholisi uylari kiradi. Boy xonadon uylari murakkab reja asosida qurilgan. Bu yerda ham ijtimoiy

uylar 2 ta ibodatxona olib o'rganildi. Saroy va yirik binolarning devorlariga hayotiy va diniy mavzudagi rasmlar solingan. **Samarqand, Varaxsha, Panjikent** rasmlari ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda tasviriy san'at yuqori darajada bo'lganligini ko'rsatadi.

**1953-1954** yillarda Surxondaryoda qazib o'rganilgan **Bolaliktepa** qal'asi eftalitlar davrining diqqatga sazovor yodgorliklaridan birdir. Bolaliktepa baland poydevor ustiga qurilgan bino bo'lib, uning ichki devorlariga turli rasmlar ishlangan.

Farg'onadan topilgan **Quva** budda ibodatxonasi ikki binodan iborat bo'lib, ularning eshiklari alohida bo'lgan. Ayvonga kiraverishda otlarning, soqolli ma'budning katta haykali bo'lib, uning peshonasida odamning bosh suyagi tasvirlangan. Bu yerdan turli haykalchalar ham topilgan.

Xitoy manbalarida **Ishtixon** shahri ibodatxonalarida Buddanining oltindan yasalgan katta haykali bo'lganligi haqida ma'lumot beriladi.

**Toshkent** vohasidan ilk o'rta asrlarga mansub **Mingo'rik, Yunusobod Oqtepasi** yodgorliklari topilgan. V-VII asrlarda Toshkent vohasida shahar markazi sifatida **Mingo'rik** muhim ahamiyat kasb etgan. Ko'chmanchi aholi bilan munosabatlari bu yerning hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Turar joylar katta-kichikligiga qarab farqlanadi.

Feodallarning turar joylaridan hokim qarorgohlardan kichikroq Oqtepadiagi uylar qurilishi jihatdan boshqa yerlardagi uylarga o'xshash. Mingo'rik arki va shahristoni 18 ga egallaydi. 200 m kv maydondan VII-VIII asrlariga oid saroy va ibodatxona qoldiqlari topilgan. Devorlar paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. Shosh O'rta Osiyoning boshqa yerlari bilan savdo aloqalarini olib borgan.

Milodiy V-VIII asrlarda Shosh vohasida **Yunusobod** ham muhim rol o'yagan. Maydoni 100 ga bo'lgan mazkur yodgorlik ko'rileyotgan davrida Shosh vohasining eng muhim markazlaridan biri bo'lgan.

**Xorazm** hududidan ilk o'rta asrlar davriga oid shahar va mustaxkamlangan qo'rg'oncha qoldiqlari topib o'rganilgan. **Fir saroyi, Burgutqal'a, Teshikqal'a, Kuyukqal'a, Misdakhon** va boshqalar o'rganilgan.

**Burgutqal'a, Teshikqal'a** qasr-istexkomlari VI-VIII asrlarga mansubdir. Mazkur davrda qal'alar balandligi 4-8 m bo'lgan mustahkam tagkursi (platforma) ustiga qurilgan. **Teshikqal'a** maydoni 1 ga egallaydi. Qal'a mudofaa inshootlariga ega bo'lgan, unga faqat ko'tarma yo'l orqali kirilgan. Bu yerdan devorlarga ishlangan rasmlar, gilam parchalari, tangalar topilgan. Qal'a VII-VIII asrlarda qurilgan.

V-VI asrlarda kirligan **Kuyukqal'a** 41 ga maydonni egallagan. Uning ichki qismida ikkita qasr bo'lganligi aniqliandi. Ilk o'rta asrlar devorida Xorazmda ham xo'jalik va madaniy hayot yuksak bo'lganligini moddiy ashyolar tasdiqlaydi. Bu yerning yodgorliklari arablar istilosida arafasida tushkunlik bo'lganini ko'rsatadi.

VI-VII asrlarda yangi ko'rinishdagi qishloqlar katta-katta oilalar yashaydigan mustaxkamlangan qasr-qo'rg'onlar paydo bo'la boshladi. Bunday qasr-qo'rg'onlar Xorazmda yaxshi o'rganilgan.

Dehqonchilik bilan shug'ullangan erkin aholi mustaxkamlangan mayda qo'rg'onchalarda yashaganlar. Xorazmda ana shunday qo'rg'onlarning 200 dan ortig'i topildi. Ular bir-biridan 200 m masofada joylashgan va 34 km kv maydonni egallagan. Har bir qo'rg'onning atrofi devor bilan o'rabi olingan. Arab tarixchisi Al-Makdisiyning ma'lumotiga ko'ra Misdakhon atrofida X asrda 12 mingta qo'rg'onlar bo'lgan.

Ilk o'rta asrlarda haykaltaroshlik san'ati keng qo'llanilgan. U dumaloq va bo'rtma tasvir shaklida me'morchilik komplekslarida ishlatalilgan. Bu haykallarda diniy va afsonaviy obrazlar bilan bir qatorda real hayotni aks ettiruvchi obrazlar ham uchraydi. Haykallar maxsus tayyorlangan loydan, yog'och, albaster va toshdan ishlangan.

Amaliy xaykaltaroshlik san'atining yorqin namunalari IV-V asrlarga oid Toharistonning Kuyovqo'rg'on qal'aqo'rg'onidan topiladi. Kuyovqo'rg'on haykallari ziynatli bezaklarga boy yengil kiyimlardagi erkak va ayol personajlaridan iborat bo'lgan.

Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi ya'ni feodallahish jarayonining rivojlanishi me'morchilikning xarakteri va mazmuniga ta'sir etadi. Bu hol dastlab qo'rg'on-qasrlar, ko'shklar qurilishida ko'zga tashlanadi. Keyinchalik podsholarning saroylari, shaharlardan tashqaridagi hashamatli va ulug'vor qarorgohlari keng tarqaladi. Bu binolar ko'p

hollarda sun'iy tepaliklar ustiga qurilib, ularning me'moriy echimlari mahobatli bo'lishiga katta e'tibor beradi. Binolar ham g'ishtdan va paxsadan qurilgan. Devorlari ganch bilan pardozlangan, xona devorlari devoriy surat va naqshlar bilan bezatilgan.

Ilk o'rta asrlar davri monumental memorchiligidagi noyob ganch naqshinkorligi keng qo'llanilgan. Darhaqiqat, ilk o'rta asrlarda ganch o'ymakorlik san'ati o'zining yuqori darajasiga ko'tarilgan edi. Uning hatto dastlabki namunalarida o'z zamonasiga xos yangi uslubiy yo'naliш Shakllangan edi. Buni Afrasiyob, Varaxsha va Dumaloqtepa qasr bezaklarida uchratish mumkin.

Ilk o'rta asrlarda amaliy san'atning barcha yo'naliшlari rivojlanadi. Ular shaharlarning o'sishi va shahar hunarmandchiligining taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan edi. Oltin va kumushdan har xil idishlar yashash ko'lami kengayadi. Ayniqsa, bu masalada Xorazm va So'g'dda katta yutuqlarga erishiladi.

O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlar davrida yagona din bo'Imagan. Arablar istilosini bilan bog'liq holda islam dini keng tarqalgani ma'lum. Farg'ona vodiysida ya'ni Quvadan topilgan ibodatxona xarobasi buddaviylik dini bilan bog'liq bo'lib, u 2 xonali, old xonasi ayvon shaklida qurilgan. Xorazmda ham ko'mish marosimlari bilan bog'liq bo'lgan ossuariylar yoki ostodon deb nomlangan to'rburchak shaklidagi tobutchalar otashparastlik e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan. Ostadonlar So'g'd, Shosh hududlaridan ham topilgan. Zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan ibodatxonalar tepalikka qurilib, old tomoni esa, quyosh chiqish tomonga qaratilgan.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda so'g'd, xorazm, eftalit, turk bitiklari paydo bo'ldi. Mazkur yozuvlar tarixiy manba bo'lishi bilan birga noyob ilmiy manba hisoblanadi.

Aholining diniy e'tiqodi turlicha bo'lgan: Tohariston va Sharqiy Turkiston aholisi buddizm, So'g'd va Xorazm aholisi otashparastlik diniga e'tiqod qilganlar. Shu davrla O'rta Osiyoga moniylik va nestarian-xristian dini ham tarqala boshlagan. Urgut yaqinida topilgan xristian dini ibodatxonasi shu o'tmishni tasdiqlaydi.

#### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

- 1. O'rta asr asr tushunchasi va uning bosqichlari haqida nima bilasiz?**
- 2. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda shahar hunarmandchiligining rivojlanishi haqida nima bilasiz?**
- 3. Ilk o'rta asrlar davrida O'rta Osyo tarixida qanday muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bo'lib o'tdi ?**
- 4. Ilk o'rta asrlardagi ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligining o'ziga xosliklarini gapirib bering?**
- 5. Ilk o'rta asrlarda san'atning yuksalishi haqida nima deya olasiz?**

#### **10-MAVZU: RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR DAVRI ARXELOGIYASI (2 SOAT-SEMINAR)**

REJA:

1. O'rta Osiyoda arablar bosqini oqibatlari.
2. Movarounnahr, Xuroson, Farg'ona IX-XII asrlarda.
3. O'rta Osiyoda mo'g'ullar bosqini oqibatlari.
4. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyatning rivojlanishi.

#### **TAYANCH TUSHUNCHALAR**

Sharq Uyg'onish davri, mahalliy mustaqil sulolaviy davlatlar, Somoniylar maqbarasi, masjid, madrasa, maqbara, karvonsaroylar, Amir Temur, Temuriylar, Go'ri Amir, rasadxona, Registon ansambli, Shohizinda majmuasi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.

3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – Т., 1999.
4. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Т., 1997.
5. Buryakov Yu.F. Toshkent vohasining qadimgi karvon yo'llari. – Т., Fan, 1978.
6. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – Т., 1993.
7. O'zbekiston tarixi. – Т., 1997.
8. Temur va temuriylar sultanati. – Т., 1994.
9. Shahrisabz. Ming yillar merosi. – Т., 2002.
10. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Б. Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973.
11. Булатов М. Мавзолей Саманидов - жемчужина архитектуры Средней Азии. – Т., 1978.
12. Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XII вв. – Т., 1984.
12. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. очерки искусства Средней Азии. – Т. 1989.
13. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1989.

VI asrda O'rta Osiyoga bostirib kelgan arablar madaniyat darajasi o'zinikidan ancha baland bo'lgan mazkur hududni yagona boshqaruvga asoslangan davlat bo'lmay, kichik-kichik mustaqil davlatchalar o'rtasidagi o'zaro urushlaridan foydalanim osonlik bilan egallaydi. Dastlab Umaviylar, keyinchalik Abbosiylar hukmronligi ostida bo'lgan O'rta Osiyo xalqlari islom dini va arab madaniyatini qabul qilishga majbur etiladi.

O'rta Osiyoda rivojlangan o'rta asrlar davri mahalliy feodal hokimliklari o'rnida yagona markazlashgan feodal davlatlari tashkil topishi bilan boshlanib, to temuriylar davlati inqiroziga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Arablar bosib olingen O'rta Osiyo yerlarini "**Movarounnahr**" (daryo orti) deb atay boshlaydilar. Bu davrni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlari xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin. Davrning birinchi bosqichi IX-XIII asr boshlarini o'z ichiga oladi. IX asrda O'rta Osiyoda arablar huikumronligi tugatildi. Bu davrda O'rta Osiyoning shimolida Qarluqlar, O'g'uzlar davlatlari, janubi va markazida Tohiriyalar, Safforiular, Somoniylar davlatlari tashkil topdi. Dastlab markazlashgan davlat tepasiga Somoniylar (IX-X) sulolasini keladi, so'ngra uning iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlangan hududlarini uchta turkiy davlatlar - Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Saljuqiylar (XI asrda) egallaydi. Shu bilan birga XII asr o'rtalaridan Qoraxoniylar va Saljuqiylarga tegishli yerlarda Buyuk Xorazmshohlar davlati vujudga keldi, biroq bu davlat mo'go'g'ullarning bosqini natijasida tugatiladi.

Ilk o'rta asrlarda uch qism (kuxandiz, shahriston va rabod) dan iborat bo'lib shakllangan shahar hayotida rivojlangan o'rta asrlar davriga kelib tub ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar yuz beradi. O'rta Osiyo shaharlari **Eski Termiz, Afrasiyob, Marv, Axsikent, Buxoro, Urganch, Qanqa, Shohruxiya, Kesh, Nasaf** va boshqalarda olib borilgan keng ko'lamli arxeologik izlanishlar va ularni yozma manba materiallari bilan qiyosiy solishtirishlar tufayli bu davr shahar madaniyati, shaharlarning tarkibi, ularning tevarak – atrof aholi punktlari bilan o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalari, shaharlarning hunarmandchilik va savdo-sotiq salohiyati, karvon yo'llarining yo'nalishi, ichki va tashqi bozor, har bir shahar hayotida ustivor hisoblangan ishlab chiqarish tarmoqlari o'rganiladi.

O'rta Osiyo shaharlari o'rta asrlarning rivojlangan davrida juda jo'shqin taraqqiy etadi. Manbalarga ko'ra, IX-X asrlarda shahar aholisi Movarounnahr umum aholi sonining 25-30% ni tashkil etgan. XI asrdan shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi o'zgaradi. Ular to'laligicha hunarmandchilik va savdo-sotiq markazi qiyofasini olgan. Shuningdek, shaharlarning u yoki bu hunarmandchilik tarmoqlari bo'yicha ixtisoslashuvi jadallahashi. Masalan, Qadimgi Farg'onaning poytaxt bo'lgan Axsikent, Toshkent vohasining Ohangaron daryosi havzalarida qad ko'targan qator shaharlarda - **Tunkent, Namudlig', Dahketda** metallurgiya sanoati jadal rivojlanadi.

Shaharlar maydoni kengayadi, shahriston va uning atrofida joylashgan rabodlarda iqtisodiy hayot taraqqiy etdi.

Somoniylarning mamlakatni boshqaruv tizimidagi markazlash-tirish siyosati uning iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlanishiga xizmat qildi. Shaharlar o'sdi va ularning iqtisodiy-savdo aloqalari mustahkamlandi. Masalan, arab tarixchi va geograflarining ta'kidlashicha birgina **Shosh va Iloqda** bu davrda 50 dan ortiq shaharlar bo'lган. Arxeologik materiallar va yozma manba'larga ko'ra, Shosh – Iloq vohasi IX-X asrlarda Movarounnahrning yirik metallurgiya xom ashysi bazasi bo'lган. Arab tarixchisi Makdisining xabariga qaraganda, bu zaminda oltin va kumush konlari ko'p bo'lib, naqshiga tillo suvi berilgan Shoshning keramika mahsulotlari Sharq olamida mashhur bo'lган. Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha Shosh - Iloq vohasida metallurgiya sanoati bilan bir qatorda hunarmandchilikning kulolchilik va shishasozlik, to'qimachilik yo'naliishlari ham yuksak darajada rivojlangan edi.

X asr oxirlaridan Movarounnahrda Qoraxoniylar davlati shakllandı. Qoraxoniylar mamlakatni boshqarishda somoniylar davlat boshqaruv tizimidan foydalanadi. Shuningdek, pul zarb etish an'analarini ham qabul qilganlar. Buxoro, Iloq shaharlarida kumush pul zarbxonalari bo'lган. Bu haqda arab tarixchisi **Ibn Xavkal «Iloqda oltin va kumush pullar zarbxonalari faoliyat ko'rsatishda davom etardi»** deb yozgan edi.

Bu davrning madaniy hayotida yuz bergen yuksakliklar tarixda tengsiz edi. Ilm-Fan, din va tasavvuf, me'morchilik va san'at, musiqa san'ati gullab yashnadi. Umuman, IX-XIII asrning boshlari Movarounnahr shaharlari uchun, ilm-fan va madaniyat sohalarida gullah davri bo'ldi. Dunyoga nomi mashhur qomusiy allomalar – Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, al-Farg'oniy, Abu Nasr Farobi, Umar Hayyom kabilar yashab ijod etishdi.

Dunyoviy bilimlar bilan birga diniy bilimlar rivojiga katta e'tibor qaratildi. Abduholiq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro va boshqalarni diniy bilimlar – tariqat asoschilari sifatida qilgan ishlari tafsinga loyiq.

IX-X asrlarga oid ayrim yodgorliklar saqlanib qolgan bo'lsada, mazkur davrda me'morchilik va binokorlik texnikasi rivojlangan edi. Pishgan g'isht, ganch, ravoq, gumbaz, toqlar qurilish sohasidagi yangiliklar bo'ldi. Pishgan g'ishtdan maqbaralar qurishda, turar joy zallarida, kanalizatsiya quvurlari qurishda ishlatilgan. Turar joylarning asosiy qismida xom g'isht ishlatilgan. Sinchli uylar ko'proq qurila boshlandi. Binolar qurilishida geometriya fanidan tobora ko'proq foydalanildi. O'rta Osiyo me'morchiligida arab xalifaligi xalqlari me'morchiligidagi xos umumiy jihatlar ham bor edi. Bu narsa masjid, madrasa va boshqalarda ko'rish mumkin.

Mazkur davr me'morchiligineng eng yorqin namunasi Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasidir. Maqbaraga Ismoil, uning nevarasi Nasr ibn Ahmad dafn qilingan. Maqbara binolarni tuzilishi juda sodda. U kub shaklida bo'lib, tosh gumbaz qilib yopilgan. To'rtburchak xonaning gumbazi sakkizta ravoq ustiga qurilgan va sakkiz qirrali asosga o'matilgan. Ravoqlardan 4 tasi xonaning tepe burchaklariga qurilgan. Binoning tepasida yorug'lik teshiklari o'matilgan. maqbaraning to'rttala old tomoni ham bir xilda ishlangan. Har qaysi devorning o'tasiga katta ravoq o'matilgan, burchaklari esa, uch chorakli mustahkam g'isht ustunlar bilan ishlangan. Devorlarning ichi va tashqi tomoni naqshkor g'isht bilan ishlangan. Maqbara qurilishida O'rta Osiyo an'anaviy me'morchiliginini yanada rivojlanganligini ko'rish mumkin.

X asrda Tim qishlog'ida qurilgan Arabota maqbarasi ham O'rta Osiyo me'morchiligineng noyob durdonalaridan hisoblanadi. Maqbara X asrning 70-yillarda (977 y.) qurilgan. Arabota maqbarası XI-XII asrlar O'rta Osiyo me'morchiligineng yangi bosqichga ko'tarilishi davri namunasidir. Binoning katta ravoqli baland peshtoqli naqshlar bilan ishlangan, peshtoq atrofida o'ymakor naqsh bilan arab harflari yozilgan.

Afrosiyob, Varaxsha, Poykand va boshqa qadimiy shahar xarobalaridagi bino qoldiqlari o'rganilgan. Afrosiyobning g'arbiy qismidagi juda katta bino xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, devorlari ganch naqshlari bilan bezatilgan. Ganch suvog'idan yelimli bo'yoq bilan solingan uchta odam siymosi tasvirlangan rasm topildi.

1960-1964 yillarda O'z FA arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan yuqoridagi saroy xarobalari bilan birga mustahkam devor bilan o'rab olingen bir nechta binolar topildi. U xona, yo'lak va hovlidan iborat edi. Bino xonalari naqshlar bilan bezatilgan, polga pishgan g'isht to'shalgan. Derazalarga rangdor oynalar ishlatalgan. Afrosiyobdan VII asrda o'ymakorlik keng yoyilganligini ko'rish mumkin. Varaxsha va Afrosiyob aholisining uyulari devorlari ganch suvoq qilingan va naqshlangan.

Me'morchilikda turli bezakli uslublardan foydalanila boshlangan. IX-X asrlarda arab imlosining islimiy, kufiy, XI asrdan nasx turlaridan foydalanila boshlangan; pishiq g'ishtlar och malla rangda bo'lgan. XII asrdan boshlab rangli koshinlardan foydalanila boshlangan, musulmon inshootlarida moviy, yashil, zangori koshinlardan keng foydalanilgan. Bu davrda tasviriy san'at va naqqoshlikda murakkab o'simlik-geometrik gulli naqshlar ishlatalgan. X asrning ikkinchi yarmida Samarcand guzarlarida uy hayvonlari tasvirlari sotilgan (Ibn Xavqal). X asr o'talarida Buxoroda "sanamlar" sotilgan (Narshaxiy). Afrosiyobdan topilgan sopol idishlar kulolchilik rivojlanganidan dalolatdir.

Bu davrdagi musulmon me'morchiligining eng ko'zga ko'ringan inshootlari orasida masjidlar alohida ahamiyatga egadir. Ularning uch turi mavjud bo'lgan: Jome (Juma) masjidi (shaharda juma va Hayit namozlari o'qiladigan umumshahar aholisi uchun), guzar masjidlari (mahallalarda kunlik namozlarni o'qishga mo'ljallangan), Namozgoh (shahar tashqarisidagi yo'lovchi va karvondagilar uchun mo'ljallangan) masjidlar. Masjidlarning diqqatga sazovor jihatni ibodat qilinadigan mehrobi g'arbg'a, qibлага – Makka tarafga qaratib quriladi.

Ilk masjidlar bizning kunimizgacha to'laligicha saqlanib qolmagan bo'lsa-da, ularidan ba'zilarining ayrim qoldiqlari yetib kelgan. XI-XII asrlarda qurilgan masjidlardan Buxoro viloyatidagi Dehgoron masjidining 9 gumbazi saqlanib qolgan. Bino devorlari xom g'ishtdan 4 ta yumaloq ustun pishiq g'ishtdan qilingan. G'arbiy Turkmanistondagi Misriyona masjidining peshtoq qismi saqlanib qolgan, xolos.

Masjidlar uchun alohida xususiyatga ega bo'lgan jihat bu minoralardir. Minoralar musulmonlarni namozga chorlashda muhim ahamiyat kasb etgan. 1127 yilda Buxoroda Minorai Kalon, 1196-1198 yillarda Vobkent minorasi, 1108-1109 yillarda Jarqo'rg'on minorasi quriladi. Minoralarning har bir «belbog'i» ga alohida rang bilan o'zgacha zeb berilgan.

Arxeologik qazishlar natijasida IX-X asrlarga oid Termizdagi Chorsutun, Buxorodagi Mag'oki Attor masjidlari qoldiqlari topildi. Har ikkala binoning gumbazli tomi g'ishtdan ishlangan yumaloq ustunlar ustida turadi.

Maqbaralar ham alohida diqqatga sazovordir. Islom dini O'rta Osiyo aholisi tomonidan qabul qilingach, hukmron sulola vakillari ajodolari, o'zları va avlodlari uchun maqbaralar qurdirganlar. Miyondagi Abu Said maqbarasi (1051 y.), Seraks (Turkmaniston) da Seraxsobobo yoki Abul Fazl maqbarasi (1125 y.), Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi (XII asrning 40-yillari) ilk maqbaralar sirasiga kiradi. Samarcanddagagi Shohi Zindadagi ayrim maqbaralar XII asrga oiddir. Urganchdagi El-Arslon va Takeshning (Ko'xna Urganch) maqbaralari, Xorazmdan XI-XIII asrlarga oid Bo'ronqal'a, Noibqal'a, Qavatqal'a chorbog'lari, Faxriddin Roziy va shayx Sharif mozori maqbaralari saqlanib qolgan., Termiz yaqinidagi Sulton Saodat majmuasi, O'zgandagi Qoraxoniyalar maqbarasi ham diqqatga sazovordir.

Jamoat binolari orasida Termiz atrofidan IX asrga mansub xom g'ishtdan qilingan Qirqqiz nomli chorbog'-saroy xarobalari topilgan bo'lib, u to'rtburchak shaklda qurilgan va gumbazga ega bo'lgan. Buxoro-Navoiy viloyatlari oralig'ida joylashgan Raboti Malik karvonsaroyi qoldiqlari ham diqqatga sazovor bo'lib, uning peshtoq qismigina saqlanib qolgan.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kulolchilik, shishasozlik, zargarlik, misgarlik, temirchilik, umuman olganda mavjud yirik shaarlarda hunarmandchilikning 32 dan ortiq turi mavjud bo'lgan. Kulolchilikda sirdan foydalanila boshlanib, turli epigrafik tasvirlar bilan birga turli hayvon va qushlarning tasvirlaridan ham foydalanila boshlangan. Kulolchilikda o'ziga xos maktablar – Marv, Niso, Samarcand, Toshkent, Farg'ona, Taroz, Kesh kulolchilik maktablari va markazlari paydo bo'lgan.

XII asr oxiri – XIII asrga kelib kulolchilik maxsulotlarini ishlab chiqarishda sifati kamayib, yashil rang bilan anglab bo'lmas suratlar chizilgan. Buni bevosita ko'chmanchi xalqlar bilan olib borilgan o'zaro madaniy aloqalar, qolaversa mo'g'ullarning O'rta Osiyoga bostirib kelishi bilan bog'liqdir.

Mo'g'ullar istilosi O'rta Osiyo xalqlari hayotidagi taraqqiyotga og'ir zarba berdi. Siyosiy parokandalik, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot butunlay izdan chiqdi. Termiz, Nasaf (Shulluktepa), Samarqand, Buxoro, Urganch shaharlari butunlay vayron etildi.

Chig'atoy ulusi tarkibida bo'lган O'rta Osiyo xalqlari yurt ozodligi uchun to'xtovsiz kurash olib bordilar. XIII asr oxiri - XIV asr boshlarida xo'jalik hayot tiklana boshlandi.

XIV asrning I-yarmida Kebekxon (1318-1326) Qarshi shahriga asos soldi. Lekin mo'g'ullar Movarounnahr madaniy hayotini yuksaltira olmadilar.

XIV asr 70-yillarda Amir Temurning hokimyatga kelishi, markazlashgan davlatning tashkil topishi butun XV asr mobaynida Movarounnahr va Xurosonda madaniy hayot taraqqiyotini belgilab berdi. Amir Temur Movarounnahrni madaniyat, san'at o'chog'iga aylantirish uchun katta ishlarni amalga oshirdi. Uning rahbarligida saroylar, masjidlar, madrasalar, maqbaralar, bog'lar barpo etildi.

Amir Temur Samarcanda atrofida Misr, Damashq, Bag'dod, Sultoniya, Sheroz nomlari bilan qishloqlar barpo qildirdi. Amir Temur davrida muhtasham inshootlar qurildi. Bular jumlasiga Shohi Zinda maqbaralari, Bibixonim Jome' masjidi, Go'ri Amir, Shahrisabzidagi Oqsaroy, Jahongir maqbarasi, Gumbazi Sayidon, Qarshidagi Odina masjidi, Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi. Toshkent yaqinidagi Zangi Ota maqbarasini kiritish mumkin. Bulardan tashqari Samarcanda Amir Temur qarorgohi Ko'ksaroy, Bo'stonsaroy, shahar atrofida Bog'i Chinor, Bog'i Baland, Bog'i Bihisht, Bog'i baland kabi bog'lar barpo qilindi.

Amir Temur davrida Movarounnahrda boshlangan madaniy yuksalish Ulug'bek davrida, Xurosonda esa, Shohrux va Xusayn Boyqaro davrida davom etdi. Ulug'bek Samarcandni obod qilishga alohida e'tibor qaratdi. Uning davrida Registon maydoni shakllandi. U qaytadan rejalahtirilib, maydonga Ulug'bek madrasasidan tashqari peshtoqli va ulkan gumbazli xonakoh, karvonsaroy, o'ymakor yog'ochlardan ishlangan masjidi Mukatta' bino qilindi. Ikki yuz o'n gumbazli Ko'kaldosh jome' masjidi qad ko'tardi. Bu oliy imoratlardan faqat Ulug'bek madrasasigina bizning davrimizgacha saqlangan. U ikki qavatli, xujralarining old tomonlari to'rt qirrali ayvon, burchaklarida darsxonalar, g'arbiy tomonida esa, masjid joydashgan. Imorat peshtoqi sharq tomonga, Registon maydoniga qaragan. Madrasa peshtoqi, to'rt burchagidagi minoralari va devorlari naqshinkor parchin va koshinlar bilan qoplangan.

Ulugbek davrida Shoxizinda ansambl kompozitsiyasi jixatidan tula kurib bitkazildi. Uning markaziy kismidagi nakshinkor obidalar orasida ayniksa, Kozizoda Rumiy makbarasi me'moriy jixatdan eng ajoyibi xisoblanadi. U peshtokli, ulkan gumbazli ziyoratxonadan iborat bulib, koshinkor va bekiyos jilvali turli rangli parchinlar bilan nakshlangan. 1417 yilda Buxoroda, 1417-1420 yillarda Samarkand, 1433 yilda G'ijduvon madrasalari kurildi.

Ulug'bek tomonidan qurdirilgan me'moriy binolar ichida tarhi, matematik yechimlari, naqsh va bezaklari jihatidan eng nodir inshootlardan hisoblangan, 1428-1429 yillarda Afrosiyob xarobasi yaqinida Naqshi Jahon degan joyda uch qavatli binodan iborat bo'lgan rasadxonasi alohida o'ringa ega. Bu rasadxona Shaqning ko'p asrli ilmu ma'rifat va madaniyati tarixida shuhrat topgan rasadxonalar orasida Movarounnahrda qad ko'targan yagonasidir. Bugungi kunda mazkur rasadxonaning faqat yer osti qismigina saqlanib qolgan. 1908 yilda V.L.Vyatkin rasadxona Faxri sekstantining yer osti qismini topadi. 1948 yildagi arxeologik qazishlar natijasida rasadxona radiusi 40 metrdan aniqroq doira shaklidagi binodan iborat bo'lganligi aniqlandi. Faxriy sekentanti binoni to'rt qismiga bo'ladi. Ularda katta-kichik xonalar bo'lgan. Abdurazzoq Samarcandiying ma'lumotlariga ko'ra, rasadxona devorlarida to'qqiz osmon; graduslar, daqiqalar, soniyalar bilan to'qqiz osmon doirasi, yetti sayyora, muhim yulduzlar, tog'lar, dengiz va cho'llar bilan birga yer shari tasvirlangan edi. Ulug'bek kutubxonasida fanning turli sohalariga mansub 15000 tomlik kitoblar saqlangan.

Jamoat binolari qurilishi me'morchiligidagi Registon maydonida bino qilingan Mirzoyi hammomi va karvonsaroyi, «Bog'i maydan» da qad ko'targan «Chilsutun» («Qirq ustun») va «Chinnixona» saroylari diqqatga sazovordir. Tillakori madrasasi o'mida bo'lgan Mirzoyi karvonsaroyida ko'pincha xorijiy mamlakatlardan kelgan savdogarlar qunishgan.

XV asr II-yarmida Xurosanda madaniy hayot taraqqiyottida Alisher Navoiy muhim rol o'ynadi. Unga zamondosh muarixlarning shahodat berishicha, Xurosonda, xususan Xirot va uning buluklarida Navoiy tashabbusi bilan uch yuzdan ortiq jamoat binolari: masjid, madrasa, maqbara, xonakoh,

hammom, shifoxona, saroy, istirohat bog'lari, rabot va karvonsaroylar hamda sug'orish inshootlaridan ariq (kanal), hovuz, ko'prik, koriz, bandlar (suv omborlari) qurilgan. Muarrix Xondamirming ma'lumotiga ko'ra, Alisher Navoiy o'z mablag'i hisobidan 52 ta rabot, 19 hovuz, 16 ko'prik, 9 hammom, bir qancha madrasa, masjid, xonakoh va shifoxonalar qurdirgan. Astrobod shahrida qurilgan Mir saroyi va Jome' masjidi, Marv shahridagi Xusraviya madrasalarini qurdirgan. Shuningdek u janglar va zilzilalar natijasida vayron bo'lган inshootlarni ham qayta tiklattirgan. Jumladan, XIII asrda Hirotda qurilgan Jome' masjidi, 1405-1418 yillarda Mashhadda qurilgan Gavharshod masjidi, XI asr boshida Gurgon yaqinida o'rnatilgan Qobus minorasi, XI asrda Marv va Hirot oralig'ida qurilgan Arslonjoziba raboti va ko'plab boshqa inshootlar ta'mir ettirilgan. Bundan tashqari Alisher Navoiy Samarqandda Abusaid ajdodlari maqbarasi va ishratxona qurdirgan.

Temuriylar davrida tasviriy san'at sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishiladi. Behzod, Mirak Naqqosh, Qosimali, Mahmud Muzahhib, Xoji Muhammad Naqqosh va Shohmuzaffar kabi mo'ykalam sohiblari yetishib chiqqan. Bizgacha saqlanib qolgan tasviriy san'at namunalari va yozma manbalar Movarounnahr va Hirot tasviriy san'atining o'ziga xos uslubini, musavvirlar ijodiyotining hayoliy mavhumlikdan hayotiylikka, realistik tasvirga tomon rivojlanib borganini ko'rsatadi. Bu jihatdan, ayniqsa Behzod asos solgan Hirot musavvirlar maktabi ulkan yutuqlarga erishadi. Bu davr tasviriy san'at obidalari o'zining mavzui va voqeiyligiga qarab portretlar, hayotiy lavhalar, tabiat manzaralari, bino va badiiy asarlarga ishlangan tasvirlardan iborat bo'lган. Buyuk siymolar qiyofasi tasvirlari orasida Jomiy, Navoiy, Abdullo Xotify, Behzod, Xusayn Boyqaro, Bobur, Shayboniyxon va boshqalarning portretlari bizgacha saqlanib qolgan.

Kamoliddin Behzod tomonidan chizilgan tasvirlar o'zining hayotiyligi Bilan ayniqsa diqqatga sazovordir. Uning bir tasvirida ko'plab quruvchi-binokor, duradgor, toshtaroshlovchilar, arava va filga ortib kelinayotgan qurilish materiallari, beliga qilich taqqan va gorvon ko'tarib quruvchilarga o'shqirayotgan qutvol – qurilish boshlig'i tasvirlangan.

Zamondoshlari tomonidan Moniyi soniy, keyingi davrda esa, «Sharq Rafael» deb nom olgan Behzod Xusayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Shayboniyxonlarning siymolarini, Xusrav Dehlaviyning «Layli va Majnun», Sharofiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlariga chizgan tasvirlari o'zining ta'sirchan va jozibadorligi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, XIV asrning II-yarmi - XV asr mobaynida Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda shaharsozlik, me'morchilik, tasviriy va amaliy o'z taraqqiyotining yuqori darajasiga ko'tarildi. Bu esa, keyingi davrdagi madaniy hayotga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

- 1. O'rta asr asr tushunchasi va uning bosqichlari haqida nima bilasiz?**
- 2. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda shahar hunarmandchiligining rivojlanishi haqida nima bilasiz?**
- 3. Ilk o'rta asrlar davrida O'rta Osiyo tarixida qanday muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bo'lib o'tdi ?**
- 4. Ilk o'rta asrlardagi ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligining o'ziga xosliklarini gapirib bering?**
- 5. Ilk o'rta asrlarda san'atning yuksalishi haqida nima deya olasiz?**

### **11-MAVZU: SO'NGGI O'RTA ASRLAR DAVRI ARXEEOLOGIK YODGORLIKHLARI (2 SOAT-SEMINAR)**

REJA:

1. O'rta Osiyo Shayboniyalar va Ashtarkoniylar hukmronligi ostida.
2. Diniy me'morchilik (masjid, madrasa, xonaqoh).
3. Tasviriy san'at (miniatyura).
4. Kulolchilik.

## **TAYANCH TUSHUNCHALAR**

Shayboniyalar davlati, Abdullaxon II, Ashtarkoniylar davlati, Buxoro xonligi, Xeva xonligi, Qo'qon xonligi, Sherdor madrasasi, Tillakori madrasasi, Mir Arab, Ko'kaldosh, Ichanal'a, Sitorai Mohi Xossa, Qarshi shahridagi me'moriy obidalar.

### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.
4. Nasriddinov Q. Qarshi qal'asi. – Qarshi, "Nasaf", 2005.
5. O'zbekiston tarixi. – T., 1997.
6. Qarshi 2700. – T., 2006.
7. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – Т. 1989.
8. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1989.

XVI asr boshida Temuriylarga tegishli yerlarni zabit etish natijasida Shayboniyalar davlati vujudga keladi. Dastlabki paytlarda Shayboniyalar davlati ancha keng hududni qamrab olgan edi. Movarounnahr uning o'zagini tashkil qilardi. Bundan tashqari uning tarkibiga Xorazm, Sirdaryo sohilidagi shaharlar, Toshkent va uning atrofidagi tumanlar, butun Farg'ona vohasi, hozirgi Turkmanistonning Marv shahrigacha bo'lган janubiy tumanlari kirar edi. Mashhad va Astrobodni o'z ichiga oluvchi Xuroson, shuningdek viloyatning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rinnegi egallovchi Hirot ham bir oz vaqt Shayboniyalar davlati tarkibiga kirgan. Balx va uning atrofidagi yerlar Shayboniyalarga yarim qaram holatda edi.

Shayboniyxon tarqoq mayda mulklarni o'z hokimiyat ostida birlashtirib, qisqa vaqt ichida siyosiy hokimiyatni markazlashtirishga erishdi. Shayboniyxonning vafotidan keyin u boshlagan ishni Ubaydulla sulton va Abdullaxon II lar davom ettirishdi. Ayniqsa Abdullaxon II tomonidan olib borilgan urushlar natijasida markazlashgan davlat barpo etish mustahkamlandi. 1557 yilda hokimiyat tepasiga kelgan Abdulla harbiy yurishlar band bo'lganligi sababli 1561 yildan otasi Iskandarni xon deb e'lon qiladi. 1573 yilda Balxni, 1574 yilda Hisorni, Shahrisabz va Qarshini, 1578 yilda Samarqandni egallaydi. 1582 yilda Toshkentni o'ziga buysundiradi. 1583 yildangina (otasi vafot etgach) rasman xon deb e'lon qilinib, 1596 yilda vafot etgungacha boshqaradi.

Abdullaxon II davrida davlatning iqtisodiy va madaniy hayoti muayyan darajada barqarorlashdi. U ayniqsa qurilish ishlariga katta e'tibor berdi. Uning davrida Buxoro va Qarshi shaharlariga alohida e'tibor berildi.

Ashtarkoniylar sulolasining asoschisi Joni Muhammad Sulton Astraxan xonligida hukmronlik qilgan chingiziylar avlodiga mansub bo'lib, Ivan Grozniy Astraxanni bosib olgach Shayboniyalar saroyidan boshpana topgan edi. Bu yerda u Abdullaxonning singlisiga uylanib oila a'zosiga aylangan edi. Shayboniyalar sulolai butunlay qirib tashlangach zodogonlar Joni Muhammadga taxtni egallahni taklif qilishadi. Lekin u taklifni o'g'li Din Muhammad Sulton foydasiga taxtdan voz kechadi. Bu vaqtida Obivardda bo'lган Din Muhammad Buxoroga yetib kelmay halok bo'ladi va uning ukasi Boqi Muhammad xon deb e'lon qilinadi. Jonibekning uchinchi o'g'li Vali Muhammad taxt vorisi deb e'lon qilinadi. Shu tariqa Ashtarkoniylar hokimiyat tepasiga kelib, Buxoro taxtini 1920 yilgacha boshqargan. Muhammad Rahim hukmronligi davridan (1753-1758) boshlab xonlik amirlik deb e'lon qilinadi.

1512 yilda Xorazm mustaqil davlatga aylanadi, biroq Shayboniy xonlar bilan doimiy ravishda o'zaro urushlar bo'lib turgan.

Buxoro xonligida siyosiy parokandalik avjiga chiqqan bir paytda XVIII asrning boshlarida Farg'ona vodiysi Buxoro xonligidan ajralib chiqib mustaqil davlatga aylanadi.

Shu tariqa Orta Osiyo hududida bitta amirlik va ikkita xonlik paydo bo'lib, uzlusiz davom etgan o'zaro urushlarga qaramay bu hududda yashagan xalqlarning madaniy hayotida o'ziga xos yuksalishlar bo'lди.

Ko'rib chiqilayotgan davrda me'morchilik sohasidagi taraqqiyotni alohida ta'kidlash joiz. Madrasalar, masjidlar, maqbaralar, ko'priklar, bandlar qurilishiga jiddiy e'tibor berildi.

XVI-XIX asrlarda qurilgan binolar orasida madrasalar muhim o'rин egallaydi. Buxorodagi Mir Arab (1535-1536), Modarixon (1566), Abdullaxon (1588-1590), Ko'kaldosh (1568-1569), Abdulazizzon (1662) madrasalari yuksak badiiy bezaklari va mahobatlari bilan ajralib turadi.

Samarqandda bugungi kungacha o'zining go'zalligi bilan dunyoni lol etib kelayotgan, «Samarqandning yuragi» nomini olgan Registon ansamblidagi Sherdor va Tillakori madrasalari quriladi. O'z davrida Samarqandning hokimi bo'lган Yalangto'sh Bahodir tomonidan 1619-1636 yillarda Ulug'bek davrida qurilgan xonaqohning o'rnida Sherdor, Mirzoyi karvonsaroyi o'rnida 1646-1647 yillarda Tillakori madrasalari qurdiriladi. Sherdor madrasasi ikki qavatli xujralardan iborat. Peshtoq qismida turli sirli koshin va parchalardan ohuni quvib ketayotgan sher va uning orqasidan chiqib kelayotgan quyosh tasviri nihoyatda jumjimador qilib ishlangan. Madrasaning ikki tarafida esa, uch qavatli minora qurilgan. Bugungi kunda minoralarning faqat pastki qatori saqlanib qolgan. Madrasaning peshtoq qismida binoning buyurtmachi-qurdiruvchisi (Yalangto'sh Bahodir) va me'morning ismi – Abul Jabbor bitilgan.

Tillakori madrasasi ham Ulug'bek va Sherdor madarsalari qurilish uslublarini takrorlagan holda, ichki bezaklari – tilla suvi yuritgan «kundal» uslubi bo'yicha qurilgan.

Umuman olganda Registon majmuasini qurilish uslubi Buxoro me'morchiligidagi xos bo'lib, Chor Bakr me'morchilik ansambliga xos ayrim jihatlarni o'zida aks ettirganligini ko'rish mumkin.

Bu davrda xonaqohlar qurilishiga alohida e'tibor berilgan. Buxorodagi Bahouddin (1544), Karmanadagi Qosim shayx (XVI asrning 80-yillari), Devonbegi (1610-1620), Samarqanddagi Abdiburun (XVII asr) xonaqohlari shular jumlasidandir.

Toshkentda ham bu davrda ajoyib binolar qurilgan edi. Hozirda Chorsuda XVI asrda qurilgan Ko'kaldosh madrasasi bugungi kungacha saqlanib qolgan o'ziga xos qoplamasi bilan ajralib turadi. O'sha yerda Kaffol Shoshiyning maqbara-xonaqosi va hozirgi vaqtida jome' masjid bo'lган Baroqxon madrasasasi qurilgan.

Maqbaralar shaklida qurilgan Xevadagi Paxlavon Mahmud, Farg'onadagi Dahmai shoxon, Qo'qondagi Modarixon, Samarqanddagi Abdiberdi binolari imoratlar orasida alohida o'rин tutadi.

Xevada barpo etilgan ko'pgina madrasalar XVII asrga taalluqlidir. Ular orasida Arab Muhammad (1616), Xo'jaberdibiy (1688), Sherg'ozixon (1719-1720), Muhammadamin inoq (1765), Qutlimurod inoq (1809), Shermuhammadbiy (1810), Polvonbobo (1810) va madrasalar orasida eng kattasi Muhammad Aminxon (1851) madrasasini ko'rsatib o'tish mumkin.

1842 yilda Xeva tevaragida Yangi qal'a devori tiklandi. Uning o'nta darvozasi bo'lib, aholisi zinch yashaydigan rabotlari, shahar atrofi bog'lari va imoratlarini o'ziga qo'shib oldi. Natijada katta xalqa «tashqi shahar» - Dishanqal'a, ichkarida qolgan «ichki shahar» - Ichanqal'a deb atala boshlandi.

XIX asrning boshlarida Buxoro va Xorazm me'morchiligidagi qadimiy an'analarni saqlagan holda zamon ruhi bilan boyib bordi. Saroy majmualari, madrasa, masjid, hammom, kasalxonalar va boshqa shunga o'xshash davlat va jamoat binolari qurildi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida nafaqat Buxoro va Xorazmda, balki butun Turkiston va Xurosonda ovoza bo'lган Oblaqul va Ibrohim Xofizovlar, Mo'minjon Solihov, Shirin Murodov va boshqa ustalar yetishib chiqqan.

Xorazm me'morchilik maktabining sarkori Odina Muhammad Murod, pardoz hamda naqshinkor parchinlarni joylashtirishning sir-sinoatlarini mukammal egallagan usta kulol Nurmuhammad, Abdujabbor, uning o'g'li So'fimuhammad Niyozi va Abdullalardir.

XX asr boshlarida qurilgan Islom Xo'ja minorasi Xevanining dovrug'ini olamga taratib, viqor bilan turibdi. Uning yaratilish tashabbuskori va xomiysi Asfandiyorxonning bosh vaziri Islom Xo'jadir.

Xevadagi yana bir obida Qozi kalon madrasasi bo'lib, uning qurilish xarajatlari, qurilishda ishtirok etganlarni ovqatlantirish, ularga ish haqi berish ishlarini huquq ilmining bilimdoni shayxulislom – Salimoxun qozi kalon bo'lgan.

Turkiston Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach o'lkaza yevropacha qurinishdagi me'morchilik uslubi kirib keldi. Milliy an'anaviy uslublar bilan birga rus me'morchiligidagi xos uslublar qo'llanila boshlandi. Jumladan, xalq me'morchiligidagi paxsa, guvala, xom g'isht va yapaloq (musulmon g'ishti) qo'llash bilan birga to'g'riburchak yuzli (salloti) g'isht, faner, tunuka, oyna kabi qurilish ashyolaridan keng foydalanila boshlangan.

Yevropa me'morchiligidagi xos bo'lgan ayrim uslublarni o'sha davrda qurilgan Buxoro amirining yozgi saroyi bo'lgan Sitorai Mohi Xosa saroyida ko'rish mumkin. Uni ko'rishda Usta Shirin Murodovning xizmati ayniqsa katta bo'lgan.

Toshkent vohasi va Farg'onona vodiyisidagi me'morchilikda asosan «qashqarcha» uslubidan keng foydalanilgan.

So'nggi o'rta asrlarga oid Qarshi shahrida bunyod etilgan me'moriy obidalar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Amir Temur davrida bunyod etilgan Odina masjididan tashqari boshqa barcha obidalar ko'rib chiqilayotgan davrga taalluqlidir.

Ko'kgumbaz jome' masjidi Abdullaxon II davrida qurilgan eng yirik me'moriy obida hisoblanadi. Uning peshtoqida saqlanib qolgan yozuvlar M.Ye. Masson tomonidan o'qilganda 1590-1591 yillar (hijriy 999 yil) da Abdullaxonning buyrug'iga binoan Mir Baqo Bahodir ismli me'mor boshchiligidagi qurilganligi aniqlangan. Binoning balandligi 38,25 m, yon qismlarining uzunligi 14x14,6 m ni tashkil qilgan.

Charmgar masjid majmuasi XIX asr oxiri - XX asr boshlarida xalq orasida Qo'rg'oncha yoki Xonakoh masjidi nomi bilan mashhur. Uning tarkibiga masjid, darvozaxona, sag'ana (qabr), hovuz va minora kirgan. Masjidning g'arbiy qismida joylashgan qabr ustida qo'yilgan marmar toshda yozilishicha bu yerda taniqli shayx Abdurahmon Naqshbandiy dafn etilgan.

Mahallalarda bunyod etilgan guzar masjidlari orasida Chaqar (1860), Qo'rg'oncha (XIX asrning oxiri), Charmgar (XX asr boshlari) masjidlari ham bo'lgan.

Qarshi shahridagi me'moriy yodgorliklar orasida madrasalar alohida diqqatga sazovor. XIX asr oxirlaridagi ma'lumotlarga ko'ra Qarshi shahrida 20 ga yaqin madrasa bo'lgan. Bugungi kunda ulardan atigi Shermuhammad, Sharofboy, Xo'ja Abdulaziz, Qilichboy, Bekmir Qozoq madrasalari saqlanib qolgan, xolos.

Shermuhammad madrasasi XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida qurilgan. Ikki qavatli, o'rtasida keng dahliz, atrofida xujralari bo'lgan. Bu yodgorlikda hech qanday sirli koshin ishlatilmagan bo'lsada, yassi ravvoqlari va gumbazlari mohirona qurilgan.

Sharofboy madarasasi (XVIII asr) Charmgar mahallasida yashagan Sharofboy ismli kishi tomonidan qurdirligani.

Qilichboy madrasasi (1903) XX asr boshlarida Qarshida yashagan Qilichboy ismli kishining shaxsiy mablagi hisobiga qurilgan.

Xo'ja Abdulaziz madrasasi (1909) qarshilik Xo'ja Abdulazizboy tomonidan qurdirligani.

Bekmir Qozoq madrasasi (1911) Bekmurodboy tomonidan qurdirligani. Obida Buxoro uslubida qurilgan. Jami 23 ta xujra bo'lgan.

Qarshi hammomi (XVI asr) milliy me'morchilik uslubida qurilgan musulmon hammomi. Abdullaxon tomonidan qurdirligani.

Qashqadaryo ustida qurilgan ko'prik (XVI asr) ham Abdullaxon tomonidan qurdirilgan. Ko'prikning uzunligi 122,5 m, eni 8,2 m bo'lib, 14 ta ravoqqa birlashtirilib ustiga tosh yotqizilgan. Ko'prikning ikki tomonida ikkitadan to'rtta gumbazli qubba qurilgan bo'lган. Lekin vaqt o'tishi bilan ular buzilib ketgan edi. Shaharning 2700 yillik yubileyi arafasida ular yana qayta tiklandi.

Bulardan tashqari Qarshi shahri va uning atrofida sardobalar qurilganki, ular o'z navbatida cho'lli hududlardan o'tuvchi karvon yo'llari ustida qurdirilgan. Bunday sardobalar bugungi kunda Qarshi shahrida, Qamashi qishlog'ida, Maymanoq, Kasbi, Nishon, Chilgumbaz, Surxi kabi joylarda saqlanib qolgan.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kulolchilik, shishasozlik, zargarlik, misgarlik, temirchilik, umuman olganda mavjud yirik shaharlarda hunarmandchilikning 32 dan ortiq turi mavjud bo'lган. Kulolchilikda sirdan foydalanila boshlanib, turli epigrafik tasvirlar bilan birga turli hayvon va qushlarning tasvirlaridan ham foydalanila boshlangan. Kulolchilikda o'ziga xos maktablar – Marv, Niso, Samarcand, Toshkent, Farg'ona, Taroz, Kesh kulolchilik maktablari va markazlari paydo bo'lган.

Shunday qilib, so'nggi o'rta asrlarda o'zaro ichki urushlarning avj olishiga qaramay O'rta Osiyo madaniy hayotida taraqqiyot davom etganligini ko'rish mumkin.

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

- 1. O'rta asr asr tushunchasi va uning bosqichlari haqida nima bilasiz?**
- 2. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda shahar hunarmandchiligining rivojlanishi haqida nima bilasiz?**
- 3. Ilk o'rta asrlar davrida O'rta Osiyo tarixida qanday muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bo'lib o'tdi ?**
- 4. Ilk o'rta asrlardagi ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligining o'ziga xosliklarini gapirib bering?**
- 5. Ilk o'rta asrlarda san'atning yuksalishi haqida nima deya olasiz?**

**O'QUV MASHG'ULOTIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI**  
**1-MAVZU: ARXEEOLOGIYA FANIGA KIRISH**

<i>O'quv vaqtি</i>	<i>2 soat</i>
<i>O'quv mashg'ułoti shakli</i>	<i>Ma'ruza</i>
<i>O'quv mashg'ułoti rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>Arxeologiya fanining rivojlanish tarixi.</li> <li>Arxeologiya fanining maqsad va vazifalari.</li> <li>Arxeologik davrlashtirish va xronologiya.</li> </ol>
<b><i>O'quv mashg'ułoti maqsadi:</i></b>	Talabalarda arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi, arxeologik davrlashtirilish va xronologiya, arxeologik tadqiqot usullari haqida teran tushunchalar hosil qilish hamda ko'nikma malaka shakllantirish.
<b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b>	<p>Arxeologiyaning fan sifatidagi o'rni va o'rganish obyekti bilan tanishtirish;</p> <p>Arxeologiya fanining predmeti va vazifalari haqidagi tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish;</p> <p>Arxeologik yodgorliklar va davrlashtirish muammolari to'g'risidagi fikr va mulohazalarni tahlil etish;</p> <p>Arxeologiya fanining paydo bo'lishi va uning rivojlanish bosqichlari to'g'risida to'liq ma'lumotlar berish;</p>
<b><i>O'qitish metodlari va texnikasi</i></b>	Ma'ruza (kirish), tushuntirish, tahlil etish, mulohaza, muammoli savollar. "Aqliy hujum" metodi.
<b><i>O'quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i></b>	Jamoa bo'lib, individual.
<b><i>O'qitish vositalari</i></b>	Ilmiy adabiyotlar, ko'rgazmali materiallar, ma'ruza matni, jadvallar, doska, proyektor, ekran, o'quv savollari.
<b><i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i></b>	Og'zaki nazorat, mantiqiy savollar.

## O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK KARTASI

Faoliyat bosqichlari, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'QITUVCHI	TALABALAR
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish ( 10 daqiqa)	<p>1.1. Darsning mavzusi, maqsadi va rejalahshtirilayotgan o'quv natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>1.2. Vizual material yordamida o'quv mashg'ulotining rejasi va hususiyatlari bilan tanishtiradi (1-ilova).</p> <p>1.3. Arxeologiya fani to'g'risida tushuncha beradi (2-3-ilovalar).</p> <p>1.4. I.Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”, “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asarlari misolida tarixning barkamol avlod tarbiyasidagi o'mini ko'rsatib beradi (4-ilova).</p>	<p>Tinglaydi,yozadi Yozib oladi</p> <p>Tinglaydi, yozadi, fikr bildiradi.</p> <p>Tinglaydi, fikrlar bildiradi.</p>
2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)	<p>2.1. Arxeologiya fanining maqsadi va predmeti to'g'risida ma'lumotlar berib, misollar asosida tushuntiradi (5-6-7-8-9-ilovalar).</p> <p>2.2. Arxeologiya fanining vazifalarini bayon qiladi va misollar asosida ularning ahamiyatini tushuntiradi (10-ilova).</p> <p>2.3. Talabalarga muammoli vaziyat sifatida “Arxeologik kompleks” va uning turlari qanday bo'lishi mumkinligi to'g'risida o'ylab ko'rishni taklif etadi.</p> <p>2.4. Arxeologik yodgorliklar va davrlashtirish muammolari to'g'risidagi fikrlarni tahlil qilib izohlaydi (11-12-ilovalar). Talabalar ongida “aqliy hujum” metodi vositasida ushbu muammoli masalaga nisbatan bahsli fikrlar shakllanishiga harakat qiladi (13-ilova).</p> <p>2.5. Talabalarga fikr va mulohazalarini bildirib, masalaga nisbatan munosabatini bildira olishi uchun savollarni taklif etadi va munozarani tashkillashtiradi (14-ilova). Kuzatuvchi sifatida talabalarning javoblarini, fikrlarini nazorat qiladi va izohlaydi.</p> <p>2.6. Arxeologiya fanining paydo bo'lishi va uning rivojlanish bosqichlari haqida tushuncha beradi (15-16-17-ilovalar).</p>	<p>Tinglaydi, yozadi, savollar beradi, muhokama qiladi.</p> <p>Tinglaydi, yozadi, savollar beradi.</p> <p>Fikrlar bildiradi, mulohaza qiladi.</p> <p>Tinglaydi, eslab qoladi, fikrlari shakllanadi, ularni bayon qilishga harakat qiladi.</p> <p>Savollarni o'qiydi, fikrlarini individual tarzda bildiradi, babs-munozaraga kirishadi, o'zaro fikrlariga munosabat bildiradi va umumiy javobni qabul qiladi.</p> <p>Tinglaydi, yozadi, savollarga javob beradi, qo'shimcha fikrlarini bildiradi.</p>
3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosani keltiradi va faoliyat natijalarini izohlaydi.</p> <p>3.2. O'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini tahlil etadi.</p> <p>3.3. Keyingi o'quv mashg'uloti mavzusini e'lon qiladi: “Paleolit davri arxeologiyasi”. Mustaqil ta'lim uchun vazifalar beradi (18-ilova).</p>	<p>O'zaro va o'z-o'zini baholaydi.</p> <p>Fikrlarini bildiradi.</p> <p>Uy vazifasini yozib oladi, savollar beradi.</p>

## TEXNOLOGIK KARTAGA OID ILOVALAR

### 1- ILOVA

#### REJA:


- 1. Arxeologiya fanining rivojlanish tarixi.**
- 2. Arxeologiya fanining maqsad va vazifalari.**
- 3. Arxeologik davrlashtirish va xronologiya.**

### 2- ILOVA

**ARXELOGIYA**

Moddiy madaniyat manbalari asosida insoniyatning o'tmishini o'rgatuvchi fan hisoblanadi. Arxeologik manbalar tarixiy manbalarga nisbatan ancha qadimiydir. Uning ilk davri 2.5 million yilga borib taqaladi. Biz kishilik jamiyati tarixini 24 soat deb faraz qilsak, uning 23 soat-u 56 daqiqasi yozma manbalarsiz davrga, 4 daqiqasi yozma tarixga to'g'ri keladi. Demak, kishilik tarixinining juda katta davrini o'rGANISH arxeologik manbalarga tayanib olib boriladi.

### 3- ILOVA



### 4- ILOVA

“Хар қайси халқ ёки миллатнинг маънавиятини унинг тарихи, ўзига хос урф-одат ва анъаналари, ҳаётий қадрияларидан айри ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Бизнинг қадимий ва гўзал диёrimiz нафақат Шарқ, балки жаҳон цивилизацияси бешикларидан бири бўлганини ҳалқаро жамоатчилик тан олмоқда. Мамлакатимиз ҳудудида мавжуд бўлган тўрт мингдан зиёд моддиё-маънавий обида умужаҳон меросининг ноёб намунаси сифатида ЮНЕСКО рўйхатига киритилгани бу фикрни тасдиқлайди. Тарихий ёдгорлик намуналарида ифода этилган теран фикр ва ғоялар, ҳаёт фалсафаси бизни бугун ҳам ҳайратда қолдиришига яна бир карра амин бўламиз.”



“Уз тарихини билмайдиган, кечаги кунини унутган миллатнинг келажаги йўқ”

*Ислом Каримов.*

## 5- ILOVA

MAQSAD

arxeologik yodgorliklarni  
o`rganish asosida insoniyat  
tomonidan yaratilgan moddiy  
madaniyat yutuqlarining  
uzviy taraqiyot jarayonini  
aniqlash va ilmiy xuloslar berish.

OBYEKT


Arxeologiya tarixning qaysi  
davrini o`rganadi:  
Yozma manbalardan olingen ma'lumot  
moddiy manbalardan olingen  
ma'lumotdan ustun bo'lgungacha  
bo'lgan davrni.  
O`rganish obyektining xronologiyasida  
Arxeologiya XV-XVI asrlardan  
yuqoriga ko'tarilmaydi.

PREDMET

Arxeologiya fani inson faoliyati  
davomida yaratilgan moddiy  
madaniyat namunalarini, uning  
uzluksiz tarixiy taraqiyot  
jarayonini o`rganadi.  
Arxeologiya tarix fanining  
muhim ajralmas tarkibiy qismi.  
Arxeologiya fani yer qa`rida  
tepaliklar shaklida davrimizgacha  
saqlanib qolgan shahar va  
qishloqlarni, tog`lardagi g`or  
makonlarni arxeologik tadqiqotlar  
yordamida o`rganadi.


## 6- ILOVA

### Arxeologiya va tarixiy fanlar




## 7- ILOVA

### Arxeologiya va tabiiy fanlar



## 8- ILOVA

### Arxeologik tadqiqot turlari



## 9- ILOVA

### Arxeologiya fanining ilmiy muammolari

1. O'rta Osiyoda ilk insoniyat izlarini aniqlash.
2. Insoniyatning ishlab chiqarishga o'tish jarayonlarini aniqlash.
3. Ilk sinfiy munosabatlarning o'rnatilishini o'rganish.
4. Ilk shahar va davlatchilik tarixini yanada mukammal o'rganish.
5. Moddiy madaniyatda an'anaviy va innovatsion jarayonlarni o'rganish.
6. Moddiy madaniyat asosida jamiyat taraqqiyoti tarixini o'rganish.
7. Etnogenez va etnik tarixini o'rganish.

## 10- ILOVA

### ARXELOGIYA FANINING VAZIFALARI:


1. Insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy-madaniyatning paydo bo`lishi va rivojlanish bosqichlarini o`rganadi.
2. Moddiy madaniyat asosida jamiyat taraqqiyotini o`rganadi.
3. Har bir tarixiy davrga hos bo`lgan tarixiy jarayonlarni moddiy madaniyatda aks ettiradi.
4. Arxeologiya tarixiy fanlar xususan antrapologiya, etnografiyalar bilan hamkorlikda odamning paydo bo`lishi, rivojlanishi va migratsiya jarayonlarini o`rganadi.

## 11- ILOVA

### ARXEOLOGIK YODGORLIKLER DAVR VA UNING HARAKTERIGA QARAB QUYIDAGILARGA AJRATILADI:

1. Manzilgohlar; makonlar, qishloqlar, shahar xarobalari.
2. Qadimgi mozor-qo'rg'onlar, qabristonlar.
3. Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo`lgan joylar; konlar, ustaxonalar.
4. G'or va ungirlar.

## 12- ILOVA



## 13- ILOVA

### “Aqliy hujum” qoidalari:

- *O'zaro tanqid va bahoga yo'l qo'yilmaydi!*
- *Taklif etilayotgan fikrlarni tanqid qilishga shoshilma, xattoki ular juda g'aroyib bo'lsa ham!*
- *So'zga chiquvchining gapini bo'lma!*
- *Fikrlar va g'oyalar takrorlansa xafa bo'lma!*
- *G'oyalar qancha ko'p bildirilsa, shunchalik yaxshi: yangi va qimmatli g'oya paydo bo'lishi ehtimoli ortadi!*
- *Ushbu muammo faaat ma'lum bo'lgan usullar*

## 14- ILOVA

### №1 O'QUV VAZIFASI

Savollarga javob bering:


1. O'rta Osiyoda joylashgan qaysi arxeologik yodgorliklani bilasiz va ular qaysi davrga tegishli ?
2. Davrlashtirish muammolari haqida siz qanday fikr bildira olasiz ?

## 15- ILOVA


XVIII asrdan shakllangan arxeologiya tarixiy fanlar bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etib keldi.

«Arxeologiva» - so'zi yunonchadan olingan bo'lib – "arxayos" qadimgi, «logos»-fan so'zlaridan tarkib topgan. Qadimiyat haqidagi fandir (Qadimshunoslik). Uni dastlab, miloddan avvalgi IV asrda Aflatun «Gippiy» dialogida, qadimgi zamon haqidagi fanni nazarda tutib ishlatgan. Shu tariqa bu so'z qadimgi Yunonistonda qo'llanilgan va o'tmish masalalari muhokamasi ma'nosini anglatgan. Vaqt o'tgach, uning ma'no doirasi ancha o'zgarib, kengayib borgan va tarix fanining muhim tarmoqlaridan biriga aylangan.

## 16- ILOVA



## 17- ILOVA



## **18-ILOVA**

### **UY VAZIFASI:**

#### **MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI:**

- 1. Yashash hududingizdagi arxeologik yodgorliklar haqida ma'lumotlar to'plang.**
- 2. Kosmosdan aniqlangan arxeologiya yodgorliklari haqida ma'lumot to'plang.**
- 3. Mustaqillik yillarda O'zbekiston arxeologiyasi yutuqlari.**
- 4. O'zbekiston arxeologiyasi rivojiga xissa qo'shgan arxeolog olimlar haqida ma'lumot to'plang.**
- 5. Akademik Yahyo G'ulomovning O'zbekiston arxeologiyasi rivojiga qo'shgan hissasi.**

### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A."Yuksak manaviyat yengilmas kuch".-T.:
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998.
3. Arxeologiya// O'zbekiston milliy qomusi. I-jild, T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2002.
4. Kabirov J., Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. T., O'qituvchi, 1979.
5. Arxeologlar hikoya qiladi. T., Fan, 1975.
6. Arxeologiya. T., O'zbekiston milliy universiteti. 2002.
7. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-T.: 2011.

### **Elektron ta'lif resurslarining ro'yxati.**

1. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
2. [www.google.uz](http://www.google.uz)
3. [www.worldhistory.com](http://www.worldhistory.com)
4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
5. [www.encarta.com](http://www.encarta.com)

**O'QUV MASHG'ULOTIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI**  
**2-MAVZU: PALEOLIT DAVRI ARXEOLOGIYASI**

<i>O'quv vaqtি</i>	<i>2 soat</i>
<i>O'quv mashg'uloti shakli</i>	<i>Ma'ruza</i>
<i>O'quv mashg'uloti rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Paleolit - tosh davrining dastlabki bosqichi.</li> <li>2. Paleolit davrining o'rganilish tarixi.</li> <li>3. Paleolit davrining xo'jalik xususiyati va shakllari.</li> <li>4. Osiyo, Yevropa va Afrikaning paleolit davriga oid yodgorliklari tavsifi.</li> </ol>
<b><i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i></b> Talabalarda tosh davri, paleolitni arxeologik davrlashtirilish va xronologiyasi, arxeologik yodgorliklari, insonning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari haqida teran tushunchalar hosil qilish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish.	
<b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b>  Insoniyatning qadimgi ajdodlari, ularning mashg'ulotlari, dunyoqarashi va turmush tarzining rivojlanish sabablari, bosqichlari, natijalarini tahlil etish;  Paleolit davrining o'rganilish tarixi va uning taraqqiyot bosqichlari haqida tushuncha berish;  Paleolit davrining xo'jalik xususiyati va shakllari haqida ma'lumot berib, misollar asosida tushuntirish;  Osiyo, Yevropa va Afrikaning paleolit davriga oid yodgorliklarini topib o'rganishda arxeolog olimlarning o'rni ko'rsatib berish va bu yodgorliklarning jahon sivilizatsiyasi rivojida tutgan o'rni haqida ma'lumot berish;	<b><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></b>  Eng qadimgi odamlar, ularning manzilgohlari, yashagan hududlari to'g'risida bilimlarga ega bo'ladi, qadimgi ajdodlarimizning turmushidagi o'zgarishlar dinamikasini tahlil qilish malakasiga ega bo'ladi;  Paleolit davrining o'rganilish tarixi va uning taraqqiyot bosqichlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi, paleolit davrining bosqichlarini aytib beradi;  Paleolit davrining xo'jalik xususiyati va shakllari haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi, tahlil qilib fikrlar bildiradi;  Osiyo, Yevropa va Afrikaning paleolit davriga oid yodgorliklarini topib o'rganishda arxeolog olimlarning o'rni va bu yodgorliklarning jahon sivilizatsiyasi rivojida tutgan o'rni haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi, ularni tahlil qilib fikr va mulohazalar bildiradi;
<b><i>O'qitish metodlari va texnikasi</i></b>	Interaktiv, bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. "Aqliy hujum" va "BBXB" metodlari.
<b><i>O'quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i></b>	Individual, jamoa bo'lib.
<b><i>O'qitish vositalari</i></b>	Ilmiy adabiyotlar, ko'rgazmali materiallar, ma'ruza matni, jadvallar, doska, proyektor, ekran, o'quv vazifalari va savollar.
<b><i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i></b>	Og'zaki nazorat, o'z-o'zini va o'zaro baholash, savollar.

## O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK KARTASI

Faoliyat bosqichlari, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'QITUVCHI	TALABALAR
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish ( 10 daqiqa)	<p>1.1. Darsning mavzusi, maqsadi va rejalahtirilayotgan o'quv-amaliy natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>1.2. Vizual material yordamida o'quv mashg'ulotining rejasi va hususiyatlari bilan tanishtiradi (1-ilova).</p> <p>1.3. Paleolit davri haqida tushuncha beradi (2-ilova).</p>	<p>Tinglaydi</p> <p>Tinglaydi, yozib oladi</p> <p>Tinglaydi</p>
2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)	<p>2.1. Insoniyatning qadimgi ajoddlari, ularning mashg'ulotlari, dunyoqarashi va turmush tarzining rivojlanish sabablari va bosqichlarini misollar asosida tahlil qilib tushuntirib beradi (3-4-5-6-7-8-ilovalar);</p> <p>2.2. Paleolit davrining o'rganilish tarixi va uning taraqqiyot bosqichlarini misollar asosida tushuntirib beradi (9-10-11-12-ilovalar);</p> <p>2.3 Paleolit davrining xo'jalik xususiyati va shakllari haqida ma'lumot berib, misollar asosida tushuntiradi;</p> <p>2.4. Osiyo, Yevropa va Afrikaning paleolit davriga oid yodgorliklarini topib o'rganishda arxeolog olimlarning o'rmini ko'rsatib beradi va bu yodgorliklarning jahon sivilizatsiyasi rivojida tutgan o'rni haqida ma'lumot berib izohlaydi (13-14-15-16- 17-ilovalar).</p>	<p>Tinglaydi, yozadi, fikr va mulohazalar bildiradi.</p> <p>Tinglaydi, fikr yuritadi.</p> <p>Tinglaydi, yozadi, fikr va mulohazalar bildiradi.</p> <p>Tinglaydi, yozadi, savollarga javob beradi.</p>
3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosani keltiradi va faoliyat natijalarini izohlaydi.</p> <p>3.2. O'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini tahlil etadi.</p> <p>3.3. Keyingi o'quv mashg'uloti seminar mavzusini e'lon qiladi: "Paleolit davri arxeologiyasi". Mustaqil ta'lim uchun vazifalar beradi (18-19-ilovalar).</p>	<p>O'zaro va o'z-o'zini baholaydi.</p> <p>Fikrlarini bildiradi.</p> <p>Uy vazifasini yozib oladi, savollar beradi.</p>

### TEXNOLOGIK KARTAGA OID ILOVALAR

#### 1-ILLOVA

### REJA:

1. Paleolit - tosh davrining dastlabki bosqichi.
2. Paleolit davrining o'rganilish tarixi.
3. Paleolit davrining xo'jalik xususiyati va shakllari.
4. Osiyo, Yevropa va Afrikaning paleolit davriga oid yodgorliklari tavsifi.

## 2-ILOVA

### PALEOLIT

**PALEOLIT** (yunoncha «*palayos*» - «*qadimgi*» va «*litos*» - «*tosh*») – qadimgi tosh davri. Eng qadimgi ibtidoiy odamlarning ilk zotlari hayot kechirgan ulkan tarixiy zamон. Eng qadimgi odamlar yasagan qurollar asosan, toshdan bo‘lgani uchun insoniyat tarixining dastlabki bosqichi shu nom bilan atalgan. Olimlar qadimgi odamlarning toshga ishlov berishining takomillashib borishiga qarab paleolitni uchta: *ilk*, *o’rta* va *so’nggi davrlarga* bo‘lishadi. Jumladan, quyi paleolit 3 mln. yillikdan 100-80 ming yillikgacha bo‘lgan davrni o’z ichiga oladi, o’rta paleolit 100-80 ming yillikdan 35-40 ming yillikgacha, yuqori yoki so’nggi paleolit 40 ming yillikdan 12 ming yillikgacha bo‘lgan davrni o’z ichiga oladi.


## 2A-ILOVA “BBXB” JADVALI

**BILAMAN**

**BILISHNI  
HOHLAYMAN**



**BILIB OLDIM**

### 3-ILOVA




Uchta evolyutsion chiziqlar berilgan:  
**qizil** – *Homo urug'i*,  
**Yashil** - avstrolopiteklar,  
**Ko'k** – rivojlangan avstrolopiteklar. Punktr chiziqlarda – munozarali va noaniq joylar ko'rsatilgan.

## Paleolit davri odamlari




## ARXANTROPLAR








## NEANDERTALLAR



## KROMANYON



## 6-ILOVA



Aksariyat olimlarning fikricha odamning shakllanishi yuqoridagi kabi rivojlanish yo'lini bosib o'tgan.

Odam paydo bo'lishining biologik evolyutsiyasi kromanonlar bilan o'z yakunini topdi.


## 7-ILOVA



## 8-ILOVA



## 9-ILOVA




## 10-ILOVA



## 11-ILOVA



## 12-ILOVA



## 13-ILOVA



## 14-ILOVA

### O'RTA OSIYO HUDUDIDAGI O'RTA PALEOLIT DAVRI YODGORLIKLARI:

▼ Teshiktosh  
Obirahmat  
Xo'jakent  
Ko'lbulloq  
Qo'tirbulloq  
Uchtut  
Qayroqqum  
Og'zikichik  
Semiganch

Oqjar  
Qora-bura  
Kuxi-Niyoz  
Tossal  
Qapchig'ay  
Qashqirbulloq  
Qoratangir va  
boshqalar

## 15-ILOVA

### O'RTA OSIYO HUDUDIDAGI SO'NGGI PALEOLIT DAVRI YODGORLIKLARI:

▼ Xo'jag'or  
▼ Shugnau  
▼ Ko'lbulloq  
▼ Yangaja 11  
▼ Achchmsoy  
▼ Yesen 2  
▼ Tuyabo'g'iz  
▼ Bo'zsuv  
▼ Komsomol ko'li

▼ Uchtut  
▼ Semizbug'u  
▼ Sariko'l  
▼ Tulkili  
▼ Angrensov 2  
▼ Qorabosh 3  
▼ Betpak 7 va  
boshqalar

## 16-ILOVA

### **"AQLIY HUJUM" NING QOIDALARI:**

- ✓ VAQT ANIQ BELGILANADI VA UNGA RIOYA QILISH SHART;
- ✓ SAVOLLARGA QISQACHA JAVOBLAR BERISH KO'ZDA TUTILADI;
- ✓ G'OYALAR BAHOLANMAYDI VA TANQID QILINMAYDI;
- ✓ G'OYALAR QANCHА KO'P BO'LSA, SHUNCHA YAXSHI;
- ✓ ISTALGAN G'OYANI MUMKИН QADAR MUKAMMALLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MUMKИН.

## 17-ILOVA

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. PALEOLIT DAVRIDA O'ZBEKİSTON HUDUDİNING TABİYİ-GEOGRAFIK SHAROITI QANDAY EDİ?
2. PALEOLIT DAVRI BOSQICHLARI HAQIDA NIMA BILASIZ?
3. DINIY TASAVVURLARNING ILK KO'RİNİSHLARI HAQIDA NIMA BILASIZ?
4. PALEOLIT DAVRI ODAMLARI QANDAY MEHNAT QUROLLARIDAN FOYDALANGANLAR?
5. SO'NGGI PALEOLIT DAVRIDA QANDAY YODGORLIKLER BO'LGAN?
6. ILK VA O'RTA PALEOLIT DAVRI YODGORLIKLERI O'RTASIDAGI FARQNI ANIQLANG?

## 18-ILOVA

### **UY VAZIFASI**

No	Davr nomi	Xronologik chegaralari	Mehnat qurollari	Ijtimoiy tuzum	Diniy qarashlar	Manzilgohlari
1	Paleolit:					
2	Ilk paleolit					
3	O'rta paleolit					
4	So'nggi paleolit					

- Mazkur jadvalni daftarga ko'chiring va ma'lumotlar bilan to'ldiring.

***Keyingi dars-seminar mavzusi:***

**“PALEOLIT DAVRI MODDIY MADANIYATI”**

**REJA:**

- 1. Antropogenez jarayoni.**
- 2. Paleolit davrida tosh qurollarga ishlov berish texnologiyasi.**
- 3. O'rta Osiyoning paleolit davri tavsifi.**

**ADABIYOTLAR:**

1. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – Т., 1999.
2. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – Т., 1990.
3. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Т., 2004.
4. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
5. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. В поисках исчезнувших цивилизаций. М., Наука, 1966.
6. Археология Зарубежной Азии. - М., «Высшая школа», 1986.
7. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.
8. Григорьев Г.П. Начало верхнего палеолита и происхождение Хомо Сапиенс. – Л., 1968.
9. Джохансон Д., Иди М. Люси. Истоки рода человеческого. – М., Мир, 1984.
10. Древние цивилизации. – М., Мысль, 1989.
11. Исламов У.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Т., 1986.
12. Каменный век на территории СССР. – М., Наука, 1970.
13. Палеолит СССР. Ранний палеолит Азиатской части СССР. Поздний палеолит Азиатской части СССР /Археология СССР. Отв. ред. П.И. Борисовский. – М., 1984.
14. Первые люди. – М., Мир, 1978.
15. Природа и древний человек. – М., Мысль, 1981.
16. Технология производства в эпоху палеолита. – Л., 1983.
17. Мартинов А.И. Шер Я.А. Методы археологического исследования. – М.: 2002.
18. Мартинов А.И. Археология. М., 2006.
19. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-Т.: 2011

## O'QUV MASHG'ULOTIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI

### 4-MAVZU: MEZOLIT DAVRI ARXEOLOGIYASI

<i>O'quv vaqtি</i>	<i>2 soat</i>
<i>O'quv mashg'ułoti shakli</i>	<i>Ma'ruza</i>
<i>O'quv mashg'ułoti rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mezolit davrining o'rganilish darajasi, xronologiyasi va davrlashtirish.</li> <li>2. Yevropa hududida mezolit.</li> <li>3. Rossiya va Kavkaz hududida mezolit.</li> <li>4. O'rta Osiyoning mezolit davri yodgorliklari.</li> <li>5. Mezolit davri san'ati.</li> </ol>
<b><i>O'quv mashg'ułoti magsadi:</i></b> Talabalarda mezolit davri, mezolit davrining qadimgi aholisi, ularning xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida teran tushunchalar hosil qilish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<p>Mezolit davrining umumiylar xarakteristikasi, o'rganilish darajasi, xronologiyasi va davrlashtirish masalalarini tushuntirish;</p> <p>Yer yuzi iqlimidagi o'zgarishlar va uning insoniyat taraqqiyotiga ta'sirini misollar asosida tushuntirib berish;</p> <p>Yevropa hududidagi mezolit davri yodgorliklari haqida ma'lumot berish;</p> <p>Rossiya va Kavkaz hududidagi mezolit davri yodgorliklarini misollar asosida tushuntirish;</p> <p>O'rta Osiyoning mezolit davri yodgorliklari va ularning bir-biridan farqli jihatlarini misollar asosida ko'rsatib berish;</p> <p>Mezolit davri san'atining vujudga kelishi va jamiyatning ma'naviy rivojida tutgan o'rni bo'yicha xulosalar bildirish.</p>	<p>Mezolit davri haqidagi ilmiy munozaralarini tahlil etadi va ularning asosli ekanligi to'g'risida ma'lumotlar keltiradi;</p> <p>Yer yuzi iqlimidagi o'zgarishlar, insoniyatning shakllanishi jarayoni va ularning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni misollar asosida yoritadi va xulosalar bildiradi;</p> <p>Yevropa hududidagi mezolit davri yodgorliklari haqida ma'lumotga ega bo'ladi;</p> <p>Rossiya va Kavkaz hududidagi mezolit davri yodgorliklari haqida tushunchaga ega bo'ladi va tahlil qiladi;</p> <p>O'rta Osiyoning mezolit davri yodgorliklari va ularning bir-biridan farqli jihatlari to'g'risida fikrlar bildiradi va ularni asoslaydi;</p> <p>Mezolit davri san'atining vujudga kelishi va jamiyatning ma'naviy rivojida tutgan o'rni o'z fikrlari, misollari asosida ko'rsatib beradi, yakuniy xulosalar bildiradi.</p>
<i>O'qitish metodlari va texnikasi</i>	Bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. "Aqliy hujum" va "BBXB" metodlari.
<i>O'quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i>	Individual, jamoa bo'lib.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ilmiy adabiyotlar, ko'rgazmali materiallar, ma'ruza matni, jadvallar, doska, proyektor, ekran, o'quv vazifalari va savollar.
<i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i>	Og'zaki nazorat, o'z-o'zini va o'zaro

## O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK KARTASI

Faoliyat bosqichlari, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'QITUVCHI	TALABALAR
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish ( 10 daqiqa)	1.1. Darsning mavzusi, maqsadi va rejalashtirilayotgan o'quv-amaliy natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Vizual material yordamida o'quv mashg'ulotining rejasi va hususiyatlari bilan tanishtiradi (1-ilova). 1.3. Mezolit davri haqida tushuncha beradi (2-ilova).	Tinglaydi.  Tinglaydi, yozib oladi.  Tinglaydi.
2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)	2.1. Mezolit davrining umumiylar xarakteristikasi, o'rganilish darajasi, xronologiyasi va davrlashtirish masalalari hamda taraqqiyot bosqichlarini misollar asosida tahlil qilib tushuntirib beradi (3-ilova); 2.2. Yer yuzi iqlimidagi o'zgarishlar va uning insoniyat taraqqiyotiga ta'sirini misollar asosida tushuntirib beradi (4-ilova); 2.3. Yevropa hududidagi mezolit davri yodgorliklari haqida ma'lumot beradi; 2.4. Rossiya va Kavkaz hududidagi mezolit davri yodgorliklarini misollar asosida tushuntiradi; 2.5. O'rta Osiyoning mezolit davri yodgorliklari va ularning bir-biridan farqli jihatlarini misollar asosida ko'rsatib beradi (5-6-7-8-9-ilovalar); 2.6. Mezolit davri san'atining vujudga kelishi va jamiyatning ma'naviy rivojida tutgan o'rni haqida ma'lumot beradi (10-11-12-13-14-15-ilovalar).	Tinglaydi, yozadi, fikr va mulohazalar bildiradi.  Tinglaydi, fikr yuritadi.  Tinglaydi, yozadi.  Tinglaydi, yozadi.  Tinglaydi, yozadi, fikr bildiradi.  Tinglaydi, yozadi, savollarga javob beradi.
3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosani keltiradi va faoliyat natijalarini izohlaydi (16-ilova). 3.2. O'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini tahlil etadi. 3.3. Keyingi o'quv mashg'uloti seminar mavzusini e'lon qiladi: "Mezolit davri arxeologiyasi". Mustaqil ta'lim uchun vazifalar beradi (17-18-ilovalar).	O'zaro va o'z-zini baholaydi.  Fikrlarini bildiradi.  Uy vazifasini yozib oladi, savollar beradi.

### TEXNOLOGIK KARTAGA OID ILOVALAR

#### 1-ILOVA

#### MEZOLIT DAVRI ARXELOGIYASI

##### REJA:

- 1. Mezolit davrining o'rganilish darajasi, xronologiyasi va davrlashtirish.**
- 2. Yevropa hududida mezolit.**
- 3. Rossiya va Kavkaz hududida mezolit.**
- 4. O'rta Osiyoning mezolit davri yodgorliklari.**
- 5. Mezolit davri san'ati.**

## 2-A-ILOVA “BBXB” JARYALI

BILAMAN

BILISHNI  
HOHLAYMAN

BILIB OLDIM

## 2-ILOVA MEZOLIT

Yer yuzida muzliklarning chekinishi natijasida iqlim o'zgardi. Bu esa, o'z navbatida ibtidoiy odamlarning turmush tarzida o'zgarishlarga olib keladi. Olimlar bu davrning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, uni o'rta tosh davri, ya'ni mezolit davri deb belgilaganlar.

“MEZOLIT” – so'zi yunoncha “mezos”-o'rta, “litos”-tosh so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, mil.avv. 12 ming yillikdan 7 ming yillikgacha davom etgan.

## 3-ILOVA

### MEZOLIT DAVRI VA UNING BOSQICHLARI

MEZOLIT

AZIL

TARDENUAZ

Ilk mezolit bosqichi miloddan avvalgi XI-X ming yilliklar. Qo'shilish madaniyati

O'rta mezolit bosqichi miloddan avvalgi IX-VIII ming yilliklar. Obishir madaniyati

So'nggi mezolit bosqichi miloddan avvalgi VII-VI ming yilliklar. Machay madaniyati

#### 4-ILOVA

## MEZOLIT DAVRI



#### 5-ILOVA

## ILK MEZOLIT BOSQICHI

**Ilk mezolit bosqichi** yodgorliklarida mikrolit texnikasi endigina paydo bo'lgan. Bunday yodgorliklarda geometrik shakldagi (segment, trapetsiya, uchburchaksimon) tosh buyumlar kam uchraydi. Mikropayraxalar kam. Bu davr yodgorliklarida so'nggi paleolitga doir qirg'ichchalar, o'zaklar, payraxalar ko'p tarqalgan.

## 6-ILOVA

### O'RTA MEZOLIT BOSQICHI

**O'rta mezolit bosqichida** geometrik shakldagi mikrolit qurollarning yirik va qalinqoq turli tiplari paydo bo'ladi. Qirg'ichchalarning har xil shakldagilari vujudga keladi. Bunday quollar ko'pincha tosh siniqlarining qirra tomonlariga va payraxalarning uchqir tomonlariga tig' chiqarish usuli bilan yasalgan, ularning hajmlari ancha kichiklashtirilib, takomollashtirilgan. O'zaklardan pichoqsimon uchirma ajratib olish texnikasi vujudga keladi. O'rta mezolit davri yodgorliklarining yana bir xususiyati qayroqtoshlardan yasalgan qurol va qirg'ichlarning borligidir.

## 7-ILOVA

### SO'NGGI MEZOLIT DAVRI

**So'nggi mezolit davrida** mehnat qurollarining ko'pchilik turlari maydalashgan. Qalamsimon mitti o'zaklar soni ko'paygan. Tosh bigiz paydo bo'lgan. Ikkala uchli tomonlari yo'nilgan shakldagi payraxalar va mikropayraxalar soni ko'payadi. Bu davr yodgorliklarida quollarni yasash texnikasi murakkablasha boradi.

## 8-ILOVA

Bu bosqichlarga oid yodgorliklar quyidagi guruhlarga ajratilgan:

- Ilk **mezolit bosqichi** miloddan avvalgi XI-X ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Qo'shilish madaniyatida o'z aksini topgan.
- O'rta **mezolit bosqichi** miloddan avvalgi IX—VIII ming yilliklar bo'lib, Obishir madaniyatida o'z aksini topgan.
- So'nggi **mezolit bosqichi** miloddan avvalgi VII-VI ming yilliklar bo'lib, Machay madaniyatida o'z aksini topgan.

## 9-ILOVA

### MEZOLIT DAVRI XO'JALIGI

Mezolit davri jamoasi geografik sharoiti qulay bo'lgan dasht, tekisliklar, ko'l, daryo sohillarida, tog'li hududlarda yashab, **ovchilik, baliqchilik, termachilik** bilan shug'ullanganlar. Paleolit davriga nisbatan bu davrda tosh quollarini ishlash texnikasi takomillashgan, quollarning turlari ko'paygan, sifati yaxshilangan. Bu esa, xo'jalikning rivojlanishiga va odamlar tafakkurining o'sishiga olib kelgan. Bu hol ibtidoiy jamoa tuzumining keyingi rivoji uchun asos yaratib bergen.

## 10-ILOVA


ЗАРАУТСОЙ (СУРХОНДАРЁ) ҚОЯТОШ РАСМЛАРИ МЕЗОЛИТ-НЕОЛИТ ДАВРЛАРИГА ОИД БЎЛИБ, ЎША ДАВР ОДАМЛАРИНИНГ ГОЯВИЙ ҚАРАШЛАРИ ВА ДИНИЙ ЭЪТИҚОДЛАРИНИЙ УРГАНИШДА МУҲИМДИР. ҚАДИМГИ ДАВР ЖАМИЯТИНИНГ ХЎЖАЛИК ҲАЁТИ, ХАЙВОИЛARНИ ОВ ҚИЛИШ, КЎЛГА ЎРГАТИШ, ХОНАКИЛАШТИРИШ, ЧОРВАЧИЛИКНИНГ ПАЙДО Бўлиши тўғрисида маълум ТАСАВВУРЛАР БЕРАДИ. УЛАР САНЪАТ АСАРИ БЎЛИБ, ҚАДИМГИ ОДАМЛАРНИНГ ЭСТЕТИК ИСТЕЙДОДИ ЎША ДАВР НУҚТАИ НАЗАРИДАН ЮҚОРИ Даражада бўлганлигини кўрсатади.




## 11-ILOVA



## 12-ILOVA



## 13-ILOVA



## 14-ILOVA

### **"AQLIY HUJUM" NING QOIDALARI:**

- ✓ VAQT ANIQ BELGILANADI VA UNGA RIOYA QILISH SHART;
- ✓ SAVOLLARGA QISQACHA JAVOBLAR BERISH KO'ZDA TUTILADI;
- ✓ G'OYALAR BAHOLANMAYDI VA TANQID QILINMAYDI;
- ✓ G'OYALAR QANCHА KO'P BO'LSA, SHUNCHА YAXSHI;
- ✓ ISTALGAN G'OYANI MUMKIN QADAR MUKAMMALLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MUMKIN.

## 15-ILOVA

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. MEZOLIT DAVRIDA IQLIMNING O'ZGARISHI INSONLAR HAYOTIGA QANDAY TA'SIR KO'RSATDI?
2. MEZOLIT DAVRI BOSQICHLARI HAQIDA NIMA BILASIZ?
3. YEVROPA HUDUDIDAGI MEZOLIT DAVRI YODGORLIKLERINI SANAB BERING?
4. ROSSIYA VA KAVKAZ HUDUDIDAGI MEZOLIT DAVRI YODGORLIKLERINI SANAB BERING?
5. MEZOLIT DAVRIDA QANDAY MEHNAT VA OV QUROLLARI PAYDO BO'LDI?
6. O'RTA OSIYO HUDUDIDAGI MEZOLIT DAVRI YODGORLIKLERINI SANAB BERING?
7. MEZOLIT DAVRI SAN'ATI HAQIDA NIMA BILASIZ?
8. MEZOLIT DAVRI YUTUQLARI NIMALARDAN IBORAT?

## 16-ILOVA

### **YODDA TUTING!**

1. Miloddan avvalgi 12 ming yillikdan 7 ming yillikkacha davom etadi.
2. O'q-yoy ixtiro qilingan.
3. Baliqchilik vujudga kelgan.
4. Qayiqlar ixtiro qilingan.
5. Tosh bigiz paydo bo'lgan.
6. O'zbekistonda mezolitning 3 bosqichi aniqlangan.
7. Mikrolit qurollari vujudga kelgan.
8. Odamlar ko'chmanchi hayot kechirganlar.
9. O'zbekistonda petrogliflar keng tarqalgan.

## 17-ILOVA

### **UY VAZIFASI**

No	Davr nomi	Xronologik chegaralari	Mehnat qurollari	Ijtimoiy tuzum	Diniy qarashlar	Manzilgoh-lari
1	Mezolit:					
2	Ilk mezolit					
3	O'rta mezolit					
4	So'nggi mezolit					

- Mazkur jadvalni daftarga ko'chiring va ma'lumotlar bilan to'ldiring.

## **18-ILOVA**

**Keyingi dars-seminar mavzusi:**

### **“MEZOLIT DAVRI ARXEOLOGIYASI”**

#### **REJA:**

1. Mezolit davrining o'rganilish darjası, xronologiyasi va davrlashtirish.
2. Yevropa hududida mezolit.
3. Rossiya va Kavkaz hududida mezolit.
4. O'rta Osiyoning mezolit davri yodgorliklari.
5. Mezolit davri san'ati.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. *Annayev T., Tilovov B., Xudoibergediiev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.*
2. *Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.*
3. *Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004.*
4. *Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.*
5. *Амальрик А.С., Монгайт А.Л. Что такое археология. – М., 1966.*
6. *Амальрик А.С., Монгайт А.Л. В поисках исчезнувших цивилизаций. М., Наука, 1966.*
7. *Археологи рассказывают. Таджикгосиздат. – Сталинабад, 1959.*
8. *Древние цивилизации. – М., Мысль, 1989.*
9. *Исламов У.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Т., 1986.*
10. *Каменный век на территории СССР. – М., Наука, 1970.*
11. *Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.*
12. *Мезолит СССР. Мезолит Средней Азии и Казахстана (Г.Ф.Коробкова). Под общ. ред. акад. Б.А. Рыбакова. 4.2. Гл. 16. – М., 1983.*
13. *Исламов У.И. Обишиурская культура. – Т., 1980.*
14. *Исламов У.И. Пещера Мачай. – Т., 1975.*
15. *Мартынов А.И. Археология. М., 2006.*
16. *N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-T.: 2011*

## O'QUV MASHG'ULOTIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI

### 6-MAVZU: NEOLIT DAVRI ARXEOLOGIYASI

<b>O'quv vaqtি</b>	<b>2 soat</b>
<b>O'quv mashg'uloti shakli</b>	<b>Ma'ruza</b>
<b>O'quv mashg'uloti rejasi</b>	<p>1. Neolit davri xususiyatlari va xronologiyasi.</p> <p>2. Yevropa va Rossiya hududida neolit.</p> <p>3. O'rta Osiyoning neolit davri madaniyatları (Joytun, Kaltaminor, Sazag'on va Hisor madaniyatları).</p>
<p><b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b> Talabalarda neolit davri, neolit davrining qadimgi aholisi, ularning xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida teran tushunchalar hosil qilish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish.</p>	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>
<p>Neolit davri xususiyatlari, xronologiyasi va umumiy xarakteristikasini tushuntirish;</p> <p>Yevropa va Rossiya hududidagi neolit davri madaniyatlarining boshqa hududlardan farqini misollar asosida tushuntirib berish;</p> <p>O'rta Osiyoning neolit davri madaniyatları (Joytun, Kaltaminor, Sazag'on va Hisor madaniyatları) va ularning bir-biridan farqli jihatlarini misollar asosida ko'rsatib berish;</p>	<p>Neolit davri xususiyatlari, xronologiyasi va umumiy xarakteristikasi haqida tushunchaga ega bo'ladi ;</p> <p>Yevropa va Rossiya hududidagi neolit davri madaniyatlarining boshqa hududlardan farqi to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi va tahlil qilib xulosalar chiqaradi;</p> <p>O'rta Osiyoning neolit davri madaniyatları (Joytun, Kaltaminor, Sazag'on va Hisor madaniyatları) va ularning bir-biridan farqli jihatlari to'g'risida fikrlar bildiradi, ularni asoslaydi va tahlil etadi;</p>
<b>O'qitish metodlari va texnikasi</b>	Bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. "Aqliy hujum" va "BBXB" metodlari.
<b>O'quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</b>	Individual, jamoa bo'lib.
<b>O'qitish vositalari</b>	Ilmiy adabiyotlar, ko'rgazmali materiallar, ma'ruza matni, jadvallar, doska, proyektor, ekran, o'quv vazifalari va savollar.
<b>Qayta aloqa usullari va vositalari</b>	Og'zaki nazorat, o'z-o'zini va o'zaro baholash, savollar.

## O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK KARTASI

Faoliyat bosqichlari, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'QITUVCHI	TALABALAR
1-bosqich. O'quv mashg'ulotig akirish ( 10 daqiqa)	1.1. Darsning mavzusi, maqsadi va rejalashtirilayotgan o'quv-amaliy natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Vizual material yordamida o'quv mashg'ulotining rejasi va hususiyatlari bilan tanishtiradi (1-ilova). 1.3. Neolit davri haqida tushuncha beradi (2-ilova).	Tinglaydi.  Tinglaydi, yozib oladi.  Tinglaydi.
2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)	2.1. Neolit davri xususiyatlari, xronologiyasi va umumiylar xarakteristikasini misollar asosida tahlil qilib tushuntirib beradi (3-ilova); 2.2. Yevropa va Rossiya hududidagi neolit davri madaniyatlarining boshqa hududlardan farqini misollar asosida tushuntirib beradi (4-5-ilovalar); 2.3. O'rta Osiyoning neolit davri madaniyatları (Joytun, Kaltaminor, Sazag'on va Hisor madaniyatları) va ularning bir-biridan farqli jihatlarini misollar asosida ko'rsatib beradi (6-7-8-9-10-11-12-13-ilovalar).	Tinglaydi, yozadi, fikr yuritadi.  Tinglaydi, yozadi, savollar beradi.  Tinglaydi, yozadi, savollarga javob beradi.
3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosani keltiradi va faoliyat natijalarini izohlaydi. 3.2. O'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini tahlil etadi. 3.3. Keyingi o'quv mashg'uloti seminar mavzusini e'lon qiladi: "Neolit davri arxeologiyasi". Mustaqil ta'lif uchun vazifalar beradi (14-ilova).	O'zaro va o'z-o'zini baholaydi. Fikrlarini bildiradi.  Uy vazifasini yozib oladi, savollar beradi.

## TEXNOLOGIK KARTAGA OID ILOVALAR

### 1-ILOVA


#### **REJA:**

- 1. Neolit davri xususiyatlari va xronologiyasi.**
- 2. Yevropa va Rossiya hududida neolit.**
- 3. O'rta Osiyoning neolit davri madaniyatları (Joytun, Kaltaminor, Sazag'on va Hisor madaniyatları).**

# NEOLIT

Jamiyat taraqqiyotidagi keyingi davr neolit deb nom olgan.

U yunoncha «neo»-yangi, «litos»-tosh, ya'ni yangi tosh davri degan ma'noni beradi. Bu davr uzoq davom etgan tosh davrining yakunlovchi bosqichi bo'lganligi uchun shu nom bilan atalgan. Bu tushunchani fanga ingliz arxeologi D.Lebbok 1865 yilda kiritgan. O'rta Osiyoda neolit davri xronologik jihatdan **miloddan avvalgi VI-IV ming yilliklarni** o'z ichiga oladi. Neolit Yaqin Sharqda mil.avv. 8-7 ming yilliklar, Zakavkazeda mil.avv. 6-5 ming yilliklar, Evropada mil.avv. 7-1 ming yilliklarda davom etgan. Mezoamerikada mil.avv. 5-1,5 yillikdan - milodiy 10-12 asrlargcha davom etgan. Avstraliya, Okeaniyaning tub aholisida, Janubiy Amerikaning ba'zi qabilalarida, Afrikada, tropik Osiyoning ba'zi qismlarida bu madaniyat milodiy 20 asrlargacha ham saqlanib qolgan.



## 2A-ILOVA “BBXB” JARYALI

BILAMAN

BILISHNI HOHLAYMAN

BILIB OLDIM

### 3-ILOVA

## NEOLIT DAVRINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

- Miloddan avvalgi VI ming yillikdan IV ming yillikkacha davom qiladi.
- Dehqonchilik va chorvachilik vujudga kelgan.
- Kulolchilik, to'quvchilik, zargarlik paydo bo'lgan.
- Tosh qurollarini sillqlash, parmalash uslublari vujudga kelgan.
- Odamlar o'troq hayot tarziga o'tganlar.
- Ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tilgan.
- Boltalar ixtiro qilingan.
- Makrolit qurollar keng tarqalgan.
- Juft oila vujudga kelgan.



### 4-ILOVA

G'arbiy Yevropadagi eng qodimgi manzilgohlardan biri Kampinidir. Kampini manzilgohi Fransyaning shimolidagi Quyi Sena departamentiga qarashli Bleni-syur-Brel qishlog'i yaqinidan topilgan. Bu manzilgohdagi qazuv ishlari 1897 yildan P.Salmon va G.d'O-dyu-Menil tomonidan boshlangan.

Izlanishlar jarayonida yarim yerto'la ko'rinishidani uy qoldig'i ochilgan, unda o'choq qoldiqlari, minglab chaqmoqtoshdan qilingan tosh qurollari, ko'mir, kul, bug'u, ot va ho'kizning suyak qoldiqlari topilgan. Topilmalar orasida eng diqqatga sazovori sopol parchasida saqlanib qolgan arpa donidir.

## YEVROPA

Olimlar izlanishlar natijasini xulosasi sifatida bu yerda yashagan qadimgi odamlar dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshlaganliklarini ko'rsatib berishgan. Ma'lumki, arpaning ilk vatani Old Osiyo va Shimoli-Sharqiy Afrika hisoblanadi. Yevropaga u Falastin orqali tabiiy yo'l bilan madaniylashtirilgan va maxsus ekip yetishtirish uchun o'stirilgan.

Yevropaning boshqa joylarida olib borilgan qazuv ishlari jarayonida yuqorida sanab o'tilgan topilmalar bilan birga yorg'uchchoq va uning sinqlari topilgan. Izlanishlar vaqtida neolit davrining Yevropadagi eng yirik chaqmoqtosh koni (shaxtasi) topilgan (Belgiya yaqinidagi Spenna shaxtasi). Uning chuqurligi 15 m. ni tashkil etgan.

# ROSSIYA

## 5-ILOVA

Rossiya hududidagi neolit davri manzilgohlari XX asrning 20-yillaridan o'rganila boshlangan.

Moskvadan 40 km shimolda, Klyazma daryosi qirg'og'i bo'yida joylashgan Lyalovo qishlog'idan topilgan manzilgoh 1922-1923 yillarda rus arxeologlari B.S. Jukova B.A. Kuftinlar tomonidan o'rganilgan.

Bu yerdan topilgan sopol buyumlar o'sha vaqtda sobiq Ittifoq hududidagi eng qadimiy va ilk topilma hisoblangan.

## JOYTUN MADANIYAATI

## 6-ILOVA

- JANUBIY TURKMANISTONDA, ASHXABOD SHAHRIDAN 25 KM SHIMOLDAGI JOYTUN MANZILGOHIDAN TOPILGAN. JOYTUN QISHLOG'I BIR NECHTA MAYDONI 12-14 KB.M.DAN IBORAT 30 GA YAQIN, JAMI 130-150 KISHI YASHAGAN UYLARDAN TASHKIL TOPGAN. QURILISHDA SOMON VA PAXSA ISHLATILGAN. HAR BIR XONADA ALOHIDA O'CHOQ IZLARI TOPILGAN. OMBORXONA, SAROY VA XO'JALIK O'RALARI BO'LGAN. DASTLABKI SUG'ORMA DEHQONCHILIK, KULOLCHILIK MADANIYATI MARKAZI, AHOLISI CHORVACHILIK VA OVCHILIK BILAN SHUG'ULLANGAN.

## 7-ILOVA

KALTAMINOR  
MADANIYATI

- AMUDARYO VA XORAZM HUDUDI, CHAYLA VA YARIM YERTO'LA SHAKLIDAGI JONBOSQALA MAKONI. QUYI ZARAFSHON VA QASHQADARYO, DARVOZAQIR, KATTA VA KICHIK TUZKON, QORONG'ISHO'R, POYKENT MAKONLARI. YOG'OCH USTUNLAR ISHLATILGAN. MARKAZIY VA KICHIK O'CHOQLAR QOLDIQLARI ANIQLANGAN. TERMACHILIK, OVCHILIK, BALIQCHILIK BILAN SHUG'ULLANGAN. SOPOL IDISH NAMUNALARI TOPILGAN.

## 8-ILOVA

HISOR  
MADANIYATI

- HISOR-POMIR TOG'LARIDAN TOPILGAN YODGORLIKLER. TOG'OLDI VA TOG'LIKLARGA HOS. TUTQOVUL, SOYSAYYOD, QUYI BULYON, DARAI SHO'R, GAZIYONTEPA YODGORLIKLER. AHOLISI CHORVACHILIK, OVCHILIK, QISMAN TERMACHILIK BILAN SHUG'ULLANGAN. SOPOL IDISHLAR YASAGAN.

## 9-ILOVA

### NEOLIT DAVRINING ILK DEHQONCHILIK MADANIYATIGA DOIR YODGORLIKHLARI

**JOYTUN MADANIYATI.** O'rta Osiyoning janubiy-g'arbiy hududida ilk dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalar yodgorligidir. Uning izlari faqat Turkmanistonning janubiy-g'arbiy hududlaridan topilgan. Olimlar uni miloddan avvalgi VI ming yilliklar oxiri V ming yilliklar bosqlariga oid deb hisoblashadi. Uni B.A.Kuftin, V.M.Masson, D.Durdiev, O.Berdievlar tadqiq qilgan. Joytun madaniyatiga Bami, To'g'oloqtepa, Chag'llitepa, Munchoqlitepa, Cho'pontepe, Joytun, Nayzatepa kabi bir qator ibtidoiy dehqonlarning manzilgohlari kiradi.



## 10-ILOVA

### Neolit davrining ovchi va termachilikka ixtisoslashgan madaniyatlariga doir yodgorliklar

**Hisor madaniyati** tog'li mintaqalarda yashab, asosan hayvon ovchiligi bilan shug'ullangan qabilalar madaniyatidir. U Tojikistonning tog'li mintaqalarida keng tarqalgan. Ularning izlari 300 dan ortiq joydan topilgan. Bu madaniyatga oid dastlabki yodgorlik Dushanbe shahri yaqinidagi Hisor vodiysidan topilganligi sababli Hisor madaniyati nomini olgan.



## Neolit davrining ovchi va termachilikka ixtisoslashgan madaniyatlariga doir yodgorliklar

- Xuddi shu davrda o'rta Osiyoning shimoliy va markaziy hududlarida ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan shug'ullangan neolit davri jamoalari istiqomat qilganlar. Bunday yodgorlik XX asrning 30-40 yillarida S.P.Tolstov tomonidan Amudaryoning quyi havzasida topilgan va fanga **Kaltaminor madaniyati** nomi bilan kiritilgan. Yodgorlik Amudaryoning Oqchadaryo o'zanidan chiqqan qadimgi Kaltaminor kanali etaklaridan topilgani uchun shu nom berilgan.
- **Kaltaminor madaniyatini** o'rganish jarayonida olimlar uning rivojlanish bosqichlarini aniqladilar - Daryolisoy (mil.avv. VI-IV ming yilliklarga oid), Jonbos (mil.avv. IV-III ming yilliklarga oid) va Saksovul (mil.avv. III ming yillik oxiri -II ming yillik boshlariga oid).
- Oqchadaryo havzasidan ko'plab kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklar topilgan. Ularning 3-4 ta manzilgohining madaniy qatlami buzilmasdan saqlanib qolgan. Bular **Jonbos-4**, **Qavat-7**, **Tolstov manzilgohi**, **Tumek Kichidjik** qabristonidir.



## 12-ILOVA

### **"AQLIY HUJUM" NING QOIDALARI:**

- ✓ VAQT ANIQ BELGILANADI VA UNGA RIOYA QILISH SHART;
- ✓ SAVOLLARGA QISQACHA JAVOBLAR BERISH KO'ZDA TUTILADI;
- ✓ G'OYALAR BAHOLANMAYDI VA TANQID QILINMAYDI;
- ✓ G'OYALAR QANCHА KO'P BO'LSA, SHUNCHA YAXSHI;
- ✓ ISTALGAN G'OYANI MUMKIN QADAR MUKAMMALLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MUMKIN.

## 13-ILOVA

### **MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:**

- NEOLIT DAVRI BOSQICHLARINI AYTING?
- NEOLIT DAVRI YODGORLIKHLARINI SANANG?
- KALTAMINOR MADANIYATI NECHA BOSQICHDA RIVOJLANGAN?
- NEOLIT DAVRI YUTUQLARI NIMALARDAN IBORAT?
- ISHLAB CHIQARUVCHI XO'JALIK VA UNING MOHIYATI NIMA?
- JOYTUN MADANIYATI QAYSI HUDUDDA SHAKLLANGAN?
- XISOR MADANIYATI XUSUSIYATLARINI TUSHUNTIRIB BERING?
- MARKAZIY YODGORLIKHLARINING FARG'ONA O'ZIGA XOS

## 14-ILOVA

**Keyingi dars-seminar mavzusi:  
“NEOLIT DAVRI ARXEOLOGIYASI”  
REJA:**

- 1. Neolit davri xususiyatlari va xronologiyasi.**
- 2. Yevropa va Rossiya hududida neolit.**
- 3. O'rta Osiyoning neolit davri madaniyatlari (Joytun, Kaltaminor, Sazag'on va Hisor madaniyatlari).**

**ADABIYOTLAR:**

1. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – Т., 1999.
2. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 1999.
3. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – Т., 1990.
4. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Т., 2004.
5. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
6. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. Что такое археология. – М., 1966.
7. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. В поисках исчезнувших цивилизаций. М., Наука, 1966.
8. *N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-T.: 2011*
9. Виноградов Л.В. Неолитические памятники Хорезма. – М., 1968.
10. Древние цивилизации. – М., Мысль, 1989.
11. Каменный век на территории СССР.–М., Наука, 1970.
12. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.
13. Коробкова Г.Ф. Орудия труда и хозяйство неолитических племен Средней Азии. – Л., 1969.
14. Массон В.М. Первые цивилизации. – Л., 1961.
15. Массон В.М. Поселение Джейтун // МИА. – Л., 1971. -№ 180.
16. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – Т., 1986.

**O'QUV MASHG'ULOTIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI**  
**6-MAVZU: ENEOLIT DAVRI ARXEOLOGIYASI**

<i>O'quv vaqtি</i>	<i>2 soat</i>
<i>O'quv mashg'uloti shakli</i>	<i>Ma'ruza</i>
<i>O'quv mashg'uloti rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Eneolit davri xronologiyasi, tavsifi va o'rganilishi.</li> <li>2. Eneolit madaniyatining rivojlanish bosqichlari.</li> <li>3. Qurilish va me'morchilik.</li> <li>4. Kulolchilikning mukammallahuvi.</li> <li>5. Eneolit davri san'ati.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>	Talabalarda eneolit davri, eneolit davrining qadimgi aholisi, ularning xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida teran tushunchalar hosil qilish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<p>Eneolit davri xronologiyasi, tavsifi va o'rganilishi masalalari haqida ma'lumot berish;</p> <p>Eneolit madaniyatining rivojlanish bosqichlarini misollar asosida tushuntirish;</p> <p>Eneolit davri qurilishi va me'morchiligining o'ziga xos jihatlarini misollar asosida ko'rsatib berish;</p> <p>Kulolchilikning mukammallahuvi haqida ma'lumot berish;</p> <p>Eneolit davri san'atini tahlil qilib, uning o'ziga xosliklarini ko'rsatib berish;</p>
<i>O'qitish metodlari va texnikasi</i>	<p>Bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. "Aqliy hujum" va "BBXB" metodlari.</p>
<i>O'quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i>	Individual, jamoa bo'lib.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ilmiy adabiyotlar, ko'rgazmali materiallar, ma'ruza matni, jadvallar, doska, proyektor, ekran, o'quv vazifalari va savollar.
<i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i>	Og'zaki nazorat, o'z-o'zini va o'zaro baholash, savollar.

## O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK KARTASI

Faoliyat bosqichlari, vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	O'QITUVCHI	TALABALAR
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish ( 10 daqiqa)	<p><b>Ўқув фаолияти натижалари:</b></p> <p>1.1. Darsning mavzusi, maqsadi va rejalashtirilayotgan o'quv-amaliy natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>1.2. Vizual material yordamida o'quv mashg'ulotining rejasi va hususiyatlari bilan tanishtiradi (1-ilova).</p> <p>1.3. Eneolit davri haqida tushuncha beradi (2-ilova).</p>	<p>Tinglaydi.</p> <p>Tinglaydi, yozib oladi.</p> <p>Tinglaydi.</p>
2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)	<p>2.1. Eneolit davri xronologiyasi, tavsifi va o'rganilishi masalalari haqida ma'lumot beradi (3-ilova);</p> <p>2.2. Eneolit madaniyatining rivojlanish bosqichlarini misollar asosida tushuntirib beradi (4-5-6-7-8-9- ilovalar);</p> <p>2.3. Eneolit davri qurilishi va me'morchiligining o'ziga xos jihatlarini misollar asosida ko'rsatib beradi;</p> <p>2.4. Kulolchilikning mukammallashuvi haqida ma'lumot beradi (10-ilova).</p> <p>2.5. Eneolit davri san'atini tahlil qilib, uning o'ziga xosliklarini ko'rsatib beradi(11-12-ilovalar).</p>	<p>Tinglaydi, yozadi, fikr yuritadi.</p> <p>Tinglaydi, yozadi, savollar beradi.</p> <p>Tinglaydi, yozadi, savollar beradi.</p> <p>Tinglaydi, yozadi, savollar beradi.</p> <p>Tinglaydi, yozadi, savollar beradi.</p> <p>Tinglaydi, yozadi, savollarga javob beradi.</p>
3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosani keltiradi va faoliyat natijalarini izohlaydi.</p> <p>3.2. O'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini tahlil etadi.</p> <p>3.3. Keyingi o'quv mashg'uloti seminar mavzusini e'lon qiladi: "Eneolit davri arxeologiyasi". Mustaqil ta'lim uchun vazifalar beradi (13-14-ilovalar).</p>	<p>O'zaro va o'z-o'zini baholaydi.</p> <p>Fikrlarini bildiradi.</p> <p>Uy vazifasini yozib oladi, savollar beradi.</p>

### TEXNOLOGIK KARTAGA OID ILOVALAR

#### 1-ILOVA

#### **REJA:**

- 1. Eneolit davri xronologiyasi, tavsifi va o'rganilishi.**
- 2. Eneolit madaniyatining rivojlanish bosqichlari.**
- 3. Qurilish va me'morchilik.**
- 4. Kulolchilikning mukammallashuvi.**
- 5. Eneolit davri san'ati.**

## 2-ILOVA

### ENEOLIT DAVRI

- Neolitdan keyingi davr eneolit deb ataladi. Lotincha «acneus»-mis va yunoncha «litos»-tosh so'zlaridan olingan bo'lib, mis—tosh davri ma'nosini anglatadi.
- Eneolit miloddan avvalgi IV—III ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Ko'pgina hududlarda neolit davri jamoalari bilan bir vaqtda hukmron bo'lgan.

## 2A-ILOVA “BBXB” JARYALI

BILAMAN

BILISHNI  
HOHLAYMAN

BILIB OLDIM

## 3-ILOVA

### ENEOLIT DAVRI XUSUSIYATLARI

- Mis-tosh davri.
- Mil. avv. IV—III ming yilliklar.
- Mis quollar yumshoq va egiluvchan bo'lgan.
- Ilk eneolit davrida bir xonali uylar bo'lgan.
- O'rta eneolit davrida ko'p xonali uylar paydo bo'lgan.
- So'nggi eneolit davrida qishloqlar shahar qiyofasiga kira boshlagan.
- So'nggi eneolit davrida sopol loyiga gips qo'shilgan.
- Jo'mrakli idishlar paydo bo'ladi.

## 4-ILOVA

### Eneolit davri tarixiy-madaniy jarayonlari:

- Xo'jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda haydama dehqonchilikning ustunlik qilishi;
- Toshdan ishlangan quollar ko'p bo'lgan holda mis quollarining paydo bo'lishi;
- Katta-katta jamoalarning paxsadan va xom g'ishtdan tiklangan kata-katta uylari;
- Kulolchilikda muhim texnika yutug'i xumdonlarning ishlatalishi;
- O'troq xo'jalikning rivojlanishi, jamoa birlashmalarining uylari va qurilishda xom g'ishtning paydo bo'lishi;
- Turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug'I tuzumiga (matriarxat) xos haykalchalari;
- Rangdor spool buyumlar, turli tasvirlar ishlangan spool buyumlarning mavjudligi.

## 5-ILOVA

### Eneolit davri yodgorliklarining O'rta Osiyo bo'ylab tarqalishi va ularning bir-biridan farqi

Ilk eneolit davriga oid Anov I va Namozgoh I manzilgohlari kirib, ikki bosqichi mavjud.

Anov I manzilgohi hududiy jihatdan g'arbiy va sharqiy guruhlarga bo'linadi.

Namozgoh I esa hududiy jihatdan g'arbiy, markaziy va sharqiy guruhlarga bo'linadi.

Rivojlangan eneolit davriga Anov 2, Namozgoh 2 manzilgohlari kiradi. Namozgoh 2 hududiy jihatdan g'arbiy va sharqiy hududlarga bo'linadi. So'nggi mis-tosh davriga esa Namozgoh 3 oid bo'lib, u ham g'arbiy va sharqiy hududlarga bo'linadi.

Yuqori Zarafshon daryosi bo'yida joylashgan Sarazm (Sarazm I) so'nggi mis-tosh davriga oid bo'lib, moddiy topilmalar uni alohida guruhlarga ajratish imkonini bermaydi.

## 6-ILOVA

### ILK DEHQON JAMOALARI YODGORLIKHLARI

- Eneolit davriga kelib dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholining yangi manzilgohlari paydo bo'ladi. Ularning ba'zilari (**Namozgohtepa**, **Qoratepa**)ning hajmi anche katta. Ba'zi bir manzilgohlar alohida qirqim ko'rinishdagi aylanma devorlar (bunday inshootlar Geoksur vohasining o'rta eneolit davriga oid manzilgohlarida) aniqlanib, qo'shni devorlar bilan qo'shilgan. Bular ko'rinishdan yashash uchun foydalangan.
- Eneolit davrining so'nggi bosqichlariga kelib, yuqori Zarafshon hududida o'troq dehqonchilikka asoslangan **Sarazm** manzilgohi shakllanadi.

## 7-ILOVA

### ENEOLIT MADANIYATI

Olimlar Janubiy Turkmanistonning eneolit davri komplekslarini quyidagicha tahlqin qiladi:

- Ilk eneolit davriga oid Anov I shimoliy va markaziy Eron hududlaridan kelgan bir guruh qabilalar ta'sirida shakllanadi;
- Ilk eneolit davriga oid Namozgoh I neolit davri ilk dehqonchilik manzilgohlari asosida shakllanadi;
- Namozgoh II kompleksi Namozgoh I ta'sirida shakllanib, ba'zi holatlarda Mesopotamiya va Elam an'analarining ta'siri seziladi;
- O'rta eneolit davri Yalang'och shaklidagi komplekslar mahalliy ilk eneolit an'analarini ta'sirida shakllanadi, ammo sodda varianti ham mavjud bo'lib, Namozgoh II va Mesopotamiya an'anasing alohida ta'siri natijasida bo'lsa kerak;
- So'nggi eneolit Qoratepa usulidagi kompleksi Eron komplekslari bilan chambarchas aloqada bo'lgan hamda Janubiy Mesopotamiya ta'siri seziladi;
- So'nggi eneolit davri Geoksur uslubi (masalan, xoch tasviri) Mesopotamiya va Elam naqsh an'analarini bilan alohida va chambarchas bog'langanligini o'zida aks ettiradi.

## 8-ILOVA

- Shunday qilib, Sharqiy rayonlarda tashqi madaniyatning ta'siri ko'rinishdi. Ko'rinishdan, bu to'lqin Eron tomonidan alohida ajralib turuvchi ta'sir bo'lgan. Geoksur bilan bir qatorda Qoratepada ham mahalliy an'analarining o'rni yuqori bo'lgan. Tashqi madaniy ta'sirning aniq hududi ma'lum bo'lsada, ilk eneolit davridagiga nisbatan asta-sekin kamayib boradi.
- Shunday qilib, eneolit davrida Janubiy Turkmaniston taraqqiyot darajasiga ko'ra teng bo'lgan hozirgi Eron va Afg'onistonning qo'shni viloyatlari bilan yagona tilda gaplashib, u yerda qabilalarning siljishi sodir bo'ladi.
- Eneolit davrining oxirida mil.av. III ming yillikka kelib Janubiy Turkmanistonda ilk shahar madaniyatining shakllanishi kuzatiladi.

## 9-ILOVA

Eneolit makonlari yer yuzining turli nuqtalari – **Xitoy, Eron, Markaziy Osiyo, Ukraina, Bolgariya, Gretsya, Frantsiya, Germaniya** hududlaridan topib o’rganilgan. Mesopatamiyada **Xassuan** yodgorligi, Eronda **So’za** kompleksi, Ukrainada **Tripole** madaniyati, Kavkazortida **Shengavit**, Turkmanistonda **Anov, Nomozgoh** makonlari eneolit davriga mansubdir.

Eneolit makonlaridan topilgan quollarning eng ko’p tarqalgani - **retushlangan egri o’roqlar va silliqlangan tosh motigalardir**. Egri o’roqlar barcha mamlakatlarda eng qadimgi dehqonchilik xo’jalik mashg’uloti bilan birga paydo bo’lgan. Yevropa va Osiyo hududlaridan topilgan makonlarda 3 xil don - **bug’doy, arpa va tariq** qoldiqlari topilgan. Bu donlarning yovvoyi xillari **Yevropada** yetishtirilgan. Ular bu yerlarga **Markaziy Osiyo va Hindiston** hududlaridan olib kelingan.

## 10-ILOVA

Eneolit davri yodgorliklarda rangli sopol buyumlar ko’plab topilgan. **Xitoydan Dunaygacha (Ruminiya)** «**sopol makonlari**» sifatida keng tarqalgan makonlar xarakterli bo’lib, shu xususiyatga ega bo’lgan makonlarda ijtimoiy taraqqiyotning bir xil bosqichi ko’zga tashlanadi. Bir-biriga juda kam o’xshaydigan ijtimoiy-iqtisodiy sharoit hamma erda amaliy san’atning bir-biriga o’xhash shakllarini taqoza etgan. Ammo sopol buyumlar bir-biriga o’xshasa ham aynan bir xil emas.

Eneolitda **Mesopatamiyada** rangdor sopol buyumlarga **katakli bezaklar, Misrning** rangli sopol buyumlariga esa, **syujetli suratlar** chizilgan. **Osiyo va Yevropaning** keng hududlarida esa, rangdor sopol makonlari tarqalgan.

Eneolit makonlarining ko’pchiligidagi, ya’ni dehqonchilikning ibtidoiy usullari tarqalgan hududlarida rangdor sopol buyumlar tarqalgan bo’lsada, ba’zilarida mutlaqo uchramaydi. Masalan, **Germaniya, Fransiya, Yevropaning** yana boshqa mamlakatlarida eneolit makonlarida rangli sopol buyumlar yo’q. Aksincha, bu yerdagi makonlarda **naqshi tasma-tasma qilib o’yilgan kulolchilik buyumlari** mayjud bo’lgan. **Markaziy Osiyo, xususan O’zbekistondagi** eneolit makonlarida sopol buyumlar **sirti qizil yoki qora bo’yoqlardan ishlangan geometrik shakllardan** iborat bo’lgan.

Eneolit makonlari yer yuzida dastlab **Ikkidaryo va Misrda** vujudga kelgan. Masalan, **Ikkidaryo** oralig’ining rangdor sopol buyumlariga bezaklar chizilgan. **Misrning** rangli sopol buyumlariga syujetli suratlar solingan.

## 11-ILOVA

### “Aqliy hujum” qoidalari:

- *O’zaro tanqid va bahoga yo’l qo’yilmaydi!*
- *Taklif etilayotgan fikrlarni tanqid qilishga shoshilma, xattoki ular juda g’aroyib bo’lsa ham!*
- *So’zga chiquvchining gapini bo’lma!*
- *Fikrlar va g’oyalar takrorlansa, xafa bo’lma!*
- *G’oyalar qancha ko’p bildirilsa, shunchalik yaxshi:yangi va qimmatli g’oya paydo bo’lishi ehtimoli ortadi!*
- *Ushbu muammo faqat ma’lum bo’lgan usullar bilangina yechilishi mumkin deb hisoblama!*

## 12-ILOVA

### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. **NIMA UCHUN BU DAVR ENEOLIT DEB NOMLANADI?**
2. **ILK ENEOLIT DAVRIGA XOS XUSUSIYATLARNI ANIQLANG?**
3. **O’RTA ENEOLIT DAVRIGA XOS XUSUSIYATLARNI ANIQLANG?**
4. **SO’NGGI ENEOLIT DAVRIGA XOS XUSUSIYATLARNI ANIQLANG?**
5. **O’ZBEKİSTONNING QAYSI HUDUDLARIDAN ENEOLIT DAVRI MAKONLARI TOPILGAN?**
6. **SARAZM MADANIYATIDA UYLAR QANDAY QURILGAN?**
7. **NOMOZGOH MADANIYATINI KIMLAR O’RGANGAN?**
8. **ENEOLIT DAVRI SAN’ATINING O’ZIGA XOSLIKARI NIMADA?**

## 13-ILOVA

**KEYINGI DARS – SEMINAR MAVZUSI:**

**“ENEOLIT DAVRI ARXEOLOGIYASI”**

**REJA:**

- 1. Neolit davri xususiyatlari va xronologiyasi.**
- 2. Yevropa va Rossiya hududida neolit.**
- 3. O'rta Osiyoning neolit davri madaniyatlari (Joytun, Kaltaminor, Sazag'on va Hisor madaniyatlari).**

## 14-ILOVA

**ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.
4. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 1999.
5. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993.
6. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.
7. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004.
8. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
9. Исаков А.И. Саразм. – Душанбе, 1991.
10. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.
11. Массон В.М. Первые цивилизации. – Л., 1961.
12. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.-Л., Наука, 1964.
13. Массон В.М. Страна тысячи городов. – М., Наука, 1966.
14. Сарианиди В.И., Кошеленко Г.А. За барханами – прошлое. – М., 1966.
15. Сарианиди В.И. Тайны исчезнувшего искусства Каракумов. – М., Наука, 1967.
16. Сарианиди В.И. Древности страны Маргуша. – Ашхабад, 1990.
17. Энеолит СССР. Энеолит Средней Азии. – М., 1982.
18. Мартинов А.И. Археология. М., 2006.
19. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-T.: 2011

**O'QUV MASHG'ULOTIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI**  
**10-MAVZU: BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYASI**

<i>O'quv vaqtি</i>	<i>2 soat</i>
<i>O'quv mashg'uloti shakli</i>	<i>Ma'ruza</i>
<i>O'quv mashg'uloti rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bronza davriga tavsif.</li> <li>2. Yevropa va Kavkaz hududlarida bronza davri.</li> <li>3. Rossiya hududidagi bronza davri madaniyati (Afanas'ev va Andronovo madaniyatları).</li> <li>4. O'rta Osiyo hududida bronza davri (Nomozgoh IV, Nomozgoh V, Nomozgoh VI, Sopolli madaniyati, Zamonbobo, Tozabog'yop, Qayroqqum madaniyatları).</li> </ol>
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>	Talabalarda bronza davri, bronza davrining qadimgi aholisi, ularning xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida teran tushunchalar hosil qilish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<p>Bronza davrining umumiyligini xarakteristikasi va taraqqiyot bosqichlarini tushuntirish;</p> <p>Yevropa va Kavkaz hududlaridagi bronza davri yodgorliklarini misollar asosida tushuntirib berish;</p> <p>Rossiya hududidagi bronza davri madaniyatları (Afanas'ev va Andronovo madaniyatları) va ularning o'ziga xosliklarini ko'rsatib berish;</p> <p>O'rta Osiyo hududidagi bronza davri yodgorliklari (Nomozgoh IV, Nomozgoh V, Nomozgoh VI, Sopolli madaniyati, Zamonbobo, Tozabog'yop, Qayroqqum madaniyatları) haqida ma'lumot berish va ularning o'ziga xos jihatlarini misollar asosida ko'rsatib berish;</p>	<p>Bronza davrining umumiyligini xarakteristikasi va taraqqiyot bosqichlari haqida tushunchaga ega bo'ladi va fikrlar bildiradi;</p> <p>Yevropa va Kavkaz hududlaridagi bronza davri yodgorliklari haqida ma'lumotga ega bo'ladi va xulosalar bildiradi;</p> <p>Rossiya hududidagi bronza davri madaniyatları (Afanas'ev va Andronovo madaniyatları) haqida tushunchaga ega bo'ladi va ularning o'ziga xosliklarini tahlil qiladi;</p> <p>O'rta Osiyo hududidagi bronza davri yodgorliklari (Nomozgoh IV, Nomozgoh V, Nomozgoh VI, Sopolli madaniyati, Zamonbobo, Tozabog'yop, Qayroqqum madaniyatları) haqida tasavvurga ega bo'ladi va ularning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilib fikrlar bildiradi.</p>
<i>O'qitish metodlari va texnikasi</i>	Bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. "Aqliy xujum" metodining yozma varianti. "BBXB" metodi.
<i>O'quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i>	Individual, jamoa bo'lib.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ilmiy adabiyotlar, ko'rgazmali materiallar, ma'ruza matni, jadvallar, doska, proektor, ekran, o'quv vazifalari va savollar.
<i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i>	Og'zaki nazorat, o'z-o'zini baholash, savollar.

## O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK KARTASI

Faoliyat bosqichlari, vaqtি	FAOLIYAT MAZMUNI		TALABALAR
	O'QITUVCHI		
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish ( 10 daqiqa)	<p>1.1. Darsning mavzusi, maqsadi va rejalarhtirilayotgan o'quv-amaliy natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>1.2. Vizual material yordamida o'quv mashg'ulotining rejasи va xususiyatlari bilan tanishtiradi (1-ilova).</p> <p>1.3. Bronza davri haqida tushuncha beradi (2-ilova).</p>		Tinglaydi  Tinglaydi, yozadi  Tinglaydi, savollar beradi
2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)	<p>2.1. Bronza davrining umumiy xarakteristikasi va taraqqiyot bosqichlarini misollar asosida tahlil qilib tushuntirib beradi (3-4-5-6-ilovalar);</p> <p>2.2. Yevropa va Kavkaz hududlaridagi bronza davri yodgorliklarini misollar asosida tushuntirib beradi (7-8-9-10-11-12-ilovalar);</p> <p>2.3. Rossiya hududidagi bronza davri madaniyatları (Afanas'ev va Andronovo madaniyatları) va ularning o'ziga xosliklarini tahlil qilib tushuntirib beradi (13-14-ilovalar);</p> <p>2.4. O'rta Osiyo hududidagi bronza davri yodgorliklari (Nomozgoh IV, Nomozgoh V, Nomozgoh VI, Sopolli madaniyati, Zamonbobo, Tozabog'yop, Qayroqqum madaniyatları) haqida ma'lumot beradi va ularning o'ziga xos jihatlarini misollar asosida ko'rsatib beradi (15-16-17-18-19-20-21-22-23-ilovalar).</p>		Tinglaydi, yozadi, tushunchaga ega bo'ladi, fikr bildiradi.  Tinglaydi, yozadi, ma'lumotga ega bo'ladi, fikr yuritadi.  Tinglaydi, yozadi, savollar beradi.  Tinglaydi, yozadi, savollarga javob beradi, tahlil qilib, xulosalar bildiradi.
3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulasa qiladi va faoliyat natijalarini izohlaydi (24-ilova).</p> <p>3.2. O'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini tahlil etadi va baholaydi.</p> <p>3.3. Keyingi o'quv mashg'uloti seminar mavzusini e'lon qiladi: "Bronza davri arxeologiyasi" (25-26-ilovalar).</p>		Fikrlarini bildiradi, o'z-o'zini baholaydi.  Savollar beradi.  Mavzu nomini daftariga yozadi.

### TEXNOLOGIK KARTAGA OID ILOVALAR.

#### 1-ILOVA MAVZU: BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYASI

##### **REJA:**

- 1. Bronza davriga tavsif.**
- 2. Yevropa va Kavkaz hududlarida bronza davri.**
- 3. Rossiya hududidagi bronza davri madaniyati (Afanasev va Andronovo madaniyatları).**
- 4. O'rta Osiyo hududida bronza davri (Nomozgoh IV, Nomozgoh V, Nomozgoh VI, Sopolli madaniyati, Zamonbobo, Tozabog'yop, Qayroqqum madaniyatları).**

## 2A-ILOVA “BBXB” JARYALI

BILAMAN

BILISHNI  
HOHLAYMAN

BILIB OLDIM

## 2-ILOVA

### BRONZA DAVRI

- Jahon tarixida bronza davri miloddan avvalgi III ming yillik oxirlaridan boshlanadi.** Bu davrda Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eronning janubi-g'arbida davlatlar shakllanib, quldorlik jamiyatni keng ravnaq topqan edi. O'zbekiston hududida esa bu davr miloddan avvalgi II ming yillikning I choragida boshlanib miloddan avvalgi VIII asrlargacha davom etadi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyoti ham o'ziga xos tarzda davom etgan.

## 3-ILOVA

### BRONZA DAVRI XUSUSIYATLARI:

- Birinchi mehnat taqsimoti sodir bo'ldi.**
- Patriarxat davri boshlandi.**
- Doimiy qishloqlar paydo bo'ldi.**
- Kulolchilik charxi ixtiro qilindi.**
- Uy-joy qurilishida g'ishtdan foydalanildi.**
- Gupchakli g'ildirakli aravalar paydo bo'ldi.**
- Mudofaa devorlari qurildi.**
- Ipakdan matolar to'qildi.**
- O'zbekistonda ilk shahar - Jarqo'ton shakllandı.**

## 4-ILOVA

### BRONZANING ILK BOSQICHI

- Manzilgohlarda shaharsozlik qurilishi usulining murakkablashishi va yanada taraqqiy etganligi sezildadi. Oltintepa fortifikatsiyasi takomillashib, manzilgohga uchta bo'ylama yo'lakcha orqali kirilgan. Diniy markaz bo'lgan Oltintepa minora shaklidagi imorat bo'lib, g'ishtdan to'rt tomoni o'yiq qilib qurilgan (Mesopotamiya zikkuratlari shaklida). Yonida dafn qilish marosimlari uchun mo'ljallangan xonalardan joylashgan. Xonalarning birida marosimlar o'tkazilgan, qolganlarida murda va suyaklar saqlangan. Bu yerdan turli xildagi sig'inish buyumlari va bezaklar topilgan. San'at buyumlarida yulduz belgilarinining mavjudligi diniy kompleksning Oy xudosiga taalluqli ekanligidan darak beradi.

## 5-ILOVA

### RIVOJLANGAN BRONZA BOSQICHI

- Manzilgohlarning hajmi kattalashadi. Uylar tartibli qurilib, o'rtadan asosiy yo'l o'tadi. Bir necha shakldagi uylarning paydo bo'lishiga ko'ra aholining bir necha tabaqaga ajratilganligini ko'rish mumkin. Oltintepadagi diniy inshoot qayta qurilib, zinasimon minoraning balandligi oshiriladi va maydoni kengaytiriladi. Binoning ibodat qilinadigan xonalardan birida muqaddas ichimlik saqlanadigan idish topilgan. Devor yonida muqaddas olov yonib turgan. Bu yerda ham yulduz belgilari uchraydi. Xonalardan biri jamoa dahmasi bo'lib, u ko'rinishdan kohinlar uyushmasiga tegishli.

## 6-ILOVA

### BRONZANING SO'NGGI BOSQICHI

- Bu davr yirik manzilgohlarning kichik manzilgohlarga aylanishi bilan xarakterlanadi. Oltintepa tashlab ketiladi. Namozgohtepaning maydoni esa keskin qisqaradi. Ilk shahar madaniyati Murg'ob vohasiga ko'chib, u yerda bir necha dehqonchilik vohalari shakllanadi. Bu yerdagi markaziy manzilgoh atrofida hajmi kichik bo'lgan manzilgohlar qaror topadi.

## 7-ILOVA

### YEVROPA VA KAVKAZ HUDDUDLARIDA BRONZA DAVRI

Yevropadagi ibtidoiy davr qo'rg'onlarining deyari hammasidan bo'yalgan va bo'yalmagan skletlar topilgan. Skletlar yerda yonboshlab, oyoqlari bukilgan holatda yetishadi. Bu odat keng yoyilgan. Hatto Sharq, Markaziy Osiyo hududlarida ibtidoiy qabilalar tug'ilguncha odam ona qornida qanday holatda bo'lsa, o'lganidan keyin yer bag'rida shu taxlitda yetadi deb o'ylaganlar. Arxeologlar tomonidan murdani bo'yab, buchaytirib ko'mishning 3 davri ajratib o'rganilgan:

1. Qadimgi chuqur, mozor-qo'rg'onlari (eneolit davriga mansub).
2. Katakomba mozor-qo'rg'onlari.
3. Yog'ochband mozor qo'rg'onlari.

## 8-ILOVA

### YEVROPA VA KAVKAZ HUDDUDLARIDA BRONZA DAVRI

**Katakomba** davri miloddan avvalgi III ming yillikning oxirlaridan II ming yillikning I-yarmigacha bo'lgan davmi o'z ichiga oladi. **Katakomba** mozor-qo'rg'onlaridan erkaklar va ayollar murdalari topilgan. Ko'plab kollektiv qabrlar ham uchraydi.

Miloddan avvalgi II ming yillikning o'ttalarida **katakomba** davri o'niga **yog'ochband** davri keladi. **Yog'ochband**-yog'och qabr, MDH hududlarida, Shimoliy Yevropada ko'plab tarqalgan. Go'rlarning ichiga murdalar yog'och tobutda qo'yilgan. Shuning uchun ham bu qabrlar **yog'ochband qabrlar** deb ataladi.

## 9-ILOVA

### YEVROPA VA KAVKAZ HUDDUDLARIDA BRONZA DAVRI

**Yog'ochband** davri miloddan avvalgi II ming yillikning o'ttalariga to'g'ri keladi. Bu davrda dastali, teshikli boltalar keng tarqalgan. Dastlab ular **Sharq mamlakatlari** yodgorliklardan topilgan. **Yog'ochband** davrida **metallurgiya va chorvachilikning** rivojlanishi boyliklar to'planishiga va xarbiy to'qnashuvlarning kuchayishiga olib keladi. Jamiyatda moddiy boyliklarning ayrim kishilar qo'lida to'planishi jarayoni boshlanadi.

Bronza davriga oid bo'lgan **qo'rg'onsiz qabrlar** ham ko'p uchraydi. Unda murdalar kuydirilgan. Bunday xolat G'arbiy Yevropada so'nggi bronza davri uchun xarakterlidir.

## 10-ILOVA

### YEVROPA VA KAVKAZ HUDUDLARIDA BRONZA DAVRI

Bronza (Jez) davri mozor-qo'rg'onlari o'rganilishi orqali bu davr haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lindi. Bu davr mozorlaridan «bo'yalgan va bukchaytirilgan» skletlar ko'plab topilgan. Bu davrda kishilar mурдаларга har xil rangdagi (ko'proq qizil, och qizil) tabiiy bo'yoqlar sepishgan. Qizil va och qizil rang -jon, tirilish, qon ramzi hisoblangan.

«Bukchaytirilgan skletlar» - mурдалами yonboshlab, oyoqlari bukilgan holatda ko'milishi, odamning dunyoga kelishi, ibrido va intiho haqidagi tasavvurlarning inikosi sifatida, ona qornida va yer bag'rida bir holatda bo'lishini aks ettilishidir.

## 11-ILOVA

### YEVROPA VA KAVKAZ HUDUDLARIDA BRONZA DAVRI

Yevropada bronza davri chorvador qabilalari o'ziga xos katta birlıklarni tashkil etadi. Sopol buyumlarning shakli va naqshlari o'z birlıklarga xos bo'lib, ular bir-birlaridan farq qilgan.

Masalan, Janubiy Shvetsiya, Daniya, Germaniya, Pol'sha, Chexiya, Frantsiya, Venetsiya, hududlarida, xatto MDH davlatlari territoriyalarida chilvir naqshli sopol buyumlar keng tarqalgan. Angliya, Frantsiya, Ispaniya, G'arbiy Germaniya hududlarida esa, oddiy, o'ziga xos shakldagi sopol buyumlar tarqalgan.

## 12-ILOVA

### YEVROPA VA KAVKAZ HUDUDLARIDA BRONZA DAVRI

Kavkazning tabiiy sharoiti bronza davri xo'jaligi dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay bo'lganligi uchun ham bu yerda ko'plab qabilalar o'zlarining madaniyatini vujudga keltirgan. Kavkazorti madaniyati Old Osiyo madaniyatiga yaqin. Miloddan avvalgi III-II ming yilliklarga oid makonlardan qadimgi sharq qurollari, qadimgi Ossuriya qilichlari kabi moddiy topilmalar topilgan. Kavkazortida Maykop, Trialet kabi mozor-qo'rg'onlar o'rganilgan.

## 13-ILOVA

### ROSSIYA HUDUDIDAGI BRONZA DAVRI MADANIYATI

MDH davlatlari hududida ham bronza davri yodgorliklari o'rganilgan. Janubiy Sibir hududida bronza davri yodgorliklaridan eng qadimiysi Afanas'ev madaniyati bo'lib, u miloddan avvalgi III ming yillikka oid. Afanas'ev madaniyati Yenisey (Enasoy) daryosi bo'yida joylashgan. Afanas'ev yodgorligidan qadimgi qabrlar o'rni topilgan. Bu qabrlar ustiga tosh taxlangan chuqur qabrlar bo'lib, unga murdalar yonlab qo'yilgan. Ularning yonida oziq-ovqatlar, mehnat qurollari qoldiqlari saqlangan.

## 14-ILOVA

### ROSSIYA HUDUDIDAGI BRONZA DAVRI MADANIYATI

Miloddan avvalgi II ming yilliklarda G'arbiy Sibir' xududida Andronovo madaniyati keng tarqalgan. Andronovo madaniyati tipi- Janubiy Sibir', Janubiy Ural, Qozog'iston shimoliy hududiga mosdir. Andronovo madaniyati qabrlar va makonlardan iborat bo'lgan. Qabrlar – to'g'ri burchakli bo'lib, yog'och va tosh plitalar bilan yonlari mustahkamlangan. Andronovo madaniyatiga oid makonlarda metallurgiya, chorvachilik, motiga dehqonchiligi rivojlangan. Ko'plab jez qurollar, don qoldiqlari topilgan.

## 15-ILOVA

### O'RTA OSIYODA BRONZA DAVRI MADANIYATI



## 16-ILOVA

### O'RTA OSIYODA BRONZA DAVRI MADANIYATI

#### SOPOLLI MADANIYATI

- Sopollitepa manzilgohi**  
Surxondaryo viloyatidagi Sherobod cho'lida Qaynarbuloqsoy hududida topilgan. U Termiz shahridan 70 km shimoliy-g'arbda joylashgan. Bu manzilgoh Sherobod cho'lini o'zlashtirish jarayonida 1968 yilda L.I.Albaum tomonidan ro'yxatga olingan. Uning tadqiqot ishlari bilan 1969-1974 yillarda A.Asqarov shug'ullangan. Ushbu madaniyatga tegishli 20 dan ortiq yodgorliklar topilgan.

## 17-ILOVA

### O'RTA OSIYODA BRONZA DAVRI MADANIYATI

#### SOPOLLI MADANIYATI

- Sopolli madaniyati 5ta xronologik bosqichiga bo'linadi. Ular quyidagilardan iborat:**
1. Sopolli bosqichi - miloddan avvalgi 2150-1900 yillar;
  2. Jarqoton bosqichi - miloddan avvalgi 1900-1600 yillar;
  3. Ko'zali bosqichi - miloddan avvalgi 1600-1450 yillar;
  4. Molali bosqichi - miloddan avvalgi 1450-1250 yillar;
  5. Bo'ston bosqichi - miloddan avvalgi 1250-1000 yillar.

## 18-ILOVA

### O'RTA OSIYODA BRONZA DAVRI MADANIYATI

#### SOPOLLI MADANIYATI

Qadimgi sug'orish hududlari - **Ulonbuloqsoy, Sherobod, Bandixon, Mirshodi** yodgorliklari. Xo'jaligi **sug'orma, o'troq dehqonchilik va uy chorvachiliga** asoslangan. Sopollitepa markazidan **to'rtburchakli istehkom, uning ichida turar-joylar va xo'jalik xonalari, hunarmandchilik ustaxonalari** topilgan bo'lib, uchta madaniy qatlAMDAN iborat. O'choqlar turar joy xonalaridagi devor ichiga o'rnatilgan. **Qurilish ashyosi-paxsa va xom g'isht.** Turar-joylar tagidan qabriston ochilgan. **Yakka, jamoa qabrlar** uchraydi. **Kulolchilik, binokorlik, to'qimachilik, metall bilan ishslash** rivojlangan. Ilk shaharsozlik o'choqlaridan biri.

## 19-ILOVA

### O'RTA OSIYODA BRONZA DAVRI MADANIYATI

**TOZABAG'YOB MADANIYATI**

XORAZM HUDUDIDA CHORVACHILIK VA DEHQONCHILIK BILAN SHUG'ULLANGAN QABILALAR Ning 50 DAN ZIYOD MODDIY-MADANIY YODGORLIKHLARI BO'LIP, QO'LDA ISHLANGAN SOPOL IDISHLAR, ZEB-ZIYNATLAR, TOSH VA BRONZA QUROLLARI TOPILGAN. MAKONLARNING AYRIMLARI MOZORLAR (KO'KCHA), KO'PCHILIGI YARIM YERTO'LA SHAKLIDAGI UYLAR QOLDIQLARI.

**AMIROBOD MADANIYATI**

XORAZMDAGI SO'NGGI BRONZA DAVRI YODGORLIKHLARI, TOZABAG'YOB MADANIYATI XUSUSIYATLARINI SAQLAGAN, YARIM YERTO'LA SHAKLIDAGI TURAR-JOY, SUG'ORISH INSHOOTLARI, QO'LDA YASALGAN SOPOL IDISHLAR BILAN IZOHLANADI.

## 20-ILOVA

### O'RTA OSIYODA BRONZA DAVRI MADANIYATI

**ZAMONBOBO MADANIYATI**

QUIYI ZARAFSHON HUDUDI YODGORLIKHLARI ZAMONBOBO KO'LI YOQASIDAN TOPILGAN QADIMGI QABRISTON NOMI BILAN BOG'LIQ. QABRLAR YAKKA VA JUFT BO'LIP, DAFN ETISHDA KO'MISH MAROSIMLARIGA AMAL QILINGAN. DEHQONCHILIK VA XONAKI CHORVACHILIK BILAN SHUG'ULLANGANLAR. HUNARMANDCHILIKNING KULOLCHILIK, BRONZADAN HAR XIL ASHYOLAR YASASH, TOSHNI ISHLASH TEHNİKASI RIVOJLANGAN.

**CHUST MADANIYATI**

FARG'ONA VODIysi NAMANGAN VILOYATI CHUST SHAHRI YAQNIDAGI BUWANAMOZOR BULOG'I YOQASIDA ANIQLANGAN MAKON, DALVARZINTEPA, QORAQO'RG'ON, TO'RAQO'RG'ON, CHIMBOY, ASHQOLTEPA YODGORLIKHLARI AHOLISI SUG'ORMA DEHQONCHILIK, METALL BUYUMLAR YASASH, TO'QIMACHILIK, OVCHILIK VA BALIQCHILIK BILAN SHUG'ULLANGAN. OLOVGA E'TIQOD QILGAN. QISHLOQ-QISHLOQ BO'LIP YASHAGAN.

## 21-ILOVA


### NAMOZGOH IV-V MADANIYATI BUYUMLARI



## 22-ILOVA BRONZA DAVRI BUYUMLARI



SOPOLLI TEPA. BRONZA IDISHLAR.



SOPOL IDISHLAR TO'PLAMI. SOPOLLI TEPA MADANIYATI.



BRONZA KO'ZGU.

## 23-ILOVA

### “Aqliy hujum” qoidalari:

- O'zaro tanqid va bahoga yo'l qo'yilmaydi!
- Taklif etilayotgan fikrlarni tanqid qilishga shoshilma, xattoki ular juda g'aroyib bo'lsa ham!
- So'zga chiquvchining gapini bo'lma!
- Fikrlar va g'oyalalar takrorlansa, xafa bo'lma!
- G'oyalalar qancha ko'p bildirilsa, shunchalik yaxshi yangi va qimmatli g'oya paydo bo'lishi ehtimoli ortadi!
- Ushbu muammo faqat ma'lum bo'lgan usullar bilangina yechilishi mumkin deb hisoblama!

## 24-ILOVA

### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Bronza davri yutuqlari nimalardan iborat?
2. Bronzadan qanday qurollar ishlab chiqarilgan?
3. Sopoli madaniyati nechta bosqichda rivojlangan?
4. Yevropa va Kavkaz hududlaridagi bronza davri yodgorliklarini sanab o'ting?
5. Jarqo'ton yodgorligi haqida ma'lumot bering?
6. Afanasev va Andronovo madaniyatları haqida ma'lumot bering?
7. Chorvador qabilalar o'rta Osiyonning qaysi hududlarida istiqomat qilishgan?
8. Zamombobo madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ko'rsating?

## 25-ILOVA

### **YODDA TUTING!**

- \***O'rta Osiyoning cho'l va dashtlarida chorvador qabilalar yashagan.**
- \***Zamonbobo madaniyati Buxoro viloyatidan topilgan.**
- \***Tozabog'yob madaniyati Amudaryoning Oqchadaryo o'zani bo'yidan topilgan.**
- \***Suvyorgan madaniyati Qoraqalpog'iston hududidan topilgan.**
- \***Andronovo madaniyati G'arbiy Sibir, O'rta Osiyoning g'arbiy qismi va janubiy Ural hududlarida tarqalgan.**
- \***Qayroqqum madaniyati Farg'ona vodiysining g'arbiy qismidan topilgan.**

## 26-ILOVA

### **KEYINGIDARS – SEMINAR MAVZUSI: “BRONZA DAVRI ARXEOLOGIYASI”**

#### **REJA:**

- 1. Bronza davriga tavsif.**
- 2. Yevropa va Kavkaz hududlarida bronza davri.**
- 3. Rossiya hududidagi bronza davri madaniyati (Afanasev va Andronovo madaniyatlari).**
- 4. O'rta Osiyo hududida bronza davri (Nomozgoh IV, Nomozgoh V, Nomozgoh VI, Sopolli madaniyati, Zamonbobo, Tozabog'yop, Qayroqqum madaniyatlari).**

## 27-ILOVA

### **ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'nnaviyat – yengilmas kuch. – Т., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Т., 1998.
3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – Т., 1999.
4. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondayro tarixidan lavhalar. – Т., 1997.
5. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. – Т., 1990.
6. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 1999.
7. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – Т., 1993.
8. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – Т., 1990.
9. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Т., 2004.
10. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osiyoning shaharlari tarixi. – Т., 2006.
11. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
12. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Т., 1977.
13. Аскаров А. Сапаллитепа. – Т., 1975.
14. Аскаров А., Абдуллаев Б. Джаркутган. – Т., 1983.
15. Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии. – Самарканд, 1993.
16. Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. – Л., 1968.
17. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.
18. Сарнаниди В.И. Древности страны Маргуша. – Ашхабад, 1990.
19. Мартынов А.И. Археология. М., 2006.
20. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-Т.: 2011

**O'QUV MASHG'ULOTIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI**  
**12-MAVZU: TEMIR DAVRI ARXEOLOGIYASI**

<i>O'quv vaqtি</i>	<i>2 soat</i>
<i>O'quv mashg'uloti shakli</i>	<i>Ma'ruza</i>
<i>O'quv mashg'uloti rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Temir davriga umumiy tavsif.</li> <li>2. Urartu davlati madaniyati.</li> <li>3. Ckif va sarmat qabilalari madaniyati.</li> <li>4. Rossiya hududida ilk temir davri</li> <li>5. O'rta Osiyo hududida so'nggi bronza va ilk temir davri madaniyatlarining rivojlanishi.</li> </ol>
<b><i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i></b> Talabalarda temir davri, temir davrining aholisi, ularning xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida teran tushunchalar hosil qilish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
<p>Temir davrining umumiy xarakteristikasi va davrlashtirish masalalarini tushuntirish;</p> <p>Urartu davlati madaniyati haqida ma'lumot berish;</p> <p>Ckif va sarmat qabilalari madaniyati va ularning o'ziga xos jihatlarini misollar asosida ko'rsatib berish;</p> <p>Rossiya hududidagi ilk temir davri yodgorliklari haqida tushuncha berish;</p> <p>O'rta Osiyo hududida so'nggi bronza va ilk temir davri madaniyatlarining rivojlanishi va ularning o'ziga xos jihatlarini misollar asosida tushuntirib berish.</p>	<p>Temir davrining umumiy xarakteristikasi va davrlashtirish masalalarini haqida tushunchaga ega bo'ladi va fikrlar bildiradi;</p> <p>Urartu davlati madaniyati haqida ma'lumotga ega bo'ladi, fikrlar bildiradi;</p> <p>Ckif va sarmat qabilalari madaniyati va ularning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilib xulosalar chiqaradi;</p> <p>Rossiya hududidagi ilk temir davri yodgorliklari haqida tushunchaga ega bo'lib fikrlar bildiradi;</p> <p>O'rta Osiyo hududida so'nggi bronza va ilk temir davri madaniyatlarining rivojlanishi va ularning o'ziga xos jihatlari to'g'risida fikrlar bildiradi, ularni asoslaydi va tahlil qiladi.</p>
<i>O'qitish metodlari va texnikasi</i>	Bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. "Aqliy hujum" va "BBXB" metodlari.
<i>O'quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i>	Individual, jamoa bo'lib.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ilmiy adabiyotlar, ko'rgazmali materiallar, ma'ruza matni, jadvallar, doska, proektor, ekran, o'quv vazifalari va savollar.
<i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i>	Og'zaki nazorat, o'z-o'zini va ozaro baholash, savollar.

## O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK KARTASI

Faoliyat bosqichlari, vaqtি	FAOLIYAT MAZMUNI		TALABALAR
	O'QITUVCHI		
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish ( 10 daqiqa)	<p>1.1. Darsning mavzusi, maqsadi va rejalahshtirilayotgan o'quv-amaliy natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>1.2. Vizual material yordamida o'quv mashg'ulotining rejasи va xususiyatlari bilan tanishtiradi (1-ilova).</p> <p>1.3. Temir davri haqida tushuncha beradi (2-ilova).</p>	Tinglaydi	Tinglaydi, yozadi
2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)	<p>2.1. Temir davrining umumiy xarakteristikasi va davrlashtirish masalalarini tushuntirib beradi (3-4-5-6-7-8-9-ilovalar);</p> <p>2.2. Urartu davlati madaniyati haqida ma'lumot beradi (10-11-12-13-14-15--ilovalar);</p> <p>2.3. Ckif va sarmat qabilalari madaniyati va ularning o'ziga xos jihatlarini misollar asosida ko'rsatib beradi (16-17-18-19-20-21-ilovalar);</p> <p>2.4. Rossiya hududidagi ilk temir davri yodgorliklari haqida tushuncha beradi (22-ilova);</p> <p>2.5. O'rta Osiyo hududida so'nggi bronza va ilk temir davri madaniyatlarining rivojlanishi va ularning o'ziga xos jihatlarini misollar asosida tushuntirib beradi. (23-24-25-26-27-28-29-30-31-32-33-ilovalar);</p>	Tinglaydi, yozadi, fikr bildiradi.	Tinglaydi, yozadi, fikr yuritadi.
3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa qiladi va faoliyat natijalarini izohlaydi (34-35-ilovalar).</p> <p>3.2. O'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini tahlil etadi va baholaydi.</p> <p>3.3. Keyingi o'quv mashg'uloti seminar mavzusini e'lon qiladi: "Temir davri arxeologiyasi" (36-ilova).</p>	Fikrlarini bildiradi, o'z-o'zini baholaydi.	Savollar beradi. Mavzu nomini daftariga yozadi.

### TEXNOLOGIK KARTAGA OID ILOVALAR.

#### 1-ILOVA



### REJA:

- 1. Temir davriga umumiy tavsif.**
- 2. Urartu davlati madaniyati.**
- 3. Ckif va sarmat qabilalari madaniyati.**
- 4. Rossiya hududida ilk temir davri**
- 5. O'rta Osiyo hududida so'nggi bronza va ilk temir davri madaniyatlarining rivojlanishi.**

## 2-ILOVA

### TEMIR DAVRI

Temirdan foydalanish natijasida jamiyatning sotsial-iqtisodiy hayotida katta o'zgarishlar bo'ldi. Ikkinchisi yirik mehnat taqsimoti sodir bo'ldi.

**Dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqqdi.** Bu o'z navbatida mehnat unum dorligining oshishiga, tovar ayirboshlashning jonlanishiga, xususiy mulkning rivojlanishiga, davlatning mustahkamlanishiga sabab bo'ldi. Temir davri boshlarida Osiyo va Yevropaning hamma joylarida mustahkam istehkomlar qurilgan, shaharlar rivojlangan.

## 2A-ILOVA “BBXB” JARYALI

BILAMAN

BILISHNI HOHLAYMAN

BILIB OLDIM

## 3-ILOVA

### TEMIR DAVRI

Temir o'z sanasidan ko'ra ancha ilgari kashf etildi. Uning tantanasi uchun atigi bir necha asr kifoya qildi. Miloddan avvalgi II ming yillik oxirlarida temir hamma yerda noyob zeb-ziynat buyumlari sifatida mavjud edi. Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlaridan esa, u moddiy madaniyat dunyosida hukmron o'rinni oldi va bu o'rinni hozirgi kunda ham saqlamoqda.

Odamlar sof temir bilan dastlab tanishganlarida uning hali amaliy ahamiyati bo'limgan. Gap shundaki, dastlabki tabiatdagi sof temir faqat meteoritlarda uchragan, nihoyatda kamyob bo'lganligi tufayli u ayrim mamlakatlarda ilohiylashtirilgan. Temirdan yasalgan quollar mo'jiza sifatida qabul qilingan. Meteorit – temirdan ishlangan quollar munchoqlar sifatida tarqalgan va eneolit, bronza, temir davrlariga mansub qabrlardan topilgan.

#### 4-ILOVA

### TEMIR DAVRI

Temir haqidagi yozma ma'lumotlar Misr fir'avni bilan va Xett podshosining yozishmalarida berilgan. Fir'avnlar Amenoxotep III va Exnaton davrida temir haqidagi ilk yozma ma'lumotlar uchraydi. Fir'avn Tutanxamon qabrida temirdan yasalgan buyumlar uchraydi. Bularning deyarli barchasi g'oyat qimmatli zargarlik buyumlari bo'lgan.

Dastlabki temir Misr, Ikkidaryo oralig'i, Egey dengizi bo'yи dunyosida zeb-ziynatlar sifatida kashf qilingan.

#### 5-ILOVA

### TEMIR DAVRI

Temir o'zidan oldingi metallarga nisbatan qattiqroq va o'tkirroq xususiyatga ega bo'lgan va yer yuzida ko'p tarqalgan. Lekin odamlar uni boshqa metallardan keyin o'zlashtirgan. Yozma manbalar va arxeologik ma'lumotlarga ko'ra temir metallurgiyasi Kichik Osiyo hududidagi Xett podsholigi territoriyasida mil. avv. XIV-XIII asrlarda vujudga kelgan. Mil. avv. X-IX asrlarda temir metali Hindiston va Eronda kashf etilgan. Mil. avv. IX-VIII asrlarda temirchilik Ossuriya va Urartu hududlarida ham keng tarqalgan.


#### 6-ILOVA

### TEMIR DAVRI

Mil. avv. XIV asrda yasalgan temir buyumlarning hammasi g'oyat qimmatli badiiy zargarlik buyumlari hisoblanadi. Temir qurollardan ijtimoiy hayotda keng foydalanish, mehnat qurollari va qurol-yarog'lar sifatida ishlatish nisbatan kechroq amalga oshirilgan. Masalan, Italiyada temir miloddan avvalgi XII asrda, Sharqiy Yevropa, Skandinaviya mamlakatlarida mil. avv. X asrda paydo bo'lgan. Xitoyda esa, mil. avv. VI-V asrlarda temir buyumlari ishlab chiqarilgan. Temir quollar esa, bu yerda miloddan avvalgi IX asrlarda ishlatila boshlanganligi manbalardan ma'lum.

## TEMIR DAVRI

Mil. avv. XIII asrlardan e'tiboran quldorlik davlatlarida temir bronza o'rnini egallaydi. Mil. avv. VII asrda Yevropada temir ko'proq qurol-yarog'lar sifatida ishlataligani. Amerika, Avstraliya, Tinch okeani orollari, MDHning ayrim hududlari (uzoq shimol rayonlari) da temir mil. avv. XVII-XVI asrlarda ma'lum bo'lgan. «Temir davri» degan tushuncha arxeologiya faniga fransuz olimi **K.Tomsen** tomonidan XIX asrda kiritilgan.



## 9-IL OVA



## 10-IL OVA

### URARTU DAVLATI

Ilk temir davridagi yirik podsholiklardan biri bo'lgan. Urartu so'zi ossuriycha bo'lib, urartcha – **Biaynili**, Bibliyada – Ararat podsholigi nomi bilan yuritilgan. G'arbiy Osiyodagi qadimgi davlat (**mil. avv. IX-VI asrlar**). Urartu davlati ravnaq topgan davrida Armanistonning tog'lik rayonlarini (hozirgi Armanistonning butun hududi, Turkiya va Eronning bir qismi) ni qamrab olgan. Aholisi asosan urartlar bo'lgan. Poytaxti – **Tushpa** shahri bo'lgan (hozirgi Turkiyadagi **Van shahri**) bo'lib, unda podsho **Sarduri I** davrida katta qurilish ishlari olib borilgan. Mil. avv. IX asr oxiri – VIII asr birinchi yarmida Urartu davlati ravnaq topgan. **Menuya, Argishti I va Sarduri II** podsholiklari davrida Urartuning hududi ancha kengaygan. Bosib olingan viloyatlarda qal'alar qurilgan (Ararat tog'ining shimoliy yon bag'rida **Menuaxinili** shahri; **Erebuni** – Yerevan atrofidagi **Arin-berd** tepaligi; Araksning so'l qirg'og'ida **Argishtixinili**). Urartuda qullar mehnatidan keng foydalanilgan.

## 11-LOVA

**Teyshebaini** Urartu davlatining yirik markazi (mil. avv. VII-VI asrlar) bo'lib, bugungi kunda **Yerevan** shahridagi **Karmir-Blur** tepaligida qal'a xarobalari sifatida saqlanib qolgan. Mahobatli inshoot qoldiqlari **(150 ga yaqin xona – ustaxonalar, omborxonalar, don omborxonalar (750 t gacha don saqlangan), vino saqlanadigan yerto'lalar (8 ta) va b.)** aniqlangan. Qal'a atrofida to'g'ri rejelashtirilgan shahar joylashgan. Teyshebainidan ko'plab quroq-aslahalar **(jumladan Urartu podsholriga tegishli serbezak dubulg'alar, sadoqlar, qalqonlar, qilichlar va b.), san'at buyumlari, taqinchoqlar, mixxat yozuvlari, Teyshebanining bronzadan ishlangan haykalchasi** topilgan. Mil. avv. **585 yilda Teyshebaini** mahalliy va skif qabilalari tomonidan vayron etilgan.

## 12-LOVA

**Teyshebainida** olib borilgan tadqiqotlar jarayonida bug'doy, **arpa, kunjut donlari** topilganligi Urartu aholisining asosiy mashg'uloti **dehqonchilik** bo'lganligidan darakdir. **Bog'dorchilik va uzumchilik ham** xo'jalikning asosiy tarmoqlaridan bo'lgan. Qazishmalar jarayonida **olcha, olma, behi, anor, uzum, yong'oq, shaftoli, shuningdek tarvuz urug'lari** topilgan. Vino saqlanadigan 400 ta maxsus idishlar - **karaslar** (har birining sig'imi 800-1200 litr) topilgan.

## 13-LOVA

**Erebuni** (Yerevan atrofidagi **Arin-berd tepaligi**) shahri xarobalarida olib borilgan tadqiqot ishlari jarayonida toshda o'yib yozilgan yozuv topiladi, unda: "Xalda xudosi panohidagi Argishti, Menuaning o'g'li, bu qal'ani qurdirib, shaharga Erebuni nomini berib, Biayna (Urartu) va boshqa mamlakatlardagi shaharlardanda mustahkam. Shahar o'rnda avval hech nima yo'q edi, men bu yerda Xate va Supanidan 6600 askar olib keltirib uni bunyod ettirdim", deb yozilgan.

**Erebuni** shahri xarobalarida olib borilgan qazuv ishlari jarayonida asosi tog' toshlari va xom g'ishtdan qilingan mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan qal'a (5 m balandlikda saqlanib qolgan) ochib o'rGANILGAN. Yuqorida qayd etilgan toshdagagi yozuv qal'aga kirish qismida saqlanib qolgan, bundan tashqari yana 21 ta qal'adagi **saroy, ibodatxona va boshqa binolarning qurilishi** bilan bog'liq ma'lumotlardan iborat mixxat yozuvlari topilgan. Qazuv ishlari davomida saroy va ibodatxonadagi zallarda ossuriy uslubdagi to'rt xil rangdan iborat suratlar chizilganligi aniqlandi. Agar shaharga asos solingan yilni qadimgi mixxatdagi ma'lumotlardan kelib chiqib mil. avv. 782 yil deb hisoblasak, unda **Yerevan** shahrining yoshi 2750 yil, ya'ni mil. avv. 754 yilda asos solingan Rim shahridan ham katta.

## 14-ILOVA



## 15-ILOVA

The Kingdom of Urartu, 9th-6th Centuries B.C.



## 16-ILOVA

### CHORVADOR AHOLINING JOYLASHISH GEOGRAFIYASI

Temir davri boshlarida Orol bo'yłari, Qozog'iston cho'llari, Qora dengiz bo'yłari, Kaspiy orti va janubiy Sibir hududlari dashtlarida ko'chmanchi chorvador qabilalar isti'qomat qilishgan. Yozma manbalarda ko'rsatilishicha, bular kimmeriy, skif, sak, massaget, savromat, sarmat qabilalari bo'lган.

Yozma va modiy manbalarda ularning tur mush tarzi va urf-odatlari haqida to'liq ma'lumot berilgan. Ko'chmanchi qabilalardan moddiy yodgorlik sifatida mozor-qo'rg'onlar saqlanib qolgan.

## 17-ILOVA

### SKIFLAR

Ilk ko'chmanchi chorvadorlarni urf-odati tarqagan hududlari to'g'risida yunon tarixchilari ancha batafsil ma'lumot beradi. Bunday xalqlarning eng qadimgilari va yozma manbalarida saqlanganlardan biri **kimmeriylardir**. Gerodot asarlarida bu aholini skiflarga cha bo'lган davrda **Qora dengiz bo'yı hududlarida** yashaganliklari to'g'risida ma'lumotlar bor. Gerodot **skiflar** to'g'risida ham ma'lumot berib, ularni ko'proq ot va aravada yurishlari, hatto ayrimlari o'troq hayat kechirishlari, ularning juda ham jangavor xalq ekanliklari to'g'risida xabar beradi. **Skiflarni** juda katta xalq ekanligi, ularni O'rta Osiyo hududlarida tarqalgan qismini **saklar** deb atalishi alohida uqtiriladi. **Saklarni yoki skiflarni** asosan **ko'chmanchi-chorvachilik** qilib kun ko'rganliklari bois ulardan doimiy turar-joy makonlari qolmagan. Shuning uchun ularning hayatini, yashash tarzini faqat **mozor-qo'rg'onlarni** o'rganibgina biliш mumkin.

## 18-ILOVA

### SKIFLAR

Skiflar madaniyati mil.avv. VII asrdan shakllana boshlagan. Skiflar dastlab ko'chmanchi hayat kechirishgan. Mil.avv. V asrdan ularning dastlabki mustahkamlangan manzilgohlari paydo bo'ladi. U quyisi Dnepr bo'yidagi xozirgi **Nikopol** yonida bo'lган. Mil.avv. IV asrlarga kelib, u nixoyatda tez rivojlanib, hunarmandchilik va savdo markaziga aylanadi. Mil.avv. IV—III asrlarga kelib skiflarning bir qancha shaharlari bo'lган - **Kamensk, Elizavetovskiy** va boshqalar. Skiflarning eng qadimiш qo'rg'onlari mil.av. VI asrlarga oiddir.

## SARMATLAR (SAVROMATLAR)

**Savromatlar** (e.o.VII-IV asrlar) Volga-Ural cho'llarida yashagan. II asrga kelib asosiy qabilalar Don daryosini kechib o'tib, Skifiyaga bostirib kiradi. Shaharlar vayron qilinib, aholi qirib tashlanadi. Qolganlari skiflar bilan aralashib ketadi.


E.o. IV-III asrlarda savromatlarda yangi qabilalar shakllangan. Bu yangi qabilalar tarix maydoniga **sarmatlar** nomi bilan qadam qo'yan (e.o. III asr - e. IV asr). Sarmat shohlarining qabristonlari boyligi bo'yicha skiflarnikidan qolishmasdi. **Xodach qo'rg'onida** (e.I-II asrlar) **Novocherkassk shahrida** shoh xotinining qabristoni topilgan. Uning yonida topilgan buyumlardan eng esda qoladigani - bu tilladiadema (boshidagi taqinchoq).

Sarmat keramikasi hali ham kulolchilik dastgohisiz yasalardi. Baland oyog'chali bronza qozonlarsarmatlarga ham (skiflarga ham) xos.

Sarmatlarning qurollari skiflarnikidan farq qiladi. Ularning qilichlari uzunroq. Sarmatlar ko'proq otning ustida jang qilishgan. Xanjarlarni o'ng oyog'iga bog'lab olishardi. O'qlari kattaroq, temirdan yasalgan. Sarmatlar kolchuga kiyishgan (ular Rimdan yoki Kichik Osiyodan kelishi mumkin). (Birinchi bor kolchuga e.o. VIII asr Ossuriyada paydo bo'lган).

Volga bo'yisi, Kuban bo'yisi va Qora dengiz bo'yida joylashgan sarmat qo'rg'onlarida rim buyumlari topilgan - badiiy bronza idishlar, qizillakdi sopol buyumlar.

E. IV asrida sarmatlar gunnlar tomonidan zab etilgan. Sarmatarning bir qismi boshqa xalqlar bilan qo'shilib ketdi (asosan turkiy xalqlar bilan); bir qismi esa, godlar va gunnlar bilan buyuk xalqlar ko'chishida ishtirot etishdi. Sarmatlar tili keyinchalik osetin tiliga asos soldi.



Sakkaring sopol buyumlari



Sakkaring bayram libosi



Sakkaring qorolları



Sakkari podshoui Shaxxa



Sakkari Periopol saroyidagi tasvir.

## 22-ILOVA

### **ROSSIYA HUDDUDIDA ILK TEMIR DAYRI**

**Andronovo** madaniyati sohiblari bronza davrining oxirida Ural tog'laridan sharqda Oltogyacha, janubda Qozog'iston va O'rta Osiyoning janubiy qismlarigacha bo'lgan hududlarida yashagan chorvador qabilalar edi. Deyarli xuddi o'sha hududda keyinroq ko'chmanchi sak qabilalarining jamoalarini keng tarqalganligini ko'rish mumkin. Aynan shu hududlarda yashagan chorvador aholi – **Andronovo** madaniyati sohiblarini xo'jalik yuritish uslubini ko'chib yurib chorva mollarini boqib kun ko'radigan qabilalarga aylanganligidan bilsa bo'ladi. Bu fikrimizning yaqqol dalili Sirdaryoning quyi oqimlari va Orolbo'yida yashagan qadimgi Andronovo madaniyati sohiblarining mozor qo'rg'onlari yonida ko'plab miloddan ilgarigi VI-V asrlarga oid mozor-qo'rg'onlarni paydo bo'lganligini ko'rish mumkin.

## 23-ILOVA

### **O'RTA OSIYODA ILK TEMIR DAYRI**

O'rta Osiyo hududidan topilgan dastlabki temir buyumlar mil.av. I ming yillikning boshlari (**Anov** – mil.av. IX-VIII, **Daratepa** – mil.av. VII-VI, **Quyisoy** – mil.av. VII-VI, **Dalvarzin** – mil.av. VIII-VII) bilan sanaladi. Lekin ularning keng tarqalishi mil.av. VI-V asrlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham O'rta Osiyoda ilk temir davrining boshlanishini sanalash to'g'risida ilmiy munozaralar mavjud. **Ba'zi bir olimlar O'rta Osiyoda ilk temir davri Eron va Hindistonga zamondosh bo'lib, mil.av. X-VIII asrlarda boshlangan deb hisoblaydilar.** O'rta Osiyo hududidan topilgan barcha temir buyumlarning sanalaridan xulosa qilib, bu yerda ilk temir davrini mil.av. VII-IV asrlar deb hisoblash maqsadga muvofiq. Mil.av. X-VIII asrlarni esa, bronza davridan ilk temir asriga o'tish davri deb hisoblash mumkin.

## 24-ILOVA

### **O'RTA OSIYODA ILK TEMIR DAYRI**

Umuman, mil.av. I ming yillikning boshlarida O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi **dehqon, dehqon-chorvador va chorvador qabilalari** ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida qator o'zgarishlar sodir bo'ladi. **O'troq dehqonchilik vohalarida sug'orish tizimi yanada takomillashib, dehqonlar tomonidan yangi yerlar o'zlashtirildi.** Manzilgohlarning soni ortib, ularning maydoni kengayadi, hamda ichki strukturasi murakkablashib **yirik shaharlar** qaror topadi. Shahar va qishloqlarda **me'morchilik va hunarmandchilik** takomillashadi. Bu esa, ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti – **dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqish jarayonini ta'minlaydi.** Yirik davlat birlashmalari paydo bo'ladi.

**Cho'l, tog' va tog' oldi hududlari ko'chmanchi chorvadorlar tomonidan egallanib, chorvachilik qabilalarining ajralib chiqish jarayoni o'z poyoniga yetadi.**

## 25-IL OVA

### Q'RTA OSIYODA ILK TEMIR DAYRI

O'rta Osiyoda mil.av. I ming yillikning boshlariga oid ko'plab yodgorliklar o'rganilgan. Ular ichida Yaztepa, Aravalitepa, Ko'hnatepa, Uchtepa (Turkmaniston), Kuchuktepa, Bandixon, Qiziltepa (Surxon vohasi), Sangirtepa, Uzunqir, Daratepa, Chiroqchitepa, Yerqo'rg'on (Qashqadaryo), Afrosiyob, Ko'ktepa (Samarqand), Dalvarzintepa, Chust va Ashkoltepa (Farg'ona)lardan topilgan moddiy manbalar diqqatga sazovordir.

Ushbu yodgorliklarning quyi qatlamlari Yaz-I bilan belgilanib, ularning sanasi mil.av. 900-650 yillar doirasida bo'lган.


## 26-IL OVA

O'rta Osiyo hududida ilk temir davri yodgorliklari yaxshi o'rganilgan vohalardan biri Mary vohasidir. Bu vohadagi dastlabki yodgorlik (Yaztepa, Aravalitepa, Ko'hnatepa va Uchtepa)lar amerikalik tadqiqotchi R.Pompeili tomonidan ochilgan. Tadqiqot ishlari esa, janubiy Turkmaniston kompleks arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan 1946 yil boshlanib, 1954-56 yillarda esa, keng ko'lamli qazish ishlari olib borilgan. Natijada Yaztepa manzilgohini ilk temir asri sanalari belgilab olingan.



## 27-IL OVA

Shimoliy Baqtriyada mil.av. I ming yilliklarda quyidagi dehqonchilik vohalari va manzilgohlari rivojlangan:



## 28-ILOVA

### SUG'D -

hududlarida ilk temir davriga oid yodgorildilar bir xil suradta rivojlanmagan. Bu davrga oid yodgorildilar ko'proq uchraydigan va yaxshi o'rganilgan voha Qashqadaryo hisoblanadi.

Zarafshon vohasida esa, Afrosiyob, Lolazor va Ko'ktepalarning quyi qadamlarida bu davrga oid moddiy topilmalar qisman saqlangan.

Ark va mudofaa devorlariga ega bo'lgan yirik shahar xarobalari - (Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Ko'ktepa)

**Qishloqlar  
Daratepa,  
Chiroqchitepa,  
Beshqo'tontepa**

Mudofaa devorlari bilan o'rالgan alohida vazifalarni manzilgohlar ibodatxona (Sangirtepa)

## 29-ILOVA

**BURGULIK** - madaniyati Toshkent vohasida miloddan ilgarigi I ming yillikning boshlari shakllanadi. Bu madamiyatga oid daslabki moddiy topilmalar 1940 yili A.I.Terenojkin tomonidan Burguliksoydan topib tekshirilgan. Hotirgacha bu madaniyatga oid 10 dan ortiq yodgorlik aniqlangan.

**NURTEPA** - maydoni 18 ga dan iborat bo'lib, ark va shahar qismlariga bo'linadi. Ular o'zlarining alohida mudofaa devorlariga ega. Manzilgoh milav. VII asrlarda shakllangan va miloddan av VI-V asrlarda mudofaa devorlari bilan o'rab olinadi. Nurtepada 17,5 kv.m. hajmdagi yerto'la ham aniqlangan.

**CHOCH VA  
USTURSHONA  
HUDUDLARIDAGI ILK  
TEMIR DAVRIGA OID  
YODGORLIKLER**

**XO'JAND** - Milav. VI-V asrlarda Qadimgi Xo'jand o'rниda aholi manzilgohi shakllanadi. Bu yerda mudofaa devori aniqlangan. Manzilgoh o'zining arkiga ega. Xo'jalikda dehqonchilik asosiy o'rinni tutgan. Kulolchilik idishlari qol'da va charxda yasalgan. Xo'jand xarobalaridan naqshlangan idishlar ham topib o'rganilgan. Bu davrda vohada metalga ishlov berish ham keng tarqala boshlaydi.

## 30-ILOVA

### FARG'ONA

Farg'ona vodiysidagi I ming yilliklarga oid madaniyatning **Chust** va **Elatan** bosqichlari ajralib turadi. Chust davridagi manzilgohlar alohida vohalarda rivojlanadi. Hozirgi paytda quyidagi vohalar aniqlangan. **O'zgan, Qorasuv, Gava-Koson, Qoradaryo-Xo'jaobod.**

Ularning ko'pchiligi markaziy manzilgohga ega bo'lganlar. Ularda quyidagi shakldagi manzilgohlar o'rin olgan.

**Yirik manzilgohlar  
(Ashqol,  
Dalvarzin)**

**O'rta manzilgohlar  
(Chust,  
Dehqon, Kichik  
manzilgohlar)**  
bu yerdagi  
manzilgohlarning  
asosiy ko'pchiligini  
tashkil etadi.

## 31-ILOVA

### XORAZM

Xorazmning miloddan av. I ming yillik boshlariga oid yodgorliklari **AMIROBOD** madaniyati misolida o'rjanilgan. Bu davrda alohida kanal bo'ylarida dehqonchilik rivojlanadi. Yodgorliklarda yerto'la, yarim yerto'la, yer ustiyengil qurilishlari tadqiq qilingan. Mil.av. VI-V asrlarda rohada atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralgan manzilgohlar tarqala boshlaydi.

**Ulardan Qal'aliqir va Ko'zaligirlarda** qazish ishlari olib borilgan. Manzilgohlar mudofaa devorlari bilan o'ralib, burjlar hamda uchta minorasimon inshoot aniqlangan. Ko'rinishidan bu diniy xarakterga ega bo'lgan. **Qal'abiqirda** katta hajmdagi saroy o'mni aniqlangan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra bu inshoot ahamoniylarning Xorazmdagi vakiliga tegishli bo'lgan.

Xorazmning qadimgi qishloqlarini o'rghanishda **Bozorgal'a** xarobasi muhimdir. Qadimgi Xorszm qishloqlarida imoradar tig'iz qurilgan. Ayniqsa, bu davrda uy qo'rg'onlar paydo bo'ladi. Bu davrga oid **Dingelji** uy-qo'rg'onni to'liq qazib ochilgan.

Xoramliklarning asosiy xo'jaligi **dehqonchilik** bo'lgan. Dehqonchilik **Amudaryo** va **Aqcha** daryodan chiqarilgan anhor suvlari bilan sug'orilgan. **Arpa**, **bug'doy**, **tariq** ekilgan. Sopol idishlari O'rta Osiyoning janubiy hududlariga o'xshash, so'nggi davrga oid sopol idishlari tayyorlanish va shakliga ko'ra farq qiladi.

## 32-ILOVA

### "Aqliy hujum" qoidalari:

- *O'zaro tanqid va bahoga yo'l qo'yilmaydi!*
- *Taklif etilayotgan fikrlarni tanqid qilishga shoshilma, xattoki ular juda g'aroyib bo'lsa ham!*
- *So'zga chiquvchining gapini bo'Ima!*
- *Fikrlar va g'oyalar takrorlansa, xafa bo'Ima!*
- *G'oyalar qancha ko'p bildirilsa, shunchalik yaxshi yangi va qimmatli g'oya paydo bo'lishi ehtimoli ortadi!*
- *Ushbu muammo faqat ma'lum bo'lgan usullar bilangina yechilishi mumkin deb hisoblama!*

## 33-ILOVA

### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. Nima sababdan temirni ilohiylashtirganlar?
2. Xo'jalikda temir buyumlarining asosiy o'rin egallashi sabablarini aniqlang?
3. Ikkinchchi mehnat taqsimoti jamiyatda qanday o'zgarishlarga olib keldi?
4. Kuchuktepa yodgorligi necha bosqichda rivojlangan?
5. Skiflar to'g'risida qaerlarda ma'lumotlar saqlanib qolgan?
6. Amirobod aholisi nima bilan shug'ullangan?
7. Rossiya hududida qanday yodgorliklar bo'lgan?
8. Chust madaniyati izlari qaerlardan topilgan?
9. Elatan madaniyati qaysi madaniyat asosida shakllangan?

## 34-ILOVA

### YODDA TUTING! ILK TEMIR DAVRIDA

- \*Dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralgan.
- \*Dastlab temirdan zeb-ziynat buyumlari yasalgan.
- \*O'rta Osiyo temir buyumlari mil.av.VIII asrdan tarqalgan.
- \*Temir rudasi tabiatda keng tarqalgan.
- \*Dam berish usuli yordamida rudadan temir ajratib olingan.
- \*Egov, iskana, kalit va qulflar paydo bo'lgan.
- \*Po'lat sof temirga ko'ra mustahkam bo'lgan.
- \*Kuchuktepa Surxondaryo viloyatida joylashgan.
- \*Sangirtepa Qashqadaryo viloyatida joylashgan.
- \*Amirobod madaniyati quyi Amudaryo hududida vujudga kelgan.
- \*Burgulik madaniyati Ohangaron daryosi hududlaridan topilgan.
- \*Chust va Elatan madaniyatları Farg'onə viloyati hududlarida shakllangan.

## 35-ILOVA

### YODDA TUTING! ILK TEMIR DAVRIDA

- \*Qozog'iston cho'llari va Qora dengiz bo'yłari dashtlarida ko'chmanchi chorvador qabilalar isti'qomat qilishgan.
- \*Moddiy yodgorlik sifatida mozor-qo'rg'onlar saqlanib qolgan.
- \*Temir davrida ko'chmanchi qabilalar orasida mulkiy tabaqalanish boshlangan.
- \*Skiflar o'q-yoyni ishlatishda juda moxit bo'lishgan.
- \*Skif podsholarining mozor-qo'rg'onlari Gerrida bo'lgan
- \*Mil.av.II asrgacha skiflarda matriarxat tuzumi bo'lgan.
- \*Mil.av VII—II asrlarda Dyakovo yodgorligi aholisi yerto'lalarda yashagan.
- \*Sibirning temir davri yodgorliklaridan Sayan va Oltoy yodgorliklari keng o'rganilgan.
- \*Ilk temir davrida Sharqiy Evropa, O'rta Osiyo va Sibir o'rtasida mustahkam aloqalar bo'lgan.

## 36-ILOVA

KEYINGI DARS – SEMINAR MAVZUSI:

**"TEMIR DAVRI ARXELOGIYASI"**

**REJA:**

1. O'rta Osiyodagi ilk temir davri yodgorlildari.
2. Urartu madaniyati.
3. Ilk temir buyumlariga ularning tarqalishi.
4. Erebuni shahriga Teyshabani qal'asi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Кабиров Ж., Сагдуллаев А. Ўрта Осиё археологияси. Т., 1990.
2. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-Т.: 2011.
3. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистонлик ёзма манбаларда. Т., 1996.
4. Ўзбекистон тарихи. Муаллифлар жамоаси. А.С.Сагдуллаев умумий таҳрири остида. Т., 1, 2 нашрлар, 1997, 1999.
5. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. М., 1985.
6. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданийини излаб. Т., 1964.
7. Сулаймонов Р.Х. Древний Нахшаб. Т., 2000.
8. Сагдуллаев А.С. Усадьбы древней Бактрии. Т., 1987.
9. Пугаченюев Г.А., Ртвеладзе Э.В. Северная Бактрия-Токаристан. Т., 1990.
10. Исамиддинов М.Х., Сулаймонов Р.Х. Еркурган. Т., 1984.
11. Қадимги Кеш-Шахрисабз тарикидан лавҳалар. Сагдуллаев А.С. таҳрири остида. 1998.
12. Мартинов А.И. Археология. М., 2006.

## O'QUV MASHG'ULOTIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI

### 14-MAVZU: ANTIK DAVRI ARXEOLOGIYASI

<b>O'quv vaqtি</b>	<b>2 soat</b>
<b>O'quv mashg'uloti shakli</b>	<b>Ma'ruza</b>
<b>O'quv mashg'uloti rejasi</b>	1. Antik davr haqida umumiy ma'lumot. 2. Shimoliy Qora dengiz hududidagi antik davr davlatlari. 3. O'rta Osiyoda markazlashgan davatlarning tashkil topishi.
<b>O'quv mashg'uloti maqsadi:</b> Talabalarda antik davri, antik davrining aholisi, ularning xo'jaligi, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida teran tushunchalar hosil qilish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>  Antik davr va uning asosiy hususiyatlari haqida umumiy ma'lumot berish;  Shimoliy Qora dengiz hududidagi antik davr davlatlari va ularning madaniyatini misollar asosida tushuntirib berish;  O'rta Osiyoda markazlashgan davatlarning tashkil topishi va ularning rivojlanishini tahlil qilib, umumiy xususiyatlarini ko'rsatib berish;	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>  Antik davr va uning asosiy hususiyatlari haqida umumiy ma'lumotga ega bo'ladi va fikrlar bildiradi;  Shimoliy Qora dengiz hududidagi antik davr davlatlari va ularning madaniyati haqida tushunchaga ega bo'ladi;  O'rta Osiyoda markazlashgan davatlarning tashkil topishi va ularning rivojlanishini tahlil tahlil etadi, fikrlar bildirib xulosalar chiqaradi;
<b>O'qitish metodlari va texnikasi</b>	Bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. "Aqliy hujum" va "BBXB" metodlari.
<b>O'quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</b>	Individual, jamoa bo'lib.
<b>O'qitish vositalari</b>	Ilmiy adabiyotlar, ko'rgazmali materiallar, ma'ruza matni, jadvallar, doska, proektor, ekran, o'quv vazifalari va savollar.
<b>Qayta aloqa usullari va vositalari</b>	Og'zaki nazorat, o'z-o'zini baholash, savollar.

## O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK KARTASI

Faoliyat bosqichlari, vaqt	FAOLIYAT MAZMUNI	
	O'QITUVCHI	TALABALAR
1-bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish ( 10 daqiqa)	1.1. Darsning mavzusi, maqsadi va rejalashtirilayotgan o'quv-amaliy natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Vizual material yordamida o'quv mashg'ulotining rejasi va xususiyatlari bilan tanishtiradi (1-ilova). 1.3. Antik davri arxeologiyasi haqida	Tinglaydi  Tinglaydi, yozadi  Tinglaydi, yozadi

	tushuncha beradi (2-ilova).	
2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)	<p>2.1. Antik davr va uning asosiy xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot beradi (3-4-5-6-7-8-9-10-11-ilovalar);</p> <p>2.2. Shimoliy Qora dengiz hududidagi antik davr davlatlari va ularning madaniyatini misollar asosida tushuntirib beradi (12-13-14-15-16-ilovalar);</p> <p>2.3. O'rta Osiyoda markazlashgan davlatlarning tashkil topishi va ularning rivojlanishini tahlil qilib, umumiy xususiyatlarini ko'rsatib beradi (17-18-19-20-21-22-23-24-25-ilovalar) .</p>	<p>Tinglaydi, yozadi, fikr bildiradi.</p> <p>Tinglaydi, yozadi, fikr yuritadi.</p> <p>Tinglaydi, yozadi, savollarga javob beradi, tahlil qilib, xulosalar chiqaradi.</p>
3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa qiladi va faoliyat natijalarini izohlaydi (26-ilova).</p> <p>3.2. O'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini tahlil etadi va baholaydi.</p> <p>3.3. Keyingi o'quv mashg'uloti seminar mavzusini e'lon qiladi: "Antik davr arxeologiyasi" (27-ilova).</p>	<p>Fikrlarini bildiradi, o'z-o'zini baholaydi. Savollar beradi.</p> <p>Mavzu nomini daftariga yozadi.</p>

## TEXNOLOGIK KARTAGA OID ILOVALAR

### 1-ILOVA

#### **REJA:**

- 1. Antik davr haqida umumiy ma'lumot.**
- 2. Shimoliy Qora dengiz hududidagi antik davr davlatlari.**
- 3. O'rta Osiyoda markazlashgan davlatlarning tashkil topishi.**

### ANTIK DAVR

Antika iborasi lotincha «**antigus**» so'zidan olingan bo'lib, u qadimgi degan ma'noni anglatadi. Bu ibora **XV asrda Italiya gumanistlari** tomonidan dastlab ishlatalilgan bo'lib, u asosan qadimgi **Yunon va Rim madaniyati va san'atini ta'riflash** uchun qo'llanilgan. U quzdorlik davlatlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishini ta'riflaydi. Aynan Yunoniston va Rimning qadimgi madaniyat o'chog'i, deb qabul qilinishida ramziy ma'no bor. Chunki bu hududda qadimdan buyuk davlatlar hukm surgan bo'lib, ularning har biri qaysidir ma'noda jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan.

### 2A-ILOVA “BBXB” JARYALI

BILAMAN

BILISHNI HOHLAYMAN

BILIB OLDIM

### ANTIK DAVR XUSUSIYATLARI

Mil. avv. I ming yillik yunonlar bosqini va ularning keng hududlar bo'ylab tarqalishlari bilan bog'liqdir. **Yunon manzilgohlari** turli joylarda barpo etilib, metropoliyalarida bo'lgan antik jamiyat uchun xos bo'lgan quzdorlik tuzumini olib kelishdi. Bu davrda **Yunonistonda** muhim ijtimoiy jarayon – **quzdorlik jamiyatining shakllanishi va mustahkamlanishi** yuz bergan edi. Quzdorlik tuzumining rivojlanishi natijasida ozod dehqonlar xizmatidan ko'ra qullar mehnatidan foydalanish kuchaydi. Bu esa, ozod dehqonlar sonini tobora kamaytirib, ularni yerdan mahrum qilib qulga aylanishlariga olib keldi.

#### 4-ILOVA

### **ANTIK DAVR XUSUSIYATLARI**

O'rta Osiyoning antik davri (mil.av. IV, milodiy IV asrlar) tarixi turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan belgilanib, turli hududlarda bu jarayon turlicha kechadi. Mil.av. IV asrning ikkinchi yarmidan O'rta Osiyoning janubiy yerlari, xususan Sirdaryoning o'rta oqimigacha bo'lgan hududlar Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olindi. Uning vafotidan so'ng (mil.av. IV asrlar oxirlarida) bu yerlar Salavkiylar davlati tarkibiga kiradi. Mil.av. III asr o'rtalarida Janubiy Turkistonda Parfiya, O'zbekiston janubida Yunon-Baqtriya davlatlari qaror topadi. Yunon-Baqtriya o'rnida mil.av. II asr o'rtalarida shimoldan siljigan yuechji qabilalari asosida mil.av. I va milodni I asrlarida Kushon davlatlari vujudga kelib, IV asrgacha hukm suradi. Eronda vujudga kelgan Sosoniylar hujumi natijasida Parfiya davlati III asrning birinchi choragida inqirozga uchraydi. Kushonlar davlati esa, mil.av. III asrdan kushon-sosoniy hukmdorlari tomonidan boshqarilib, IV asrga kelib shimoldan kelgan ko'chmanchilar tomonidan uning yerlari bosib olinadi.

#### 5-ILOVA

### **ANTIK DAVR XUSUSIYATLARI**

Shimoliy hududlar, xususan Xorazm, Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysi yerlari yunonlar ta'siridan chetda qolib, ularning tarixi o'zgacha siyosiy jarayonlar bilan belgilanadi. Toshkent vohasi hamda Sirdaryoning quyi oqimigacha bo'lgan yerlar mi'av. III asrda tashkil topgan Qang' davlati tarkibiga kirgan bo'lsa, Amudaryoning quyi oqimi va Farg'ona vodiysi yerlari esa, alohida ma'muriy hududni tashkil etib mil.av. II asr boshlaridan Xorazm va mil.av. II asrlardan Davan mustaqil davlatlari vujudga kelib rivojlanadi. Bu esa, antik davrda bir-biridan farqlanuvchi janub va shimol madaniyati an'analarining rivojlanganligi bilan izohlanib, ularning har birida o'ziga xos xususiyatlari bilan bирgalikda O'rta Osiyo uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni ham o'zlarida Gandxara madaniyati (Baqtryada ko'proq seziladi) va ko'chmanchilar madaniyati an'analarining ta'siri kuchliroq bo'lgan bo'lsa, shimolda xususan Toshkent vohasida aksincha ko'chmanchilarning ta'siri kuchli bo'lgan.

#### 6-ILOVA

### **QADIMIGI SHAHARLAR**

**TARIXIY RIVOJLANISHDAGI  
URBANISTIK JARAYONDA  
MUHIM AHAMIYATGA EGA  
BO'LGAN JAMIYAT  
TARAQQIYOTINING IJTIMOIY  
ASOSI HISOBLANADI**

## 7-ILOVA

Qadimgi davr ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotida tub o'zgarishlar sodir bo'lган. Bunda, birinchi navbatda **ishlab chiqarish usuli** va **mulkchilik shakllari** tubdan o'zgargan. Bu temir davri jamiyatining rivojlanishi asosida vujudga kelgan bo'lib, jamiyatda shaharlar, davlatlar va jahon imperiyalari tarkib topgan. Aholi o'rtasida tabaqalanish kuchaygan. Zodagonlar, qohinlar, jangchilar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar patriarchal oilaning kichik a'zolari - xizmatkorlar «qullar» - jamiyatning asosini tashkil etgan. Lekin qulchilik hamma mamlakat va halqlarda ham bir xil taraqqiy etmagan. Ular Yunoniston va Rimda o'zining eng rivojlangan-klassik shakliga ega bo'lган.

## 8-ILOVA



### SHAHARLARNING PAYDO BO'LISHI:

Insoniyat tarixini juda katta davrini ibtidoiy davr tarixi egallagan bo'lib, uning boshlanish qismi insoniyatni eng dastlabki tosh qurolini yasagan davridan boshlangan bo'lsa, uning oxirgi, yemirilgan davri dunyoning turli qismlarida turlicha kechgan. Lekin, aynan **eng dastlabki shaharlarni paydo bo'lishi**, bu insoniyat tarixidagi “sivilizatsiya” deb ham hisoblanadi va bu davr **sinflarni paydo bo'lishi**, **davlatlarni paydo bo'lishi** davriga ham to'g'ri keladi. Demak, sinflar va **davlatlarni paydo bo'lishi** aynan ibtidoiy davrni tugallangan davriga to'g'ri keladi.

## 9-ILOVA

Shaharlarni paydo bo'lishi masalasiga juda ko'plab olimlar o'z fikrlarini bildirishgan. Bunday olimlar qatoriga **B.A.Litvinskiy**, **V.M.Masson**, **A.A.Asqarov**, **T.Sh.Shirinov** kabi bir qator olimlarni kiritish mumkin. Olimlar tomonidan shaharlarni kelib chiqishi masalasi bo'yicha turlicha fikrlarni bildirgan bo'lishlariga qaramasdan ularning barchasini birlashtiradigan quyidagi umumiy qonuniyatni aytib o'tish kerak.

- 1) Shahar bo'lishi uchun ma'lum bir hududning atroflari mudofaa devorlari bilan o'rabi olingan bo'lishi;
- 2) Shahar bo'lisch uchun uning ancha katta hududi bo'lishi;
- 3) Shahar hokimining arku-a'losi bo'lishi;
- 4) Shaharning markazlashgan ibodatxonasini bo'lishi;
- 5) Shahar hunarmandlari yashaydigan mahallalarning bo'lishi
- 6) Rivojlangan hunarmandchilik mahsulotlarining bo'lishi;
- 7) Tanga-pullarining bo'lishi;
- 8) Shahar aholisi qo'yilgan qabriston bo'lishi bu o'rganilayotgan makonni shahar deb aytishga asos beradi.



## 13-ILOVA

### SHIMOLIY QORA DENGIZ HUDUDLARI

Vaqt o'tishi bilan yunonlar o'z hududlarini tobora kengaytirib Shimoliy Qora dengiz bo'ylarini ham bosib ola boshlaydilar. Bu yerdagi eng qadimiy yunon koloniylaridan biri Dnepropetrovsk-Bugskiy rayoni bo'lgan. Bu yerdə Berezan orolida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari jarayonida aholisi asosan baliqchilik bilan shug'ullangan ilk yunon manzilgohlaridan biri ochib o'r ganilgan. Koloniya ioniy qabilalariga tegishli bo'lib, bu yerdan topilgan sopol buyumlari ioniy uslubda – kulolchilik charxida yasalgan va juda sifatli qilib pishirilgan va turli afsonaviy manzaralar, o'simliksimon va geometrik naqshlar solingan.

## 14-ILOVA

### SHIMOLIY QORA DENGIZ HUDUDLARI

Keyinchalik Janubiy Bug daryosining o'ng qirg'og'ida Olviya deb nomlangan koloniya vujudga keladi (*yunonchadan tarjimasi "Baxtli"*). Bu yunon koloniylariga berilgan odatiy nomlardan biridir. Olviya 50 ga maydonga ega bo'lib arxeoglarning taxminiga ko'ra 15 mingga yaqin kishi yashagan. Uning paydo bo'lishi haqidagi ilk ma'lumotlar Gerodot asarlarida berilgan.

Olviya shahriga mil. avv. VII- VI asrlarda Milet shahridan kelgan Kichik osiyoliklar asos solishgan. Olviyaning gullab-yashnagan davri mil. avv. IV asrga to'g'ri keladi. Mil. avv. 331-330 yillarda Aleksandr Makedonskiy sarkardalaridan biri bo'lgan Zopirion qo'shnlari tomonidan qamal qilinadi.

## 15-ILOVA

### SHIMOLIY QORA DENGIZ HUDUDLARI

Mil. avv. III asrga kelib skif-sarmat qabilalarining bosqini natijasida boshqa yunon koloniylari singari Olviya ham tushkunlikka yuz tutadi. Mil. avv. II asrda Olviya butunlay skiflar tomonidan bo'ysundiriladi. Mil. avv. I asrda shahar frakiy qabilalar bo'lgan getlar bosqinini boshdan o'tkazadi. Keyinchalik shaharning avvalgi maydonining uchdan bir qismida hayot yangidan boshlanadi. Ayrim mahallalar qabriston tagida qolib ketadi. Milodiy III aasrda Olviya shahridagi hayot gotlarning bosqini natijasida butunlay vayronaga aylanadi. Olviya shahri atroflari yunonlarga qarashli bepoyon g'alla maydonlaridan iborat bo'lib, aholisi asosan don yetishtirish va eksporti bilan mashg'ul bo'lgan.

Olviya uzoq shimoliy hudud largacha savdo aloqalarini olib borganligini tarixiy manbalar va ashyoviy topilmalar tasdiqlaydi. Olviyada ishlangan buyumlar Kiev va Poltava hududlaridan topilgan bo'lsa, shuningdek bu yerdan Volga bo'yli hududlariga olib boruvchi karvon yo'li boshlangan.

#### 16-ILOVA

### SHIMOLIY QORA DENGIZ HUDUDLARI

Arxeologik tadqiqotlar jarayonida turar-joy, xo'jalik binolari bilan birga savdo markazi qoldiqlari ham ochib o'r ganilgan. Bu yerdan 700 ga yaqin tanga-chaqalar topilgan.

Tangalarning paydo bo'lism tarixiga nazar tashlasak, ularning paydo bo'lishi mil. avv. VII asrda lidiyaliklar tomonidan muomalaga kiritilgan va keyinchalik boshqa hududlarga ham tarqalgan. Ilk Olviya tangalari mil. avv. VI-V asrlarda paydo bo'lgan. Ularda asosan delfinga tashlanayotgan burgut tasvirlangan.

Qal'aning shimoliy qismida Zevs va Apollonga sig'iniladigan ibodatxona buniyod etilgan bo'lgan.

#### 17-ILOVA

### MARKAZIY OSIYO HUDUDIDAGI QADIMGI DAVLATLAR

Markaziy Osiyo hududida qadimgi davrda shakllangan davlatlar ham o'z navbatida jahon sivilizatsiya tarixida katta o'ringa ega. Sharq sivilizatsiyasini, shahar madaniyatini Baqtriya, Qadimgi Xorazm, Farg'on'a moddiy madaniyatisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Markaziy Osiyoning dastlabki davlatlari taraqqiyotining yangi ijtimoiy va iqtisodiy bosqichi mil.av. VI-IV asrlardagi ahmoniyilar siyosati bilan bog'liqdir. Mil. avv. 330 yilda Makedoniyalik Aleksandr Eron podshosi Doro III qo'shinlarini tor-mor qiladi. Mil. avv. 329-327 yillarda Parfiya va Marg'iyona, Xorazm, Farg'on'a va Sirdaryoning shimoliy rayonlari mustaqil bo'lib qoladi.

Markaziy Osiyo tarixida qadimgi dunyo - antik davrni vujudga keltiradi. Mil. avv. III asrning o'rtalarida Baqtriya va Parfiya Salavka davlatidan ajralib chiqadi. Baqtriya yerlarida Yunon-Baqtriya davlati tashkil topadi.

#### 18-ILOVA

### MARKAZIY OSIYO HUDUDLARI

Mil. avv. III asr o'rtalariga kelib Baqtriyada Yunon-Baqtriya davlatining qaror topishi bilan mahalliy madaniyatga ellinism elementlarining kirib kelishi jadallahdi. Bu jarayon ayniqsa moddiy madaniyatda, uning me'moriy qurilish jabhalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'rta Osiyoning janubiy rayonlarini keng xalqaro munosabatlarga tortilishi, o'lka viloyatlarining qadimgi Sharq va Yunoniston, Makedoniya davlatlari bilan keng madaniy va savdo aloqalarda bo'lishi o'z navbatida uning markaziy va shimoliy viloyatlari – So'g'd, Xorazm, Shosh va Qadimgi Farg'onani ham chetlab o'tmadi.

## 19-ILOVA


### MARKAZIY OSIYO HUDUDLARI

O'sha davr madaniy hayotidagi yuksalishlar **Baqtriyada Dalvarzintepada, Eski Termiz, Jondavlattepa: So'g'dda Afrosiyob, Yerqo'rg'on, Poykent; Xorazmda Jonbasqal'a, Ayozqal'a, Tuproqqal'a; Chochda Qanqa, Shoshtepa, Qovunchitepa; Qadimgi Farg'onada Asxikent, Koson, Marhamat kabi yodgorliklar va yuzlab kichik shaharlar va qishloqlar shaklidagi arxeologik yodgorliklar misolida ko'zga tashlanadi.**


## 20-ILOVA

Miloddan avvalgi II asrning 2-yarmida O'rta Osiyoning shimoli-sharqidan ko'chmanchi yuechji (tohar) qabilalari **Qadimgi Farg'ona, Ustrushona, So'g'd orqali Qadimgi Baqtriya yerlariga kirib keladi.** Milodiy I asrning boshlarida yuechjilarning guyshan qabilasi boshchiligidida **Kushonlar davlati** tashkil topadi. Uning hududiy chegarasi **Hindistonda Hind va Ganga daryolarining havzalarigacha borib yetadi.** **Qadimgi Farg'onada Davon davlati,** O'rta Osiyoning qolgan hududlari (**Xorazm va So'g'd**) esa, Sirdaryoning o'rta havzasida qadimgi davrda qad ko'targan **Qang' davlati** tarkibida rivojlanishda davom etadi. Mil. avv. III asridan boshlab **Kushonlar sultanati inqirozga uchraydi.** Shu tariqa O'rta Osiyoning davlatlari quzdorlik munosabatlari tushkunligi bilan bog'liq holda tanazzulga yuz tutadi.

## 21-ILOVA



## 22-ILOVA



Qadimiy shahar.



Oqshaxon qal'a. Tildangan



Antik davr sopol  
buyumlari naqshlari



Qora gulli idish.  
Yunoniston



Qizil gulli idish.  
Yunoniston

## 23-ILOVA

Xulosa qilib shuni qayd etish kerakki, O'rta Osiyo antik davrda shahar madaniyatining uzlucksiz rivojlanishi jarayoniga tortilgan bo'lib, bu yerda **Qadimgi Sharq sivilizatsiyasiga xos mahalliy shahar qurilishi an'analarini shakllanadi**. **Me'morchiligidagi mudofaa inshootlari, diniy va dunyoviy monumental inshootlarning paydo bo'lishi shahar madaniyati taraqqiyotini belgilab beradi**. **Moddiy madaniyatning barcha jabhalarida originallik, amaliy va tasviriylashtirilishi yuksak did va mahorat ruhi antik madaniyatni mazmun va mohiyatini belgilab beradi**.

## 24-ILOVA

### "Aqliy hujum" qoidalari:

- *O'zaro tanqid va bahoga yo'l qo'yilmaydi!*
- *Taklif etilayotgan fikrlarni tanqid qilishga shoshilma, xattoki ular juda g'aroyib bo'lsa ham!*
- *So'zga chiquvchining gapini bo'Ima!*
- *Fikrlar va g'oyalar takrorlansa, xafa bo'Ima!*
- *G'oyalar qancha ko'p bildirilsa, shunchalik yaxshi yangi va qimmatli g'oya paydo bo'lishi ehtimoli ortadi!*
- *Ushbu muammo faqat ma'lum bo'lgan usullar bilangina yechilishi mumkin deb hisoblama!*

## 25-ILOVA

### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

- 1. Antik davr deganda nimani tushunasiz?**
- 2. Ilk davlatlarning shakllanishi va rivojlanishi haqida nima bilasiz?**
- 3. Shimoliy Qora dengiz hududidagi antik davr yodgorliklari haqida nima bilasiz?**
- 4. Yunon-Baqtriya davlati hududidagi yodgorliklar haqida gapirib bering?**
- 5. Xorazm hududidagi antik davr yodgorliklari haqida nima bilasiz?**
- 6. Farg'ona vodiysidagi antik davr yodgorliklari haqida nima bilasiz?**

## 26-ILOVA

### YODDA TUTING!

- \*Mil. avv. VI-mil. IV asrgacha davom etgan.
- \*Yunoniston va Rimda klassik qulchilik rivojlangan.
- \*O'rta Osiyoda uy qulchiligi shakllangan.
- \*Tangalar Lidiyada paydo bo'lgan.
- \*Qo'l va suv tegirmoni ixtiro qilingan.
- \*Ilk qog'ozlar pergament va papirus bo'lgan.
- \*Hozirgi kitoblar Rimda paydo bo'lgan.
- \*Sirkul ikki daryo oralig'ida kashf etilgan.
- \*Italiyada deraza oynalari ixtiro qilingan.
- \*Baqtriya ornida Yunon-Baqtriya davlati tashkil topgan.
- \*Yunon-Baqtriya yerlarida Kushonlar davlati tashkil topdi.
- \*Toshkent viloyatida, Sirdaryo va Janubiy Qozog'iston yerlarida mil. avv. III asrda yarim o'troq Qang' davlati tashkil topgan.
- \*Mil. avv. III-II asrlarda Farg'ona davlati-Davan shakllangan davlat sifatida mayjud edi. U qadimda Parkana, Xitoy manbalarida esa, Davan deb atalgan.

## 27-ILOVA

### KEYINGI DARS – SEMINAR MAVZUSI:

#### “ANTIK DAVRI ARXELOGIYASI”

##### REJA:

1. Antik davr haqida umumiy ma'lumot.
2. Shimoliy Qora dengiz hududidagi antik davr davlatlari.
3. O'rta Osiyoda markazlashgan davlatlarning tashkil topishi.

##### ADABIYOTLAR:

1. Karimov IA. Yüksəkma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov IA. Təriy xotirasız kişişçiyö-q. – T., 1998.
3. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar – T., 1997.
4. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.
5. Muhammadjonov A.R. Qadimgi Buxoro. – T., 1990.
6. Muhammadjonov A.R. Qadimgi Toshkent. – T., 1990.
7. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004.
8. Eshov B.I. Qadimgi O'rta Osiyoning shahardari tarixi. – T., 2006.
9. Eshov B.I. So'g'diyona tarixidan lavhalar (Mil. avv VII-IV asrlar). - T., Universitet, 2002.
10. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. – T., 2008.
11. Avdusin D.A. Osnovy arxeologii. – M., 1989.
12. Buraakov Yu.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Т., Фан, 1979.
13. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Средняя Азия в раннем железном веке. Средняя Азия в античную эпоху // Археология СССР с древнейших времен до средневековья. Отв. ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985.
14. Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра / Отв. ред. Ю.Ф. Бураков. – Т., 1990.
15. Древний Мерв // Тр. ЮТАКЭ. ТХИХ. – Ашхабад, 1989.
16. Мартинов А.И. Археология. М., 2006.
17. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.T.: 2011

**O'QUV MASHG'ULOTIDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI**  
**16-MAVZU: ILK O'RTA ASRLAR DAVRI ARXEOLOGIYASI**

<i>O'quv vaqtি</i>	<i>2 soat</i>
<i>O'quv mashg'ułoti shakli</i>	<i>Ma'ruza</i>
<i>O'quv mashg'ułoti rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ilk o'rtalarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot.</li> <li>2. Ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligi.</li> <li>3. San'atning yuksalishi.</li> </ol>
<i>O'quv mashg'ułoti maqsadi:</i>	Talabalarda ilk o'rtalarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot, o'rtalarda me'morchiligi va san'atning yuksalishi haqida teran tushunchalar hosil qilish hamda ko'nikma va malakalarini shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<p><b>O'quv faoliyatni natijalari:</b></p> <p>Ilk o'rtalarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot masalalarini tushuntirish;</p> <p>Ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchilagini misollar asosida tushuntirib, tahlil qilish;</p> <p>Ilk o'rtalarda san'atning yuksalishini misollar asosida ko'rsatib berish;</p>
<i>O'qitish metodlari va texnikasi</i>	<p>Ilk o'rtalarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot masalalarini tushuntirishaga ega bo'ladi va fikrlar bildiradi;</p> <p>Ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligi to'g'risida fikrlar bildiradi, ularni asoslaydi va tahlil etadi;</p> <p>Ilk o'rtalarda san'atning yuksalishi va bu davrning umumiy xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'ladi va fikrlar bildirib savollarga javob beradi;</p> <p>Bayon qilish, tahlil etish, tushuntirish, mulohaza, muammoli savollar. "Aqliy hujum" va "BBXB" metodlari.</p>
<i>O'quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i>	Individual, jamoa bo'lib.
<i>O'qitish vositalari</i>	Ilmiy adabiyotlar, ko'rgazmali materiallar, ma'ruza matni, jadvallar, doska, proektor, ekran, o'quv vazifalari va savollar.
<i>Qayta aloqa usullari va vositalari</i>	Og'zaki nazorat, o'z-o'zini va o'zaro baholash, savollar.

**O'QUV MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK KARTASI**

Faoliyat bosqichlari, vaqtি	<b>FAOLIYAT MAZMUNI</b>	
	<b>O'QITUVCHI</b>	<b>TALABALAR</b>
1-bosqich. O'quv mashg'ułotiga kirish ( 10 daqiqa)	<p>1.1. Darsning mavzusi, maqsadi va rejalashtirilayotgan o'quv-amaliy natijalarini e'lon qiladi.</p> <p>1.2. Vizual material yordamida o'quv mashg'ułotining rejasi va xususiyatlari bilan tanishtiradi (1-ilova).</p> <p>1.3. Ilk o'rtalarda davri haqida tushuncha beradi (2-ilova).</p>	<p>Tinglaydi</p> <p>Tinglaydi, yozadi</p> <p>Tinglaydi, yozadi</p>

2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)	2.1. Ilk o'rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot masalalarini tushuntirib beradi (3-4-5-6-7-8-ilovalar); 2.2. Ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligini misollar asosida tushuntirib, tahlil qiladi (9-10-11-12-13-14-15-16-17-18-19-ilovalar); 2.3. Ilk o'rta asrlarda san'atning yuksalishini misollar asosida ko'rsatib beradi va bu davrning umummiy xususiyatlarini tushuntiradi (20-21-22-23-24-25-26-ilovalar);	Tinglaydi, yozadi, fikr bildiradi. Tinglaydi, yozadi, tahlil qilib fikr bildiradi. Tinglaydi, yozadi, savollarga javob beradi.
3-bosqich. Yakuniy qism (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosa qiladi va faoliyat natijalarini izohlaydi (27-ilova). 3.2. O'quv mashg'uloti maqsadiga erishish darajasini tahlil etadi va baholaydi. 3.3. Keyingi o'quv mashg'uloti seminar mavzusini e'lon qiladi: "Ilk o'rta asrlar davri arxeologiyasi" (28-ilova).	Fikr bildiradi, o'z-o'zini baholaydi. Savollar beradi.  Mavzu nomini daftariga yozadi.

## TEXNOLOGIK KARTAGA OID ILOVALAR.

### 1-ILOVA

#### REJA:


- 1. Ilk o'rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot.**
- 2. Ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligi.**
- 3. San'atning yuksalishi.**

### 2-ILOVA

#### O'RTA ASRLAR

Tarix faniga o'rta asr tushunchasi **uyg'onish davri mutafakkirlari** tomonidan kiritilgan bo'lib, madaniyat yuksak **taraqqiy etgan antik davr bilan uyg'onish davr o'rtasidagi davrga nisbatan** ishlatilgan. O'rta asrlar feodal yer egaligi munosabatlari davri bo'lib uch bosqichdan iborat: 1) **ilk o'rta asrlar** (V - IX asrlar); 2) **rivojlangan o'rta asrlar** (IX - XV asrlar); 3) **so'nggi o'rta asrlar** (XVI - XVII asrning o'rtalari) ni o'z ichiga oladi.

## 2A-ILOVA “BBXB” JADVALI



### 3-ILOVA

O'rta Osiyoda o'rta asrlar davrining dastlabki bosqichi yirik davlatlar – **Kushonlar sultanati va Qang' davlati** konfederatsiyasining inqirozi va ular ustiga xioniylar, kidariylar va eftalitlar kabi ko'chmanchi qabilalarning ommaviy ravishda bostirib kirishi bilan boshlandi.

Bu ikki davlatning tanazzuli O'rta Osiyo hududlariga **Eron sosoniylarining istilochilik harakatini faollashtirdi**. Ammo ko'chmanchi qabilalar, ayniqsa eftalitlar bunga yo'l qo'ymadni.

VI asrning ikkinchi yarmida **sosoniylar O'rta Osiyoda Turk xoqonligi** bilan to'qnashishga to'g'ri keldi. Hokimiyatni o'z qo'liga olgan **G'arbiy Turk xoqonligi** 100 yil davomida butun O'rta Osiyo ustidan nazoratini o'rnata oldi.

VII asrda O'rta Osiyo ijtimoiy va siyosiy hayotida yuz bergan feodallashish jarayonining rivojlanishi xoqonlikda ichki qaramaqshiliklarning chuqurlashishiga olib keldi. Natijada, nomigagina hoqonlik hukmronligini tan olgan mahalliy sulolalar boshchiligidagi katta va kichik yer egaligi jadal rivojlandi. Jamiatning ijtimoiy tarkibida o'zgarishlar, katta yer egalari bo'lgan dehqonlar, badavlat savdogar va hunarmandlar tabaqasi paydo bo'ldi. Ular o'z navbatida shaharlarning vujudga kelishiga, ko'p tarmoqli hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga ta'sir o'tkazdi.

### 4-ILOVA

Ma'lumki, G'arb bilan, Sharjni bog'lovchi muhim savdo yo'li bilan **Buyuk Ipak yo'li** («G'arbiy meridianal yo'l») ning qadimgi Farg'onadan o'tgan yo'nalishi ilk o'rta asrlarga kelib, O'rta Osiyo shimoliy hududlarining ichki rayonlariga kirib bordi. Natijada O'rta Osiyoning **chorvador qabilalari** va o'troq aholisini o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar kuchaydi.

Savdo-sotiqni pul asosida rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi, **tanga – pul zarb qilishga bo'lgan ehtiyoj kuchayib**, pul zarbxonalalarining yangi markazlari paydo bo'ldi. O'rta Osiyo bozorlarida **Tohariston, So'g'd, Ustrushona** va **Shosh** tangalari keng muomalada bo'ldi.

## 5-ILOVA

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda shahar hunarmandchiligi keng tarmoq otib rivojlanishda davom etdi.

Samarqand, Buxoro, Poykent va boshqa shaharlar yirik savdo-sotiq markazlari sifatidagi o'rnini saqlab qoldi.

Hatto Shosh-Illoq vohasidagi shaharlar juda jadal rivojlanish yo'liga tushib oldi. Bu shaharlarda hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, metallurgiya, to'qimachilik sohalari yüksak professional darajada rivojlanib ular ko'p hollarda tashqi savdo uchun mahsulot chiqarar edilar.

Ilk o'rta asrlarda to'qimachilik O'rta Osiyo hunarmandchiligining ustivor yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. Arxeologik materialarning guvohlik berishicha ipak qurtini boqish Qadimgi Baqrivada bronza davridan ma'lum bo'lgan. Antik davri va ilk o'rta asrlarda kelib, ipakchilik bilan shug'ullanish So'g'diyona va Farg'ona vodiysiغا ham keng yoyildi. Ipakchilikning jahonga mashhur markazlari paydo bo'ldi. Masalan, VI-VII asrlarda shakllangan Buxoroning «zandanachi» ipak mahsulotlariga bo'lgan talab hatto ipakchilikning ilk vatani Xitoyda ham katta edi. Zandanachi ipak mahsulotlarining namumalarini hatto Afrosiyob devoriy su'ratlariда yaxshi saqlangan.

## 6-ILOVA

Ilk o'rta asrlar davrida O'rta Osiyo tarixida muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bo'lib o'tdi va keyingi tarixiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Albatta feodal yer egaligi munosabatlari dunyoning turli xalqlari va mamlakatlarida bir vaqtida sodir bo'lmagan. Ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixida V-IX asrlarni o'z ichiga olib, muhim tarixiy voqealarga boyligi bilan ajralib turadi.

Milodiy III - IV asrlarda yirik imperiya - Kushon davlati inqirozga yuz tutdi va parchalanib ketdi. IV asrda O'rta Osiyo hududiga xioniyalar kirib keldilar. Xioniyalar etnik jihatdan kelib chiqishi kushonlarning avlodlari hisoblanib, ayrim tarixiy manbalarda toxarlar deb ham yuritiladi. Mazkur xalq O'rta Osiyoda 120 yilga yaqin hukmronlik qildi. Xioniyalar Amudaryo havzasini egallab olgach, g'arbga yurish qiladilar.

V asr boshlari tarix sahnasiiga kidariylar chiqdi. Ularning poytaxti Balx bo'lib, podshosi Kidar nomi bilan bog'lik tangalar Amudaryoming janubidagi yerlardan topilgan.

V asr o'talarida O'rta Osiyo tarixida yangi siyosiy kuch - eftalitlar paydo bo'ldi. Eftalitar etnik jihatdan S.P. Tolstov fikricha massagetlar avlodidir. Eftalitar tarixiga oid yozma manbalar - xitoy, arman, Vizantiya, arab manbalaridir. Mazkur davlat O'rta Osiyoda V asr o'talaridan VI asr 60-yillargacha hukmronlik qildi. U hududiy jihatdan Kushon imperiyasidan 2 barobar katta bo'lib, hokimi mutaq boshqargan. Ushbu davlat o'zlarigacha mavjud bo'lgan j timoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'zgartirmadilar.

## 7-ILOVA

Eftalitlar davrida hozirgi O'zbekiston hududida dehqonlarning qasr-qo'rg'onlaridan bir qancha shaharlar paydo bo'ladi.

Bunday shaharlar jumlasiga Bolaliktepa, Varaxsha kabilarni kiritish mumkin. Ilk o'rta asrlarga oid yirik shaharlar jumlasiga qadimdan mavjud bo'lgan Afrosiyob, Buxoro, Poykand, Toshkent, Termiz va boshqlarni kiritish mumkin.

Shuningdek, mazkur davrga oid devoriy suratlar Bolaliktepa, Varaxsha, Toshkentdan topib o'rganilgan. Eron sosoniylariga mansub ko'plab tangalar topilgan.

O'zbekiston hududidagi ilk o'rta asrlarga mansub shaharlarning maydoni uncha katta bo'lmaganligini ta'kidlash lozim. Bu vaqtida Samarqandning aylanasi 3,5 km, Poykandniki 1,8 km, Farg'onadagi Koson shahriniki 2 km ni tashkil etgan. Mazkur davrga oid arxeologik topilmalarini hududlar bo'yicha ko'rilinganda quyidagi manzara hosil bo'ladi.

## 8-ILOVA

Ilk o'rta asr ***So'g'd*** yodgorliklari jumlasiga **Afrosiyob, Varaxsha, Poykand, Panjikent, Tallu Barzu; Tohariston** yodgorliklariga **Bolaliktepa, Kofirqal'a; Farg'ona** yodgorliklariga **Quva, Axsikat, Koson; Toshkent** vohasida **Binkat, Yunusobod, Mingo'rik, Xorazm** hududida **Fir qal'asi, Baraktom, Kuyukqal'a, Teshikqal'a** va boshqalar mavjud bo'lgan. Mazkur davrda aholining o'rtoqlashuvi natijasida **sun'iy sug'orish inshootlari** quriladi. Bular jumlasiga **Bo'zsuv, Zog'ariq, Darg'om kanallarini** kiritish mumkin.

## 9-ILOVA

### ILK O'RТА ASR MEMORCHILIGI

Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi ya'ni feodallahish jarayonining rivojlanishi **me'morchilikning xarakteri va mazmuniga** ta'sir etadi. Bu hol dastlab **qo'rg'on-qasrlar**, ko'shklar qurilishida ko'zga tashlanadi. Keyinchalik **podsholarning saroylari**, shaharlardan tashqaridagi **hashamatli va ulug'vor qarorgohlari** keng tarqaladi. Bu binolar ko'p hollarda **sun'iy tepaliklar ustiga** qurilib, ularning **me'moriy yechimlari mahobatli bo'lishiga** katta e'tibor beradi. Binolar **ham g'ishtdan va paxsadan** qurilgan. Devorlari **ganch bilan pardozlangan, xona devorlari devoriy surat va naqshlar bilan bezatilgan.**

## 10-ILOVA

### ILK O'RТА ASR MEMORCHILIGI

1948 yilda arxeolog A.Terenojkin Afrosiyobning ilk o'rta asrlarga oid qatlamlarini tekshiradi. 1958 yildan buyon Afrosiyobni o'rganilish davom etmoqda va hozirgacha turli davrlarga oid bir qancha boshqa yodgorliklar ham o'rganildi. VI asrga mansub **Tallu Barzu** yodgorligidagi qazuv ishlari jarayonida VIII asrga oid sopol idishlar majmui, sosoniylar tangalari, quyi qatlamidan esa, antik va Kushon davriga oid temirchilik charxi, sopol idishlar, haykalcha topildi. 1956-57 yillarda **Kofirqal'a** o'rganila boshlanadi.

Olib borilgan qazuv ishlari natijasida IV-V asrlarda **Samarqand** tushkunlikka uchraganligi aniqlandi. Uning rivojlanishidagi yangi davr VI asrdan boshlanadi. Ark yangi devor bilan o'rab olinadi VI asrda uzunligi 1,5 km to'rtinchi devor quriladi. Shahar janubga qarab kengayib boradi va uzunligi 3 km ichki devor quriladi. III-IV asrlarga oid kulollar va misgarlar mahallalari topilgan.

## 11-ILOVA

### ILK O'RTA ASR MEMORCHILIGI

VII asrlarda **Afrosiyobda** maxsus saroy devori quriladi va shaharning to'rtinchi tashqi devori butunlay qayta quriladi. Saroy devorining ichida yirik inshootlar alohida binolar qurilgan.

Ilk o'rta asrlarga xos **Samarqandning quyidagi binolari** mavjud bo'lganligi aniqlangan:

A) o'rtahol shaharlarning turar joylari devorlari qalnligi 1,1 m, uy maydoni 11,8x 6,45 m, ko'pchilik hollarda 2,6 x 2,5 m bo'lgan.

B) Shahar kiborlari turar joylari devorlariga rasmlar ishlangan.

V) Jamoat binolari.

G) Ibadatxonalar.

D) Saroy bir necha xonalardan iborat bo'lgan.

Shahar aholisi kasb-korlari bo'yicha mahallalarga bo'lingan. Shunday qilib VI-VII asrlarda **So'g'd** poytaxti bo'lgan **Samarqand** ko'p asrlik tarixida o'z taraqqiyotining yuqori darajasiga ko'tarildi.

## 12-ILOVA

### VARAXSHA

Shahar xarobasida o'tkazilgan arxeologik qazishlar tufayli **eftalitlar davrida** shaharni tubdan qayta qurilish ishlari olib borilganligi aniqlandi.

Varaxsha **Buxoro** hukmdorlari (*buxorxudotlar*) ning qarorgohi bo'lib, bu yerdan saroy qoldiqlari bilan bir qatorda devorga ishlangan rasmlar ham topildi.

Mazkur yodgorlik 1938-1953 yillarda tekshirildi. **Varaxsha** devorlariga loy suvoqdan so'ng yelimli rang bilan suratlar solingan. Ularda **podsho** saroyi hayoti tasvirlangan. Shuningdek Varaxshadan ganchdan ishlangan haykallar ham topilgan.

## 13-ILOVA

### QASHQADARYO VOHASI

Qashqadaryo vohasida ham ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklar ro'yxatga olingan. **Ayniqsa S.K. Kabanov** tomonidan Qarshi vohasida joylshgan **300 dan ortiq tepaliklar** ro'yxatga olinib xaritasi tuziladi.

1946 yildan boshlab ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklari tadqiq etila boshlandi va bu borada katta yutuqlarga erishildi.

1970-yillardan boshlab **G'uzor** va **Dehqonobod** tumanlaridagi, shuningdek Yuqori Qashqadaryo vohasidagi ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklar KATE a'zolari tomonidan o'rganildi.

## 14-ILOVA

### PANJIKENT

**Panjikent** xarobasini tekshirish 1946 yildan buyon olib borilmoqda. Tadqiqotlar natijasida **V, VI, VII asrlarga oid** bo'lgan turar joylar tekshirildi.

Turar joylar jumlasiga **Divashtich saroyi**, boy va oddiy shahar aholisi uylari kiradi. Boy xonodon uylari murakkab reja asosida qurilgan. Bu yerda ham **ijtimoiy uylar** va 2 ta ibodatxona ochib o'rnatildi.

Saroy va yirik binolarning devorlariga hayotiy va diniy mavzudagi rasmlar solingan. **Samarqand, Varaxsha, Panjikent** rasmlari ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda tasviriy san'at yuqori darajada bo'lganligini ko'rsatadi.

## 15-ILOVA

### ILK O'RTRA ASR MEMORCHILIGI

1953-1954 yillarda **Surxondaryoda** qazib o'rganilgan **Bolaliktepa** qal'asi eftalitlar davrining diqqatga sazovor yodgorliklaridan biridir. Bolaliktepa baland poydevor ustiga qurilgan bino bo'lib, uning ichki devorlariga turli rasmlar ishlangan.

**Farg'onadan** topilgan **Quva** budda ibodatxonasi ikki binodan iborat bo'lib, ularning eshiklari alohida bo'lgan. Ayvonga kiraverishda **otlarning, soqolli ma'budning katta haykali** bo'lib, uning peshonasida **odamning bosh suyagi** tasvirlangan. Bu yerdan turli **haykalchalar** ham topilgan. Xitoy manbalarida **Ishtixon** shahri ibodatxonalarida **Buddaning oltindan yasalgan** katta haykali bo'lganligi haqida ma'lumot beriladi.

## 16-ILOVA


### ILK O'RTRAASR MEMORCHILIGI

Toshkent vohasidan ilk o'rta asrlarga mansub **Mingo'rik**, **Yunusobod Oqtepasi** yodgorliklari topilgan. V-VII asrlarda Toshkent vohasida shahar markazi sifatida **Mingo'rik** muhim ahamiyat kasb etgan. Ko'chmanchi aholi bilan munosabatlari bu yerning hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Turar joylar katta-kichikligiga qarab farqlanadi.

Feodallarning turar joylaridan hokim qarorgohlaridan kichikroq **Oqtepadagi** uylar qurilishi jihatdan boshqa yerdagi uylarga o'xshash. **Mingo'rik arki va shahristoni** 18 ga egallaydi. 200 m kv maydondan VII-VIII asrlariga oid saroy va ibodatxona qoldiqlari topilgan. Devorlar paxsa va xom g'ishtdan qurilgan. **Shosh** O'rta Osiyoning boshqa yerkari bilan savdo aloqalarini olib borgan.

Milodiy V-VIII asrlarda **Shosh vohasida Yunusobod** ham muhim rol o'yagan. Maydoni 100 ga bo'lgan mazkur yodgorlik ko'rilib otgan davrida **Shosh vohasining** eng muhim markazlaridan biri bo'lgan.

## 17-ILOVA



MINGO'RIK. I-XIII asrlardagi shahar tarhi.

## 18-ILOVA

### ILK O'RТАASR MEMORCHILIGI

Xorazm hududidan ilk o'rta asrlar davriga oid shahar va mustaxkamlangan qo'rg'oncha qoldiqlari topib o'rganilgan. **Fir saroyi, Burgutqal'a, Teshikqal'a, Kuyukqal'a, Mizzakhon** va boshqalar o'rganilgan.

**Burgutqal'a, Teshikqal'a** qasr-istexkomlari VI-VIII asrlarga mansubdir. Mazkur davrda qal'alar balandligi 4-8 m bo'lган mustahkam tagkursi (platforma) ustiga qurilgan. **Teshikqal'a** maydoni 1 ga egallaydi. Qal'a mudofaa inshootlariga ega bo'lган, unga faqat ko'tarma yo'l orqali kirlgan. Bu yerdan devorlarga ishlangan rasmlar, gilam parchalari, tangalar topilgan. Qal'a VII-VIII asrlarda qurilgan.

V-VI asrlarda kirlgan **Kuyukqal'a** 41 ga maydonni egallagan. Uning ichki qismida ikkita qasr bo'lganligi aniqlandi. Ilk o'rta asrlar devorida Xorazmda ham xo'jalik va madaniy hayot yuksak bo'lganligini moddiy ashyolar tasdiqlaydi. Bu yerning yodgorliklari arablar istilosida tushkunlik bo'lganini ko'rsatadi.

## 19-ILOVA

### ILK O'RТАASR MEMORCHILIGI

VI-VII asrlarda **yangi ko'rinishdagi qishloqlar** katta-katta oilalar yashaydigan mustahkamlangan **qasr-qo'rg'onlar** paydo bo'la boshladи. Bunday qasr-qo'rg'onlar **Xorazmda** yaxshi o'rganilgan.

Dehqonchilik bilan shug'ullangan erkin aholi mustahkamlangan **mayda qo'rg'onchalarda** yashaganlar. **Xorazmda** ana shunday qo'rg'onlarning 200 dan ortig'i topildi. Ular bir-biridan 200 m masofada joylashgan va 34 km kv maydonni egallagan. Har bir qo'rg'onning atrofi devor bilan o'rab olingan. Arab tarixchisi **Al-Makdisiyning** ma'lumotiga ko'ra **Mizzakhon** atrofida X asrda 12 mingta qo'rg'onlar bo'lgan.

## 20-ILOVA

### ILK O'RTA ASR SAN'ATI

Ilk o'rta asrlarda **haykaltaroshlik san'ati** keng qo'llanilgan. U **dumaloq va bo'rtma tasvir shaklida** me'morchilik komplekslarida ishlatilgan. Bu haykallarda diniy va **afsonaviy obrazlar** bilan bir qatorda **real hayotni aks ettiruvchi obrazlar** ham uchraydiy. Haykallar maxsus tayyorlangan **loydan, yog'och, albaster va toshdan** ishlangan.

Amaliy xaykaltaroshlik san'atining yorqin namunalarini **IV-V asrlarga oid Toharistonning Kuyovqo'rg'on qal'a qo'rg'onidan** topiladi. Kuyovqo'rg'on haykallari ziynatli bezaklarga boy yengil kiyimlardagi erkak va ayol personajlaridan iborat bo'lgan.

## 21-ILOVA

### ILK O'RTA ASR SAN'ATI

Ilk o'rta asrlar davri monumental memorchiligidagi **noyob ganch naqshinkorligi** keng qo'llanilgan. Darhaqiqat, ilk o'rta asrlarda ganch o'ymakorlik san'ati o'zining yuqori darajasiga ko'tarilgan edi. Uning hatto dastlabki namunalarida o'z zamonasiga xos yangi uslubiy yo'nalish shakllangan edi. Buni **Afrosiyob, Varaxsha va Dumaloqtepa** qasr bezaklarida uchratish mumkin.

Ilk o'rta asrlarda **amaliy san'atning** barcha yo'nalishlari rivojlanadi. Ular shaharlarning o'sishi va shahar hunarmandchiligining taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan edi. **Oltin va kumushdan** har xil idishlar yasash ko'lami kengayadi. Ayniqsa, bu masalada **Xorazm va So'g'dda** katta yutuqlarga erishiladi.

## 22-ILOVA

O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlar davrida yagona din bo'lmagan. Arablar istilosini bilan bog'liq holda **islom dini** keng tarqalgani ma'lum. **Farg'ona vodiyisida** ya'ni **Quvadan** topilgan ibodatxona xarobasi **buddaviylik dini** bilan bog'liq bo'lib, u 2 xonali, old xonasi ayvon shaklida qurilgan. **Xorazmda** ham ko'mish marosimlari bilan bog'liq bo'lgan **ossuariylar** yoki **ostadon** deb nomlangan to'rtburchak shaklidagi tobutchalar otashparastlik e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan. **Ostadonlar So'g'd, Shosh hududlaridan** ham topilgan. **Zardushtiylik dini** bilan bog'liq bo'lgan **ibodatxonalar tepalikka** qurilib, old tomoni esa, **quyosh chiqish** tomonga qaratilgan.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda **so'g'd, xorazm, eftalit, turk bitiklari** paydo bo'ldi. Mazkur yozuvlar tarixiy manba bo'lishi bilan birga noyob ilmiy manba hisoblanadi.

### 23-ILOVA

Aholining diniy  
e'tiqoditurlicha  
bo'lgan:

**Tohariston va Sharqiy Turkiston** aholisi **buddizm** diniga e'tiqod qilganlar.


**So'g'd va Xorazm** aholisi **otashparastlik** diniga e'tiqod qilganlar.

Shu davrla O'rta Osiyoga **moniylik** va **nestarian-xristian** dini ham tarqala boshlagan. **Urgut yaqinida** topilgan **xristian** dini ibodatxonasi shu o'tmishni tasdiqlaydi.

### 24-ILOVA



Statuar ko'rinishdagi ostadon



Sug'd ostadoni. Ishtixon.  
VII-VIII asrlar



Ostadon. Mullatepa. VI-VII asrlar.



Sug'd ostadoni. Ishtixon.  
VII-VIII asrlar

### 25-ILOVA

#### "Aqliy hujum" qoidalari:

- O'zaro tanqid va bahoga yo'l qo'yilmaydi!
- Taklif etilayotgan fikrlarni tanqid qilishga shoshilma, xattoki ular juda g'aroyib bo'lsa ham!
- So'zga chiquvchining gapini bo'Ima!
- Fikrlar va g'oyalalar takrorlansa, xafa bo'Ima!
- G'oyalalar qancha ko'p bildirilsa, shunchalik yaxshi yangi va qimmatli g'oya paydo bo'lishi ehtimoli ortadi!
- Ushbu muammo faqat ma'lum bo'lgan usullar bilangina yechilishi mumkin deb hisoblama!

## 26-ILOVA

### MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR

1. O'rta asr asr tushunchasi va uning bosqichlari haqida nima bilasiz?
2. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda shahar hunarmandchiligining rivojlanishi haqida nima bilasiz?
3. Ilk o'rta asrlar davrida O'rta Osiyo tarixida qanday muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bo'lib o'tdi?
4. Ilk o'rta asrlardagi ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligining o'ziga xosliklarini gapirib bering?
5. Ilk o'rta asrlarda san'atning yuksalishi haqida nima deya olasiz?

## 27-ILOVA

### YODDA TUTING!

- \*Yerga egalik munosabatlari shakllangan.
- \*Yirik yer egalari dehqonlar bo'lgan.
- \*Dehqonlar ko'shlarda yashagan.
- \*Shahar 2 qismdan iborat bo'lgan.
- \*Ark baland tepalikka qurilib, chuqur choh bilan himoyalangan.
- \*VI asrda Mingo'rik Toshkent poytaxti bo'lgan.
- \*Chilonzor Oqtepasi otashparastlar ibodatxonasi bo'lgan.
- \*Buxoroning "zandanachi" ipak matolari dunyoga mashhur bo'lgan.
- \*Saroylar devoriy suratlar bilan bezatilgan.
- \*Ostodonda marhummlarning tozalangan suyaklari saqlangan.
- \*Xorazmda me'moriy va statuar ostodonlar tarqalgan.
- \*Chochda chizma naqshiy yashiksimon ostodonlar tarqalgan.
- \*So'g'dda otashparastlik e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan syujetli ostodonlar tarqalgan.

## 28-ILOVA

### KEYINGI DARS – SEMINAR MAVZUSI:

#### "ILK O'RTA ASRLAR DAVRI ARXEOLOGIVASI"

##### REJA:

1. Ilk o'rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot.
2. Ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligi.
3. San'atning yuksalishi.

##### ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Т., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Т., 1998.
3. Annayev T., Tilovov B., Xudoibergaliyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – Т., 1999.
4. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalalar – Т., 1997.
5. Buryakov Yu.F. Toshkent vohasining qadimgi karvon yo'llari. – Т., Fan, 1978.
6. Isomiddinov M.N. Sopoqla bitilgan tarix. – Т., 1993.
7. Alibayum L.I. Jivopisь Afrasiaba. – Т., 1975.
8. Annaev T.D. Rannesrennevskovye poselения Северного Токаристана. – Т., Fan, 1988.
9. Веленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Б. Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973.
10. Живопись древнего Панджикента / Отв. ред. А.Ю. Якубов-сий и М.М. Дьяконов. – М., 1954.
11. Кабанов С.К. Культура сельских поселений Южного Согда III-VI вв. – Т., 1981.
12. Кабанов С.К. В оазисах и степях Кеша и Нахшеба. – Т., Узбекистан, 1988.
13. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – Т. 1989.
14. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1989.
15. Фрейман А.А. Описание публикации и исследование документов с горы Мут. – М., 1962.
16. Мартинов А.И. Археология. М., 2006.
17. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-T: 2011

**“ARXEEOLOGIYA ASOSLARI” FANIDAN**  
**TALABALAR BILIMINI REYTINGLI**  
**BAHOLASH MEZONI**

Amaliy mashg’ulot	I-II JORIY NAZORAT				<b>BAHOLASH MEZONLARI</b>
	1- BALL	2- BALL	3- BALL	BAHO	
1. Daftarga reja bo'yicha konsept yozishi	0.3	0.5	0.5	0.8-1; 1.6-2; 2.6-3 ball “a’lo”	Rejadagi barcha savollarga to’liq javob yozishi; mustaqil tarzda qo’shimcha adabiyotlardan foydanish; xulosalar qabul qilishi; qiyyosiy tahlil qilishi; faolligi, bilish va tusshunish, tushuntirish ko’nikmalariga ega bo’lish; aniq tasavvurga ega bo’lishi, ijodiy fikrlay olishi, javobini ilmiy asoslay olish qobiliyatiga ega bo’lishi, tarixni uzluksiz jarayon sifatida talqin etilishi, tarix to’g’risida sivilizatsion fikr yuritish darajasi, holisona baholashi.
2. Savollarga to’liq javob berishi	0.5	1	1.5	0,5 – 0,7; 1-1,5; 2.1-2.5 ball – “yaxshi ”	Savollarga javob yozishi; savollarga javob berishi, mazmun mohiyatini tushunishi, tasavvurga ega bo’lishi, aytib berishi, xulosa chiqarishi, faolligi, fikr bildirishi.
3. Mustaqil tarzda qo’shimcha adabiyotlarda n foydalanib ijodiy yondoshish	0.2	05	1	0,2-0,4; 0,5-0,9; 1.6-2.0 ball – “qoniqa r-li”	Konsept yozishi, mavzuning mohiyatini tushunish; tasavvurga ega bo’lish; aytib berishi
				0-0,1; 0-0,4; 0-1.5 ball - “qoniqa r-siz”	Savollarga javob yozmaslik, mavzuning mohiyatini tushunmaslik, tasavvurga ega bo’lmaslik, javob bera olmaslik

**I-II JORIY NAZORAT**  
**(I JORIY NAZORAT – 20 BALL; II JORIY NAZORAT – 20 BALL)**

BALL VA BAHO	BAHOLASH MEZONLARI
<b>17,2-20 ball - “A’LO”</b>	O’tilgan mavzularning mohiyatini tushunish, bilish, tushuntira olish, to’liq tasavvurga ega bўlyish, ijodiy fikr bildirish, qiyosiy taxlil qilish, bilim va ko’nikmalarga ega bo’lish, amalda qo’llay olish, mustaqil mulohaza yuritish, xulosalar chiqara olish, muntazam ravishda ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda belgilangan vazifalarni auditoriyada va mustaqil tarzda to’liq bajarish, mustaqil tarzda qo’shimcha ilmiy adabiyotlardan foydalanish, kompyuter va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish,mustaqil ta’lim mavzulani o’rganib aytib berish.
<b>14,2-17,1 ball - “YAXShI”</b>	O’tilgan mavzularning mohiyatini tushunish, bilish, tushuntira olish, to’liq tasavvurga ega bo’lish, ijodiy fikrlay olish, aytib berish, mustaqil fikr bildirish, xulosalar bildira olish, izohlay olish, joriy o’quv mashg’ulotlarida belgilangan vazifalarni auditoriyada va mustaqil tarzda bajarish.
<b>11,2-14,1 - “QONIQARLI”</b>	Mavzularning mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo’lish, ammo tahlil eta olmaslik.
<b>0-11,1 - “QONIQARSIZ”</b>	O’quv mashg’ulotlarida belgilangan vazifalarni bajarmaslik, mustaqil tarzda darslarga tayyorgarlik ko’rmaslik, o’tilgan mavzularni bilmaslik, aniq tasavvurga ega bo’lmaslik, sababsiz o’quv mashg’ulotlarini qoldirish.

**I-II ON VA YaN BAHOLASH REYTINGI**

BAHOLAR	I ON – 15 BALL; II ON – 15 BALL	YaN – 30 BALL
“A’LO”	<b>12.9-15 ball</b>	<b>25,1-30 ball</b>
“YAXShI”	<b>10.6-12.8 ball</b>	<b>21,1-25 ball</b>
“QONIQARLI”	<b>8.4-10.5 ball</b>	<b>16,1-25 ball</b>
“QONIQARSIZ”	<b>0-8.3 ball</b>	<b>0-16 ball</b>

**I-II ORALIQ NAZORAT – 18 TA SAVOL (TEST)+1 TA MUSTAQIL ISH SAVOLI –  
JAMI 15 BALL**  
**YAKUNIY NAZORAT – 3 TA SAVOL (YOZMA ISH) – JAMI 30 BALL**

<b>BAHOLAR</b>	<b>I-II ON 18 ta test savoli (2-chi savol- mustaqil ta'lim savoli)</b>		<b>YaN 3 TA SAVOL</b>			<b>BAHOLASH MEZONLARI</b>
	<b>18 та тест саволи хар бирига 0.5 балдан</b>	<b>2-savol- 6 ball</b>	<b>1-savol- 10 ball</b>	<b>2-savol- 10 ball</b>	<b>3-savol- 10 ball</b>	
“A'LO”	<b>7.7 – 9 ball</b>	<b>5.2 - 6 ball</b>	<b>8,6 – 10 ball</b>	<b>8,6- 10 ball</b>	<b>8,6-10 ball</b>	Savollarga aniq, to'liq javob berish, mavzuni bilish, tushunish, mustaqil fikr, xulosa bildirish, tahlil qilish, aniq tasavvurga ega bo'lish, mohiyatini tushunish.
“YAXShI”	<b>6.4 – 7.6 ball</b>	<b>4.3 - 5.1 ball</b>	<b>7,1 – 8,5 ball</b>	<b>7,1-8,5 ball</b>	<b>7,1-8,5 ball</b>	Savollarga to'liq javob berish, qo'yilgan masalalarning mohiyatini tushunish, bilish, mustaqil fikrlay olish, tasavvurga ega bo'lish.
“QONIQAR -LI”	<b>5.0 – 6.3 ball</b>	<b>3.3 - 4.2 ball</b>	<b>5,5 – 7 ball</b>	<b>5,5- 7 ball</b>	<b>5,5 – 7 ball</b>	Mavzularning mohiyatini tushunish, bilish, tasavvurga ega bo'lish, qisman javoblar berish.
“QONIQAR -SIZ”	<b>0-4.9 ball</b>	<b>0 - 3.2 ball</b>	<b>0-5,4 ball</b>	<b>0-5,4 ball</b>	<b>0-5,4 ball</b>	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik, bilmaslik, savollarga javob bera olmaslik yoki noto'g'ri javob berish.

**“ARXELOGIYA ASOSLARI” FANIDAN TALABALAR BILIMI VA MUSTAQIL  
IShLARINI BAHOLASH REYTINGI**

			I JN	II JN	JAMI
0-6 ball – “qoniqarsiz”	6.1 – 7.7 ball – “qoniqarli”	7.8 – 9.4 ball – “yaxshi”	9.5 – 11 ball - “allo”	JORIY NAZORAT – 11 BALL	JORIY NAZORAT – 11 BALL
0-4.9 ball	5.0 – 6.3 ball	6.4 – 7.6 ball	7.7 – 9 ball	MUSTAQIL TA'LIM – 9 BALL	MUSTAQIL TA'LIM – 9 BALL
<b>0-11.1 ball</b>	<b>11.2-14.1 ball</b>	<b>14.2-17.1 ball</b>	<b>17.2-20 ball</b>	<b>20 BALL</b>	<b>JAMI</b>
0-6 ball	6.1 – 7.7 ball	7.8 – 9.4 ball	9.5 – 11 ball	JORIY NAZORAT – 11 BALL	JORIY NAZORAT – 11 BALL
0-4.9 ball	5.0 – 6.3 ball	6.4 – 7.6 ball	7.7 – 9 ball	MUSTAQIL TA'LIM – 9 BALL	MUSTAQIL TA'LIM – 9 BALL
<b>0-11.1 ball</b>	<b>11.2-14.1 ball</b>	<b>14.2-17.1 ball</b>	<b>17.2-20 ball</b>	<b>20 BALL</b>	<b>JAMI</b>
0-4.9 ball	5.0 – 6.3 ball	6.4 – 7.6 ball	7.7 – 9 ball	ORALIQ NAZORAT – 9 BALL	ORALIQ NAZORAT – 9 BALL
0 - 3.2 ball	3.3 - 4.2 ball	4.3 - 5.1 ball	5.2 - 6 ball	MUSTAQIL TA'LIM – 6 BALL	MUSTAQIL TA'LIM – 6 BALL
<b>0-8.3 ball</b>	<b>8.4-10.5 ball</b>	<b>10.6-12.8 ball</b>	<b>12.9-15 ball</b>	<b>15 BALL</b>	<b>JAMI</b>
0-4.9 ball	5.0 – 6.3 ball	6.4 – 7.6 ball	7.7 – 9 ball	ORALIQ NAZORAT – 9 BALL	ORALIQ NAZORAT – 9 BALL
0 - 3.2 ball	3.3 - 4.2 ball	4.3 - 5.1 ball	5.2 - 6 ball	MUSTAQIL TA'LIM – 6 BALL	MUSTAQIL TA'LIM – 6 BALL
<b>0-8.3 ball</b>	<b>8.4-10.5 ball</b>	<b>10.6-12.8 ball</b>	<b>12.9-15 ball</b>	<b>15 BALL</b>	<b>JAMI</b>
<b>0-16 ball</b>	<b>16,1-25 ball</b>	<b>21,1-25 ball</b>	<b>25,1-30 ball</b>	<b>30 BALL</b>	<b>YaN</b>
<b>0-54 ball</b>	<b>55-70 ball</b>	<b>71-85 ball</b>	<b>86-100 ball</b>	<b>100 BALL</b>	<b>YAKUNIY BAHO</b>

## **ARXELOGIYA ASOSLARI FANIDAN I-JORIY NAZORAT SAVOLLARI**

1. Arxeologiya fanining rivojlanish tarixi.
2. Arxeologiya fanining maqsad va vazifalari.
3. Arxeologik davrlashtirish va xronologiya.
4. Paleolit - tosh davrining dastlabki bosqichi.
5. Paleolit davrining o'rganilish tarixi.
6. Paleolit davrining xo'jalik xususiyati va shakllari.
7. Osiyo, Yevropa va Afrikaning paleolit davriga oid yodgorliklari tavsifi.
8. O'rta Osiyodagi paleolit davri makonlarini topib o'rganishda Rossiya va O'zbekiston arxeologlarining o'rni.
9. Olduvay davri madaniyati.
10. Ashel davri madaniyati.
11. Muctye davri madaniyati.
12. Antropogenez jarayoni.
13. Yuqori paleolit davri madaniyati.
14. Mezolit davrining o'rganilish darajasi, xronologiyasi va davrlashtirish.
15. Yevropa, Rossiya va Kavkaz hududlarida mezolit.
16. O'rta Osiyoning mezolit davri yodgorliklari.
17. Mezolit davri san'ati.
18. Neolit davri xususiyatlari va xronologiyasi.
19. Yevropa va Rossiya hududida neolit.
20. O'rta Osiyoning neolit davri madaniyatlari (Joytun va Kaltaminor madaniyatlari misolida).
21. O'rta Osiyoning neolit davri madaniyatlari (Sazag'on va Hisor madaniyatlari misolida).
22. Eneolit davri xronologiyasi, tavsifi va o'rganilishi.
23. Eneolit madaniyatining rivojlanish bosqichlari.
24. Eneolit davrida qurilish va me'morchilik.
25. Eneolit davrida kulolchilikning mukammallashuvi va san'at.
26. O'zbekistondagi eneolit davri yodgorliklari.
27. Turkmanistondagi eneolit davri yodgorliklari.
28. Tripole va Maykop madaniyatlari.

## **ARXELOGIYA ASOSLARI FANIDAN II-JORIY NAZORAT SAVOLLARI**

1. Bronza davriga tavsif.
2. Yevropa va Kavkaz hududlarida bronza davri.
3. Rossiya hududidagi bronza davri madaniyati (afanasev va andronovo madaniyatlari).
4. O'rta Osiyo hududida bronza davri (Nomozgoh IV, Nomozgoh V, Nomozgoh VI va Sopolli madaniyatlari misolida).
5. O'rta Osiyo hududida bronza davri (Zamonbobo, Tozabog'yop va Qayroqqum madaniyatlari misolida).
6. Chust madaniyati.
7. Temir davriga umumiyl tafsif.
8. Urartu davlati madaniyati.
9. Ckif va sarmat qabilalari madaniyati.
10. Rossiya hududida ilk temir davri
11. O'rta Osiyo hududida so'nggi bronza va ilk temir davri madaniyatlarning rivojlanishi (Dahiston, Kopetdog', Yoztepa va Murg'ob vohalari).
12. O'rta Osiyo hududida so'nggi bronza va ilk temir davri madaniyatlarning rivojlanishi (So'g'd, Choch va Ustrushona).

13. Antik davr haqida umumiy ma'lumot.
14. Shimoliy Qora dengiz hududidagi antik davr davlatlari.
15. Kavkaz hududidagi antik davlatlar.
16. Sibir hududidagi antik davr madaniyati.
17. O'rta Osiyoda markazlashgan davatlarning tashkil topishi (Parfiya, Marg'iyona, Xorazm).
18. O'rta Osiyoda markazlashgan davatlarning tashkil topishi (Baqtriya, So'g'd).
19. Ilk o'rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot.
20. Ilk o'rta asrlarda ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligi.
21. Ilk o'rta asrlarda san'atning yuksalishi.
22. O'zbekistondagi ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklar.
23. O'rta Osiyoda arablar bosqini oqibatlari.
24. Movarounnahr, Xuroson, Farg'onha IX-XII asrlarda.
25. O'rta Osiyoda mo'g'ullar bosqini oqibatlari.
26. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyatning rivojlanishi.
27. O'rta Osiyo Shayboniyilar va Ashtarkoniylar hukmronligi ostida.
28. So'nggi o'rta asrlarda diniy me'morchilik (masjid, madrasa, xonaqoh).
29. O'zbekistondagi ilk shaharlar (Jarqo'ton misolida).
30. Ellinizm davri madaniyati shakllangan va tarqalgan hududlar.

## **ARXEOLOGIYA ASOSLARI FANIDAN I-II ORALIQ NAZORAT UCHUN TESTLAR MAJMUASI**

### **1. Arxeologiya qanday fan?**

- A. Nasl-nasab tarixi, shajara tarixini o'rganuvchi fan.
- B. Qadimgi moddiy madaniyat yodgorliklari asosida xalqlarning tarixiy o'tmishi, turmushi va madaniyatini o'rganuvchi fan.
- C. Odamning biologik xususiyatlari haqidagi fan.
- D. Tirik organizmlarning hayoti va rivojlanish qonuniyatları haqidagi fan.

### **2. Obishir yodgorligi kim tomonidan o'rganilgan?**

- A. V.L. Vyatkin.
- B. S.P. Tolstov.
- C. O'.I. Islomov.
- D. A.A. Asqarov.

### **3. "Arxeologiya" atamasini birinchi bo'lib kim ishlatgan?**

- A. Platon (Aflatun)
- B. Sokrat (Sokrat)
- C. Zenon
- D. Anaksiman

### **4. Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi qachon tuzilgan?**

- A. 1932 y
- B. 1903 y
- C. 1895 y.
- D. 1897 y.

### **5. O'zbekistonda ilmiy faoliyat olib borgan antropolog olimlar faoliyatini ko'rsating.**

- A. O'.I. Islomov, Yu.F. Buryakov.

B. R.H. Suleymanov, M.M. Gerasimov.  
C. M.M. Gerasimov, T. Xodjayev.  
D. S.B. Lunina, Z.I. Umanova.

**6. Ibtidoiy qoyatosh suratlari aks etgan O'rta Osiyodagi mashhur yodgorkiklarni ko'rsating.**

- A. Saymalitosh, Zarautsoy, Shaxta, Siypantosh.
- B. Ilonsoy, Obishir, Sarmishsov, Joytun.
- C. Ko'ksaroy, Kattakamar, Ko'lbulloq, Omonqo'ton
- D. Bironsov, Teraklisoy, Turtlisoy, Kaltaminor.

**7. Yuqori paleolitda qanday muhim tarixiy hodisa bo'lgan?**

- A. Tosh qurollarining tarqalishi.
- B. G'or san'atining paydo bo'lishi.
- C. Avstrolopitek va Homo erectusning tarqalishi.
- D. Hamma javoblar to'g'ri.

**8. Pitekantrop qachon kim tomonidan topilgan?**

- A. 1891-1892 yy., E.Dyubua.
- B. 1927 y., D.Blek.
- C. 1959 y., L.Liki
- D. 1963 y., Vu.

**9. Ko'lbulloq makoni qaysi yildan boshlab o'rganilmoqda?**

- A. 1939 y.
- B. 1956 y.
- C. 1963 y.
- D. 1966 y.

**10. O'rta Osiyo hududida qancha mustye davri yodgorliklari topilgan?**

- A. 100 dan ortiq.
- B. 50 dan ortiq.
- C. 70 ga yaqin.
- D. 200 ga yaqin.

**11. Tojikistondagi mustye davri yodgorliklarini ko'rsating.**

- A. Xo'jakent, Ko'lbulloq, Oqjar.
- B. Tehiktoh, Og'zikichik, Angillak.
- C. Uchtut, Qopchi'ay, Obishir.
- D. Oqjar, Og'zikichik, Qora-Bura.

**12. O'zbekistondagi mezolit davri yodgorliklarini ko'rsating.**

- A. Achchiko'l, Bekobod, Zambar, Qoratog'.
- B. Machay, Obishir, Sho'rko'l, Shug'nau.
- C. Bo'zsuv 1, Yerqo'rg'on, Tuyabo'g'iz, Takalisoy.
- D. Samarqand, Joytun, Anov, Nomozgoh.

**13. Neolit atamasini arxeologiya faniga kim kiritgan?**

- A. M.M. Gerasimov.
- B. Lebbok.
- C. O'I. Islomov.

D. E.Dyubua.

**14. Qashqadaryo vohasining quyi oqimidan neolitning qaysi madaniyatiga taalluqli yodgorliklar topilgan?**

- A. Gujayli.
- B. Kaltaminor.
- C. Hisor.
- D. Joytun.

**15. O'rta Osiyodagi neolit davriga oid qabriston qanday nom bilan mahhur?**

- A. Chinkeldi.
- B. Jayronquduq.
- C. Kasanjol.
- D. Chagil.

**16. Joytun yodgorligi nechanchi mingyillikka mansub?**

- A. Mil. avv. VI-IV m.y.
- B. Mil. avv. IV-III m.y.
- C. Mil. avv. V-IV m.y.
- D. Mil. avv. III-II m.y.

**17. Janubiy Turkmanistonning eneolit davri yodgorliklarini kimlar o'rgangan?**

- A. M.M. Masson, S.B. Lunina, Z.I. Usmanova.
- B. M.M. Dyakonov, A.P. Okladnikov, Ya.G'. G'ulomov.
- C. B.A. Litvinskiy, A.N. Bernshtam, M.A. Itina.
- D. V.I. Sarianidi, V.M. Masson, O.K. Berdiyev.

**18. Sopollitepa nechanchi yildan o'rganila boshlangan?**

- A. 1956 y.
- B. 1960 y.
- C. 1968 y.
- D. 1975 y.

**19. Yerqo'rg'on yodgorligi qaysi davrga taalluqli?**

- A. Mezolit
- B. Temir.
- C. Neolit.
- D. Bronza.

**20. Budda ibodatxonalari O'zbekistonning qaysi yodgorligida ochib o'ranilgan?**

- A. Qoratepa.
- B. Sopollitepa
- C. Dalvarzintepa.
- D. Xolchayon.

**21. Antik davr shaharlari necha qismdan iborat bo'lgan?**

- A. 5 ta.
- B. 3 ta.
- C. 2 ta.
- D. 4 ta.

**22. Kushonlar davriga oid yodgorliklar O'zbekistonning qaysi hududida ko'proq o'r ganilgan?**

- A. Farg'ona.
- B. Surxondaryo.
- C. Buxoro.
- D. Qoraqalpog'iston.

**23. Qaysi tog'dan ilk o'rta asrlarga oid hujjatlar to'plami topilan?**

- A. Pomir.
- B. Boysun.
- C. Zomin.
- D. Mug'.

**24. Ilk o'rta asrlarga oid devoriy suratlar qaysi yodgorliklarda saqlanan?**

- A. Afrosiyob, Bolaliktepa, Panjikent.
- B. Yerqo'g'on, Varaxsha, Qo'yqirilganqal'a.
- C. Gaurtepa, Nomozgoh, Afrosiyob.
- D. Dalvarzintepa, Anov, Xolchayon.

**25. Ilk o'rta asrlardagi Chog'aniyon hozirgi qaysi yodgorlikda joylashgan?**

- A. Erkqal'a.
- B. Budrach.
- C. Qalai Qahqah.
- D. Nog'ayqo'rg'on.

**26. Budda yozuvlari aks etgan matn topilgan yodgorlikni ko'rsating.**

- A. Fayoztepa.
- B. Xolchayon.
- C. Zangtepa.
- D. Oqtepa.

**27. Ilk o'rta asrlarga oid turar joylar tarxi qaysi yodgorlikda o'r ganilgan?**

- A. Qumqal'a.
- B. Chilxujra.
- C. Panjikent.
- D. O'rtaqo'rg'on.

**28. Farg'ona vodiysidagi budda ibodatxonasi topilgan shaharni ko'rsating.**

- A. Quva.
- B. Oqbehim.
- C. Ajinatepa.
- D. Varaxsha.

**29. Ajinatepadagi Budda haykalining balandligi qancha?**

- A. 11 m.
- B. 20 m.
- C. 18 m.
- D. 8 m.

**30. Somoniylar maqbarasi qaysi shaharda qurilgan?**

- A. Buxoro.

- B. Samarqand.
- C. Marv.
- D. Hirot.

**31. Timdagi Arabota maqbarasi qachon qurilgan?**

- A. 980 y.
- B. 977 y.
- C. 983 y.
- D. 995 y.

**32. Me'morchilikda geometrik ornamentdan foydalanish qaysi asrda o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqan?**

- A. X-XI aa.
- B. XII aa.
- C. XI-XII aa.
- D. XI-XIII aa.

**33. Qaysi asrdan boshlab me'morchilikda sirli koshinlardan foydalanila boshlangan?**

- A. IX asr.
- B. IX asr ox.-X asr boshlari.
- C. XII asr.
- D. XIII asr.

**34. Raboti Malik – bu ...**

- A. Karvonsaroy.
- B. Madrasa.
- C. Masjid.
- D. Maqbara.

**35. Me'morchilikda qachondan boshlab kufiy yozuvidan bezak sifatida ishlatila boshlangan?**

- A. VIII asr.
- B. IX asr.
- C. X asr.
- D. XI asr.

**36. O'rta asrlarda masjidning nechta turi bo'lgan?**

- A. 5 ta.
- B. 3 ta.
- C. 2 ta.
- D. 4 ta.

**37. Me'morchilikda pishiq g'ishtda o'yma naqsh solish qachondan boshlab yoyilgan?**

- A. XII asr.
- B. XIII asr.
- C. XIV asr.
- D. XIII-XIV aa.

**38. Minorai Kalon qachon qurilgan?**

- A. 1036 y.
- B. 1127 y.

- C. 1167 y.
- D. 1205 y.

**39. Qaysi asrdan kulolchilikda moviy rangdan keng foydalanila boshlangan?**

- A. IX asr.
- B. XI asr.
- C. XIII asr.
- D. XII asr.

**40. Qarshi shahrining mo'g'ullar istilosigacha bo'lgan o'rni qanday nom bilan mashhur?**

- A. Yerqo'rg'on
- B. Daratepa.
- C. Shulluktepa.
- D. Ko'ltepa.

**41. O'rta Osiyo miniatyura san'ati qaysi maktab ta'siri ostida rivojlandi?**

- A. Hirot.
- B. G'azna.
- C. Damashq.
- D. Bag'dod.

**42. Temuriylar davri me'morchiligi tarixini qaysi olim ko'proq o'rgangan?**

- A. G.A. Pugachenkova.
- B. S.B. Lunina.
- C. Z.I. Usmanova.
- D. L.I. Rempel.

**43. Samarqanddagi mashhur Registon majmuasi qaysi asrlarda qurib bitkazilgan?**

- A. IX-XIV aa.
- B. XIV-XV aa.
- C. XV-XVII aa.
- D. XIV-XVIII aa.

**44. "Sharq Rafaeli" nomini olgan mashhur rassom kim?**

- A. Ali Qushchi.
- B. Jamhid al-Koshiy.
- C. Kamoliddin Behzod.
- D. Mirak Naqqosh.

**45. Abdullaxon II davrida Qarshi shahrida bunyod etilgan yodgorliklarni ko'rsating.**

- A. Qo'rg'oncha masjid, hammom, sardoba.
- B. Ko'kgumbaz jom'e masjidi, Qashqadaryo ustidagi ko'prik, hammom.
- C. Gumbazi Sayidon, Odina masjidi, Qarshi qo'g'oni.
- D. Qashqadaryo ustidagi ko'prik, Bekmir Qozoq madrasasi, sardoba.

**46. Chorbakr majmuasi kim tomonidan qayerda qurdirilgan?**

- A. Abdullaxon II, Buxoro.
- B. Shayboniyxon, Marv.
- C. Amir Olimxon, Qarshi.
- D. Amir Muzaffarxon, Samarqand.

**47. Xivadagi To’ra Murod minorasi qachon bunyod etilgan?**

- A. 1872 y.
- B. 1895 y.
- C. 1888 y.
- D. 1908 y.

**48. Samarqanddagi Ulug’bek rasadxonasi qachon qaysi arxeolog tomonidan o’rganilgan?**

- A. 1895 y., S. Tyanshanskiy.
- B. 1908 y., V.V. Vyatkin.
- C. 1938 y., M.M. Gerasimov.
- D. 1928 y., T. Mirgiyasov.

**49. Xudoyorxon saroyi qaysi shaharda qurilgan?**

- A. Namangan.
- B. Andijon.
- C. Farg’ona.
- D. Qo’qon.

**50. Abulqosim madrasasi qachon qayerda qurilgan?**

- A. 1850 y., Toshkent
- B. 1895 y., Samarqand.
- C. 1866 y., Qo’qon.
- D. 1914 y., Buxoro.

**51. Dastlabki arxeologik qazuv ishlari qayerda olib borilgan?**

- A. Bobil.
- B. Misr.
- C. Xitoy.
- D. Fransiya.

**52. Pyotr I ning tashabbusi bilan tashkil etilgan muzeyni ko’rsating.**

- A. Luvr
- B. Moskva
- C. Kuntskamera
- D. Sankt-Peterburg

**53. Kuntskamera bazasida qachon Osiyo muzeyi tashkil etiladi?**

- A. 1823 y.
- B. 1818 y.
- C. 1843 y.
- D. 1856 y.

**54. Peterburgda Arxeologiya-numizmatika jamiyati qachon tashkil etiladi?**

- A. 1846 y.
- B. 1834 y.
- C. 1865 y.
- D. 1870 y.

**55. O’rta Osiyoda arxeologik tadqiqotlar o’tkazish va u yerda mutaxassislarni yuborish bo’yicha Arxeologiya qo’miasi qachon tuziladi?**

- A. 1839 y.

- B. 1878 y.
- C. 1842 y.
- D. 1859 y.

**56. O’z kolleksiyasini Fransiyada namoyish etib, “Kumush medal” sohibi bo’lgan o’zbek havaskor arxeologi kim?**

- A. Ahmad Donish
- B. Turor Risqulov
- C. Akram Asqarov
- D. Mirza Buxoriy

**57. Madaniy qatlam – bu ...**

- A. Insoniyatning turmushi, xo’jaligi va g’oyaviy faoliyatining izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami
- B. O’simlik va hayvonot dunyosi qoldiqlari
- C. Urf-odat va an’an’alarni arxeologik jihatdan o’rganish
- D. Xalqlarning moddiy madaniyati

**58. Sut emizuvchi hayvonlar paydo bo’gan erani ko’rsating.**

- A. Mezazoy
- B. Kaynazoy
- C. Bo’r
- D. Arxaik

**59. Avstrolopitekning miya hajmi qancha bo’lgan?**

- A. 800 sm/kub
- B. 400-600 sm/kub
- C. 500-600 sm/kub
- D. 1000-1200 sm/kub

**60. Obirahmat madaniyati qaysi yodgoriklarga xos?**

- A. Machay, Oqjar, Bo’zsuv, Obishir
- B. Amir Temur g’ori, Qo’shilish, Sopollitepa
- C. Selung’ur, Tora-Bura, Angilak, Zarautsoy
- D. Teshiktosh, Xo’jakent, Obirahmat, Qayroqqum

**61. Ko’lbuloq yodgorligi qaysi daryo bo’yida joylashgan?**

- A. Ohangaron
- B. Bo’zsuv
- C. Sirdaryo
- D. Qashqadaryo

**62. Ko’lbuloq yodgorligida nechta madaniy qatlam ochib o’rganilgan?**

- A. 22 ta
- B. 41 ta
- C. 18 ta
- D. 35 ta

**63. Qirg’iziston dagi ilk paleolitga oid yodgorlik qaysi?**

- A. Obishir
- B. Xo’jakent

- C. On Archa
- D. Obirahmat

**64. O'rta Osiyoda so'nggi paleolitga oid yodgorlik – Samarqand manzilgohini kim qachon qazuv ishlarini boshlagan?**

- A. N.Lev
- B. V.Shishkin
- C. O'.Islomov
- D. N.G. Xarlamov, 1939 y.

**65. Tojikistondagi tosh davri yodgorliklarni kim o'rgangan?**

- A. V.A. Ranov
- B. N.G. Xarlamov
- C. A.Asqarov
- D. T.Xojayov

**66. Qashqadaryo vohasida qazib o'rganilgan mustye davri yodgorkigini ko'rsating.**

- A. Qirqqiz
- B. Angilak
- C. Yettiqiz
- D. Daratepa

**67. Mezolit davrining eng buyuk kashfiyoti nima?**

- A. Kulolchilikning paydo bo'lishi
- B. To'qimachilikning paydo bo'lishi
- C. O'q-yoy va kamalakning kashf etilishi
- D. Hamma javoblar to'g'ri

**68. Mezolit davrida odamlar asosan qanday tosh quollaridan foydalanishgan?**

- A. Nukleuslar
- B. Tosh xanjarlar
- C. Tarashlagichlar
- D. Mikrolitlar

**69. Sharqiy Kaspiybo'yи mezolitining xronologik davrini ko'sating.**

- A. Mil. av. X-VII m.y.
- B. Mil.av. IX-V m.y.
- C. Mil.av. XII-IX m.y.
- D. Mil. av. VII-V m.y.

**70. Ustyurtdagi mezolit davri odamlarining asosiy mashg'uloti nima bo'lган?**

- A. Termachilik
- B. Ovchilik va termachilik
- C. Baliqchilik va termachilik
- D. Termachilik va dehqonchilik

**71. O'rta Osiyoning sharqiy viloyatlarida mezolit davriga oid qancha yodgorliklar o'rganilgan?**

- A. 100 ga yaqin
- B. 200 ga yaqin
- C. 200 dan ortiq

D. 50 dan ortiq

**72. Janubiy Turkmanistonning qaysi hududida ilk dehqonchilik va chorvachilik manzilgohlari vujudga keladi?**

- A. Murg'ob daryosi bo'ylarida
- B. Talas daryosi bo'ylarida
- C. Amudaryoning o'rta oqimi
- D. Kopetdog'ning tog'oldi hududlari

**73. "Neolit davri inqilobi" atamasini birinchi bo'lib kim ishlatgan?**

- A. G.Chayld
- B. Lebbok
- C. L.Liki
- D. Ch.Darvin

**74. Chagillikdepedagilarda xo'jalikning asosiy shaklini nima tashkil qilgan?**

- A. Ovchilik va baliqchilik
- B. Dehqonchilik
- C. Chorvachilik
- D. Termachilik va ovchilik

**75. Jebel manzilgohidagi odamlar qaysi davrgacha g'orda yashashgan?**

- A. Mezolit
- B. Neolit
- C. Bronza
- D. Eneolit

**76. Eneolit davriga oid Janubiy Turkmanistondagi qaysi yodgorliklarda bir xonali uylar ochib o'r ganilgan?**

- A. Yozdepe II
- B. Oltindepe
- C. Anov IV
- D. Anov I, Nomozgoh I

**77. Eneolit davriga oid Sarazm I yodgorligidagi uylar asosan nimadan qurilgan?**

- A. Paxsa
- B. Xom g'isht
- C. Guvala
- D. Guvala va xom g'isht

**78. Kulolchilik charxi birinchi marta O'rta Osiyoning qaysi hududidan topilgan?**

- A. O'zbekistondan
- B. Turkmanistondan
- C. Tojikistondan
- D. Qozog'istondan

**79. Bronza davrida yashagan Murg'ob vohasi qabilalari ma'naviy hayotida qushlar nimani ramzi hisoblangan?**

- A. Yer
- B. Tuproq
- C. Osmon

D. Quyosh

**80. Orolbo'yida joylashgan yirik ko'chmanchilar mozor-qo'rg'onini ko'rsating.**

- A. Qo'yqirilganql'a
- B. tozabog'yob
- C. Jonbosqal'a
- D. Tagisken

**81. Antik davrga oid qaysi yodgorlikda yerosti budda ibodatxonasi (monastri) ochib o'rghanilgan?**

- A. Fayoztepa
- B. Quva
- C. Xolchayon
- D. Dalvarzintepa

**82. Parfiyalik hukmdorlarning "shohlar shahri" nomini olgan yodgorligi qaysi?**

- A. Oltindepe
- B. Ko'hna Niso
- C. Gonurdepe
- D. Togolokdepe

**83. Saksonoxur va Ayrитом yodgorliklarida yunon-rim me'morchiligining qaysi uslubidan foydalanilgan?**

- A. Ioniya uslubi
- B. Krit uslubi
- C. Korinf uslubi
- D. Krit-miken uslubi

**84. O'rta Osiyo antik davri numizmatikasida asosan qaysi hukmdorlarga taqlid qilinganligini ko'rish mumkin?**

- A. Makedoniya
- B. Afrig'iy
- C. Parfiya
- D. Yunon-baqtr va Kushon

**85. Yunon haykaltaroshchiligining ta'siri o'laroq, yunon xudolari (Zebs va Dionis) aks etgan Shimoliy Afg'onistonidagi yodgorlikni ko'rsating.**

- A. Oyxonum
- B. Ajinatepa
- C. Oltintepa
- D. Yerqo'rg'on

**86. Kushonlar davriga oid Dalvarzintepa yodgorligidagi ibodatxonani asosan nima bezab turgan?**

- A. Ganch naqshlar
- B. Katta-kichik haykallar
- C. Qushlar va parrandalar
- D. Muqaddas hayvonlar

**87. Kushonlar davriga oid qaysi yodgorlikdan katta miqdordagi zargarlik buyumlari topilgan?**

- A. Xolchayon
- B. Oltintepa
- C. Dalvarzintepa
- D. Chingiztepa

**88. Qashqadaryo vohasidagi ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklarni dastlab kim o'rgangan?**

- A. S.P. Tolstov
- B. A.Raimqulov
- C. M.Ye. Masson
- D. S.K. Kabanov

**89. Poykent shahri xarobasining umumiy maydoni necha gektarni tashkil qiladi?**

- A. 20 ga
- B. 15 ga
- C. 25 ga
- D. 40 ga

**90. Xorazmdagi ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklarda qaysi madaniyatning ta'siri katta bo'lgan?**

- A. Tozabog'yob madaniyati
- B. Afrig'iylar madaniyati
- C. Kaltaminor madaniyati
- D. Joytun madaniyati

**91. Janubiy Turkmanistonning o'rta asrlardagi asosiy shahrini ko'rsating.**

- A. Niso
- B. Ashxobod
- C. Marv
- D. Bayramali

**92. Qaysi yodgorlikdagi devoriy suratda ikkita bolani emizayotgan ona bo'ri tasvirlangan?**

- A. Varaxsha
- B. Afrosiyob
- C. Panjikent
- D. Qalai Qah-qah

**93. Qaysi yodgorlikdagi devoriy suratda (Qizil zal) ov manzarasi aks etgan?**

- A. Varaxsha
- B. Yerqo'rg'on
- C. Afrosiyob
- D. Ayrtom

**94. Chashmai Ayyub maqbarasi qaysi shaharda qurilgan?**

- A. Samarqand
- B. Buxoro
- C. Toshkent
- D. Dushanbe

**95. Jarqo'g'on minorasining me'mori kim?**

- A. Abdurahim Muntiyoni
- B. Abu Bakr

- C. Ali ibn Muhammad Saraxsiy
- D. Abduqodir "Chaldevor"

**96. Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa me'morchilik an'anasining qaysi uslubida qurilgan?**

- A. Bog'
- B. Madrasa
- C. Masjid va madrasa
- D. Saroy-bog'

**97. Termizlik sayyidlar maqbarasi qanday umumiyl nom bilan ataladi?**

- A. Sulton Saodat
- B. Dor us-Saodat
- C. Dor ut-Tilovat
- D. Shohizinda

**98. Toshkentdag Shayhontohur majmuasi qaysi asrlarda qurilgan?**

- A. X-XII asrlar
- B. XV-XIX asrlar
- C. XII-XV asrlar
- D. XV-XVII asrlar

**99. Qamashi sardobasi qachon qurilgan?**

- A. 1745 y.
- B. 1678 y.
- C. 1892 y.
- D. 1873 y.

**100. Usta Shirin Murodov tomonidan yuksak san'at namunasi sifatida bunyod etilgan me'moriy obidani ko'rsating.**

- A. Buxoro arki
- B. Xudoyorxon saroyi
- C. Baroqxon maqbarasi
- D. Sitorai Mohi Xosa

## **ARXELOGIYA ASOSLARI FANIDAN YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI**

1. Arxeologiya fanining rivojlanish tarixi.
2. Arxeologiya fanining maqsad va vazifalari.
3. Arxeologik davrlashtirish va xronologiya.
4. Paleolit - tosh davrining dastlabki bosqichi.
5. Paleolit davrining o'rganilish tarixi.
6. Paleolit davrining xo'jalik xususiyati va shakllari.
7. Osiyo, Yevropa va Afrikaning paleolit davriga oid yodgorliklari tavsifi.
8. O'rta Osiyodagi paleolit davri makonlarini topib o'rganishda Rossiya va O'zbekiston arxeologlarining o'rni.
9. Olduvay davri madaniyati.
10. Ashel davri madaniyati.
11. Muctye davri madaniyati.
12. Antropogenez jarayoni.
13. Yuqori paleolit davri madaniyati.

14. Mezolit davrining o'rganilish darajasi, xronologiyasi va davrlashtirish.
15. Yevropa, Rossiya va Kavkaz hududlarida mezolit.
16. O'rta Osiyoning mezolit davri yodgorliklari.
17. Mezolit davri san'ati.
18. Neolit davri xususiyatlari va xronologiyasi.
19. Yevropa va Rossiya hududida neolit.
20. O'rta Osiyoning neolit davri madaniyatlar (Joytun va Kaltaminor madaniyatlar misolida).
21. O'rta Osiyoning neolit davri madaniyatlar (Sazag'on va Hisor madaniyatlar misolida).
22. Eneolit davri xronologiyasi, tavsifi va o'rganilishi.
23. Eneolit madaniyatining rivojlanish bosqichlari.
24. Eneolit davrida qurilish va me'morchilik.
25. Eneolit davrida kulolchilikning mukammallahuvi va san'at.
26. O'zbekistondagi eneolit davri yodgorliklari.
27. Turkmanistondagi eneolit davri yodgorliklari.
28. Tripole va Maykop madaniyatlar.
29. Bronza davriga tavsif.
30. Yevropa va Kavkaz hududlarida bronza davri.
31. Rossiya hududidagi bronza davri madaniyati (afanasev va andronovo madaniyatlar).
32. O'rta Osiyo hududida bronza davri (Nomozgoh IV, Nomozgoh V, Nomozgoh VI va Sopolli madaniyatlar misolida).
33. O'rta Osiyo hududida bronza davri (Zamonbobo, Tozabog'yop va Qayroqqum madaniyatlar misolida).
34. Chust madaniyati.
35. Temir davriga umumiy tavsif.
36. Urartu davlati madaniyati.
37. Ckif va sarmat qabilalari madaniyati.
38. Rossiya hududida ilk temir davri
39. O'rta Osiyo hududida so'nggi bronza va ilk temir davri madaniyatlarining rivojlanishi (Dahiston, Kopetdog', Yoztepa va Murg'ob vohalari).
40. O'rta Osiyo hududida so'nggi bronza va ilk temir davri madaniyatlarining rivojlanishi (So'g'd, Choch va Ustrushona).
41. Antik davr haqida umumiy ma'lumot.
42. Shimoliy Qora dengiz hududidagi antik davr davlatlari.
43. Kavkaz hududidagi antik davlatlar.
44. Sibir hududidagi antik davr madaniyati.
45. O'rta Osiyoda markazlashgan davlatlarning tashkil topishi (Parfiya, Marg'iyona, Xorazm).
46. O'rta Osiyoda markazlashgan davlatlarning tashkil topishi (Baqtriya, So'g'd).
47. Ilk o'rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot.
48. Ilk o'rta asrlarda ibodatxonalar, saroy va uy-joy me'morchiligi.
49. Ilk o'rta asrlarda san'atning yuksalishi.
50. O'zbekistondagi ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklar.
51. O'rta Osiyoda arablar bosqini oqibatlari.
52. Movarounnahr, Xuroson, Farg'ona IX-XII asrlarda.
53. O'rta Osiyoda mo'g'ullar bosqini oqibatlari.
54. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyatning rivojlanishi.
55. O'rta Osiyo Shayboniyilar va Ashtarxoniyilar hukmronligi ostida.
56. So'nggi o'rta asrlarda diniy me'morchilik (masjid, madrasa, xonaqoh).
57. O'zbekistondagi ilk shaharlar (Jarqo'ton misolida).
58. Ellinizm davri madaniyati shakllangan va tarqalgan hududlar.

## **“ARXELOGIYA ASOSLARI” FANIDAN MUSTAQIL ISH MAVZULARI VA ULARNI REYTINGLI BAHOLASH MEZONI**

### **MUSTAQIL TA’LIM – 28 soat**

#### **Mustaqil ta’lim shakllari:**

- ✓ Referat
- ✓ Yozma ish
- ✓ Slayd-taqdimot
- ✓ Xarita-taqdimot
- ✓ Fotoalbom
- ✓ Buklet
- ✓ Elektron materiallar, matnlar

#### **I. Mustaqil ta’lim mavzulari**

1. Arxeologianing fan sifatida rivojlanish tarixi.
2. Antropogenez jarayoni.
3. Neolit davri madaniyarlar.
4. Janubiy Turkmanistonning eneolit davri yodgorliklari.
5. O’rta Osiyo hududida ilk shahar va davlatchilik madaniyatining shakllanishi.
6. Skif va sarmat qabilalari madaniyati.
7. Antik davrda Parfiya, Marg’iyona, Xorazm, Baqtriya, So’g’dda shahar soni va hajmining o’sishi, xalqaro savdo va hunarmandchilikning rivojlanishi.
8. Yevropa va Rossiyaning o’rta asrlarga oid tarixiy yodgorliklari.

#### **II. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari**

<b>BAHOLAR</b>	<b>3 ball</b>	<b>6 ball</b>	<b>BAHOLASH MEZONLARI</b>
A’LO”	<b>2.6-3 балл</b>	<b>5.2 - 6 балл</b>	Belgilangan mavzuga oid adabiyotlardan foydalanish, mustaqil tarzda qo’shimcha adabiyotlarni qo’llash, reja tuzish, tayanch iboralarni keltirish, adabiyotlar ro‘yxatini keltirish, mavzuning mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish, mavzuni aniq, to‘liq yoritish, ijodiy fikrlash, mohiyatini tushunish, qiyosiy tahlil qilish, xulosa chiqarish, shaxsiy nuqtai nazarini bildirish, amaliy ahamiyatini aniqlash, kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish (internet), ijodiy yondashish, zarur yordamchi vositalar – xaritalar, sur’atlar, jadvalarni kiritish, mavzuni himoya qilish, notiqlik qobiliyatiga ega bo‘lish, mavzuning dolzarbligini ilmiy asoslay olish, amaliy jihatlarini ko‘rsatib berish, berilgan savollarga to‘g‘ri javob berish, xulosalarni asoslab bera olish.

<b>“YAXShI”</b>	<b>2.1-2.5 балл</b>	<b>4.3 - 5.1 балл</b>	Mavzuga oid adabiyotlardan foydalanish, mustaqil tarzda qo'shimcha ilmiy adabiyotlar ma'lumotlarini tahlil qilish, mavzuning mohiyatini, tushunish, bilish, aytib berish, adabiyotlar ro'yxatini, tayanch iboralarni keltirish, mavzuni yoritish, ijodiy yondashish, xulosa chiqarish, savollarga javob bera olish.
<b>“QONIQARLI”</b>	<b>1.6-2.0 балл</b>	<b>3.3 - 4.2 балл</b>	Beggilangan mavzuga oid adabiyotlardan foydalanish, reja tuzish, tayanch iboralarni keltirish, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini keltirish, mavzuning mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish
<b>“QONIQARSIZ”</b>	<b>0-1.5 балл</b>	<b>0 - 3.2 балл</b>	Reja yoki adabiyotlar ro'yxatini keltirmaslik, mavzuning mohiyatini tushunmaslik, bilmaslik, tushunmaslik, himoya-javob qila olmaslik, mustaqil mulohaza yuritmaslik, aytib bera olmaslik

### **“Arxeologiya asoslari” fanidan mustaqil ta'limning reyting ishlanmasi va baholash mezonlari**

“Arxeologiya asoslari” fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzularini baholashda ishchi dasturning joriy va oraliq baholash reytingi uchun ajratilgan 100 balldan 28 soat xajm uchun 30 bali belgilangan.

<b>BAHOLAR</b>	<b>I-JN: 9 ball</b>	<b>I-ON: 6 ball</b>	<b>Jami: 30 ball</b>	<b>BAHOLASH MEZONLARI</b>
“A'LO”	7.7 – 9 балл	5.2 - 6 балл	25,1-30 ball	Joriy ravishda mustaqil ish mavzularini referat, doklad, slayd-taqdimot, fotoalbom, xarita, yozma ish, buklet, loyiha, qo'shimcha adabiet o'qib aytib berish va shu kabi shakllarda ixtiyoriy ravishda tanlagan holda tayyorlab himoya qilish. Mustaqil ish mavzularini bajarish jaraenida kutubxonalar fondidan, kompyuter va axborot texnologiyalaridan (Internet) samarali foydalanish. Belgilangan mavzularga oid adabiyotlardan, mustaqil tarzda qo'shimcha ilmiy adabiyotlardan, qo'llanmalardan foydalanish, reja tuzish, tayanch iboralarni keltirish va mazmunini ochib bera olish, mavzularning mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish, aniq, to'liq yoritish, ijodiy yondashish, ijodiy fikrlash, fikrlarini asoslab berish, qiyosiy tahlil qilish, xulosa chiqarish, shaxsiy nuqtai nazarini bildirish, amaliy ahamiyatini aniqlash, zarur yerdamchi vositalar – xaritalar, sur'atlar, jadvallarni kiritish, belgilangan vaqtida himoya qilish, notiqlik qobiliyatiga ega bo'lish, savollarga javob bera olish.
“YAXShI”	6.4 – 7.6 балл	4.3 - 5.1 балл	21,1-25 ball	Joriy ravishda mustaqil ish mavzularini referat, doklad, slayd-taqdimot, fotoalbom, xarita, yozma ish, buklet, loyiha, qo'shimcha adabiet o'qib aytib berish va shu kabi shakllarda ixtiyoriy ravishda tanlagan holda tayyorlab

				himoya qilish. Mustaqil ish mavzularini bajarish jaraenida kutubxonalar fondidan, kompyuter va axborot texnologiyalaridan (Internet) foydalanish. Belgilangan mavzularga oid adabiyotlardan, mustaqil tarzda qo'shimcha ilmiy adabiyotlardan foydalanish, reja tuzish, tayanch iboralarni keltirish va mazmunini ohib bera olish, mavzularning mohiyatini tushunish, aytib berish, xulosa chiqarish, belgilangan vaqtida himoya qilish, savollarga javob bera olish.
"QONIQAR-LI"	5.0 – 6.3 балл	3.3 - 4.2 балл	16,1-25 ball	Belgilangan mavzularni ma'lum qismini bajarish, adabiyotlardan foydalanish, reja va tayanch iboralar, adabietlar ro'yxatini keltirish, mavzuning mohiyaini tushunish, bilish, aytib berish.
"QONIQAR SIZ"	0–4.9 балл	0 - 3.2 балл	0-16 ball	Joriy ravishda mustaqil ish mavzularini bajarmaslik, mavzularning mohiyatini tushunmaslik, bilmaslik, mustaqil fikrlay olmaslik.

## **TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM ISHLARINI BAHOLASH REYTINGI**

### **I –JORIY NAZORAT – 9 ball**

### **II –JORIY NAZORAT – 9 ball**

7.7 – 9 ball - “a’lo”  
 6.4 – 7.6 ball – “yaxshi”  
 5.0 – 6.3 ball – “qoniqarli”  
 0 – 4.9 ball –“qoniqarsiz”

### **I -ORALIQ NAZORAT – 6 BALL**

### **II- ORALIQ NAZORAT – 6 BALL**

5.2 – 6 ball – “a’lo”  
 4.3 – 5.1 ball – “yaxshi”  
 3.3 – 4.2 ball – “qoniqarli”  
 0 – 3.2 ball – “qoniqarsiz”

### **JAMI – 30 BALL**

25, 1-30 ball – “a’lo”  
 21,1-25 ball – “yaxshi”  
 16,1-25 ball – “qoniqarli”  
 0-16 ball – “qoniqarsiz”

### **III. Taqdimot shakllari:**

1. Individual (ma’ruza, referat himoyasi) – konferensiya shaklida;
2. Guruhlarda (“3 x 4”, “Bumerang”, “Loyiha”, “Klaster”, “Venna”, “Rezyume”, “Muammoli” va shu kabi metod va texnologiyalar yordamida);
3. Slayd-taqdimot (kompyuter, internet, Power-Point dasturida bajarilgan ishlar taqdimoti, himoyasi, muhokamasi);
4. Xarita-taqdimot (guruhlarda, vatmanda, qog’ozda ijodiy yondashgan holda mavzuni aks etish va taqdimot qilish, himoya va muhokama qilish);
5. Fotoalbum (mavzuga oid ko‘rgazmali ma’lumotlar yig‘indisi, izohlari);
6. Buklet (mavzuga oid izohli sur’atlar to‘plamining individual tarzda, o‘quv mashg‘uloti davomida taqdimoti);
7. Elektron materiallar, matnlar (masalaga oid materialarning matnli ko‘rinishining topshirilishi);
8. Ilmiy adabiyotning sharhi va tahlili (mavzuga oid ilmiy, tarixiy adabiyotlarning individual tarzda dars vaqtida izohlanishi va tahlil etilishi);
9. Internetda mavzuga oid saytlar, kutubxona kataloglarining taqdimoti (internet tarmog‘ida mavzuga oid saytlar yoki elektron kutubxonalar, kataloglarning taqdimoti).

### **IV. Mustaqil ishlarni tashkillashtirish va bajarish uchun tavsiyalar**

1. Barcha bajarilgan mustaqil ta’lim shakllarini kichik guruhrar, individual tarzda baxs-munozara, muhokama, savol-javob, diskussiya, konferensiya, shaklida ped.texnologiyalar (“Klaster”, “Bumerang”, “3 x 4”, “O‘yinli-rolli”, “Charxpalak” va b.) yordamida o‘tkazish samarali hisoblanadi.
2. Slayd-taqdimot, xarita- taqdimot shakllari himoya, muhokama, munozara, baxs tarzida o‘tkazalishi tavsiya etiladi. (individual va guruhlarda).
3. Referat,dokladlarning muhokamasi ilmiy-amaliy anjuman (konferensiya,kollokvium)tarzida o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Mavzuga oid ko‘rgazmali ma’lumotlarni,shuningdek, fotoalbum shaklida to‘plib, ko‘rgazmali mustaqil ish himoyasi tarzida o‘tkazish mumkin (individual). Fan yakunida guruhrararo “Eng mukammal referat, doklad, slayd-taqdimot, xarita-taqdimot, fotoalbum” ko‘rik-tanlovini va ko‘rgazmasini tashkillashtirish, mualliflarini rag‘batlantirish ularni o‘qishi, ijodiy faoliyatini oshiradi, bilimga intilishini oshiradi.
4. O‘qituvchi talabalarga har bir mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, qo‘llanmalar, darsliklar, qo‘srimcha adabiyotlar ro‘yxatini berishi lozim.  
Mustaqil ishlarni bajarish uchun yo‘nalish, reja, tarkibiy qismlari borasida maslahatlar berishi maqsadga muvofiqdir.
5. Talabalarning mustaqil ijodiy ishlarini bajarishda kutubxonalar, arxiv fondlari, kompyuter va axborot texnologiyalaridan (internet, Power Point, Microsoft Word dasturlari) unumli foydalanishga yo‘naltirish zarur.
6. Mustaqil ishlarni qaysi shaklda bo‘lmasisin, tarkibiy qismlarini bergan holda texnik jihatlarini e’tiborga olib bajarishga harakat qilish ya’ni, mavzuning nomi, fan nomi, institut, tahsil olayotgan fakultet, yo‘nalish, guruhi, bosqichi, ism-sharifi, qabul qiluvchi o‘qituvchining ismi

sharifi; mavzuning rejasi, tayanch iboralar; foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (yakunida); matni, qo'shimcha ma'lumot (xarita, jadval, foto-arxiv, surat) lari va xulosalar berilishi lozim.

7. Tayyorlangan mustaqil ishning hajmlari o'rtacha darajada talab etilishi lozim. Masalan, referat, doklad o'rtacha 8-10 bet; slayd-taqdimot o'rtacha 15-20 ta slayddan iborat.

8. Tadqiq etilgan mavzuning har qanday shaklini og'zaki taqdim etish, himoya qilib, mualliflar va shaxsiy fikr-xulosalarini asoslab berishda alohida e'tiborni nutqiga, harakatlariga, o'zini to'g'ri tutishga, auditoriyani qiziqtirib mavzuga jalb eta olishiga, matnni o'qib berib emas, tushuntirib, gapirib berishga, savollarni to'g'ri tushunib, aniq javob berishga, to'g'ri savol bera olishga qaratish lozim.

## V. Mustaqil ishlarni bajarish uchun adabiyotlar, internet saytlari ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T., 1998.
3. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.
4. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – T., 1997.
5. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993.
6. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.
7. Muhammadjonov A.R. Qadimgi Buxoro. – T., 1990.
8. Muhammadjonov A.R. Qadimgi Toshkent. – T., 1990.
9. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2004.
10. Eshov B.J. Qadimgi O'rta Osiyoning shaharlari tarixi. – T., 2006.
11. Eshov B.J. So'g'diyona tarixidan lavhalar (Mil. avv. VII-IV asrlar). - T., Universitet, 2002.
12. Qadimgi tarixchilar O'rta Osiyo haqida. – T., 2008.
13. Pidayev Sh. Sirli Kushonlar sultanati. – T., 1990.
14. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
15. Археология Приаралья. – Т., Фан, 1984.
16. Буддийские памятники Кара-тепе в Старом Термезе. – М., 1982. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Т., Фан, 1979.
17. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Средняя Азия в раннем железном веке. Средняя Азия в античную эпоху // Археология СССР с древнейших времен до средневековья. Отв. ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985.
18. Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра / Отв. ред. Ю.Ф. Буряков. – Т., 1990.
19. Древний Мерв // Тр. ЮТАКЭ. Т.XIX. – Ашхабад, 1989.
20. Заднепетровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – М., 1962.
21. Исамидинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандинского Согда. – Т., 2002.
22. Исамидинов М.Х., Сулайманов Р.Х. Еркурган. – Т., Фан, 1984.
23. Исамидинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. – Т., 2000.
24. Кой-Крылган-кала - памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н.э. - IV н.э. / Отв. ред. СП. Толстов, Б.И. Вайнберг. – М., 1967.
25. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.-Л., 1964.
26. На среднеазиатских трассах Великого Шелкового пути. – Т., Фан, 1990.
27. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – Т. 1989.
28. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1989.
29. Сулайманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана V в. до н.э. - VI в. н.э. – Самарканд-Ташкент, 2000.

30. Филанович М.И. Ташкент. Зарождение и развитие города и городской культуры. – Т., 1983.
31. Мартинов А.И. Археология. М., 2006.
32. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-Т.: 2011

### INTERNET SAYTLARI

1. [www.istedod.uz](http://www.istedod.uz)
2. [www.edu.ioffe.ru](http://www.edu.ioffe.ru)
3. [www.rambler.ru](http://www.rambler.ru)
4. [www.krugosvet.ru](http://www.krugosvet.ru)
5. [www.yandex.ru](http://www.yandex.ru)
6. [www.google.uz](http://www.google.uz)
7. [www.txt.uz](http://www.txt.uz)
8. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)
9. [www.zivo.net](http://www.zivo.net)
10. [www.mail.ru](http://www.mail.ru)

### GLOSSARIY (QISQACHA IZOHLI LUG'AT)

**"Avesto"** - o'rta fors tilida "Apastak"- "Asos" deb tarjima qilinadi. O'rta Osiyoning ajralmas qismi hisoblangan Turonzamin hududlarida shakllangan qadimiy din-zardushtiylikning muqaddas kitobidir. Unda o'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors, afg'on va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy tasavvurlari, koinot va yerdagi dunyoning yaratilishi bilan bog'liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-axloqiy qarashlar o'z ifodasini topgan. Fanda zardushtiylik va uning muqaddas kitobi "Avesto" paydo bo'lgan hudud Midiya deb hisoblovchi "g'arbiy" nazariya va bu ta'lomitning beshigi Baqtriya, Sug'diyona, Farg'onadan iboratdir deb tasdiqlovchi "sharqiy" nazariya mavjud. Zardushtiylikni Xorazm bilan bog'lovchi nazariyaning ilmiy adabiyotda juda ko'p tarafдорлари bor. "Avesto"da zardushtylarning muqaddas olovı - "azar-xurra" birinchi marta yoqilgan mamlakat, hamda Axuramazda Zardushtga namoyon bo'lgan mamlakat sifatida "Aryonam vayjo" eslatiladiki, "Avesto"da keltirilgan geografik- iqlimi sharoitlar ko'proq Xorazmga mos keladi. Shuningdek, "Avesto"da Axuramazda tomonidan yaratilgan mamlakatlar sanab o'tilgan. Birinchi o'rinda "Aryonam-vayjo" (Xorazm) turib, "Go'zallikda u bilan dunyoda hech narsa tenglasha olmaydi" deyiladi. Keyin "Odamlarga va chorvaga boy Gava (Sug'd)", "Qudratli va muqaddas Mouru (Marg'iyona)", "Bayroqlari baland ko'tarilgan mamlakat Bahdi (Baqtriya)" ta'riflanadi. Yuqorida ma'lumotlarga asoslanib, "Avesto" vatani Markaziy Osiyo ekanligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. "Avesto" dastlab 21 kitobdan iborat bo'lgan. Bizgacha uning ayrim qismlarigina saqlanib qolgan bo'lib, bu qadimgi qismlar Yasna, Visparat, Yasht va Videvdat deb nomланади.

**"Artefakt"** - odamlar tomonidan yaratilgan moddiy madaniyat obyektlari, ya'ni turli mehnat, ov va jangovor qurollar, sopol buyumlar, turli hunarmandchilik va zargarlik buyumlari, tangalar, uy-joy qoldiqlari, qal'a, qasr va qo'rg'onlarning harobalari, qadimiy dalalar, ariq va kanallaming izlari, mozor-qo'rg'onlar va boshqalar.

**"Arxeologiya"**-«археология»-qadimgi, «logos»-fan so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, qadimiyat haqidagi fandir. Arxeologiya tarixda kishilik jamiyatining uzoq o'tmishi bilan bog'liq moddiy madaniyat yodgorliklarini o'rganuvchi fandir.

**"Akinak"** - Miloddan avvalgi 1 ming yilliklarda qadimgi forslar va skif (sak)lar ishlatgan uzunligi 40-60 santimetr keladigan kalta temir qilich, hanjar. Qo'l jangida sanchuvchi quroq sifatida ishlatilgan.

**"Akes"** (Ak) - Turkmanistondagi Tajan daryosining antik davr tarixchilari asarlarida uchraydigan qadimgi nomi.

**“Aleksandriya”** - Aleksandar Makedonskiyning Sharqqa yurishlari oqibatida bosib olingen hududlarda barpo etilgan shaharlar. Aleksandriya nomidagi shahar Sharqning bir qancha mamlakatlarida mavjud bo’lib, ular qadimda Aleksandriya (Misrda), Aleksandriya Esxata (Chekka Aleksandriya), Aleksandriya Marg’iyona (Turkmanistonda), Oks Aleksandriysi, Aleksandriya Ariya (Eronda) deb nomlangan.

**“Aleksandriya Esxata”** - olimlarning aytishicha, Bekobod bilan Xo’jand o’rtasida - Yaksart (Sirdaryo) bo’yida Aleksandr tomonidan qurilgan shahar. Bu shahar Sirdaryoning narigi tomonidagi ko’chmanchi jangovar sak qabilalari hujumiga qarshi tayanch istehkom sifatida qisqa muddatda (17 kunda) qurib bitkaziladi. Uning devori uzunligi 60 stadiy bo’lgan. (Stadiy yunon uzunlik o’lchov birligi bo’lib, 1 stadiy - 185 metrga teng).

**“Amudaryo”** - O’zbekistonidagi eng yirik daryo bo’lib, u Vaxsh va Panj daryolarining qo’shilishidan boshlanadi. Vatanimiz hududida o’troq sug’orma dehqonchilik madaniyati va davlatchilikning paydo bo’lishida ushbu daryoning o’rni va ahamiyati juda kattadir. Amudaryo eramizdan avvalgi I ming yillikka oid yozma manbalardayoq tilga olinib, “Avesto”da Vanhv-Daiti, Yunon-Rim tarixchilarining asarlarida Oksus (Oksos) yoki Araks, Xitoy manbalarida Guy-Shuy, mahalliy turkiy manbalarda O’kuz, Balx, Vaxsh, Omul (Amul), arab manbalarida Jayxun nomi bilan eslanadi.

**“Angob”**—sopol idish sirtiga oxra(rang) yordamida berilgan pardozi.

**“Antik”** - lotin tilida «qadimgi ajoyibot» ma’nosini bildirib, tarixda qadimgi Gretsiya madaniyati an’analari asosida rivojlangan davr nomi.

**“Arik”** - qadimgi Eron oltin tangasi. Darikning paydo bo’lishini Ahamoniylar podshosi Doro I (mil.avv. 522-486) nomi bilan bog’laydilar. Bir darik (og’irligi 8,4 g) 5,6 g og’irlilikdagi 20 ta kumush tanga qiymatiga teng bo’lgan. Bu xildagi tangalarning mamlakatimiz hududidan ham topilganligi qadimdan O’rta Osiyo bilan Eron o’rtasida savdo aloqalari muvjudligini ko’rsatadi.

**“Arxantroplar”** - paleolit davrining urug’-jamoachilik bosqichiga qadar yashab o’tgan odam ajdodlari, ya’ni ularning suyak qoldiqlari.

**“Arxeologik yodgorliklar”** - uzoq o’tmishdagi odamlar faoliyatining xosilasi, ular ibtidoiy makonlar, qishloq va shahar harobalari, qoyatosh rasmlari, istehkomlar, ibodatxonalar, qadimgi sug’orish inshootlaridan iborat.

**“Ashel”** - qadimgi tosh davri (paleolit)ning shell davridan keyingi ikkinchi bosqichi. Fransiyadagi ibtidoiy manzilgoh nomidan olingen. Bu davrda sinantrop odamlari yashaganlar.

**“Avstralopitek”** - (lot. janub maymuni) - bundan 3-2 million yil oldin yashagan odamning ilk ajdodlaridan biri bo’lib, uning qoldiqlari 1924 yilda Janubiy Afrikada topilgan.

**“Axsikat”** - qadimgi shahar xarobasi. Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumanidagi Shahand qishlog’i hududida joylashgan. Axsikat shahri mil.avv. III-II asrlarda vujudga kelgan. IX-X asrlarda Farg’ona vodiysining poytaxti bo’lgan. 1219 yilda mo’g’ullar tomonidan vayron etilgan. Axsikatning eskio’rnidan 5-7 km g’arbda bunyod etilgan yangi shahar - Aksi XIV-XVII asrlarga oiddir. Axsikatni arxeologik jihatdan o’rganish ishlari XIX asr oxirlari – XX asr boshlaridan boshlangan.

**“Axuramazda”** - zardushtiylik dinining bosh xudosi, ezbilik xudosi, insonga doimo yaxshilikni ravvo ko’rvuchiligi kuch.

**“Azarxo’rro”** - muqaddas olov. Miloddan avvalgi VI-V asrlarda to islom dini tarqalgunga qadar otashparastlar o’rtasida azarxo’rroga e’tiqod juda kuchli bo’lgan. Muqaddas olov har bir mamlakat va shaharda, maxsus joylarda - otashkadalarda saqlanib, u kecha-kunduz yonib turgan. Otashkada xizmatchisi bo’lgan kohin esa atrabon deb yuritilgan.

**“Banokat”** (Sharqiya, Shohruhiya) - Sirdaryoning o’ng sohilida, Ohangaron (Iloq) daryosining Sirdaryoga qo’shilish joyidagi karvon yo’li yoqasida joylashgan qadimiy shahar xarobasi (I-XVIII a.). Tadqiqotlarga ko’ra, dastlab (I a.) uning mudofaa devorlari bo’lmay, atrofdagi daryo va jarliklar tabiiy mudofaa vazifasini bajargan. Ilk o’rta asrlar (V-VI a.)da burjli mustahkam mudofaa devori bilan o’ralgan. XII-XII asr boshlarida shahar yanada kengaygan.

Mo'gullar istilosini davrida Banokat vayron bo'lgan. 1392 yilda Amir Temur Banokatni qayta tiklab, o'g'li Shohruh sharafiga Shohruhiya deb atagan. Uzaro urushlar oqibatida XVIII asr boshlarida vayron bo'lgan.

**"Baqtra"** - qadimgi shahar. Baqtriyaning markazi, Afg'onistonidagi Vazirobod (Balx) shahri yaqinida joylashgan. Miloddan avvalgi I ming yillik o'rtalaridan ma'lum. Rivoyatlarga ko'ra, zardushtiylik tarqalgan joy, keyinchalik kushonlar sultanati davrida Markaziy Osiyoda buddizmning yirik markazlaridan biri bo'lgan.

**"Baqtriya"** - geografik hudud. qadimgi Baqtriya hozirgi Janubiy O'zbekiston (Surxondaryo), Janubiy-g'arbiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston yerlari kirgan. Baqtriyada "boxtar" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "quyosh chiqadigan o'lka" demakdir. Mazkur hudud qadimgi yunon muarixlari asarlarida Baqtriana, Baqtriya deb atalgan. Ilk o'rta asrlar davriga kelib qadimgi Baqtriya yerlarida turkiy qabila - toharlar keng yoyilishi munosabati bilan Tohariston deb yuritilgan.

**"Burj"** - qal'a devorlari tashqi burchaklariga ishlangan minorasimon qurilma.

**"Davan"** (xit. "da-yuan" – tog'lar orasidagi vodiy) – Farg'ona vodiysidagi qadimgi davlat. Mazkur davlat mil.avv. III asrdan milodiy II asrgacha hukmronlik qilgan. Mil.avv. II-I asrlardagi Xitoy manbalarida keng, obod, boy mamlakat - Davan haqida malumotlar keltiriladi. Davan shahar va voha hokimlarining erkin ittifoqidan iborat davlat edi. Ulug' hukmdor qarorgohi Gushan (hoz. O'zgan shahri deb taxmin qilinadi) bo'lgan. Davan atamasi tarixiy adabiyotlarda milodiy III asrgacha uchraydi. So'ngra Davan o'rniga "Boxan" va "Polona" (mil.V a.) atamalari uchraydi. Mil.avv. II asr oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra Davan aholisi 300 ming kishini tashkil etgan. Davanliklar savdo-sotiq ishlarida mohirliklari bilan nom chiqarishgan. Davanda yetishtiriladigan "samoviy otlar" - Sharqda mashhur bo'lgan. "Samoviy otlar" uchun miloddan avvalgi 104-101 yillarda Xitoy askarlari Davanga ikki marta yurish qilib Ershi shahrini qamal qiladilar. Xitoy-Davan urushlarida xitoyliklar muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar.

**"Davlat"** - sinfiy jamiyatda asosiy ishlab chiqarish vositalari egalarining umumiyligi manfaatlarini ta'minlovchi va uni himoya qiluvchi siyosiy tashkilotdir. Ibtidoiy jamiyatda insoniyat jamiyati urug'-qabilachilik munosabatlari, urf-odat, rasm-rusmlari kabi axloqiy me'yorlar bilan boshqarilgan bo'lsa, sinfiy jamiyatda jamiyat a'zolari davlatning (hukmron sinfning) yozma erki bo'lgan (yozib qo'yilgan) huquq-qonunlar orqali boshqariladigan bo'ldi. Demak, davlat bu jamiyatni boshqaruvchi siyosiy mexanizmdir. Davlat o'z faoliyatini davlat organlari (amaldorlar apparati, sud, qo'shin va h.k.) orqali yuritadi.

**"Daxma"** (f. - yer ostidagi sag'ana, qabr) - qabr ustiga o'rnatilgan yodgorlik; maqbara.

**"Daxyu"** - "Avesto"da qabilalar ittifoqi. Daxyu shuningdek, viloyat, mamlakat ma'nosini ham anglatgan.

**"Diadoxlar"** (yun. shasyuspoz - voris, merosxo'r) - Iskandar vafotidan so'ng hokimiyat uchun o'zaro kurashgan lashkarboshilari. Bu o'zaro kurashlar oqibatida Iskandar sultanati bir necha qismlarga bo'linib ketadi va qator ellistik davlatlar (Salavkiylar davlati, Misr, Makedoniya, Yunon-Baqtriyasi) tashkil topadi.

**"Din"** (ar. - e'tiqod, ishonch) - Illohiy kuchga, Xudoga ishonishga asoslangan dunyoqarash, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmui.

**"Dizak"** - (sug'd. - kichik qal'a) - Jizzax shahrining o'rta asr tarixiy manbalaridagi nomi. X asrda Dizak Faknon rustoqining tekislikda joylashgan shahri bo'lib, Ustrushonaning Panjikent va Zomindan keyingi uchinchi shahri bo'lgan. Dizak shimoldagi ko'chmanchi qabilalarga qarshi kurashuvchi islom g'oziylari to'planadigan yer sifatida mashhur bo'lib, ular uchun bu erda ko'plab mehmonxona va rabotlar qurilgan.

**"Derbiklar"** - massagetlar siyosiy uyushmasi (konfederatsiyasi)ga kiruvchi sak qabilasi. S.P.Tolstovning fikricha, derbiklar Amudaryoning o'rta oqimida hozirgi Chorjuy bilan Buxoro oralig'ida yashaganlar. Tarixchi Ktesiyning ma'lumotlariga ko'ra ahamoniylar shohi Kir II miloddan avvalgi 530-yilda derbiklar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan.

**«Ekofakt»** - insonlarni qurshab turgan tabiiy muhit omillari hisoblanadi. Inson yashash uchun kurashib, tabiiy muhitga moslashadi va o'z hayot tarzi uchun narsalarni mayjud tabiatdan undiradi va o'ziga xos madaniy izlarni qoldiradi.

**“Gominidlar”** - primatlar turkumiga mansub oila. Zamonaviy qiyofadagi odamlar (neoantrop) va ulardan oldin o'tgan ibtidoiy odam vakillari (arkantrop, paleoantroplar) ning fandagi umumiyligi nomi.

**“Gorelef”** - haykaltaroshlik turi. Unda odam, hayvon, manzara yoki boshqa narsalarning yarmidan ko'prog'i devor yoki qoyadan bo'rttirib ko'rsatiladi. O'zbekiston hududida gorelef larning namunalari Ayritom (I-II asrlar), Varaxsha (VIII asr) yodgorliklaridan tosh va ganchdan ishlangan raqqosa, sozanda, qush, ot va boshqa jonzotlarning lavhalari topilgan.

**“Geraldika”** - gerbshunoslik. Tanga va bitiklarda aks etgan qadimiy gerblar, nishonlar, tamg'alar va boshqa belgilarni o'rganuvchi tarix fanining yordamchi sohasi. XII-XIX asrning birinchi yarmida dvoryan, tsex va yer mulklarning gerblarini tuzish bilan geroldlar shug'ullanishgan. "Geraldika" atamasi ana shu so'zdan kelib chiqqan.

**“Hisor”** - shaharning devor bilan o'ralsan qismi (arkdan tashqari) temuriylar davrida shu nom bilan atalgan.

**“Ichan qal'a”** - Xiva xonligining poytaxti Xiva shahrining ichki qal'asi; Shahriston. Ichan qal'ada xon saroyi, aslzodalar yashaydigan maskan, maqbara, madrasa, masjidlar joylashgan. Uning umumiyligi maydoni 26 hektar. Devorining uzunligi 2200 metr. Tashqi shahardan Ichan qal'aga 4 ta darvoza (Bog'cha darvoza, Polvon darvoza, Ota darvoza, Tosh darvoza) orqali kiritilgan. 1961 yilda Ichan qal'a ansambl me'moriy yodgorlik sifatida muhofazaga olinib, muzeyga aylantirilgan. 1990 yildan Ichan qal'a Butun jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan. 1997 yilda Xiva shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan asosiy yo'nalishdagi yodgorliklar qayta ta'mirlandi.

**“Iloq”**, Eloq - tarixiy viloyat. Hozirgi Toshkent viloyatining janubi, Ohangaron daryosi havzalariga to'g'ri keladi. V asrdan mustaqil davlat sifatida ma'lum. Iloq hukmdorlari "Iloq dehqonlari" unvoni bilan yuritilib, katta iqtisodiy va siyosiy mavqega ega bo'lishgan. VI-VII asrlarda Chochga qo'shilgan. Iloq nomi XIV asrdan manbalarda uchramaydi. Iloqning poytaxti Tunkat shahri bo'lган.

**“Imperiya”** - qadimda va o'rta asrlarda, shuningdek, XX asr boshlarigacha monarxiya davlatlarining nomi. Imperiyaning boshlig'i imperator hisoblanadi. Imperator avvalo, keng ko'lamda o'zining tarkibiga (bosib olish yo'li bilan) boshqa davlat va xalqlarning hududlarini kiritgan; ayrim imperiyalarning tarkibida bir nechta qirolliklar bo'lган. Tarixda Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) davlati (mil.avv. 334-323), Rim davlati (mil.avv. 14-milodiy 476 yillar), Vizantiya (395-1453), Franklar davlati (800-843), German davlatlarining "Muqaddas Rim imperiyasi" (962-1806), Usmoniyalar davlati (1299-1923) va Yevropaning qator katta-kichik davlatlari imperiya deb yuritilgan. Rossiyada imperiya Pyotr I davridan (1721 yildan) to monarxiya qulagunigacha (1917 yil oktyabr) mavjud bo'lган. Imperiya davlati ko'pincha mustamlaka qilingan xududlardan tashkil topadi va yangi yerlarni bosib olish hisobiga kengayib boradi.

**“Islimi”** - o'simliksimon naqsh.

**“Itil”** - Volga daryosining qadimgi va o'rta asrlardagi nomi.

**“Jayxun”** (f. "jay" - hovuz, suv ombori, sug'orish kanali, "xun" - qon, qizil) - qizil daryo, yoki qizil suv. Amudaryoning o'rta asrlardagi nomi. Ba'zi tadqiqotchilar bu so'zni Tavrotdag'i Gixon daryosi nomining arabcha izohlanishidir, deb hisoblasalar boshqalari forscha "justan" ("izlanmoq") va "xun" ("qon") so'zlaridan kelib chiqib, "qon izlovchi" daryo tarzida ham talqin qiladilar. Jayxunning qadimiy nomi Okuz (turkiycha; katta daryo) qadimgi yunonlar uni buzib Oksus (Oks) deb ataganlar.

**“Juvoz”** (f. - o'g'ir) - moyli o'simliklar urug'idan (masalan, chigitdan) moy chiqaradigan dastgoh, moyjuvoz. Juvoz qanday o'simlik urug'idan moy ishlab chiqarishiga ko'ra bir necha xil

bo'ladi, chunonchi, moy juvoz, sholi oqlanadigan - objuvoz, qog'oz juvoz va h.k. Juvozlar, odatda ot, ho'kiz, tuya yoki suv kuchi bilan yuritilgan.

**“Juvozxona”** - o'simliklardan yog' olish ustaxonasi (moyjuvoz).

**“Kertma texnika”** - chaqmoq tosh xom ashyosi parchasigatosh bolg'a (otboynik) yordamida har tomonlama ishlov berish, engil zarba berish yordamida uchirish usuli.

**“Ko'hna Urganch”** - hozirda Turkmanistonning Toshhovuz viloyatidagi shahar. Toshhovuz shahridan 105 km shimoliy-garbda joylashgan. Asl nomi Gurganj, arab geograflari asarlarida Jurjoniya deb tilga olinadi. Mil.avv. I asr Xitoy manbalarida Yue-Gan yoki Yue-Tszyan shaklida qayd qilingan. Ko'hna Urganch X-XIV asrlarda Xorazm davlatining poytaxti bo'lib, Xorazm va Movarounnahrda eng katta shaharlardan biri bo'lgan. XV-XVI asrlarda Amudaryo suv rejimining o'zgarishi munosabati bilan shaharning madaniy va iqtisodiy rivojlanishida bir oz turg'unlik ro'y beradi. 1646 yilda Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon (1643-1664) hozirgi Urganch shahriga asos soladi. Shundan keyin qadimgi shaharning nomi Ko'hna Urganch bo'lib qoladi.

**“Ko'shk”** - to'rt ustunli, tomi qubbali, asosan, yog'ochdan qurilgan yengil inshoot. Kelib chiqishi jihatdan oddiy o'tovga borib taqaladi. Dastlab ko'chmanchilar ko'chib yurish uchun qulay bo'lishi uchun uy (ko'chik)lar qurishgan. Arava ustiga o'rnatilgan ko'shklar ham bo'lgan. Keyinchalik ko'shklar badavlat kishilar, hukmdorlar uchun bezakdor qilib, bog'lar ichida qurilgan. Ko'shk Sharq mamlakatlaridan g'arbga "kiosk" shaklida kirib kelgan.

**“Kenotaf”** - murda qo'yilmagan bo'sh qabr. Qadimda o'lklarni dafn etish mumkin bo'lмаган (bedarak yo'qolgan, musofirlikda vafot etgan va hakozo.) hollarda ramziy qabr sifatida marhumning buyumlari ko'mib qo'yilgan.

**“Kent”** (sug'd. - uy, xonodon) - ilk o'rta asrlarda Turonzaminda joy nomi. Sug'd yozuvi va arab geograflari asarlarida kat, kas, kand, "Devonu lug'otit turk"da kend, ken shaklida keltirilgan bo'lib, dastlab bir yoki bir necha oilalar yashaydigan atrofi devor bilan o'ralgan hovlini anglatgan. Oila yoki jamoa boshlig'i esa, kadxudo deb atalgan. Keyinchalik kent joy nomlarining tarkibiy qismiga aylangan (Masalan: Toshkent, Piskent, Vobkent, Chimkent va boshqalar).

**“Ko'xak”** - Zarafshon daryosining o'rta asrlardagi nomi.

**“Madaniy qatlam”** - insonlarning xo'jalik faoliyati izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami. Madaniy qatlamlar ma'lum bir joyda odamlarning qancha vaqt yashaganligi bilan bog'liq xolda bitta yoki bir nechta va qalinligi ham bir necha santimetrdan 30—35 metrgacha bo'lishi mumkin.

**“Madaniyat”** - ko'p qirrali va chuqur mazmunga ega tushuncha bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritgan barcha moddiy va ma'naviy yutuqlarining majmuasidir. Moddiy madaniyat deganda insonlarning faoliyati tufayli yaratilgan "ikkinchi tabiat", ya'ni ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va hayot uchun xizmat qiladigan barcha boyliklar nazarda tutiladi. Ma'naviy madaniyatning qamrovi behad keng bo'lib, u ijtimoiy ongning barcha shakllarini, ya'ni falsafiy, ilmiy, huquqiy, ahloqiy, estetik, diniy qarashlar, maorif, ta'lif-tarbiya, maktab, san'at, xalq ma'naviy ijodiyotining barcha turlarini qamrab oladi. Moddiy va ma'naviy madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi.

**“Mag'ok”** - «yashirincha» degan ma'noni anglatadi, ya'ni binolarning yarmisi yer ostida qurilganligini anglatadi. Buxorodagi Mag'oki Attori va Mag'oki Ko'rpa binolari qisman yer ostida qurilgan.

**“Maqbara”** (ar. marqad, turbat) - qabr ustiga qurilgan yodgorlik binosi, mavzoley. Marqad, turbat deb ham yuritiladi. O'rta Osiyodagi majusiylar (otashparastlar), buddaviylar, nasroniyalar qabrlariga qurilgan arxitektura yodgorliklari oddiy ko'rinishga ega. Lekin islom dini ta'sirida vujudga kelgan maqbaralar hashamatli, murakkab imoratlar sifatida taraqqiy etgan. Islomda qabr ustiga yodgorlik qo'yish, unga sig'inish man etilgan bo'lsa ham, IX asrдан boshlab maqbaralar qurish odat tusini olgan. Keyingi asrlarda, asosan, podshohlar, mashhur islom dini

ulamolari, shayhlari qabrlari ustiga turli maqbaralar qurildi. Dastlab, maqbaralar oddiy ko'rinishga ega bo'lган bo'lsa, yillar o'tishi bilan maqbaralar tobora katta va ko'r kam, hashamatli qilib barpo etila boshlanganki, Ismoil Somoniy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Shohi Zinda, Tojmahal kabi ulug'vor maqbaralar me'morchilik san'atining yuksak namunalaridir. Ular bugungi kunda xalq ustalari, me'morlari yaratgan noyob arxitektura durdonalaridir.

**"Matriarxat"** - ona urug'i davri. Urug'chilik tuzumining birinchi bosqichi. Matriarxat davri paleolit davrining so'nggi bosqichida paydo bo'lib, u neolit va eneolit davrigacha davom etgan.

**"Mikrolitlar"** - mayda tosh qurollari. Mikrolit tosh kurollari (o'q yoy uchlari, mayda mehnat qurollari, bigizlar va h.k.) mezolit davrida paydo bo'lган.

**"Miyonqol"**, Miyonkol - O'zbekistondagi Oqdaryo va Qoradaryo oralig'idagi joy. Qadimda Samarqand Sug'di, Nim Sug'd (yarim Sug'd), Sug'di Xurd (kichik Sug'd) nomlari bilan mashhur bo'lган. Miyonqol dehqonchilik uchun qulay bo'lib, Xatirchi, Payshanba, Qal'ai Dabus va boshqa shahar va qishloqlarni o'z ichiga olgan. Keyinchalik Zarafshon vodiysining Samarqand bilan Xatirchi oralig'idagi yerlari Miyonqol deb atalgan.

**"Monarxiya"** (yakka hokimlik) - davlat boshqaruв shakli. Bunda davlat boshlig'i monarx hisoblanadi. Monarxiyaning ikki shakli farqlanadi: mutlaq (absolyut) monarxiya, bunda monarxning to'la hokimiyatini cheklaydigan biron bir davlat organi bo'lmaydi; konstitutsiyaviy (cheklangan) monarxiya, bunda monarx hokimiysi konstitutsiya asosida amal qiladigan muayyan vakolatli organ bilan cheklangan bo'ladi. Davlat boshqaruving monarxiya shakli mamlakatda demokratiya tartiboti yo'qligini bildirmaydi. Monarxiya davlatlarida qonunchilik va ijtimoiy adolatning ta'minlanganligi respublika boshqaruvidagi davlatlardan ham ustun bo'lishi mumkin.

**"Monoteizm"** - yakka xudolik dini. Faqat bitta xudoga sig'inuvchi, biringa xudoni e'tirof etuvchi e'tiqod shakli. Ko'p xudolik (politeizm) ning aksi. Zardushtiylik, Xristianlik, Islom dinlari monoateistik dinlar hisoblanadi.

**"Morenalar"** - muzlikning siljishi jarayonida vujudga kelgan muzlik yotqiziqlari bo'lib, uning tarkibi gil, qum qatlamlari, harsang tosh va shag'allardan iborat bo'lган.

**"Morpech"** - o'ralib chiqqan bo'rtma shakl

**"Muqaddas kitoblar"**, ilohiy kitoblar - muayyan dinda muqaddas va ilohiy hisoblanadigan kitoblar. Buddizmda Tripitaka, Hinduizmda Vedalar va Upanishadlar, xristianlikda Bibliya, yahudiylikda Tavrot, islomda Kur'oni karim shunday kitoblar hisoblanadi.

**"Melioratsiya"** - yerlarning zaxini qochirish, sho'rланishdan asrash, botqoqliklarni quritish, suv ta'minotini yaxshilash, ko'chma qumlarni ekin maydonlariga kirib kelishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi.

**"Metodologiya"** - insonning amaliy va nazariy faoliyatini to'g'ri uyuştirish va tuzish to'g'risidagi ta'lilot. Boshqacha qilib aytganda 1) ilmiy bilish metodlari va usullari to'g'risidagi ta'lilot; 2) inson faoliyatining biron bir sohasiga qo'llaniladigan metod, usullar majmuasi.

**"Mezana"** - minoraning yuqori qismi, muazzin azon aytadigan joy. Biror bino (peshtoq, darvozaxona) ustiga qurilishi mumkin. Mezana aylana shaklida va ko'p qirrali bo'ladi. Ko'pincha ravoqsimon darchalar qatoridan iborat. Mezananing tepasi gumbazcha (qubba) bilan yopiladi. Ba'zan ochiq ham bo'lishi mumkin.

**"Mezolit"** - o'rta tosh davri. Muzliklarning chekinishidan mezolit davri boshlanib, u 12-7 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Mezolit davriga kelib, yer iqlimi isiy boshlagan. Bu davr yodgorliklari Respublikamizda yuzdan ortiq bo'lib, ulardan eng yaxshi o'rganilganlari Obishir (Farg'ona), Qo'shilish (Toshkent viloyati), Machay va Zarautsoy (Surxondaryo) yodgorliklaridir.

**"Nasaf"**, Naxshab - Qarshi vohasida, Qashqadaryoning quyi oqimi bo'ylarida joylashgan o'rta asr shahri va viloyati nomi. Qarshi shahridan 8 km shimoliy- g'arbdagi Shulluktepa shahar xarobasi o'rnida bo'lган. VII-VIII asrlarda Nasaf mahalliy hokimlari mis tangalar (fals) zarb qildira boshlaganlar. Arablar istilosidan so'ng Nasaf viloyatning ma'muriy markazi bo'lib, bu

davrda mudofaa devorlari bilan o'ralgan mustahkam shaharga aylangan. XIV asrda Nasaf Qarshi nomini olgan.

**"Nasta'liq xati"** - XIV asrda shakllangan arab mumtoz xati uslublaridan biri bo'lib, XV asrda O'rta Osiyo hududlariga ham keng tarqaladi. Nasx va ta'liq xatlari asosida yaratilganligi uchun shunday nomlangan. Nasta'liq xatida yozilgan yozuvlarning 5/6 qismi egri, 1/6 qismi esa, to'g'ri chiziqlar asosida yoziladi.

**"Nishopur"** - Mashhaddan g'arbda, shimoliy-sharqiy Eronning yirik shaharlaridan biri. Tohiriyalar davlatining (821-873) poytaxti, shuningdek IX-XIII asrning birinchi choragida Xurosonning markaziy shahri. Uch marta 1153 yili ko'chmanchi o'g'uzlar, 1221 yili mo'g'ullar talofati va 1250 yilgi qattiq zilzila oqibatida tamoman vayron bo'lgan. Yangi Nishopur eski Nishopurning g'arbiy tarafida barpo qilingan.

**"Nmana"** - "Avesto" da katta patriarxal oila jamoasi.

**"Nous"** - zardushtiylik dinida ostodonlar saqlanadigan maxsus bino.

**"Nukleus"** - tosh o'zagi, u turli texnik usulrror asosida tosh payraxalarning olinishi natijasida hosil bo'ladi ular disksimon, prizmatik, qalamsimon tuzilishda bolgan.

**"Numizmatika"** - tangashunoslik fani. Qadimiy tangalardagi belgi-rasmlar, tasvirlar, tamg'alar va yozuvlar orqali ijtimoiy-siyosiy tarixning ayrim jihatlarini o'rganuvchi tarixning yordamchi fan sohasi. Numizmat - tanga va nishonlarni yig'uvchi numizmatika fanining mutaxassisi.

**"Neolit"** - yangi tosh davri. Miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Neolit davriga kelib insoniyat dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, to'qimachilik va boshqa hunarmandchilik sohalarini o'rgandi. Insoniyat tarixida ishlab chiqaruvchi xo'jalik tarixi boshlandi. Bu davrda O'rta Osiyoning janubiy mintaqalarida ilk dehqonchilik madaniyati (Joytun madaniyati), shimoliy mintaqalarida esa, ovchi baliqchilar madaniyati (Kaltaminor) shakllandi.

**"Neontroplar"** - yangi odamlar. Zamonaviy qiyofadagi Kromanon odamlari fan tilida shunday yuritiladi.

**"O'roq randa"** - chaqmoqtosh plastinkasidan yasalgan qurol, tig'i keng yoysimon qilib ishlangan. Undan daraxt po'stini shilish va randalash quroli sifatida foydalanishgan.

**"Objuvoz"** (f. - "ob" - suv, "juvoz" – yog'och, yoki tosh o'g'ir) -sholining po'stini olib, uni guruchga aylantiradigan suv kuchi bilan harakatlanadigan qurilma.

**"Ostadon"**, assuariy - zardushtiyarning dafn marosimiga tegishli odam suyaklari saqlanadigan sopol idish, sandiqcha.

**"Paleoantrop"** - qadimgi davr odamlari. Paleoantroplar asosan o'rta paleolit davrida (100-40 ming y.y.) yashaganlar. Neandertal odamlari paleoantroplar deb ham yuritiladi.

**"Petroglif"** - urib-o'yib, chizish usuli bilan ishlangan qoya tosh rasmlari.

**"Piktografiya"** - rasmlı yozuv turi.

**"Plyuvia davri"** - lotincha so'zdan olingan bo'lib «plyuvia»- yomg'ir degan ma'noni beradi. Ashel davri oxirida tropik o'lkalarda boshlangan yomg'irlar davri.

**"Qir"** - ohaq, qamish kuli va qipig'idan tayyorlangan maxsus suv o'tkazmaydigan qorishma.

**"Qol cho'qmori"** - ilk paleolit davri mehnat quroli bo'lib, yassi tuxumsimon, bodamsimon, nayzasimon qilib ishlanib, uchi uchli qarama-qarshi tomoni esa, yo'g'onroq tuxumsimon bolgan.

**"Rabot"** (ar. - musofirxona, karvonsaroy) – O'rta asrlarda arablarning mustahkamlangan qarorgohi. Tuzilishi to'rtburchak shaklida, devorlarida minoralari bo'lgan. Dastlab islom dini tarqala boshlagan davrda g'oziylargacha mo'ljallab qurilgan maxsus bino. O'rta Osiyoda VIII-X asrlarda ko'chmanchi aholi yashaydigan hududlar chegarasida ko'plab rabotlar qurilgan. Ularning eng mashhuri Raboti Malikdir. Keyinchalik rabot faqat qo'rg'on, istehkom ma'nosidagina emas, balki mehmonxona (karvonsaroy) mazmunida ham tushunilgan. Zohidlar ham maxsus rabotlarda yashaganlar. Rabotlar XI-XII asrlarda O'rta Osiyo shaharlarining

mustahkam qismiga aylangan. XIII asr boshlarida mo'g'ullar istilosi natijasida ko'plab shaharlarning arki va shahristoni xarobaga aylangan bo'lsa-da, rabotlarda hayot davom etgan.

**"Rasadxona"** - observatoriya - astronomik, geofizik, meteorologik va boshqa tadqiqotlar uchun maxsus jihozlangan ilmiy muassasa va shu muassasa joylashgan bino. O'rta asrlarda sharqda ko'plab rasadxonalar qurilgan bo'lib, ulardan eng mashhuri Mirzo Ulugbek tomonidan Samarqandda buniyod etilgan rasadxona edi. Ushbu rasadxona xalq orasida "Naqshi jahon" nomi bilan ham ma'lum.

**"Ravoq"** (ar. - peshtoq, peshayvon; yopiq yo'lak, bezakdor chodir) - tokning bir turi; bino devorlaridagi deraza va eshik o'rinalarining yuqori qismiga qo'yiladigan mehrobiy yoysimon qurilma.

**"Retush"** - mayda tosh qurollarni ishchi qismini yashash uslubi.

**"Riton"** - diniy va dunyoviy marosimlarda qo'llaniladigan may qadahi.

**"Rixtagarlik"** (f.-toj. - metall eritmoq) - hunarmandchilikning qadimiyligi turlaridan biri. Rangli metall (asosan, mis, bronza, qalay)dan turli buyumlar quyish kasbi. Arxeologlar tomonidan Uzbekiston hududida mil.avv. 3 ming yillikka oid bronza bolta quyiladigan tosh qoliplari topilgan. Mo'g'ullar istilosi O'rta Osiyoda rixtagarlikning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. XIV asrdan metall konlarining qayta ishga solinishi munosabati bilan bu kasb yana taraqqiy eta boshlaydi. 1399 yil Amir Temuring buyrug'i bilan Ahmad Yassaviy maqbarasi uchun Abdulaziz ibn Sharafiddin tomonidan bronzadan quyilgan "nazr-niyoz qozoni" rixtagarlikning eng noyob namunasidir.

**"Registon"** (f. mayda tosh to'shalgan joy) - O'rta Sharq mamlakatlari shaharlardagi markaziy maydon. Turli maqsadlarda odamlar to'planadigan joy bo'lgan registon ko'p hollarda shahar yoki hokimlar saroylari yonida barpo etilgan hamda ular ma'muriy siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan. Yog'ingarchilik paytida botqoqlikka aylanishdan saqlash maqsadida qum toshlar yotqizilgan. Shu xususiyati bilan boshqa ochiq joylardan farq qilgan. Keyinchalik davrlar o'tishi bilan Registon atrofida mahobatli jamoat binolari qurilgan, hovuz, daraxtlar bilan obodonlashtirilib hashamatli ko'rinish olgan.

**"Renessans"** (fr. uyg'onish) - aynan qadimiyligi mumtoz yunon madaniyati, fani, falsafasining tiklanishi. Antik (qadimgi) davrga xos hayotni his etishga yaqin, lekin o'rta asrlardagi kabi moddiylikni gunoh deb hisoblab undan voz kechishni ham inkor etilishi. Yangicha hissiyotlarning, hayot nashidasini sezishning paydo bo'lishi demakdir. Sharq renessansi va g'arb renessansi mavjud. Sharq renessansi IX-XII va XIV-XV asrlarni o'z ichiga olsa, G'arb renessansi XIII asrdan boshlanadi. G'arb renessansi ko'pincha uyg'onish davri deb ham yuritilib, uning ilk kurtaklari Italiyada paydo bo'lgan. Tomazzo Kompanelli, Franchesko Petrarka (1304-1374), Jovanni Bokacholar (1313-1375) uyg'onish davri madaniyatining asoschilarini edilar.

**"Sag'ana"**, sog'ona (f.) - O'rta Osiyo xalqlarida Marxumlarni dafn etish bilan bog'liq dafn inshooti; 1) yer osti suvlari yer betiga yaqin, toshloq joylarda yer ustiga pishiq g'isht yoki toshdan ishlangan, shakli beshikka o'xhash, ichiga jasad qo'yilgan qabr; 2) qabr ustiga o'rnatiladigan yodgorlik turi. Sag'analar pishiq g'ishtdan, toshdan, qora yoki kulrang marmardan ishlanib, ba'zan usti sirkori koshin, o'yma naqshlar bilan bezatilgan.

**"Sardoba"** - (f.-toj. - sard - sovuq, va ob - suv) - quduq yoki hovuz ustiga pishgan g'ishtdan baland qilib, gumbazsimon shaklda qurilgan inshoot bo'lib, unga zinalar orqali tushilgan. Sardoba ichida havo aylanishi yaxshi bo'lgani uchun jazirama issiqda ham uning ichi salqin, suvi esa nihoyatda muzdek bo'lgan. Sardobalar asosan karvon yo'llari yoqasida qurilgan.

**"Savromatlar"** - skiflarga qardosh bo'lgan chorvador ko'chmanchi qabilalar. Mil.avv. VII-IV asrlarda Volgabo'yni va Uralbo'yni cho'llarida yashaganlar. Savromatlar boshqa qabilalar bilan aralashishi natijasida sarmatlar deb atala boshlangan.

**"Sfragistika"** (yun. muhr) - qadimiyligi muhrlar (podsho, xonlar, amirlar va qozilarning muhrlari) va ularda aks etgan belgilarni o'rganuvchi fan.

**“Sharafa”** - binoning devori, ustuni yuqori qismida, shiftiga ganchdan quyib yoki o’yib ishlangan naqshlar.

**“Shurf”** - nemischa so’z boiib, o’zbek tilida «qaziyman» degan ma’noni bildiradi. Shurf solish deganda yodgorliklardi dastlabki qazish ishlari tushunilib, madaniy qatlamni aniqlash va yodgorliklar haqida dastlabki maiumotlarni olishdir.

**“Stupa”**- sanskrit so’zidan olingen bo’lib, er yoki tosh uyumi degan ma’noni beradi. U buddizmning diniy inshooti bo’lib, unda muqaddas buyumlari va qabr toshi saqlangan. Mil. I asrdan uning yarim aylana shakldagilari keng tarqalgan.

**“Sug’d yozuvi”** - qadimgi Sug’diyona aholisi tomonidan yaratilgan yozuv bo’lib, u oromiy alifbosi asosida miloddan avvalgi III-II asrlarda paydo bo’lgan. Milodiy I-IV asrlardan boshlab, sug’d yozuvlari Sug’d hududlaridan tashqari, Farg’ona vodisida, Toshkent vohasida va Yettisuvda keng tarqalgan. Bu jarayon Sug’diyarning yangi yerlarni o’zlashtirish faoliyati va savdogarlarning Buyuk Ipak yo’lidagi harakatlari bilan bog’liq. Shuning uchun ham sug’d tilidagi yozma yodgorliklar Markaziy Osiyo, Qozog’iston, Sharqiy Turkiston, Pokiston va Mo’g’uliston hududlaridan topilgan. Eramiz boshlaridan to XI asrning birinchi choragiga qadar yozilgan ko’plab noyob yozma yodgorliklar sug’d yozuvi orqali bizga etib kelgan. Sug’d yozuvi qadimgi uyg’ur, mo’g’ul, manjur va qadimgi turk yozuvlarining paydo bo’lishiga asos bo’ldi. Arablar istilosini natijasida O’rta Osiyoga arab tili va yozuvining kirib kelishi sug’d tili va yozuvini asta-sekin muomaladan chiqardi. Hozirda sug’d tili o’lik tilga aylangan bo’lsada, o’zbek tilida qadimgi Sug’dcha so’z va iboralar saqlanib qolgan.

**“Supa”** (ar. — tosh o’rindiq, tokcha; ayvon, shiypon) - O’rta Osiyo me’morchiligidagi binolar bilan o’ralgan hovli o’rtasiga yoki chetiga (bino devoriga tutashtirilib) ishlangan sahn. Hovli yuzasidan baland, usti ochiq yoki yopiq ayvonga o’xhash bo’ladi. Supa bog’ning sermanzara, soya-salqin joyida, daraxtzor tagida, hovuz yoki ariq yonida yarim doira, dumaloq yoki to’rburchak shaklida, loydan, g’ishtdan, tog’li joylarda esa, toshdan quriladi. Supadan yozda dam olib, o’tirish uchun foydalanimadi.

**“Seyiston”**, Sakiston - Eronning Afg’oniston bilan chegaradosh sharqiy viloyati. Miloddan avvalgi II asrda ko’chmanchi sak qabilalari shimoldan Xerirud va Gilmand daryolari oralig’idagi viloyatlarga kelib joylashishgan va shundan boshlab bu hududlar Sakiston (Seyiston) deb yuritiladigan bo’lgan.

**“Tanais”** - 1) Miloddan avvalgi III asr - milodiy V asrlarda Don daryosining quyi oqimida Bospor podsholigi tarkibida bo’lgan antik shahar; 2) yunon tarixchilari Don va ba’zan Sirdaryoni shu nom bilan ataganlar

**“Tigel”** - metall eritiladigan maxsus sopol qozon.

**“Tosh bolg’alar”** (otboyniklar) - og’irligi 0,5 kg dan kam bolmagan qayroqtoshdan yasalgan quro.

**“Teologiya”** - xudoning mohiyati va irodasi haqidagi diniy ta’limotlar majmui. Xudo shaxsan o’zini vahiy orqali kishilarga ma’lum qiladi, degan konsepsiya asoslanadi. Muqaddas kitoblar va muqaddaslashtirilgan yozuvlar teologianing asosiy manbalari hisoblanadi. Teologiya islomda ilohiyot, kalom atamalari bilan izohlanadi.

**“Terrakota”** (it. pishirilgan yer) - pishirilgan sof loydan yasalgan badiiy san’at buyumlari, sopol haykalchalar.

**“Ustrushona”** - Sug’dning sharqiy tomonida joylashgan ilk o’rta asrlardagi tarixiy viloyat. Ushbu viloyatning g’arbiy qismini Uzbekistonning Jizzax va Sirdaryo viloyatlari tashkil etadi. Uning sharqiy qismi esa, Tojikistonning Sug’d viloyati hududlariga to’g’ri keladi. Ilk o’rta asrlarda Ustrushona viloyati 18 ta tuman (rustak)dan tashkil topgan bo’lib, ular tepasida turgan hukmdorlar afshinlar deb atalgan. Dastlab Ustrushona nomi ilk o’rta asr Xitoy manbalarida uchraydi. Bunga ko’ra Ustrushona IV-V asrlardayoq mustaqil hokimlik sifatida tilga olinadi. Arab geograflarining xabarlariga qaraganda, Ustrushonaning bosh shahri Bunjikat (hozirgi Shahriston) bo’lgan. Ustrushona dastlab eftaliylar, so’ngra VI asrning ikkinchi yarmidan Turk hoqonligi tasarrufiga kiritilgan.

**“Xonaqo”** - fors tilidan olingan bo’lib, «xane»-»uy», «ga»-»o’rin» degan ma’nolarni beradi. Xonaqo musulmon dunyosiga xos bino hisoblanadi. U masjid, madrasalar yonida gumbazsimon tarzda qurilgan. Xonaqo tashqaridan kelgan mehmonlar yashashiga mo’ljallangan. U erda ko’pincha so’filar va darveshlar istiqomat qilishgan.

**“Yorma texnika usuli”** - ilk paleolit davrida ixtiro qilingan tosh qurollarni ishslash uslubi. Bunda qurol yasaladigan chaqmoqtoshning bosh tomoni ustalik bilan urib tekis maydoncha hosil qilinadi. Shu maydoncha orqali toshning mayda payraxalari olinib quronga shakl beriladi.

**“Zinjantrop”** (Zinj - Sharqiy Afrikadagi qishloq) - "ishbilarmon odam", u odamzotning ilk ajdodlaridan bo’lib, uning suyak qoldiqlari 1959 yili arxeolog Lui Liki tomonidan Sharqiy Afrikadagi Tanzaniyaning Olduvoy dasasidan topilgan. Odamzotning kelib chiqishi shajarasida zinjantroplar, avstralopiteklar bilan pitekantroplar orasini to’ldiruvchi bo’g’in deb xisoblanadi. Zinjantroplar bundan taxminan 2 mln. yil ilgari yashagan deb taxmin qilinadi.

### **ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. Kabirov J., Sagdullayev A. O’rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 1990.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. – T., 1998.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
4. Sagdullayev A. Qadimgi O’rta Osiyo tarixi. – T., 2004.
5. Авдусин Д.А. Основы археологии. – М., 1989.
6. Авдусин Д.А. Полевая археология СССР. 2-е изд. – М., 1980.
7. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. Что такое археология. – М., 1966.
8. Мартынов А.И. Археология СССР. – М., 1973.
9. Мартынов А.И., Чер Я.А. Методика археологического исследования. – Л., 1989.
10. Методика полевых археологических исследований. – М., Наука, 1983.
11. Мартинов А.И. Археология. М., 2006.
12. N.A.Egamberdiyeva. Arxeologiya.-T.: 2011

### **QO’SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

1. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 1999.
2. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – T., 1997.
3. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. – T., 1990.
4. Buryakov Yu.F. Toshkent vohasining qadimgi karvon yo’llari. – T., Fan, 1978.
5. Eshov B.J. Qadimgi O’rta Osiyoning shaharlari tarixi. – T., 2006.
6. Eshov B.J. So’g’diyona tarixidan lavhalar (Mil. avv. VII-IV asrlar). – T., Universitet, 2002.
7. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T., 1993.
8. Jo’raqulov M., Isomiddinov M. O’rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 1999.
9. Muhammadjonov A.R. Qadimgi Buxoro. – T., 1990.
10. Muhammadjonov A.R. Qadimgi Toshkent. – T., 1990.
11. O’zbekiston tarixi. – T., 1997.
12. Pidayev Sh. Sirli Kushonlar sultanati. – T., 1990.
13. Qadimgi tarixchilar O’rta Osiyo haqida. – T., 2008.
14. Shahrisabz. Ming yillar merosi. – T., 2002.
15. Temur va temuriylar sultanati. – T., 1994.
16. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Т., 1975.
17. Амальрик А.С., Монгайт А.Л. В поисках исчезнувших цивилизаций. М., Наука,

1966.

18. Аннаев Т.Д. Раннесредневековые поселения Северного Тохаристана. – Т., Фан, 1988.
19. Археологи рассказывают. Таджикгосиздат. – Сталинабад, 1959.
20. Археология Приаралья. – Т., Фан, 1984.
21. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Т., 1977.
22. Аскаров А. Сапаллитепа. – Т., 1975.
23. Аскаров А., Абдуллаев Б. Джаркутан. – Т., 1983.
24. Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы Средней Азии. – Самарканд, 1993.
25. Афрасиаб. Вып. 1. – Т., Фан, 1969.
26. Афрасиаб. Вып. 2. – Т., Фан, 1974.
27. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Б. Средневековый город Средней Азии. – Л., 1973.
28. Буддийские памятники Кара-тепе в Старом Термезе. – М., 1982.
29. Булатов М. Мавзолей Саманидов - жемчужина архитектуры Средней Азии. – Т., 1978.
30. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Т., Фан, 1979.
31. Виноградов Л.В. Неолитические памятники Хорезма. – М., 1968.
32. Воробьёва М.Г. Дингильдже – усадьба середины I тысячелетия до н.э. в древнем Хорезме. – М., Наука, 1973.
33. Григорьев Г.П. Начало верхнего палеолита и происхождение Хомо Сapiens. – Л., 1968.
34. Джохансон Д., Иди М. Люси. Истоки рода человеческого. – М., Мир, 1984.
35. Древнейшие государства Кавказа и Средней Азии. Средняя Азия в раннем железном веке. Средняя Азия в античную эпоху // Археология СССР с древнейших времен до средневековья. Отв. ред. Г.А. Кошеленко. – М., 1985.
36. Древние цивилизации. – М., Мысль, 1989.
37. Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра / Отв. ред. Ю.Ф. Буряков. – Т., 1990.
38. Древний Мерв // Тр. ЮТАКЭ. Т.XIX. – Ашхабад, 1989.
39. Древняя и средневековая культура Чача. – Т., 1979.
40. Живопись древнего Панджикента / Отв. ред. А.Ю. Якубов-ский и М.М. Дьяконов. – М., 1954.
41. Заднепетровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – М., 1962.
42. Исаков А.И. Саразм. – Душанбе, 1991.
43. Исамидинов М.Х. Истоки городской культуры Самарканского Согда. – Т., 2002.
44. Исамидинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган. – Т., Фан, 1984.
45. Исамидинов М.Х., Хасанов М.Х. История древнего и средневекового керамического производства Нахшаба. – Т., 2000.
46. Исламов У.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Т., 1986.
47. Исламов У.И. Обиширская культура. – Т., 1980.
48. Исламов У.И. Пещера Мачай. – Т., 1975.
49. Кабанов С.К. В оазисах и степях Кеша и Нахшеба. – Т., Узбекистан, 1988.
50. Кабанов С.К. Культура сельских поселений Южного Согда III-VI вв. – Т., 1981.
51. Каменный век на территории СССР. – М., Наука, 1970.
52. Кара-тепе – Буддийский пещерный монастырь в Старом Термезе. – М., 1964.
53. Кой-Крылган-кала - памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н.э. - IV н.э. /

- Отв. ред. СП. Толстов, Б.И. Вайнберг. – М., 1967.
54. Коробкова Г.Ф. Орудия труда и хозяйство неолитических племен Средней Азии. – Л., 1969.
55. Культура древнебухарского оазиса III-VI вв. н.э. – Т., Фан, 1983.
56. Лунина С.Б. Города Южного Согда в VIII-XII вв. – Т., 1984.
57. Мандельштам А.М. Памятники эпохи бронзы в Южном Таджикистане. – Л., 1968.
58. Массон В.М. Первые цивилизации. – Л., 1961.
59. Массон В.М. Поселение Джейтун // МИА. – Л., 1971. -№ 180.
60. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – М.- Л., 1964.
61. Массон В.М. Страна тысячи городов. – М., Наука, 1966.
62. Мезолит СССР. Мезолит Средней Азии и Казахстана (Г.Ф.Ко-робкова). Под общ. ред. акад. Б.А. Рыбакова. 4.2. Гл. 16. – М., 1983.
63. Методические проблемы реконструкций в археологии и палеоэкологии. – Новосибирск, 1989.
64. Мокрынин В.П. По следам прошлого. – Фрунзе, Кыргызстан, 1986.
65. На среднеазиатских трассах Великого Шелкового пути. – Т., Фан, 1990.
66. Недостающее звено. – М., Мир, 1977.
67. Новые методы в археологических исследованиях. – М., 1963.
68. Окладников А.П. Утро искусства. – Л., 1967.
69. Палеолит СССР. Ранний палеолит Азиатской части СССР. Поздний палеолит Азиатской части СССР /Археология СССР. Отв. ред. П.И. Борисовский. – М., 1984.
70. Первые люди. – М., Мир, 1978.
71. Природа и древний человек. – М., Мысль, 1981.
72. Пугаченкова Г.А. Шедевры Средней Азии. – М., 1989.
73. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. Очерки искусства Средней Азии. – Т. 1989.
74. Сарианиди В.И. Древности страны Маргуша. – Ашхабад, 1990.
75. Сарианиди В.И. Тайны исчезнувшего искусства Каракумов. – М., Наука, 1967.
76. Сарианиди В.И., Кошеленко Г.А. За барханами – прошлое. – М., 1966.
77. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Узбекистана V в. до н.э. - VI в. н.э. – Самарканд-Ташкент, 2000.
78. Технология производства в эпоху палеолита. – Л., 1983.
79. Филанович М.И. Ташкент. Зарождение и развитие города и городской культуры. – Т., 1983.
80. Фрейман А.А. Описание публикации и исследование документов с горы Муг. – М., 1962.
81. Энеолит СССР. Энеолит Средней Азии. – М., 1982.

## **QODIROV ZIKRILLOXON MUSAXONOVICH**



1974 yil 10 sentabrda Namangan viloyatida tug'ilgan. 1991 yilda maktabni imtiyozli tamomlagan. 1993-1998 yillar davomida Toshkent davlat sharqshunoslik institutida tahsil olib, imtiyozli ravishda bitirgan.

1998 yilda Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Tarix fakulteti Xorijiy mamlakatlar tarixi kafedrasiga stajyor-o'qituvchi sifatida ishga qabul qilingan. 1998-2011 yillar davomida mazkur kafedrada stajyor-o'qituvchi, o'qituvchi lavozimlarida faoliyat olib bordi. 2011 yildan esa, kata o'qituvchi lavozimida faoliyat olib bormoqda.

2005 yilda O'zR Prezidenti qoshidagi "Iste'dod" jamg'armasi granti g'olobi bo'lib, 2006 yilda Moskva davlat universitetida malaka oshirib kelgan. 2007 yilda esa, mazkur jamg'armaning malaka oshirish kursini bitirib, sertifikat olgan.

"Arxeologiya asoslari", "Arab mamlakatlari tarixi", "Arab mamlakatlari tarixi va madaniyati", "Turkiya tarixi", "Turkiya madaniyati tarixi" va b. fanlardan dars berib kelmoqda.

Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan nashr qilingan "Umumiy tarix (qadimgi davr)" o'quv qo'llanmasiga hammualliflik qilgan.

Hozirgi kunda "Saljuqiylar davrida davlat boshqaruv tizimi va davlat titullari" mavzusida ilmiy izlanishlar olib bormoqda.